ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

6-son
(noyabr-dekabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT

4

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

F. Bayjonov **6** Umumta'lim maktablardagi o'spirin o'quvchilarda gender madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari

M. Karimova **9** O'qituvchining metodik tayyorgarligi tizimida tarkibiy komponentlar kombinatsiyasining o'rni

G. Qosimova **13** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatshunoslik darslari orqali mantiqiy tafakkurni rivojlantirish

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

B. Abdullayeva, R. Shakarbayeva, F. Rustamova **16** Boshlang'ich sinflarda miqdorlar tushunchasini o'rgatishda kompetensiyaviy yondashuv

E. Jabborov **20** Kompozitsiya asoslari va qonun – qoidalari

M. Muxammadiyeva **26** Kichik maktab yoshidagi bolalarda mas'uliyatlilikni shakllantirish zaruriyati va uning pedagogik imkoniyatlari

F. Qalandarov **29** Talabalarga kimyoviy ta'lim mazmunini ko'rgazmali taqdim etishning shakllari

F. Jabborov **33** Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarda kimyo fani mazmunida umumlashtiriladigan ko'nikmalar

M. Hazratqulov, M. Zaripova **36** Chet el adiblari asarlarini o'rganish orqali talabalar nutqini shakllantirish

X. Beknazarova **40** Boshlang'ich sinf ona tili darslarini differensial yondashuv asosida tashkil qilishning ilmiy-metodik jihatlari

B. Ne'matov **45** Boshlang'ich sinflarda kreativlikni takomillashtirish

M. Tayirova **49** Informatika va axborot texnologiyalari darsi jarayonini samarali shakllantirishda xalqaro veb-saytlar va ularning imkoniyatlari

Z. Avezmurotova **54** Dasturiy ta'lim asosida mars sayyorasining ro'para turish va sirtmoqsimon harakatini kuzatish uslubi

Sh. Komilova **61** Boshlang'ich sinf ona tili darslarida fanga oid kompetensiyalar

D. Zikirova **64** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik masalalar yechishga o'rgatishning nazariy asosi

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

A. Umarov **69** Oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash strategiyasi va pedagogik mexanizmlari

Sh. Abdullayeva, O. Azimova **76** Konfliktologiya ilmiy-nazariy qarashlarining rivojlanish tarixi

O. Yadgarova **81** Lingvodidaktik kompetensiya – bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari professional kompetentligining tarkibiy qismi sifatida

MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: NAZARIYA VA AMALIYOT

N. Oripova **85** Milliy qadriyatlar – bo'lajak mutaxassislarda kasbiy e'tiqodni shakllantirish manbai sifatida

Sh. Aripov **88** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash

M. Otajonova **91** Tarbiya – yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama

A. Baymuratova o‘stirish jarayoni

D. Xodiyeva **95** Xalq og‘zaki ijodida ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishning

O. Kasimova pedagogik asoslari

TA’LIMDA MENEJMENT

E. Yoziyev **100** Zamonaviy maktab direktorida kasbiy-ixtisoslik xislatlar va shaxsiy

M. Xolmurodova fazilatlarni shakllantirish muammolari

JISMONIY TARBIYA VA SPORT

R. Ochilov **104** Badiiy gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etish imkoniyatlari

E. Tursunnazarova **109** Nomutaxassis o‘qituvchilarga ingliz tilini o‘qitishda mnemonika usullaridan foydalanishning nazariy-metodik jihatlari

MAKTABGACHA TA’LIM

X. Muxammadiyeva **113** Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining intellektual, ma’naviy, estetik rivojlanishini ta’minlash

M. Rajabova **117** Maktabgacha ta’lim tizimida psixologik xizmatni takomillashtirishning ilmiy-amaliy jihatlari

Y. Yuldasheva **120** Maktabgacha tarbiya muassasasida nutqni o‘stirish nazariyasi va metodikasi

PSIXOLOGIYA

N. Sobirova **125** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari xulq-atvoridagi deviatsiyani bartaraf etishning o‘ziga xos xususiyatlari

XALQ PEDAGOGIKASI

A. Amanov **128** Qori Nizomiddin bin mullo Husaynning “Ilmi axloq” asarini

D. Berdiyeva tarbiyaviy imkoniyatlari

AXBOROT TAHDIDLARIDAN HIMOYA

M. Fayziyeva **131** Shaxsning axborot tahdidlarini baholash va xavfsizligini ta’minlash imkoniyatlari

МЕНЕДЖМЕНТ В ОБРАЗОВАНИИ

М. Матназарова **135** Система перспективного менеджмента в образовательном учреждении

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ОРИЕНТАЦИЯ

Б. Султанов **140** Профилактика предотвращения групп факторов производственной среды посредством инновационной педагогической среды в профессиональном колледжа

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISH VA O‘RGATISH MUHIM PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Mehnat insonning hayotida muhim o‘rin tutibgina qolmay, turmushni mehnatsiz, yaratuvchiliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Mehnat tarbiyasi tarbiyaning mag‘zini, mazmunini tashkil etadi. Barcha xalqlarning eng ilg‘or an'analari mehnat jarayonida paydo bo‘lib takomillashadi. Mehnat an'analarining tayanchi sifatida yoshlarni hayotga, ijtimoiy mehnat faoliyatida ishtirok etishga tayyorlash ham muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni chuqur bilim olishlari, iste'dodlarini ro‘yobga chiqarishda har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shu bilan birgalikda ularning mustaqil hayotga tayyorlash ko‘nikmalarini ham shakllantirib borish ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Aynan shuning uchun zamonaviy bilim olish bilan bir qatorda o‘quvchi-yoshlarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirib borish, oddiy qilib aytadigan bo‘lsak, yoshlarni kasb tanlashga, ularni ijodiy fikrlashga, yoki konstruksion buyumlardan materiallar yasash, oddiygina elektr chirog‘i patronini o‘rnatish, uydagi suv tarmoqlari tizimlari to‘g‘risida, shuningdek, oddiy yog‘ochga ishlov berish, uy ro‘zg‘orda kichik ta’mirlash ishlari va hokazolar kabi hayotiy kasbiy ko‘nikmalarni to‘liq yetkazib berolmayotganligimiz hyech kimga sir emas.

Biz yoshlar tarbiyasida kasbga yo‘naltirish va o‘rgatishga hayotiy ehtiyoj sifatida qarashimiz bilan o‘quvchini betartiblik va dangasalik kasalliklariga chalinishini oldini olibgina qolmay, uning kelajakdagi ma’lum bir kasb egasi bo‘lishiga zamin yaratamiz. Aks holda o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘z holiga tashlab qo‘yilganda mehnatga bo‘lgan tabiiy intilishi so‘nadi va o‘z mehnatidan qanoat hosil qilishni esa o‘yin-kulgidan qidira boshlaydi. O‘yin-kulgida rivojlangan ehtiyoj mehnatga bo‘lgan tabiiy ehtiyojni batamom siqib chiqarishi moddiy va ma’naviy qashshoqlikka olib keladi.

Kasbga yo‘naltirishning asosiy maqsadi – umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini ongli va mustaqil ravishda kasb-hunar tanlashga tayyorlash, kelgusi ta’limning yo‘nalishi va kasb-hunar egallashning usullarini aniqlashdan iborat. Shu nuqta nazardan, maktabdagi har bir pedagog kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha qanday ishlarni amalga oshirishini bilishi lozim. Chunki, kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini amalga oshirishda nafaqat maktab pedagoglari yoki amaliyotchi psixologi, balki butun maktab jamoasi mas'ul hisoblanadi. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish uzluksiz ta’lim tizimining muhim bosqichi bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim tizimida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, yoshlarga o‘quv va maxsus fanlar doirasida ishlab chiqarish sohalari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, mehnat turlari, kasbiy faoliyat borasidagi ma’lumotlar beriladi. Natijada o‘quvchilarda muayyan turdagi faoliyat yo‘nalishiga qiziqish va hayotiy ehtiyoj yuzaga keladi.

Maqsadimiz har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalashdan iborat ekan, qanday kasbni tanlashdan qat'iy nazar, o‘quvchilarning maktabdagi barcha predmetlarni to‘liq o‘zlashtirishlariga erishish muhim vazifadir. Chunki hozir har qanday kasb ham o‘quvchidan atroflicha bilimdon bo‘lishini talab qilmoqda.

Ushbu dolzarb yo‘nalishda xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimi qanday yo‘lga qo‘yilgan?

O‘quvchi yoshlarga kasb ko‘nikmalarini shakllantirib borishda ayrim rivojlangan mamlakatlarda jumladan, Finlyandiya, Avstriya, Latviya, Norvegiya, Rossiya, Turkiya kabi davlatlarda qo‘shimcha ravishda “Amaliy va kasbiy ko‘nikmalar” nomli fan o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, O‘zbekistonda “Texnologiya” fani o‘quv dasturi mazmuniga 6 soatlik “Kasb tanlashga yo‘llash” mavzulari bilan chegaralanib qolingan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlardan Janubiy Koreyada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quv rejasida “Texnologiya” fani 5-6-7-sinfdan bir o‘quv yiliga 68 soatdan, 8-9-10-sinflarda 102 soatdan ajratilgan. Rossiyada esa “Texnologiya” fani 8-9-sinflarda haftasiga 1 soatdan yiliga 36 soat, shuningdek, 10-sinfda 36 soat, 11-sinfda 34 soat dars o‘tilsa, 10-11-sinflar uchun o‘quv rejada “Kasbiy istiqbolga erishish texnologiyasi. Mehnat bozorida samaraga erishish” fani ham mavjud bo‘lib 10-sinfda 36 soat, 11-sinfda 34 soat o‘qitiladi.

Belarusda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Mehnat ta’limi” 8-9-sinflarda haftasiga 1 soatdan, 10-11-sinflarda esa haftasiga 6 soatdan umumta’lim fanlar hamda qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan o‘quvchilar uchun maxsus madaniyat va san'atga chuqurlashtirilib o‘qitiladigan maktablarning maxsus fanlaridan fakultativ soatlar asosida ham o‘qitiladi. 8-9-sinf o‘quvchilari uchun kasbga yo‘naltirish, 10-11-sinf o‘quvchilari uchun kasb-hunarga tayyorlash bosqichlari asosida amalga oshiriladi. Bunda 8-sinf o‘quvchilari haftasiga 2 soatdan, 9-sinf o‘quvchilari haftasiga 4 soatdan, 10-11-sinf o‘quvchilari uchun haftasiga 6 soatdan (2 soat nazariy, 4 soat amaliy) kasbga yo‘naltirish fakultativ soatlari hisobidan amalga oshiriladi. O‘quvchi yoshlarga mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirib borish maqsadida Rossiyada “Texnologiya” fani o‘quv dasturi mazmuniga “Konstruksion buyumlardan materiallar yasash” (22 soat), “Chizmachilik va grafika” (10 soat) kabi mavzularni o‘qitish orqali kasbiy ko‘nikmalari shakllantirilsa, Belarus maktablarida esa “Veb-saytlarni yaratish va konstruksiyalash” (6 soat), “Tadbirkorlik asoslari” (10 soat) kabi mavzular, Qozog‘istonda “Yog‘ochga qo‘lda ishlov berish” (7 soat), “Metallarga qo‘lda ishlov berish” (8 soat) kabi mavzularni o‘qitish orqali kasbga yo‘naltirish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. O‘zbekistonda esa “Texnologiya” fani 8-9-sinflar uchun haftasiga 1 soatdan o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, 10-11-sinflarda esa joriy etilmagan.

Mamlakatimizda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini 7-sinfdan boshlab kasbga yo‘naltirish ishlarini amalga oshirish, ularning dastlabki kasbiy tayyorgarligini tashkil etish, yuqori sinflarda zamonaviy kasb-hunar egallashlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish hamda ularning har tomonlama yetuk malakali mutaxassis bo‘lib yetishishlarini ta’minlash, shuningdek, yoshlar orasida o‘zini-o‘zi band qilish kabi mehnat shakllarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashning yangi tizimini joriy etish orqali o‘quvchi yoshlarni maktab davridan kasb-hunar egallashga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, hyech bo‘lmaganda bitta kasb egallab chiqishlari uchun zamin yaratadi. Bu esa o‘z navbatida oliy ta’lim muassasasiga kira olmagan bitiruvchilar bandligini ta’minlash uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday ekan, kasb tanlash ishining asl maqsadi ham o‘quvchilar psixalogik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga o‘z faoliyat doirasini to‘g‘ri aniqlashlarida, hayotdan o‘zlariga munosib o‘rin topishlarida bevosita yordam berishdan, ya'ni o‘quvchilarning o‘z kelajaklari va kasblari haqidagi orzulari bilan shu orzularning ro‘yobga chiqishi orasidagi tafovutni iloji boricha bartaraf etishdan iboratdir.

Furqat BAYJONOV,
"Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

UMUMTA'LIM MAKTABLARDAGI O'SPIRIN O'QUVCHILARDA GENDER MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida ta'lim oluvchilarining jinsga doir roli negizida kamol toptirishning bugungi rivojlangan texnologiyalar iqlimida gender o'qitishni har tomonlama manfaatli yuzaga chiqarishga ko'maklashuvchi ta'sir kuchlari o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar. O'spirin, pedagog, o'qituvchi, oila, geteroseksual, stereotip.

В этой статье исследуется влияние гендерного развития учащихся средних школ на все преимущества гендерного образования в сегодняшнем климате передовых технологий.

Ключевые слова. Подросток, педагог, учитель, семья, гетеросексуал, стереотип.

This article explores the impact of gender development in high school students on the full benefits of gender education in today's technology-driven climate.

Key words. Teenager, educator, teacher, family, heterosexual, stereotype.

O'quvchilarning gender madaniyatini hosil qilish yuzasidan o'qitish tadbirlarini o'tkazishda pedagog mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash hal qiluvchi rol o'ynamaydi. O'qituvchining tushunchalari, maktabdagi qiz va o'g'il bolalarni kamolga yetkazishda uning inson o'laroq o'rnagi, o'qituvchining hayotda egallagan o'rni, gender rolining stereotipi va gender notengligini ravshanlashtirish va tasdiqlash xohishi hal qiluvchi vazifa bajaradi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-sonli Qonunida gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati deb ta'rif berilgan.

Ushbu tadqiqotni olib borish davrida biz tushungan holatda o'qitish jarayonidagi gender yondashuvini yuzaga chiqarish maqsadida pedagogning ilmiy, uslubiy va nazariy jihatdan hozirligi vaziyatida bir qancha talablarga amal qilishni taqozo qiladi. Zotan, muallimning eng birinchi ishi – bu tik turuvchi tub yo'nalishini singdirishdir, bunda, o'smir yoshdagi qizlarning hamma yetakchi axloqiy qadriyatlari, odobi va hayotga munosabatlari birlashadi.

Umumta’lim maktablarda ta’lim oluvchilarning gender dunyoqarashini o‘stirishda o‘quv va tevarakdagi jonli-jonsiz narsalar ham ta’sirchan kuchga ega. O‘quv sinflari, kitob zallarida gender tuzilmalari, xilma-xil millatlar tutumidagi genderlik funksiyalari, tamaddunga xotin-qizlar va erkaklarning ulushi haqida batafsil axborot ulashadigan manbalar, rasmlar, xaritalar va boshqa shu kabi qo‘llanmalarga ehtiyoj seziladi.

Umumiy o‘qitishning barcha manzillaridagi mas’ullar bilim oluvchilarining gender dunyoqarashini paydo qilishda odob me’yorlari va ruhiy-estetik tomonlarini yodda tutishlari lozim. Geteroseksual mavzular, ya’ni qarama-qarshi jins vakiliga munosabat qilish bo‘yicha tushunchalar berish bilan kim shug‘ullanadi? Ushbu ishga qaysi shaxslarning ma’naviy va kasbiy huquqi mavjud? Mazkur muammolar juda ahamiyatli va kechiktirib bo‘lmas masala sanalib, mamlakatdagi maktab o‘quvchilarining gender dunyoqarashi tamoyillariga uyg‘un tushuvchi shu tipdagi pedagoglarni tizimga olib kirish darajasi haqida so‘z yuritishimizga zarurat tug‘diradi.

Bu borada pedagog-o‘qituvchi, birinchi navbatda, ruhan va ma’nan sog‘lom bo‘lishi hamda o‘zi hozir bo‘lishi kerak. Zero, pedagog-o‘qituvchining o‘quvchilarni gender tarbiyasiga nisbatan rag‘bat uyg‘ota bilishi uning ustozlik funksiyasining eng baland nuqtasida bo‘lmog‘i lozim. Demak, mazkur malakaga sohib pedagog-o‘qituvchi jami yaxshi va ko‘ngildagidek natijalarga olib boradigan ayol va erkakka xos xislatlarni muvofiqlashtirgan tarzda gender bag‘rikenglik hamda odamiylikka ega bo‘lishi darkor.

Ayni vaqtda respublikaning umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning gender dunyoqarashini shakllantirish maqsadida pedagogning nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarga o‘zlashtirgani, balki uning uzoq tarixga ega o‘qitish texnikasini bilishi, tahlil etish hamda qayta ishlash asosida tajriba hosil qilishi kerak. Boz ustiga, bu yerda “barchaga barobar gender aloqalari maketi, androgen xususiyatlarni qamragan omadli ayol va erkaklar namunalari yuzasidan” salmoqli o‘rin ajratilishi talab etiladi.

Pedagogning zukkoligini ko‘rsatadigan omil xulqi, u yolg‘iz ta’lim berish paytidagina emas, balki o‘quv jarayonidan holi qolganda ham bolalarni gender tushunchalarini kamolga yetkazish vaqtida interaktiv ko‘rinishlarini ham tashkil qila oladi. Mazkur izlanishlarimizning oldiga qo‘yilgan maqsad, vazifalariga ko‘ra, o‘zimiz belgilab olgan xaritadagi boy mahalliy hamda o‘zga millatlarning pedagogik tajribalaridan istifoda etaroq psixologiyaga bog‘liq holda chinakam etnik jamoaning milliy va madaniy o‘ziga xosliklarini, urf-odat, milliy dunyoqarashi, gender afzalliklarini e’tiborga olingan.

Yuqori sinf o‘quvchilariga genderning mohiyati, ichki va tashqi ta’sirlari, milliy belgilari borasida tushuncha, bilim berish va gender madaniyatini o‘stirish yuzasidan qo‘limizdagi maxsus kursning ta’lim rejasiga kiritilgani O‘zbekiston Respublikasida gender tengligini qo‘lga kiritish va yoshlar muhitida gender mikroiqlimni ijobiylashtirish bo‘yicha davlat siyosatini yurgizishning mumkin bo‘lgan yo‘llaridan biri deyish mumkin.

Pedagog-o‘qituvchilar orasida yoxud ta’lim tizimi vakillari ichida olib borilgan anketa so‘rovlari natijasidan ma’lum bo‘ldiki, gender masalasi pedagoglarga yangi va anchagina mavhum yoki notanish mavzudir. Tadqiqot ishlari jarayonida umumta’lim maktablarida o‘qituvchilarning aksariyati “gender” haqida ma’lumotga to‘liq ega emasligi aniqlandi. Bundan tashqari, o‘qituvchilar ham gender qoliplariga bilib-bilmay bo‘ysunadi.

Shunday qilib, “Oilada sog‘lom turmush tarzi” predmetidan o‘qitadigan pedagoglar (ko‘pincha, gumanitar, ya’ni tarix, ona tili, adabiyot, tabiatshunoslik fani pedagog-o‘qituvchilari) bilan o‘tkaziladigan bahs-munozaralar vaqtida bir qancha o‘qituvchilar o‘z fanlari va gender o‘qitish orasidagi aloqadorlikni anglab yetmayotganlari ma’lum bo‘ldi.

Bugungi kunda maktab gender bilan belgilanadigan o‘ziga xos ijtimoiy funksiyalarni yetarli darajada tushungan holda kelgusida ayol va erkaklar shaxsiyatini barkamollashtirishga ulush qo‘shadimi yoki yo‘q singari so‘rovimizga qoniqarli javob berish qiyin.

O‘g‘il va qiz bolalarni tarbiyasida tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy qilishga doir ishlarda ancha chigalliklar, qiyinchiliklarni boshdan o‘tkazishayotgani pedagog-o‘qituvchilar o‘rtasida olib borilgan anketa ma’lumotlarini tahlil qilishda ma’lum bo‘ldi. Ular o‘z obyektlarining gender o‘ziga xosliklarini, ularning gender barobarligi borasidagi kerakli ko‘rsatmalarni o‘zlashtirish darajasini yetarli ko‘zda tutmaydilar.

Darhaqiqat, pedagog-o‘qituvchining gender tengsizligini bartaraf qilish yuzasidan ancha samarali va foydali ishining ko‘rsatkichi o‘quvchilarning gender roli faoliyati vaqtida faol qatnashishi, erkak va xotin-qizlar vakillari orasidagi o‘rtoqlikning o‘rnakli ko‘rgazmasi va namoyishining xilma-xil vaziyatlarida qatnashishidir.

Ko‘rib o‘tilgan masalani tahlil qilish bizda yana bir bor shunga ishonch paydo qildiki, bu yerda maktab bolalariga gender tarbiyasini tashkil etishning samarador uslubiy tamoyillari ancha muvaffaqiyatli o‘rin tutadi, bu ularning gender imkoniyatini, o‘z-o‘zini tushunib yetish fonida gender potensialini aniqlashga ko‘maklashadi.

Tafakkur bilan nutqning eng yaqin o‘zaro bog‘liqligidir, deb ko‘rsatib o‘tadi. Mual-lifning fikricha, u yoki bu fikr qanchalik o‘ylangan bo‘lsa, u so‘zlar orqali, og‘zaki va yozma nutqda shunchalik aniq va mantiqiy ifodalanadi. Aksincha, qandaydir bir fikr-ning so‘zlar yordamida shakllanishi qanchalik takomillashtirilgan bo‘lsa, shu fikrning o‘zi shunchalik aniqlashadi va anglanilib boriladi. Agar biz o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishni xohlasak unda ular nutqini o‘stirishimiz, ularning o‘z nuqtayi nazarini himoya qilishga o‘rgatishimiz, hatto, asoslab bera olishlikka, boshqacha qarashlarni eshita bilishga, unda o‘zining “o‘rinli hissasini qo‘shishga, o‘rinli tanqid qila bilishga, munozaralarga o‘rgatishimiz kerak”.

Ta’kidlash kerakki, gender o‘qitish muayyan uslubiy ko‘rsatma bo‘lib, hududning ta’lim muassasalari sharoitida ta’lim va tarbiya qatnashchilarining gender ijtimoiylashuvi bilan bog‘liq holatni, xilma-xil jinsdagi o‘quvchilarning manfaatli sherikligi va o‘zaro ta’sirini yaxshi tomonga o‘zgartirish maqsad qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-4494849

2. Панкова Л.М. Человек и семья (Философский анализ формирования культуры брачно-семейных отношений): дис. ... д-ра филос.наук: 09.00.13/ Панкова Людмила Михайловна. – СПб, 2003. С. 404.

3. Usmanova E.Z. O‘quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday qilib rivojlantirish mumkin. –T.: O‘zbekiston, 2000. 4-b.

Mavluda KARIMOVA,
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

O‘QITUVCHINING METODIK TAYYORGARLIGI TIZIMIDA TARKIBIY KOMPONENTLAR KOMBINATSIYASINING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada, metodik ta’lim – pedagogik ta’limning umumiy tizimining elementlaridan biri ekanligi haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga, pedagogik ta’lim tizimi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini uzluksiz tarzda ta’minlashi kerakligi to‘g‘risida mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Metodika, komponent, tarkib, tayyorgarlik, tizim, uzluksiz texnologiya.

В статье утверждается, что методическое образование является одним из элементов общей системы педагогического образования. В то же время система педагогического образования должна обеспечить бесперебойную профессиональную подготовку специалистов.

Ключевые слова. Методы, компоненты, содержание, структура, системы, непрерывные технология.

The article argues that methodical education is one of the elements of the general system of pedagogical education. At the same time, the pedagogical education system should ensure uninterrupted professional training of specialists.

Key words. Methods, components, content, structure, systems, continuous technologies.

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini isloh qilish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash, ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini yangi bosqichga olib chiqish, jumladan, fizika fanini o‘qitish jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim samaradorligini ta’minlash imkoniyatlari kengaytirilgan bo‘lsa-da, oliy ta’lim tizimi oldida turgan ustuvor yo‘nalishlarda “pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish” vazifasi belgilangan bo‘lib, shu asosda o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi, bu jarayonni tashkil etish texnologiyasi, metodik ta’minoti, faoliyatga oid kompetensiyalar tizimi va mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika fanlari va amaliyoti oldida ta’limning zamonaviy paradigmalari, o‘qituvchining kompetentligi mohiyatini boshqarishning mazmuni, tarkibi va tartibini shakllantirish turadi.

Ushbu muammo doirasida quyidagilarni aniqlashtirish kerak:

– jamiyatning ehtiyojlari va o‘rnatilgan pedagogik ta’lim tizimining an’analari o‘rtasida;

– ta’lim muassasasi faoliyati sharoitlarini o‘zgarishi bilan pedagoglarni kasbiy rivojlantirishni boshqaruv metodlari o‘rtasidagi;

– ta’limni texnologiyalashtirish talabi bilan pedagogik nazariyada ushbu hodisani

tadqiq etish talabi o‘rtasidagi nomutanosibliklar.

O‘qituvchining metodik tayyorgarligi tizimi – funksional va tarkibiy qismlarning kombinatsiyasini o‘z ichiga olgan pedagogik tizim bo‘lib, o‘quv jarayoniga mos keladigan metodik tayyorgarligini qamrab oladi. Talabaning o‘quv-metodik tizimining funksional tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: maqsadni qo‘yish, motivatsiya, nazorat-korreksiyalash va shu kabilar. Tizimning tarkibiy komponentlariga quyidagilar: maqsad, vosita, texnologiya va ta’lim natijalari kiradi.

O‘qituvchilarni professional-metodik tayyorgarligining bir qator jihatlarini qarab chiqamiz.

O‘qituvchilarni tayyorlashdagi asosiy muammolar orasida quyidagilarni:

– bo‘lg‘usi o‘qituvchilar – talabalarni tayyorgarligini ilmiy-nazariy darajasini oshirib borish zarurati.

– maxsus predmetlarni o‘zlashtirish va ularni o‘qitish metodikasida rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillarini amalga oshirish, talabalarni tayyorlash muammolariga diqqatni qaratishni ajratib ko‘rsatish mumkin.

O‘quv jarayonida rivojlantiruvchi ta’lim tamoyilini amalga oshirish yuzasidan keng tajriba to‘plangan, ammo pedagogika, psixologiya va o‘qitish metodikalarida ularni amalga oshirish metodikasiga yetarli darajada e’tibor qaratilmaydi. Ba’zida rivojlantiruvchi ta’limning mohiyati faqat fikrlashni rivojlantirishga qaratiladi xolos. Ma’ruza, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarda rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarini qarash, uni aniq misollar yordamida ochib berish lozim.

O‘quv predmeti mazmuni imkoniyatlaridan foydalanib, imkoniyatidan foydalanib, shaxs xususiyatlarining qanday fazilatlarini qanday rivojlanishi kerakligini ko‘rsatish muhimdir:

– talabalarni metod va o‘quv mashg‘ulotlarini yangi shakllarini tashkil etishga, ijodiy izlanishlarni amalga oshirishga tayyorlash;

– talabalarda o‘quv va ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

– yoshlarning ekologik tarbiyalash vazifalarini yechishda o‘quv predmetlari imkoniyatlarini aniqlash va maksimal darajada ulardan foydalanish;

– talabalarda pedagogik mehnat madaniyati va umumiy madaniyatni tarbiyalash.

So‘nggi yillarda o‘qituvchilarning ijodkorligi, turli tipdagi maktablarni tashkil etish, variativ o‘quv rejalari va darsliklarining paydo bo‘lishiga qaramay, o‘qituvchining kasbiy faoliyatida sezilarli kamchiliklar mavjud.

Ushbu holat oliy ta’lim muassasasida metodik ishlarning yetarli darajada olib borilmaganligidan darak beradi. Natijada, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, zamonaviy maktab qo‘yayotgan talablarga javob bera olmaydi.

Talabalar kontingentining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, talabalarning bir qismi xavfli guruhga tegishli bo‘lib, ular bilan doimiy ishlash lozim bo‘ladi, bu esa shu darajadagi pedagogik mahoratni talab qiladi. Ushbu holatlar o‘qituvchilar oldiga murakkab vazifalarni qo‘yadi, ularni yechishda o‘qituvchilarning kuchi zaiflik qilib qolishi mumkin.

Zamonaviy maktablarda o‘qituvchining ish faoliyati bir qator sezilarli qarama-qarshiliklarga duch kelishi mumkin:

– professional topshiriqlar dinamikasi, o‘qituvchilar kasbiga qo‘yiladigan talab bilan o‘qituvchining ichki tayyorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik;

– o‘qituvchining tabiiy shaxsiy ehtiyojlari bilan maktabdagi pedagogik ish sharoitida

uning bugungi yutuqlari va imkoniyatlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar.

Shunday qilib, bugungi kunda pedagogik jarayonning samaradorligi shaxsan-barqaror, ichki yaxlit va professional tajriba faoliyati bilan belgilanadi.

Hozirgi kunda o‘qituvchi ish faoliyati tobora ijodiylashib bormoqda. Ammo o‘qituvchida ijodiy faoliyat komponentlari shakllangan bo‘lsagina ijodiy ishni amalga oshirishi mumkin.

Kelgusi o‘qituvchining modelida, innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish va tadqiq qilishning qobiliyati va psixologik tayyorligi, ya’ni innovatsion faoliyatni amalga oshirish qobiliyati asosiy o‘rinni egallashi kerak. Shuning uchun bugungi kunda o‘qituvchilarni maktablarda turli: gumanitar, tabiiy-ilmiy, texnologik profillarda faoliyat yuritishga tayyorlash lozim. Masalan, tabiiy ilmiy profillarda maxsus tavsifga ega: fizik-matematik, kimyoviy-biologik, biologik-geografik, psixologik-biologik kabi profillar ajratib ko‘rsatiladi. Faqatgina shunday chuqur o‘zgarishlargina o‘quvchilarning manfaatlari tuzilmasidagi yuqori reytinglarga qaytarishi mumkin.

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy maktablarning dasturiy-metodik ta’minoti yetarli darajada emas. Muqobil darslik va o‘quv-qo‘llanmalar yetishmasligi, shuningdek, maktabda tabaqalashtirilgan mashg‘ulotlarni amalga oshirish uchun o‘qituvchilarning tajribasi yetarli emas. Albatta, maqsad, vazifa va shunga ko‘ra, asosiy ta’lim va professional (maxsus) ta’lim mazmuni ajratilishi kerak. Bunday bo‘linish kelajakda ham saqlanishi lozim.

Ta’lim tarkibining shakllanishi mutaxassislarning professional bashorat modellarini qurishni talab qiladi.

Mutaxassisning professional modeli quyidagi xususiyatlarni o‘z ichiga olishi kerak:

– bilimlarni tashkil etishning maxsus turi deb tushuniladigan intellektual kompetentlik – tarkibiy tuzilish, kategoriallik va umumlashtirish, vaziyatni tahlil qilishning moslashuvchanligi va samaradorligi;

– intellektual tashabbus – kognitiv va motivatsion intilishlarning organik birligi bo‘lgan shaxsning xususiyati;

– vaziyatni tahlil qilish, muammoni hal qilish, rejalashtirish va o‘z harakatlarining oqibatlarini bashoratlash va rejalashtirish;

– o‘z-o‘zini tartibga solish – o‘z intellektual faoliyatini, o‘zidagi o‘zgarishlarni erkin boshqarish, madaniy o‘zini-o‘zi tuzatish mexanizmlarini tushunish va ishlatish qobiliyatini anglatadi.

Hozirgi vaqtda predmetli ta’lim o‘z inqirozini boshidan kechirmoqda. Ammo, bilimlarning yangi sohalari, yangi texnologiyalar va yangi kasblar paydo bo‘lmoqdaki, ular o‘qituvchidan yuqori kompetentlikni talab etadi.

Zamonaviy biologiya o‘qituvchisining professional faoliyati quyidagilarni: axborotlardan tashkil topishi: axborotlarni to‘plash, tanlash, tizimlashtirish, tahlil qilish, tarkiblashtirish, umumlashtirish, baholash, transformatsiyalash va shu kabilar; tadqiqotchilik – muammoni topish dolzarblashtirish, maqsad va vazifa, obyekt, predmetlarni shakllantirish, tadqiqot metodlarini aniqlab olish, kuzatuv, tajriba o‘tkazish, xulosalarni asoslash va shu kabilar; intellektual – tizimlashtirish, umumlashtirish, taqqoslash, abstraksiya, tushunish, refleksiya va shu kabilar; kreativlik – tiplarga urg‘u berish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish va shu kabilar; tashxislash – tashxis qo‘ya olish qobiliyati, olingan natijalarni qayta ishlash; bashoratlash; kommunikativlik; aksiologik; boshqarish; loyihalashtirish va shu kabilar.

Biologiya o‘qituvchisini professionalligini shakllantirish trayektoriyasini

loyihalashtirish texnologiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Kelishilganlik tamoyili – ta’lim standartining barcha bloklari va ularning tarkibi professional shakllanishning trayektoriyasida aks ettirilishi kerakligini anglatadi.

To‘liqlilik tamoyili – kasbiy faoliyat mazmunini, maktab ta’limi mazmuni va metodlariga mos bo‘lishi lozimligini anglatadi.

Maqsadli birlik tamoyili – o‘qituvchini shakllantirish bo‘yicha pedagogik tizimning barcha komponentlarini o‘qituvchini shakllantirishga yo‘naltirish zarurligini tasdiqlaydi.

Bilimlarni tizimliligi tamoyili – professional yo‘naltirish predmetlarning mazmundorligi bilan moslashtiriladi.

Qulaylilik tamoyili – o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari uchun qulaylik yaratilishi lozim.

Nazariy va amaliyotning birligi tamoyili – nazariya va amaliy yo‘naltirish va kasb-hunar ta’limi muvozanatlashtirish mezonidir.

Umuman olganda, talabalarning o‘quv-kasbiy faoliyati ta’lim tizimida integratsiyalashtiruvchi omil hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘quv jarayoni mantig‘i quyidagi shaklda – amaliyotdan, subyektiv tajribadan nazariy umumlashtirishgacha ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bunda, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘rtasidagi nisbat sezilarli darajada o‘zgaradi, kasbiy tajribani o‘zlashtirish elementli-tizimli yondashuv ko‘rinishida amalga oshadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, o‘qituvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini ta’minlovchi shaxs bo‘lib, uning ilmiy va ma’naviy saviyasi ham hozirgi zamon talablari darajasida bo‘lishi, jahon andozalariga mos ravishda shakllanishi va doimiy rivojlanib borishi, o‘qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishi mamlakatimiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беспалько В.П., Татур Ю.Г. Системно – методическое обеспечение учебно-воспитательного процесса подготовки специалистов. – М.: Высшая школа, 1989. – С.192.

2. Karimova M.H. Biologiya fani o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirishning o‘ziga xos aspektlari. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. №5. 2020.

3. Краевский В.В., Лернер И.Я. Теоретические основы содержания общего среднего образования. –М.: Педагогика, 1983, – С.352.

Gavhar QOSIMOVA,
Qashqadaryo viloyati XTXQTMOHM “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim’’ kafedrasi o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TABIATSHUNOSLIK DARSLARI ORQALI MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinflarda tabiatshunoslik fanlarini o‘qitishda ularning mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda tabiatshunoslik darslaridagi ta’lim va tarbiya jarayonida asosiy e’tibor o‘quvchilar tomonidan dasturlarga mo‘ljallangan bilim, o‘quv va ko‘nikmalarni egallab olishgagina emas, balki ularda idrok qilish qobiliyati, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga ham qaratilmog‘i lozimligi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Ilmiy, olam, fan, test, tushuncha, mantiqiy, tabiat, tabiiy, shaxs, tabiatshunoslik, tafakkur, o‘quvchi.

В статье делается акцент на развитии у них логического мышления при обучении естественным наукам в начальных классах, основной упор в процессе обучения и воспитания на уроках естествознания делается не только на приобретение учащимися знаний, обучения и навыков умения При этом также следует ориентироваться на развитие логического мышления.

Ключевые слова. Наука, вселенная, наука, тест, концепция, логика, природа, естественность, личность, естествознание, мышление, читатель.

The article focuses on the development of their logical thinking when teaching natural sciences in primary grades, the main emphasis in the process of teaching and upbringing in natural science lessons is made not only on the acquisition of knowledge, learning and skills by students. In this case, one should also focus on the development of logical thinking.

Key words. Science, universe, science, test, concept, logic, nature, naturalness, personality, natural science, thinking, reader.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda tabiatshunoslik darslaridagi ta’lim va tarbiya jarayonida asosiy e’tibor o‘quvchilar tomonidan dasturlarga mo‘ljallangan bilim, o‘quv va ko‘nikmalarni egallab olishgagina emas, balki ularda idrok qilish qobiliyati, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga ham qaratilmog‘i lozim. O‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish bo‘yicha ish dasturida belgilangan doirada, dastur materialida, maktabning barcha ta’lim-tarbiya ishlari bilan bog‘liq holda olib borilishi kerak.

O‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga rahbarlik qilish ularni tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirishga va shu kabi operatsiyalarni o‘quv bilan bajarishga o‘rgatish, shuningdek, ularga oddiy tushunchalarni o‘zlashtirish, o‘z mulohazalarini bayon qilish va xulosalar chiqarishlariga yordam berish demakdir. Shunga intilish kerakki, ularning nutqi aniq, izchil va isbotli bo‘lsin, tabiatshunoslik atamalaridan foydalanishga asoslansin. O‘qitish jarayoni, agar u

to‘g‘ri tashkil etilgan bo‘lsa, shu paytning o‘zida o‘quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilmog‘i zarur.

Mantiqiy uslublar (taqqoslash, tahlil qilish va sintezlash, mavhumlashtirish, aniqlashtirish, umumlashtirish) dan tabiatshunoslikni o‘qitishda foydalanish, tushunchalar, mulohazalar, muhokamalar ustida ishlash — bularning hammasi pedagogik jarayonni boyitadi, uni yana ham mazmunliroq qiladi, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini kuchaytiradi. Tabiatshunoslik darslarida o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish ustida olib boriladigan ishni maktab ta’limining birinchi qadamlaridagi (1-2-sinflarda) atrofimizdagi olam bilan tanishtirish bo‘yicha darslarda boshlang‘ich tabiatshunoslik tushunchalarini shakllantirish bilan boshlamoq va o‘quvchilarning yosh xususiyatiga shuningdek, o‘qitishning mazmuni hamda metodlariga qarab, asta-sekin murakkablashtirib borishi bilan butun ta’lim davomida olib bormoq kerak. Tabiatshunoslik darslarining har bir mavzusi o‘ziga xosdir, lekin o‘qitishda qo‘llaniladigan mantiqiy fikrlash uslublari qolaveradi, faqat ularning uyg‘unlashishlari almashinadi, qo‘llanish shakllari har xillashadi, mazmuni murakkablashadi yoki soddalashadi.

Tabiatshunoslik darslari o‘quvchilarning aqliy jihatdan rivojlanishi uchun, jumladan, tafakkurning rivojlanishi uchun boy material hisoblanadi. Til va tafakkur ajralmasdir, tilsiz inson tafakkurining, tafakkursiz tilning bo‘lishi mumkin emas. O‘quvchilar tabiat jismlarining nomlarini atab, ular to‘g‘risida o‘z flkr-mulohazalarini izhor qilib, shu narsalarni idrok qiladilar va ularga o‘z munosabatlarini ko‘rsatadilar. O‘quvchilarning nutqi ustida ish olib borish bilan bir vaqtda o‘qituvchi ularning tafakkuri ustida ham ish olib boradi, o‘quvchilar fikrining aniqligi, tushunarliligi izchilligi va asoslanganligini tarbiyalaydi. Tabiatshunoslik darslarida ma’lum miqdordagi tabiatshunoslik bilimlarini o‘zlashtirish jarayonida muayyan fikrlash faoliyati amalga oshadi va mantiqda tafakkur rivoj topadi. Aqliy ishlar tahlil qilish va sintezlash tufayli o‘quvchida uning ongidagiga asoslanib, yangi fikrlar, tabiatshunoslik tasvirlari vujudga keladi. Bu mazmun jihatidan bir-biriga zid bo‘lgan fikrlashishlari ajralma: birlikda bo‘ladi.

Mantiqiy topshiriqlar o‘quvchilar tomonidan muayyan savolga javob berishni talab qiluvchi vazifa sifatida qabul qilinadi va anglata olinadi. Tafakkur uchun masalani anglab olish — bu go‘yo faol fikrlash faoliyatining boshlanishiga belgidir. O‘quvchida savolning tug‘ilgani, uning tafakkur yuritayotganidir.

Masalani anglab olish vazifani hal qilishning birinchi bosqichidir. To‘g‘ri qo‘yilgan masala — javobning yarmi, deb bekorga aytishmagan. Masalan, ushbu savol: Nima uchun tundrada katta daraxtlar o‘smaydi? Bu savol to‘g‘ri va aniqdir.

Ikkinchi bosqichda masala shartini, uni yechish uchun nima ma’lumligini aniqlash boradi. Ijodiy fikrlashni ichki qonuniyatlarini o‘rganish uchun o‘quvchilarga masala taklif qilish, ularni muammoli vaziyatga kiritish lozim. Mantiqiy topshiriqlardan namunalar keltiramiz.

Yer shari Quyosh atrofida bir tomonga og‘gan holatda aylanadi. Qaysi holat qish fasliga to‘g‘ri keladi?

1-holat. Quyosh nurlari Yer ekvatorining pastki qismini ko‘proq yoritadi. Quyosh nurlari Yer sharining ekvatoridan yuqori qismiga kam tushadi.

2-holat. Quyosh nurlari ekvatorning yuqori va past qismini birday yoritadi.

3-holat. Quyosh nurlari ekvatorning yuqori qismini ko‘proq yoritadi.

Malika xonadonida ipak qurtini parvarishlamoqchi bo‘ldi va tuxumlarini olib keldi. U bir necha kun kutdi, lekin ipak qurti tuxumlaridan qurtlar chiqmadi. Ipak qurti tuxumlaridan chiqishi uchun Malika quyidagilarning qaysilariga amal qilishi lozim deb

o‘ylaysiz?

a) Qurt boqilayotgan xona harorati +35 C dan +40C gacha bo‘lishi kerak. Xona derazalariga yaqin olib borishi, havo almashtirilib turilishi lozim.

b) Qurt boqilayotgan xona harorati muntazam +28 C dan +30 C gacha bo‘lishi kerak. Xona namligi bir me’yorda saqlanishi, havosi almashtirilib turilishi lozim.

c) Xona namligi bir me’yorda saqlanishi, deraza doim ochiq turishi lozim. Xona haroratining ahamiyati yo‘q.

d) Qurt boqilayotgan xona harorati +35 C dan +40C gacha bo‘lishi kerak.

e) Havo almashtirilib turilishi lozim. Xona namligi yuqori bo‘lishi lozim.

1. Dehqonlar tomorqasida kartoshka hosilini ko‘proq yetishtirish uchun kartoshka o‘simligi bilan birga tamaki o‘simligini ham ekishlari kerak. Chunki tamaki o‘simligi kartoshka uchun zararkunanda hasharotlarni katta ko‘pchiligini o‘ziga jalb qilib yo‘q qiladi. Ammo shunisi ham borki, tamaki o‘simligi shira qurtlarini ham chaqiradi va bir qancha shira qurtlari kartoshka o‘simligi uchun zarar keltiradi. Shunga qaramay, bu ma’lumot yuqoridagi tadbirni qilishga qarshi bo‘la olmaydi. Chunki buning sababi_____

Quyidagilardan qaysi biri gapning mantig‘ini to‘ldira oladi?

A. Tamaki o‘simligini parvarish qilish oson.

B. Ba’zi shira qurtlari tamaki o‘simligiga keladi lekin ularni zararlamaydi.

C. Tamaki o‘simligiga jalb qilinadigan shira qurtlari kartoshkaga zarar keltirmaydi.

D. Zararkunanda hashoratlar boshqa zararli mavjudotlarga nisbatan kartoshkaga kam zarar yetkazadi.

E. Ko‘pchilik zararli shira qurtlari kartoshkalardan ko‘ra, boshqa sabzavotlarga ko‘proq zarar yetkazadi.

2. Qaysi hashoratlar zararkunanda hisoblanadi?

a) Chigirtka, chumolilar, xonqizi qo‘ng‘izi.

b) Kolorado qo‘ng‘izi, karamkapalagi, chigirtka.

c) Chumolilar, xonqizi qo‘ng‘izi, karamkapalagi.

Bu mantiqiy topshiriqlarning barchasi o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Tabiatshunoslik o‘zining mazmuni va metodlari bilan o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalashda katta imkoniyatlarga ega.

Shunday qilib, tabiatshunoslik vositasida amalga oshiriladigan kompleks tarbiya faqat darslardagina emas, balki o‘quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatlarida (ekskursiya, sinfdan tashqari mashg‘ulot, maktab oldi maydonidagi ishlar va boshqalarda) ham muntazamlilik hamda rejalilikni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Новолодская Е.Г. “Методика преподавания предмета “Окружаюший мир” в началной школе Учебно-методическое пособие 2016 г.

2. Суровикина С.А. Теоретико-методологические основы развития естественнонаучного мышления учашихся в протсессе обучения физике // диссертатсия ... доктора педагогических наук: 13.00.02, –Челябинск, 2006.

3. Шодиев Р.Д., Мухаммадиева М.М. Изучение окружаюшего мира учашимися началных классов на основе гуманистической контсептсии развития личности. //Актуалные проблемы гуманитарных и естественных наук. №2-3.2015.

TA’LIM VA TARBIYA METODIKASI

Barno ABDULLAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor
Ra’no SHAKARBAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti magistranti
Feruza RUSTAMOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti magistranti

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MIQDORLAR TUSHUNCHASINI O‘RGATISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Annotatsiya

Umumiy o‘rta ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish uchun, jumladan, miqdorlarni o‘rgatishda uzluksiz matematik ta’lim tizimi jarayonida pedagogik tajribani o‘rganish, zamonaviy talablar asosida miqdorlarni o‘rgatishda kompetensiyaviy yondashuv zarurdir. Maqolada boshlang‘ich sinflarda miqdorlar tushunchasini o‘rgatishda kompetensiyaviy yondashuv haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, tarbiya, boshlang‘ich ta’lim, matematika, miqdorlar, kompetensiya, natija, kompetentlik.

Для повышения качества и эффективности процесса общего среднего образования, включающего изучение педагогического опыта в процессе системы непрерывного математического образования в обучении величинам, необходим компетентностный подход в обучении величинам на основе современных требований. В статье речь пойдет о компетентностном подходе к преподаванию понятия величин в начальных классах.

Ключевые слова. Образование, воспитание, начальное образование, математика, величины, компетенция, результат, компетентность.

To improve the quality and efficiency of the process of general secondary education, including the study of pedagogical experience in the process of continuous mathematical education in teaching quantities, a competence-based approach to teaching quantities based on modern requirements is necessary. The article will focus on the competence-based approach to teaching the concept of quantities in primary schools.

Key words. Education, upbringing, primary education, mathematics, quantities, compensation, the result, competence.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Fanda texnika va ilg’or texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda yosh avlodga ta’lim va tarbiya

berishning maqsad, mazmun, uslub va vositalarini ilmiy jihatdan ta’minlash dolzarb muammolarning biri hisoblangan.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar Respublikaning ravnaqini ta’minlaydigan istiqboldagi rejalarini amalga oshirishda muhim o‘rin topadi. 2017-yilga kelib davlatimizning barcha sohalarida yangi davr boshlandi, shu qatori ta’lim sohasida ham yangi islohotlar kiritildi. Bugungi kunda ta’lim mazmunini yangilash, takomillashtirish o‘qitish samaradorligini va o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ilg‘or pedagogik tajribalarni keng ommalashtirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda. 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qaror, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori bilan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan umumta’lim fanlari bo‘yicha “Davlat ta’lim standarti” tasdiqlandi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’limi standarti kuchga kirib, ta’lim muassasalarida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘qituvchi – o‘quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, xatto, xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi.

Yosh avlodning har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma’naviyatli, barkamol, vatanparvar shaxslar bo‘lib yetishishini ta’minlash yo‘lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining eng asosiy bo‘g‘ini sifatida pedagogik xodimlarning yuqori ilmiy, metodik bilimlarga hamda amaliy ishlash bo‘yicha yuksak mahoratga ega bo‘lishlarini ta’minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi.

Hozirda o‘qituvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarlikka, pedagogik mahoratga, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga, mafkura borasida chuqur bilimlarga ega bo‘lish, ta’lim-tarbiya ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan samarali foydalanishi davr talabi sanaladi.

Uzluksiz ta’lim tizmini shakllantirish, shuningdek, ta’lim mazmunini yangilash ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning bosh g‘oyasidir. O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘ymoqda. Chunonchi, bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yosh avlodni bilimli komil inson qilib tarbiyalash to‘g‘risida, kelajak yosh avlod qo‘lida ekanligini, ular bir necha jihatga ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi.

Boshlang‘ich sinflarning dasturida matematik material bilan uzviy bog‘liqlikda turli miqdorlarni ham o‘rganish nazarda tutilgan. Miqdorlarsiz tabiatni, borliq olamni o‘rganish mumkin emas. Miqdorlarda turli obyektlarning, borliq dunyoning xossalari aks etgan.

Miqdor – bu narsa yoki hodisaning biror xossasi bo‘lib, uni boshqa narsa yoki hodisaning shu xossasi bilan taqqoslash va ulardan qaysi biri shu xossaga ko‘proq darajada ega ekanligini aniqlash mumkin.

Miqdor tushunchasi murakkab tushuncha bo‘lib, o‘quvchilarning maktabda butun o‘qish davrida shakllantiriladi.

Boshlang‘ich ta’limning vazifasi shundaki, u o‘quvchilarda miqdorlarni o‘rganishning

intuitiv tushunarli usulini hosil qilishdir, buning natijasida bolalarda miqdorlar narsalar va hodisalarni o‘lchash bilan bog‘liq bo‘lgan xossalari ekanligi haqida tasavvurlar hosil bo‘lishi kerak.

Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarga uzunlik, sig‘im, massa, yuza, vaqt haqida dastlabki tasavvurlar beriladi.

Har bir miqdorni o‘rganish uslubiyotining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lsada, biroq narsa yoki hodisaning xossalarini o‘rganishga umumiy yondashish miqdorlarni o‘rganishning umumiy uslubiyoti haqida chiniqish imkonini beradi. Bu uslubiyot asosida amaliy usul yotadi. Narsalar bilan ishlash asosida aniq hissiy qabul qilish qobiliyatiga tayanib, kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarini miqdorlar uchun umumiy bo‘lgan xossalar bilan tanishtirish lozim.

Turli miqdorlar haqida tasavvurlarni shakllantirish maqsadida turli amaliy mashq-lar va misollar bajariladi, namoyish etiluvchi va alohida ko‘nikmali vositalardan foydalaniladi. Bu ish barcha o‘quvchilar ishtirokida, alohida-alohida har bir o‘quvchi bilan va guruh usulida amalga oshiriladi. O‘quvchilar “Miqdor” tushunchasining asosiy belgilarini turli xil amaliy mashg‘ulotlar davomida va turli xil muammoli sharoitlar tufayli o‘zlashtirib olinadi.

Miqdorlar va ularning o‘lchov birliklari bilan tanishuv nafaqat amaliy ahamiyatga mashq, ayni vaqtda u o‘quvchilarda hayotiy muammolarni ko‘ra bilish imkoniyatini shakllantirish va shu bilan ularning bilishga qiziqish ishtiyoqini rivojlantirishga imkon beradi.

Umumiy o‘rta ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish uchun, jumladan, miqdorlarni o‘rgatishda uzluksiz matematik ta’lim tizimi jarayonida pedagogik tajribani o‘rganish, zamonaviy talablar asosida miqdorlarni o‘rgatishda kompetensiyaviy yondashuv zarurdir.

Kompetensiya — mavjud bilim, ko‘nikma, malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llayolish qobiliyati.

Kompetensiya – fan bo‘yicha egallagan nazariy bilim ko‘nikmalarni, amaliy ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo‘llay olishdir. Inson o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh kadr bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim – o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’limdir. Shu sababli, informatika fanidan DTSlarini yangilash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish – informatika faniga oid kompetentlilikni kiritish zaruriyati tug‘ilgan.

Kompetentlilik – (lotincha, competens – layoqatli, qobiliyati bor). Ko‘zlangan natijalarga erishish uchun bilim, ko‘nikma va malakalarni notanish vaziyatda qo‘llay olish qobiliyatini namoyish eta olishni bildiradi. Kompetentlilik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi. Ta’limiy kompetensiyalar ikki guruhdan iborat: tayanch (umumiy) va maxsus (fanga oid). Inson o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi,

duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim. Lekin shu bilan birga, ta’limda har bir o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarda, shu fanning o‘ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli fanga oid kompetensiyalar ham shakllantirilishi belgilandi. Informatika va axborot texnologiyalari fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarning elementlari (A1(A1+); A2(A2+)); B1(+B1) bosqichma-bosqich shakllantiriladi.

TK-tayanch kompetensiyasi

TK1-kommunikativ kompetensiyasi

TK2-axborot bilan ishlash kompetensiyasi

TK3-o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi

TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

TK5-milliy va umummadaniy kompetensiyasi

TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda miqdorlar tushunchasini o‘rgatishda aynan yuqoridagi kompetensiyalarning ahamiyatini hisobga olish o‘rinlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-qaror, 2017-yil 15-mart.

2. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017-yil.

3. Jumayev E.E. Boshlang‘ich matematika nazariyasi va metodikasi. –T.: Turon-Iqbol, 2012-yil.

4. Jumayev M.E. Bolalarda matematika tushunchalarni shakllantirish nazariyasi. –T.: Ilm-Ziyo, 2005.

5. Bikbayeva N. U. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1996-yil.

6. Jumayev M.E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) –T.: Ilm Ziyo, 2005-yil.

7. Toshmurodov B. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishni takomillashtirish –T., O‘qituvchi, 2000-yil.

Erkin JABBOROV,
Qarshi davlat universiteti dotsenti

KOMPOZITSIYA ASOSLARI VA QONUN – QOIDALARI

Annotatsiya

Maqolada kompozitsiya asoslari va qonun - qoidalari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, kompozitsiya mazmunini ochib berish davomida bir qancha kompleks vazifalar bajarilishi va amalga oshirilishi haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. San’at, realizm, rassom, tasvir, ko‘rgazma, fan, ritm, kompozitsiya, kontrast, tus, qonun.

В статье рассматриваются основы композиции и правила композиции. Он также описывает, как выполняется и решается ряд сложных задач во время раскрытия содержания композиции.

Ключевые слова. Искусство, реализм, художник, изображение, выставка, наука, ритм, композиция, контраст, оттенок, закон.

The article discusses the basics of composition and the rules of composition. It also describes how a number of complex tasks are performed and accomplished during the disclosure of the content of the composition.

Key words. Art, realism, artist, image, exhibition, science, rhythm, composition, contrast, shade, law.

O‘qish jarayoni dunyodagi yetuk badiiy asarlar va xalq san’ati asarlarini tahlil qilish asosida olib boriladi. Badiiy asar g‘oyasini ochib berishda qo‘llangan kompozitsiya vositalarini tushunishga ko‘nikma hosil qilinadi. Rangtasvir san’ati asarining kompozitsiyasida asosiy g‘oyalarini ochib berish o‘quv-mashq eskizida shakllar, odam qiyofalari, planlar orqali ko‘rsatish lozim bo‘ladi. Kompozitsiya dasturining keyingi bosqichlarida o‘quvchi asta-sekin plastik va zamonaviy uslublar bilan tanishtirilib boriladi. Shuningdek, kompozitsiya vazifalari murakkablashib, malakaviy bitiruv ishi kompleks eskizi darajasiga olib chiqiladi. Kompozitsiya fani o‘quv jarayonida rangtasvir, chizmatasvir, kompozitsiya asoslari, ashyoda ishlash, rangtasvir texnika va texnologiyasi, adabiyot, tarix, kimyo kabi fanlar bilan uzviy bog‘langan holda davom ettiriladi. Talabalar dastgohli rangtasvir san’ati kompozitsiyasi ustida ishlash davomida kompozitsiya vositalaridan foydalanib, uning asosiy g‘oyasini va asar mazmunini ochib beradi. Rassomlar o‘z ustida mustaqil ishlashni tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Chunki, bo‘lajak asar kompozitsiyasini hamma vaqt uning tuzilishi asosini o‘rganishdan boshlanadi. Kompozitsiya mazmunini ochib berish davomida bir qancha kompleks vazifalar bajariladi va amalga oshiriladi. Ishchi eskiz ko‘rigi ustaxonalarda o‘qituvchi yordamida tahlil qilib boriladi.

“Kompozitsiya” so‘zi italyancha compositio (“kompozito”) so‘zidan olingan bo‘lib, tuzish, birlashtirish, bog‘lash, turli xil ramziy qism ifodalarni bir butun yaxlitlikka birlashtirish va biron-bir g‘oyani madh etish ma’nosini bildiradi.

Rangtasvirda kompozitsiya – bu rasm tekisligida tasvir elementlarini joylashtirishda fikr(g‘oya)ni ravshan, aniq va to‘laqonli joylashtirish imkonini berishdir. Kompozitsiya orqali muallif chiziq, shakl, rang va obrazlarni tartibga keltiradi, fazoviy kenglikni o‘zlashtiradi va badiiy muhit yaratadi. Kompozitsiya asosini mantiqiylik, shakl

aniqligi va ularning o‘zaro uyg‘unligini tashkil qiladi. Ijodkor yaratgan har bir asarning asosida kompozitsiya yotadi, unda borliqni idrok etish jarayonida hosil bo‘ladigan fikr, his-tuyg‘ular o‘z aksini topadi. Kompozitsiyaning “turg‘un” va “harakatli”, “ochiq” va “yopiq” xillari mavjud. Kompozitsiya tuzish ma’lum “qonun”lar bilan belgilangan va chegaralangan. Bu esa kompozitsiya ifoda vositalarining torayishiga olib kelgan. Uyg‘onish davrida “turg‘un” va “yopiq” kompozitsiya, barokko san’atida “haraktli” va “ochiq” kompozitsiya ustuvorlik qilgan. San’at tarixida qonunlarga bo‘ysunib yaratilgan kompozitsiyalar va erkin kompozitsion usullarga asoslanib kompozitsiya yaratish harakatlari birday muhim rol o‘ynagan. Uyg‘onish davrida kompozitsiyani ilmiy asoslashga intilish kuzatiladi.

Adabiyotda kompozitsiya – asarni badiiy shakllantirishga xizmat qiladigan turli qismlarning holati, o‘zaro bog‘liqligi, voqea, harakter obrazlar, lirik chekinishlar, tafsilotlar bayoni va shu kabi ma’lum maqsadga bo‘ysundiriladi. Asar kompozitsiyasining yaxlitligi uning asosiy shartidir. Ortiqcha personaj, epizod va detallar asar qimmatini pasaytiradi. Shuning uchun ham badiiy asarda hech qanday yetishmovchilik ham, ortiqchalik ham bo‘lmasligi kerak. Kompozitsiyaning o‘ziga xosligi syujet qiyofalarining qanday tartib bilan joylashtirilishiga, syujetdan tashqari shakllar (lirik, falsafiy-publitsistik chekinishlar, qo‘shimcha epizodlar)ning bor yo‘qligiga, peyzaj, portret, psixologik tasvir, muallif tavsifi kabi vositalarning me’yori va tartibiga bog‘liq. Kompozitsiya yaratish usuli va uslublari turli-tuman.

Qadimdan kompozitsiyani asar g‘oyasi bilan uzviy bog‘liq holda tushunib kelingan. Kompozitsiya asarning shunchaki tuzilishi emas, balki shu tuzilishning maqsadi, uning nima asosida tuzilganligidir. Kompozitsiya asar g‘oyasi va mazmuniga bog‘liq. Tanlangan obraz yoki voqea asarga kiritish uchun muvofiqmi yoki yo‘qmi – buni faqat yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan gapga nisbatan aniqlash mumkin. Bu ham kompozitsiyaning muhim bir tomonidir. Kompozitsiya shu jihati bilan asarda mazmunning qay darajada mazmundorligini ko‘rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Kompozitsiya obrazli shakl va rang tuzilishida tasvirlanayotgan narsaning ichki mazmuni quvonch va hayajon uyg‘otishi kerak.

Tasvirda simmetriya, assimmetriya, tenglik va ritm, kolorit, kompozitsiya markazi tuzilishining maqsadga muvofiqligi, shaklning xilma-xilligi, ranglar yaxlitligi, ko‘rish nuqtasi, nisbat, o‘lcham va hajmi kabi kompozitsiya elementlarini rassom o‘z kompozitsiyasida g‘oya va fikrga birlashtiradi. Kompozitsiya fanining asosiy maqsadi tekislikda rangtasvir asari orqali kompleks obrazini yaratishda turli shakl va qiyofalar yordamida tasvirlashda badiiy obrazli va ijodiy fikrlashni shakllantirish, hayotdagi go‘zallikni, yangilikni, ilg‘orlikni ko‘ra bilishni tarbiyalashdan iborat. Tasviriy san’atda “Kompozitsiya” fani malakali mutaxassis rangtasvirchi rassom tayyorlash, uning kasbiy xususiyatlarni rivojlantirib iqtidorli, ijodkor rassom ko‘nikmalarini o‘zida namoyon qiluvchi va o‘z yo‘nalishini topishda, badiiy asar kompozitsion qurilishini o‘rgatuvchi fan sifatida katta o‘ringa ega.

Muvozanat. Agar rasm tekisligi tasvirlanayotgan narsalar bilan notekis to‘ldirilgan, chizma tasviri bir chekkaga joylashtirilgan bo‘lsa, rasmning bir qismi og‘irlashtirilib, qolgan joyi o‘ta yengillashtirilgan holda idrok etiladi. Unda muvozanat ko‘rinmaydi. Bunday tasvirlash bizning uqib olishimizga xalaqit beradi, noto‘g‘ri tashkillashtirilgan ko‘rinadi va tabiiyligini yo‘qotadi. Biz narsalarga qaraganimizda ko‘rish maydonimizda narsalar bir tekisda joylashtirilgan bo‘lib, optik markaz taxminan o‘rtada joylashgan ko‘rinadi. Shu bois, kartinada narsalar kompozitsiya markaziga joylashtiriladi. Kompo-

zitsiya markazi ko‘p holda geometrik markazga to‘g‘ri kelmasligi mumkin, shu bilan birga markazdan uzoqlashib ham ketmaydi. Haddan tashqari markazdan chetlashtirilgan shakllar, narsalar yoki bir guruh qiyofalar kompozitsiyaning bir qismida og‘irlik tug‘dirib boshqa qismida bo‘shliq hosil qiladi. Kompozitsiyada muvozanatlilikni rasm tekisligida tasvir elementlarini chap va o‘ngda, yuqori va pastida bir tekis joylashtirish bilan amalga oshiriladi. Rasm tekisligining o‘rtasidan vertikal o‘q chizig‘ining chap va o‘ng tomonlariga tasvir elementlari to‘g‘ri joylash muhim ahamiyatga ega. Ammo rasm tekisligini ikki qismga bo‘lish, shuningdek, gorizontal va vertikal bo‘lakchalarga bo‘lishdan qochish kerak. O‘rta vertikal chizig‘iga katta obyektlar to‘g‘ri kelmasligi lozim. Aks holda butun rasm ikkita mustaqil qismga bo‘linib qoladi. Kartina muvozanati aniq geometrik simmetriya bo‘lishi shart emas. Kompozitsiya markazi aniq o‘rtada bo‘lsa, kompozitsiya tabiiylikni yo‘qotadi, qiziqarli chiqmaydi. Muhimi, bosh voqeiylikni kompozitsiya markazidan bir tomonga surish zarur.

Kompozitsiya muvozanatida tasvir shakllaridan tashqari uning tusi va rangi ham muhim ahamiyatga ega. Kichkina qoramtir shakl katta och rangli shakl bilan teng ko‘rinishi mumkin. Bir tomondagi yorqin rang ikkinchi tomonda ham bo‘lishini takrorlanishini talab qiladi. Rasm tekisligida shakl (natura) tasvirlarini to‘g‘ri joylashtirish uchun, avvalo, qalamda qoralamalar chizib izlanish, variantlar yaratish yaxshi natija beradi. Bitta yoki ikkita variant bilan chegaralanish kamlik qiladi. Shuningdek, ranglarda variantlar yaratish ham maqsadga muvofiq, har qanday mavzuli kompozitsiyaga qayta-qayta qaytish, izlanish rassomga muvaffaqiyat keltiradi. Ba’zan qog‘ozda qalam bilan to‘g‘ri to‘rtburchakli rama chizilib, uni natyurmort yoki portret syujet eskizi belgilanadi. Shuningdek, rasm tekisligi to‘ldiriladi, tasvir masshtabi aniqlanadi va kompozitsiyaga kerakli narsalar joylashtiriladi. Shuni aytish kerakki, rassom badiiy obraz yaratish maqsadida tasvirda shakllar muvozanatini ongli ravishda buzish huquqiga ega. Hayotda ritm har xil ko‘rinishda ko‘p uchraydi. Fasllar almashuvi ham ritm. Odamlar harakati, xulqi, yurish-turishi, bir-biri bilan gaplashishi orqali bo‘layotgan voqeaning ma’nosini aniqlash mumkin. Vokzalda kelayotgan, ketayotgan, o‘tirgan kishilar harakatida har xil ritmni kuzatish mumkin. Tabiatda daraxtlar shakli ham ma’lum darajada ritmik ko‘rinishdadir. Rangtasvirda ritm tasvirning ayrim elementlari takrorlanishi ko‘rinishida bo‘ladi. Shuningdek, masshtablari nisbatida, yorug‘lik va ranglar joylashuvida, qo‘l harakatlarida kuzatish mumkin.

Ritm rasm mazmuni bilan bog‘liq va g‘oyaga bo‘ysundiriladi. Ritm tomoshabinning diqqatini muhim elementlarga qaratib, tasvir ravshanligini, ifodaliligini kuchaytiradi. Tasviriy san’atda va hayotda ritm zaruriy jihat hisoblanadi. U takrorlanib turuvchi katta yoki kichik elementlar ma’lum masofada va davriy takrorlanishi bilan xarakterlidir. Agar simmetriyada elementlar muvozanati tinch, turg‘un holat ko‘rinishida bo‘lsa, ritmda esa harakat cheksiz davom etishi mumkin. Ritm tabiatda, har xil hayotiy voqealarda kompozitsion tuzilishda o‘z aksini topgan. Masalan, kristall qirralari, dengiz to‘lqinlari, yil fasllarining takrorlanishi, o‘simlik dunyosi, nafas olish, yurak urishi va boshqa ko‘rinishlar ritmik takrorni anglatadi. Ammo ritm hayotda va san’atda bir xilda emas. San’atdagi ritm kompozitsiyaning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, u badiiy ijodning asoslaridan biri sanaladi. Ritm-kompozitsiyada faqat tashkil etuvchi, mujassamlashtiruvchi bo‘libgina qolmay, balki badiiy didning ham boshlanishidir. U orqali badiiy asar shoirona, musiqiy qilib yaratilishi mumkin. Shuningdek, ritm kompozitsiyada estetik va tashkiliy rol vazifasini bajaradi. Kompozitsiya qonunlari tus va ranglar kontrastiga asoslanadi. Tus va ranglar kontrasti tasvirni masofadan idrok etishni ta’minlaydi. Tus va ranglar

kontrasti sezilarli darajada bo‘lmasa bo‘shliqdagi shakllar (uzoqda yoki yaqinda) hajmi yoki joylashuvini deyarli idrok qilib bo‘lmaydi. XIX asr rus san’atida rasm yuzasida ritmdan foydalanib asar yaratganlarini ko‘rish mumkin. K. Bryullovning “Pompeyning so‘nggi kuni” rasmida yorug‘ va qora dog‘larning takrorlanishida, ritm hosil qilib, asarni yaxlit ko‘rishga imkon yaratadi. A. Kuinjining manzaralari klassik ritmga misoldir. V. Surikovning “Boyar ayol Morozova”. Rafaelning “Afina maktabi” asarida birinchi plandan qomatlar ritm asosida uzoqlashgan sari kichrayib borishi kuchli dinamik harakat hosil qiladi. Bunga oq va qora dog‘lar chap va o‘ng tomondan takrorlanib borishi orqali erishilgan. Nisbiylik. Nisbiy holat, nisbiy ekanlik. Shakllarning boshqalarga qiyosan olingan yoki belgilangan, qiyosiy, solishtirma. Nisbiylik tushunchasi nisbatga yaqin hisoblanadi.

Bunda quyidagi juda muhim ikki omilni inobatga olish zarur: nisbiylikni idrok etish shaklni ko‘rib idrok qilinishini umuman o‘zgartira oladigan qiyofasi xususiyatiga bog‘liq; shaklning hamma elementlarini inson bilan, qiyoslashtirilgan bir-biriga ta’sir etuvchi munosabatlarning yagona sistemasida qamrab olinishi kerak. Badiiy obrazga ifodaviylik berishda shakl nisbiyliklari alohida ahamiyat kasb etadi. Geometrik shakldan hosil bo‘lgan his-tuyg‘uni muhokama qilib, biz uning tomoni o‘lchamlarining munosabatiga ahamiyat beramiz. U 1:1 nisbatda edi. Bu munosabatni 1:5 qilib o‘zgartirib ko‘raylik. Endi shaklning joylashishiga qarab uning xususiyatlari namoyon bo‘ladi: yoki mustahkamligi kuchayadi yoki harakat imkoniyatini oshiradi. Kompozitsiyada badiiy obrazni yechish uchun faqat yaxlit shakl emas, uning bo‘laklari nisbatlari ham muhim. Qismlarning yaxlitlik bilan proporsional munosabati uni talqin qilishning turli varinatlarini beradi. Shakl nisbiyliklari haqida gapirishni boshlab, kontrastlashtirish, ya’ni tafovutlarni, qarama-qarshiliklarni taqqoslashda qurilgan uning ifodaliligini ta’kidlamaslik mumkin emas. Masalan, katta shakl va kichik detallar kontrastida, dog‘ va chiziqning yopiq va ochiq shakl kontrast munosabatida uning ahamiyati katta. Shakl sezilarsiz darajada o‘zgarganda (nyuans), uning o‘lcham va tuzilishi o‘z ifodaviyligini yo‘qotmagan holda boshqa tarzdagi obrazlar paydo bo‘ladi. Shaklni plastik faol tashkil qiluvchi vositalar qatorida ritmni ko‘rsatish mumkin. Uyg‘unlikning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan nisbiyga ahamiyatni qaratamiz. Yaxlit asar birligi mavzusini davom ettirib, shuni tasdiqlaymizki, nisbiyliklar-asosida yaxlitlikni tashkil etuvchi qismlarning munosabatlari g‘oyasi yotuvchi vositadir. Nisbiylik deganda, qismlarining o‘zaro va shu yaxlitlik bilan munosabati tushuniladi. Uyg‘unlikni yaratish uchun, ya’ni yaxlit asar yaratish uchun rassom, tabiat qonunlarini egallashi va undan so‘ng qo‘llay bo‘lishi lozim. Shuni aytish kerakki, nisbiylik muammosi – fikrlashni talab qiluvchi murakkab badiiy muammolardan biridir. “Inson hamma narsaning o‘lchamidir”. Inson nimani yaratsa, u o‘zi uchun va o‘ziga moslab yaratadi. Nisbatga proporsionallashtirish sistemalarini to‘g‘ri qo‘llash orqali erishiladi. Shaklni alohida detallarga ajratib, kerakli nisbatga ega bo‘lish mumkin. Shakl biri ikkinchisiga nisbatan katta yoki kichikroq, sirliroq, ma’nosizroq, yoki yashil rang tusi sariqqa nisbatan to‘qroq va ko‘k rangga nisbatan ochroq ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Qiyofani yiriklashtirib, mayda narsalar bilan, atayin kiritilgan va kichraytirilgan elementlar bilan taqqoslab (demak, kontrastni qo‘llab) mahobatli idrok qilinuvchi shaklni yaratib, unga katta ma’nolilik berish mumkin. Nisbat vositasida obrazning zarur ifodaviyligiga faqat shakl bilan ishlab emas, balki boshqa-rang va faktura kabi ifoda vositalarini to‘g‘ri qo‘llab ham erishish mumkin. Binobarin, asar masshtabliligi absolyut kattalik bilan belgilanmaydi. O‘lchami jihatidan katta bo‘lmagan asar yirik nisbatga ega bo‘lishi, mahobatli obrazlarni ifoda etishi mumkin. Va aksincha, kattaligi bo‘yicha yirik

asar ba’zida kichikdek idrok qilinadi.

Simmetriya tasviriy san’atda shakllarning o‘ng va chap tomonlarini bir xillik tuzilishi haqidagi tenglik tushunchasidir. Shuningdek, uni tabiatda ham, har xil san’at turlarida ham kuzatish mumkin. Kompozitsiyada simmetriya hosil qilish uchun uning og‘irlik qismlari, tusi, rangi va shakllarining tengligi xarakterlidir. Bu holatda bir tomoni ikkinchi tomoniga ko‘zgudagi aksidek o‘xshashdir. Simmetrik kompozitsiya aniq markazga ega bo‘ladi. Odatda, u rasm tekisligining geometrik markaziga to‘g‘ri keladi. Agar uchrashuv nuqtasi markazdan chetda bo‘lib yoki tasvir diagonal bo‘ylab joylashtirilsa, kompozitsiya dinamik (harakatchan) bo‘ladi va ideal tenglik buziladi. Simmetriya ornamentlar tuzilishida eng ko‘p uchraydi va o‘zgacha go‘zallik kasb etadi. Kompozitsiyada simmetriya, ayniqsa, o‘q chizig‘idan o‘tuvchi simmetriya birlashtiruv_ chi roldir. Rasmni ikki qismga bo‘luvchi o‘q chizig‘ini o‘tkazsak simmetriya chizig‘ini o‘tkazgan bo‘lamiz. Bu chiziq rasmni ikki qismga bo‘lsada, bu holat ko‘zgu simmetriyasi bo‘lmasligi mumkin. Aksincha shakllar, qiyofalar nazarimizda ikki tomonda takrorlanishi mumkin. Bunda ikki tomon shakllar, ranglar, tus holatlari bilan tenglik saqlangan bo‘lishi, geometrik simmetriyani hosil qiladi. Simmetriya kompozitsiyasida ko‘p hollarda markazga intilib umumlashtirilganini ko‘ramiz. A. Rublyovning “Troitsa” ikonasida simmetriya ko‘zgudagidek takrorlanmasada, qo‘l va o‘tirish, ichki holatlari, ma’no mazmunan markazga qaratilgan. O‘rtadagi va ikki chetdagi qomatlar markaziy simmetriyadan biroz chetlatilgan. Erkin simmetriya orqasida shakl va mazmun simmetriya bo‘lsada assimmetriya kabi qarash mumkin. Ikki tomonni muvozanatini umumlashtirib turuvchi qiyofalar birlashtiruvchi kuchga ega. Qadimiy grek rassomlari ham simmetriya qoidalaridan keng foydalanganlar. Eramizdan avvalgi V asr rasmlari, shuningdek, antik ko‘zadagi rasmlar va Pompey freskalari bunga misol bo‘la oladi. Simmetriya qoidalaridan rassomlar foydalanib, ko‘p qomatli kompozitsiyalar yaratganlar. Italiyada yuqori Uyg‘onish davri rassomlari kompozitsiyada katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Masalan, Leonardo da Vinchi “Anna bilan Mariya va chaqaloq Xristos” asarida uch qomatni joylashtirishda uchburchakdan foydalangan. Leonardo da Vinchi “Sirli oqshom” asaridagi kompozitsiya tuzilishini ham simmetriya deyish mumkin.

Assimmetriya rangtasvirda, chizmatasvirda, bezakli pannoda, freskada, buyumlar tasvirida, arxitektura binolarida shakllarni assimmetrik joylashtirishda rasm tekisligini vertikal o‘q chizig‘i bilan ikki qismga bo‘lsak, kompozitsiya buzilmagan holda uning og‘irligi, shakllari, tus holati tengligi buzilganday holatni ko‘rish mumkin. Assimmetrik kompozitsiyada tenglik harakatini hosil qilishda shakllar oralig‘ida bo‘shliq pauzalari yordamida amalga oshiriladi. Bunda shakllar bir-biriga yaqinlashadi yoki bir-biridan uzoqlashadi. Tenglik esa katta va kichik shakllarni oq va qoramtir tus, yorqin va bo‘g‘iq ranglarni qarama-qarshi qo‘yish orqali amalga oshiriladi. Assimmetrik ya’ni markazlashtirilmagan kompozitsiyada tenglik ongli ravishda susaytiriladi yoki umuman bo‘lmaydi. Masalan, fikr-g‘oya syujet markazi kompozitsiyaning bir tomoniga yaqin bo‘lib, ikkinchi tomon qismida kam shakllar tasvirlanadi. Agar syujet kontrast holatda ochib berilgan bo‘lsa, bunda psixologik kontrast, bosh qahramon va bir guruh qiyofalar bir-biridan qandaydir masofada joylashtirilib, tashqaridan qaralganda kompozitsiya bo‘linganday assimmetriya holatini hosil qiladi. Umuman ikki qismini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilib tenglik hosil qilinib kompozitsiyada mutanosiblik ta’minlanadi. Kompozitsiyada mutanosiblikni saqlab assimmetriya tuzilishiga rassom K. Bryullovning “Pompeyning oxirgi kuni”. Kontrastlar kompozitsiyaning asosiy qonunlaridan biridir. Gorizontal va vertikal chiziqlar majmuasi rasm tekisligida qiyofa bor ekan, uni hosil qlish

uchun fon kerak bo‘ladi. Katta masshtabdagi qiyofaga mayda qiyofa, yassi tekislikka chuqurlik kontrasti, statika va dinamika, bular hammasi kontrast holatlar ko‘rinishidir. Kontrastlar (zidliklar) tushunchasi hayotimizning deyarli har qadamida uchraydigan hodisa. Bu tushuncha ikki holatning qarama-qarshiligidan ya’ni tun va kunduz, yoz va qish, yaxshi-yomon, katta-kichik, issiq-sovuq, o‘tkir-o‘tmas, yumshoq-qattiq, achchiq-chuchuk, kalta-uzun, kulgi-qayg‘u, oq-qora, qizil va yashil rang hamda boshqalar har doim yonma-yon bo‘lib rasmda bir butun kontrastlikni hosil qiladi. Ana shu ziddiyatlar asosida tuzilgan naqsh, tasviriy asarda shakllar jozibali, ta’sirchan, esda qolarli bo‘lishi mumkin. Masalan, katta va kichik shakllar, qizil va yashil ranglardan tashkil topgan naqshli kompozitsiyasini tuzib ko‘raylik. Agar bir xil shaklni turna qator qilib joylashtirib chiqsak, ancha zerikarli kompozitsiya hosil bo‘ladi, aksincha bir shaklni yoniga boshqa ikkinchi qarama-qarshi turdagi shaklni qo‘yib joylashtirsak, albatta, qiziqarli kompozitsiya hosil qilishimiz mumkin. Naqshlarga nazar solsak har xil kalta va uzun, katta va kichik shakllardan to‘zilganligini ko‘rish mumkin. Rang berishda ham och va to‘q, issiq va sovuq ranglar yonma-yonligi naqshning chiroyli chiqishiga yordam berganini ko‘ramiz. Naqsh kompozitsiyasini ishlashda alohida uning elementlariga e’tibor berish muhimdir. Kompozitsiyaning qayerga mo‘ljallanayotgani va uning o‘rni, yaqin yoki uzoqdan ko‘rinishini esdan chiqarmaslik kerak. Ko‘p asrlik tasviriy san’at tarixida kontrast mavzuli asarning turiga qarab har xil ko‘rinishlarda mualliflar tomonidan ishlatilib kelindi. Bu muallifning bilimiga va xarakteriga ham bog‘liqdir. Rangtasvirda yorug‘ (yorqin) ranglar va quyuq to‘q-qoramtir ranglar kontrastida, shuningdek, obrazlar kontrastida ko‘rish mumkin. Kontrastdan foydalanish – bu kompozitsiyada ichki kurashni hosil qilish, jonlanshtirish va qarama-qarshiliklar garmoniyasini hosil qilishdan iborat. Kontrast har qanday shaklni jonlantiradi, ammo kontrast garmoniya uchun to‘la kafolat bermaydi. Shuning uchun maqsadga erishishda shakl va qiyofalarni kompozitsiyaga bog‘lash, mutanosiblikni hosil qilish, yaqqollik bo‘lishi zarur. Kontrastni kompozitsiyada me’yori bilan ishlatilsa asarni muvaffaqiyatli chiqishini kafolatlaydi. Ba’zida rassom rasm yaratar ekan, kompozitsiya markazini kontrast va yorqin rangda, projektor nuri kabi yoritadi. Masalan, Rembrant asarlaridan birini olaylik. “Adashgan o‘g‘ilning qaytishi” asarida bosh qahramon qomatlari ajratilib yoritilgan (o‘g‘il qomati, otaning yuzi va qo‘li). Shu usul orqali rassom tomoshabin fikrini jamlab diqqatni rasm qahramonlariga qaratishga erishgan. Tugallangan kompozitsiya rangdagi holatiga qarasak, katta mehnat va izlanish, mahorat, rassom qobiliyati sezilib turadi. Badiiy asar ustida ishlash jarayoni va natijasi hamma rassomlar uchun namuna bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudayberganov R. A. “Rangshunoslik asoslari”, O‘quv-qo‘llanma. – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti 2006. – 92-b.
2. Xudayberganov R.A. “Kompozitsiya”. O‘quv-qo‘llanma. – T.: Sharq 2007. – 203-b.
3. “Arxitektura kompozitsiya nazariyasi”, O‘quv-qo‘llanma. – T.: TAKI, 2002. – 203-b.
4. Волков Н. Н. “Композиция в живописи” Учебное пособие. – М.: “Искусство”, 1987. – С. 557.
5. Зайцев А. “Наука о цвете и живопись”, Учебное пособие. – М.: “Искусство”, 1986. – С. 431.
6. Митрафанов К.М. “Современная монументально-декоративная керамика” Учебное пособие. – М.: “Искусство”, 1987. – С.506.

Manzura MUXAMMADIYEVA,
Qarshi davlat universiteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA MAS’ULIYATLILIKNI SHAKLLANTIRISH ZARURIYATI VA UNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarda faoliyatlar jarayonida mas’uliyatlilikni shakllantirishning dolzarbligi va zaruriyati, bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili hamda ta’lim-tarbiya jarayonida mas’uliyatlilikni shakllantirish talablari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Shaxs, faoliyat, faollik, mas’uliyat, jarayon, motivatsiya, ta’lim-tarbiya, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini baholash.

В статье описывается актуальность и необходимость формирования ответственности в процессе деятельности у младших школьников, анализируются научные исследования в этой области и требования к формированию ответственности в образовательном процессе.

Ключевые слова. Личность, активность, активизм, ответственность, процесс, мотивация, образование, самоуправление, самооценка.

The article describes the relevance and the need for the formation of responsibility in the process of activity among junior schoolchildren, analyzes scientific research in this area and the requirements for the formation of responsibility in the educational process.

Key words. Personality, activity, activism, responsibility, process, motivation, education, self-government, self-esteem.

Mamlakatimizda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijtimoiy-pedagogik darajadagi mas’uliyatni shakllantirishning dolzarbligi davlatning ta’limdagi ijtimoiy buyurtmasi mas’uliyatli tanlov sharoitida mustaqil ravishda qaror qabul qilishga tayyor bo‘lgan shaxsni tarbiyalashga qaratilganligi bilan muhim hisoblanadi.

Uzluksiz ta’lim tizimining muhim bosqichlardan biri bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim shaxs faoliyatida o‘qish asosiy o‘rinni egallaydigan, o‘quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni puxta o‘zlashtirilishiga yordam beruvchi dastlabki ko‘nikmalarni shakllantiradigan davr sanaladi. Shu sababli bu bosqichda o‘quvchi shaxsini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning nazariy va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev asarlarida har bir fuqaroning mas’ullik va shaxsiy javobgarlik hissi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutishi alohida ta’kidlanadi. Yosh avlod tarbiyasida asosiy e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan axloqiy sifat tarzida Amir Temur “Tuzuklar”ida ham alohida qayd etiladi. Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Kaykovus, Sa’diy Sheroziy, Abdulla Avloniy asarlarida ham

faoliyatiga javobgarlik bilan yondashadigan va shijoatli yoshlarni tarbiyalash maqsadga muvofiq ekanligi xususida to‘xtalib o‘tiladi.

O‘zbekistonlik psixolog olimlardan M. Davletshin, E. G‘oziyevlarning shaxs psixologiyasiga oid tadqiqotlarida ham shaxs mas’ulligi muammosiga alohida e’tibor qaratiladi.

Mazkur muammoning ilmiy-uslubiy jihatdan dolzarb ekanligi kichik maktab yoshdagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning mavjud texnologiyalarida shaxsning yetakchi axloqiy sifati nuqtayi nazaridan mas’uliyatlilikni shakllantirish masalasi to‘liq hal etilmaganligi bilan izohlanadi; bundan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyatlilikni shakllantirishning asosli, uslubiy va texnologik jihatlarini aks ettiradigan ilmiy-metodik darajadagi ishlar yetarli emas. Zero, mas’uliyat – inson hayotining muvaffaqiyatini aniqlaydigan shaxsning muhim asosiy sifatidir.

“... O‘qishga o‘quvchilarning shaxsiy mas’uliyatini kuchaytirish, har bir yigit va qiz ongida tarbiyachilikning barcha imkoniyatlari ta’sirida o‘qishga ijtimoiy va fuqarolik burchi deb qarashni shakllantirish” uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim mazmunini takomillashtirish va uni jahon ta’limi standartlari darajasiga ko‘tarish yo‘lida tub islohotlar olib borilayotgan bir sharoitda nihoyatda muhim.

“Mas’uliyat” tushunchasi arab tilidan tarjima qilinganda “javobgarlik”, “hisob bermoqlik” ma’nolarini anglatib, biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun javoblarlikni anglatadi. O‘zbek tilida “mas’uliyat” tushunchasining muqobili sifatida “javobgarlik” tushunchasi bevosita qo‘llaniladi. Masalan, davlat javobgarligi, huquqiy javobgarlik, ma’muriy javobgarlik va hokazo.

Ayrim manbalarda mazkur tushuncha mohiyatini yoritishda uning “jamiyatga bo‘lgan munosabatni xarakterlovchi” axloqiy kategoriya hamda “shaxsni o‘z-o‘zini boshqarish shakli” ekanligiga ham alohida urg‘u berilgan. Jumladan, “Mas’uliyat shaxsning jamiyatga munosabatini xarakterlovchi, uning talablarini bajarishni yuksak shaxsiy-axloqiy xislatlarini namoyon bo‘lishi odob-axloqning etik kategoriyasidir. Shaxsning mas’uliyati uning butun borliqqa bo‘lgan munosabati, har bir aniq vaziyatga bo‘lgan alohida munosabati orqali namoyon bo‘ladi”.

Falsafiy, psixologik-pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish natijasida kichik maktab yoshdagi bolalarda mas’uliyatlilikni shakllantirishda quyidagi qarama-qarshiliklar mavjudligi aniqlandi:

– jamiyatda mas’uliyatli shaxsni shakllantirishga bo‘lgan ehtiyojning oshishi va kichik maktab yoshidan boshlab bu boradagi tadbirlarning nazariy jihatlari va yo‘nalishlari rivojlanmaganligi;

– kichik maktab yoshdagi bolalarda mas’uliyatni shakllantirishga doir nazariya va texnologiyani boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi hamda o‘quv amaliyotida asoslash zaruriyatining yuzaga kelganligi, shu bilan birga mas’uliyatli shaxsni shakllantirish texnologiyasining nazariy asoslarning ishlab chiqilmaganligi;

– o‘quvchilarda mas’uliyatni shakllantirish uchun pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, amalga oshirish imkoniyati va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida bu jarayon uchun uslubiy va texnologik ta’minot yo‘qligi kabilar.

Shaxs rivojlanishi va shakllanishi davrida ijtimoiy hamda pedagogik ta’sirlarga alohida e’tibor berilishi lozim bo‘lgan davr sifatida qayd etiluvchi kichik maktab yoshidagi bolalik davri tashqi ta’sirlarni qabul qilish uchun tayyorlikni shakllantirishda eng muhim davr hisoblanadi.

Kichik maktab yoshdagi bolalarda axloqiy tanlov qilish qobiliyati ongning rivojlanayotgan aqliy-axloqiy baholash faoliyati, ularni tasdiqlash, o‘zlashtirish va tan olish

zarurligiga asoslanadi. O‘z navbatida, ularda uni o‘rab turgan tevarak-atrofdagi narsa va predmetlardan foydalanish, kishilar bilan munosabatga kirishish, o‘quv-biluv jarayonidagi vazifalarni bajarish hamda o‘z xatti-harakatiga nisbatan mas’uliyat hissi tarkib topa boshlaydi. Mana shu jarayonda o‘quvchi shaxsidagi quyidagi jihatlarga e’tiborni kuchaytirish lozim bo‘ladi:

– O‘quvchida o‘quv-biluv faoliyatiga nisbatan motivatsiyani shakllantirish asosida mas’uliyatlilikni rivojlantirish;

– Kattalar va tengdoshlari bilan muloqot va hamkorlik qilish, ularning xatti-harakatini kuzatish, tahlil qilishga o‘rgatish orqali mas’uliyatlilikni tarkib toptirish;

– O‘quvchida o‘z xatti-harakatini baholash va shaxsiy qaror qabul qilish barobarida mas’uliyatli bo‘lishga undash;

– Unga ishonib topshirilgan vazifani sidqidildan bajarishga intilishni kuchaytirish va bu boradagi xatti-harakatini rag‘batlantirib borish va hokazolar.

Shuningdek, bu borada ta’lim-tarbiya jarayoni oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

– boshlang‘ich ta’lim jarayonida shaxs mas’uliyatliligi muammosiga doir xalq pedagogikasi va Sharq ma’naviy merosidan foydalanishni kuchaytirish;

– kichik maktab yoshdagi bolalarda o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini tahlil qilish-anglash hamda mustaqillik, qat’iyatlilik, tashabbuskorlikka taalluqli mas’uliyatlilikni shakllantirish tizimini takomillashtirish;

– o‘quvchilarning faoliyatlarga doir mas’uliyati va motivatsiyasi haqida fikrlarni o‘stirib borish, turli xil faoliyat ko‘rinishlarida mas’uliyatli xulq-atvorni namoyon etish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Umuman olganda, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning turli faoliyatlar jarayonidagi faolligi va mas’uliyati xatti-harakatlarni rivojlantirish ularning individual xususiyatlarni rivojlantirishning garovidir. Zero, kichik maktab yoshidagi bola, kattalar yordamida, so‘ngra, mustaqil ravishda real natija va unga erishishga qo‘shgan shaxsiy hissasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatadi. U o‘z xatti-harakatining natijalari uchun shaxsiy javobgarlik tajribasini to‘plab boradi. Kattalar bilan birgalikda faoliyatni tahlil qilish, so‘ngra, o‘z-o‘zini tahlil qilish esa kerakli natijaga erishish ham unga bog‘liqligini anglashga yordam beradi. Bu birinchi navbatda, o‘z faoliyati natijasi uchun, keyinchalik esa o‘z hayoti va boshqalarning hayoti jarayoni va natijasi uchun mas’uliyatlilikning asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Божович Л.И. Проблемы формирования личности [Текст]: избранные психологические тр. / Л.И. Божович; под ред. Д.И. Фельдштейна. –М.; Воронеж, 1995. – С. 349.

2. Kaykovus. Qobusnoma. –T., –1994. 173-b.

3. Xasanboyev J, To‘raqulov X., Xaydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.

Farhod QALANDAROV,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o‘qituvchisi

TALABALARGA KIMYOVIY TA’LIM MAZMUNINI KO‘RGAZMALI TAQDIM ETISHNING SHAKLLARI

Annotatsiya

Vizual taqdimot kimyo fanidan predmetli bilimlarni uzatish imkoniyatlarini ularni o‘zlashtirish usullari bilan uyg‘unlikda, ya’ni talabalar o‘quv-bilish faoliyatining ikki tomonini o‘zida optimal ravishda namoyon etish imkoniyatini beradi.

Kalit so‘zlar. Vizual, taqdimot, kimyo, ko‘rgazmali, faoliyat, metod, didaktika, vosita.

Наглядное представление обеспечивает возможность передачи предметных знаний по химии в сочетании со способами их усвоения, т. е. позволяет оптимально представить в себе две стороны учебно-познавательной деятельности студентов.

Ключевые слова. Визуал, наглядный, презентационный, химический, деятельностный, методический, дидактический, среда.

The visual presentation is in harmony with the methods of mastering the possibilities of transferring knowledge from the subject to the subject in chemistry, that is, it gives students the opportunity to demonstrate both sides of their educational and cognitive activities optimally.

Key words. Visual, presentation, chemistry, visual, activity, method, didactics, environment.

Uzluksiz ta’lim jarayonida tahsil oluvchilarga kimyoviy ta’lim mazmuni didaktik vositalar orqali taqdim etiladi. Ularni shartli ravishda quyidagi uch guruhga bo‘lish mumkin: tabiiy obyektlar, moddiy obyektlarning tasviri va aksi, obyektiv voqeiylik predmet va hodisalarining tavsifi. Mazkur maqolada biz ularning biri ustida to‘xtalmoqchimiz, chunki oxirgi vaqtgacha unda kimyoviy ta’lim mazmunining aks ettirilishi nuqtayi nazaridan har tomonlama tahlilning obyekti bo‘lmagan.

Ushbu ta’lim vositasi – statik ekranga ma’lumotlarni ko‘rgazmali yoki vizual taqdim etishdir.

Aksariyat hollarda ko‘rgazmali taqdim etish – maktab o‘quvchilariga va talabalarga qog‘ozda, kompyuter va boshqa audiovizual apparatlardan foydalangan holda taqdim qilish to‘g‘risida gap ketadi. Pedagogikada vizual taqdim etishning ta’lim vositasi sifatidagi yuqori darajada qimmatli ekanligi va ularning miqdori yetishmasligi ta’kidlanadi.

Ko‘rgazmali materiallardan foydalanishga bunday qiziqishning sababi, ular yordamida, masalan, ta’lim oluvchilarga murakkabligi har xil darajada bo‘lgan va turli hajmdagi yangi topshiriqlarni berish, ularning bilish faoliyatini ishonchli ravishda boshqarish mumkinligidadir.

Shunday qilib, ko‘rgazmalilikning ta’lim jarayonining o‘ziga xos tayanchi, yo‘nalish beruvchisi sifatidagi katta roli e’tirof qilinadi. Bir tomondan, ko‘rgazmalilik

o‘quv ma’lumotlarni uzatishning hajmi va tartibi qat’iy belgilab beriladi. Ikkinchi tomondan, ko‘rgazmalilik bayon qilinayotgan materialga, undagi holatlarni takrorlash va aniqlashtirish maqsadida, ko‘p marta qaytish imkonini beradi. Shu bilan birga ko‘rgazmalilikning ushbu tashqi tavsifi, mohiyatan to‘g‘ri bo‘lgani bilan, mazkur bilish vositasining, avvalo, o‘quv-qo‘llanma, dastur, mavzuni o‘rganish prospekti, boshqa o‘quv materiallar kabi boshqa vositalarga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarini ochib bermaydi.

Rasmiy jihatdan ko‘rgazmalilikni – shaffof rasm sifatida tariflash mumkin. Mazkur eng sodda ta’rifda ko‘rgazmalilikning mohiyatiga tegishli tavsiflari, ya’ni syujet, fonning mavjudligi, obyektlarning joylashtirilishi, ya’ni rasmni tavsiflaydigan barcha narsalar aks ettirilgan.

Namoyish etilayotgan holatga aks ettirilayotgan obyektning tartibga solinganligi, yaxlitlikning xosligi – asosiy g‘oya va uni ro‘yobga chiqarishning mahorati bilan ajralib turadi. Barcha jihatlarni birlashtiruvchi asosiy g‘oya ko‘rgazmalilik faqatgina rasm emas, balki u holatlarni harakatlarini shaffof ham ekanligidir. Bu esa ko‘rgazmalilikni ikkilamchi narsalarni yashirishi, u “tasvirni” sxemalashtirgan holda, hodisani va uning barcha munosabatlarini emas, balki uning obrazini aniq, qat’iy taqdim etilishini bildiradi. Shuning uchun ko‘rgazmalilikning umumlashtirilgan tushunchasini ta’lim, shu jumladan, albatta, kimyoviy ta’lim mazmuni to‘g‘risidagi ma’lumot fragmentini vizual obrazining makonda tartibga solinganligi deb ta’riflash mumkin. Obraz va uning mazmun-mohiyatining bilish faoliyatidagi roli psixologiyada batafsil tadqiq qilingan.

Ko‘rgazmalilik – ikki tomonlama qaralishi mumkin. Dastlab ko‘rgazmalilikni talabalarga kompyuter va boshqa audiovizual apparatlardan foydalangan holda taqdim qilinishi nuqtayi nazaridan e’tibor qaratilsa, boshqa tomondan – ko‘rgazmalilikda keltirilgan ma’lumot tarkibi, uning talabalar kimyoviy ta’limi mazmuni fragmentining yaxlit, tugallangan manzarasi sifatidagi syujeti yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘rgazmalilikning bunday talqini obrazning bilish faoliyatidagi rolini o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator psixologik tadqiqotlarga tayangan.

Inson ko‘z o‘ngida namoyon bo‘layotgan hodisalarni idrok etishi shundayki, u munosabatlarning makondagi tuzilishini tasvirdan mazkur munosabatlarni ramziy shaklda o‘z nutqida ifoda etadi yoki boshqacha aytadigan bo‘lsak nutqqa aylantiradi. Bunda barcha insonlarga xos xayolan aks ettiriluvchi predmetli hodisalarni idrok qilishga tegishli fikrning makoniy komponentlarining katta solishtirma vazni faollashadi. Psixologiyada olamni bilishdagi obrazli-makoniy tarkibiy komponentlarning ahamiyatli roli yetarli darajada to‘liq o‘rganilgan, lekin pedagogikada u samarasi kam bo‘lgan tarzda amalga oshiriladi “Operativ obrazning” fazo-vaqtga doir chizmasidan tashqarida harakatni tartibga solish umuman mumkin emas. Obraz tufayli “fikrning mantiqiy-ramziy va fazo-vaqtga oid xususiyatlari o‘rtasidagi uzilish” bartaraf qilinadi. Obrazlar faqatgina bilish jarayoni sohasiga tegishligina emas, balki ular xayol va emotsional javoblar asosida yaratiladi. “Obraz-fikr” ikkiligi tadqiq qilish psixologlarga obrazlar tilidan ramzlar tiliga o‘tkazish va uning aksi doimiy jarayoni kechayotganligini aniqlash imkonini berdi. Bu esa fazo-vaqtga oid obyektning obrazi idrokdan boshlanib konseptual umumlashtirishgacha bo‘lgan bilishning dastlabki oni hisoblanadi. Mazkur xulosa ko‘rgazmalilikni talabalar kimyoviy ta’limi mazmunining fragmentining fazo-vaqtga oid, vizual obrazi sifatida tushunishga olib keladi. Kimyoviy ta’limning yaxlit mazmuni vizual obrazlar majmuida aks ettirilishi mumkin. Har bir vizual obrazning tarkibida mazkur mazmunning barcha to‘rt elementi, ya’ni bilim, faoliyat tajri-

basi, ijodiy faoliyat tajribasi, emotsional-qadriyatli munosabatlar tajribasi mavjud. Ayni vaqtda namoyish holatida integratsiyalashgan didaktik tamoyillar taqdim qilinishi kerak, ular ko‘rgazmalilik, tazimlilik va izchillik, ilmiylik va hammaboplik baland tavsiflanadigan kimyoviy ta’lim mazmuni bo‘lagini, ya’ni obrazining keng taqdim etilgan holatini keltirish imkonini beradi.

Vizual taqdim qilingan o‘quv materialning hajmi va murakkabligi ta’lim oluvchilar imkoniyatlari va qobiliyatlariga mos, ulardagi ma’lumot esa ta’lim oluvchilardagi ijodiy qobiliyatlarini ochib berishga imkon beradi, talabalarda kimyoviy ta’limining ko‘rgazmaliligini shakllantirishda ishonchlilik didaktik tamoyilining ro‘yobga chiqishini ko‘rish mumkin.

Obraz har qanday bilishning dastlabki jihati va ayni vaqtda uning natijasi bo‘lib xizmat qiladi. Obraz – voqeiylikni aks ettirishning, ya’ni in’ikosining subyektiv, shu jumladan, mavhum-mantiqiy shakli deb tushunilgani uchun, olamni va demak, mazkur obrazni tashuvchisi – ko‘rgazmada vizual aks ettirishdir. Vizual taqdim etishda nafaqat sensorikaga asoslangan ma’lumotning hissiy shakli – obraz, sezgi, idrok, balki xotira, xayol, mantiqiy ketma-ketlik obrazlari, obyekt haqidagi tasavvurlar ham aks ettiriladi.

Ko‘rgazmalilik voqeiylik in’ikosining o‘ziga xos shakli sifatida bilish farazini ilgari surilishidan boshlab to uning qiymat va kimyoviy ma’no kategoriyalarida anglanishigacha bo‘lgan barcha bosqichlarini o‘zida sintez qiladi. Talabalar kimyoviy ta’limi mazmunining ko‘rgazmali shaklini bashorat qilishi – ma’lumotni hissiy va mavhum-mantiqiy idrokiga nisbatan integrativligida namoyon bo‘ladi. Vizual ma’lumotlar bilan ishlashda talabalarda nafaqat axborot bilan bog‘liq munosabatlarning tartiblanishining sodir bo‘lishi, balki, o‘quv faoliyatining o‘zi mos shakllanishi muhimdir.

Ta’lim jarayoni sifatini oshirishda ko‘rgazmalilikning ushbu imkoniyatlari avtomatik ravishda ro‘yobga chiqmaydi. Bu hol ta’lim jarayonini tashkil qilish haqida asoslangan me’yoriy holatlari sifatidagi didaktik tamoyillarning ko‘rgazmalilik mazmuniga integratsiyasi sharti bilan yuzaga keladi. Didaktik tamoyillar ta’lim jarayonining ham mantiqiy-mazmunli, emotsional-baholovchi tomonlarini, ularning real ta’lim jarayonida tez-tez yuzaga keladigan bir-biriga qarama-qarshiliksiz, ziddiyatlarsiz saqlash imkonini beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishda ko‘rgazmalilik ta’lim oluvchilarning emotsional holatini boshqarish vositasiga aylanishi ayniqsa ahamiyatlidir. Xususan, psixologiyada rang va emotsiyalar o‘rtasidagi nisbat anchadan beri o‘rnatilgan. Buning asosida emotsiyalarning rangli profillari ishlab chiqilgan.

Ranglarda bajarilgan ko‘rgazmali axborotni idrok qilish psixologiyasini hisobga olish – talabalar emotsional ahvolini boshqarish imkonini beradi.

Talabalar kimyoviy ta’limi mazmunining ko‘rgazmali shaklining tahlili, ta’lim jarayonida belgi va ramz nisbati nuqtayi nazardan uning ichki mazmuni ochib berilmasa, to‘liq bo‘lmaydi. Bunday nisbatning o‘zi belgi mazmunni bildiradi, ramz esa uni ochib beradi, ya’ni tasvirlaydi, unga munosabatni ifodalaydi. Belgili-ramziy vositalarning bunday tushunilishida ta’limda noverbal, avvalo, vizual vositalar alohida rol o‘ynaydi. Belgi tushunchasi unda taqdim qilingan ma’lumotni narsani oddiy nusxasidan farqlash imkonini beradi. Bunday farqlash mazmun-ma’no kategoriyalarining tushunilishiga bog‘liq. Shuning uchun obraz va ramz munosabatlarining, verbal ma’nolarga o‘xshash, barqaror tizimini tashkil qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Kimyoviy ta’lim mazmunining ko‘rgazmalilik shaklida bunday tizim yoyilgan, ya’ni ko‘p jihatli ko‘rinishda ifodalanadi. Shuning uchun ko‘rgazmalilikni ilmiy bilishda va o‘quv faoli-

yatida zarur bo‘lgan “ideallashtirilgan buyumlar” yaratishning fazoviy, makoniy, ixtiyoriy, ikki o‘lchovli vositasi sifatida ko‘rish mumkin. Ko‘rgazmalilikda, har qanday belgili-ramziy vositadagidek, xabar berilgan bo‘ladi, bunda xabarni uzatish jarayonida olingan ma’lumot o‘quv-bilish faoliyatining ko‘rsatma beruvchi, tartibga soluvchi, baholovchi va boshqa funksiyalarini bajarishi mumkin.

Bularning barchasi ko‘rgazmalilikni talabalar kimyoviy ta’limi mazmunining bir bo‘lagining fazo-vaqtda berilgan oddiy vizual obrazi sifatidagina emas, balki ularning o‘quv-bilish faoliyati bir bo‘lagining obrazi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bundan didaktik tamoyillar integratsiyasi asosida ta’lim mazmunini ta’limning mazmunli va tartibli tomonlarini birga qo‘shishning eng samarali usuli sifatida aks ettirish zaruriyati kelib chiqadi. Bunday birlik zaruriyati haqidagi g‘oyani barcha qabul qilganiga qaramasdan, uni amalga oshirishning real texnologiyalari hali yetarli darajada samarador emas. Ko‘rgazmalilik esa, muayyan darajada ushbu kamchilikni to‘ldiradi, ushbu birlikni amalga oshirish variantlaridan birini taklif qiladi.

Shunday qilib, ko‘rgazmali shaklda kimyoviy ta’lim mazmunini aks ettirish usuli didaktik tamoyillarni va ulardagi ma’lumotni taqdim qilishning me’yorlarini amalga oshirishga asoslanadi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, kimyoviy ta’lim mazmunining barcha komponentlarini ko‘rgazmali shaklda to‘liq aks ettirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арнхейм Р. Визуальное мышление //Зрительные образы: феноменология и эксперимент. Душанбе, 1973. – Ч. 2,3.

2. Веккер Л.М, Мир психической реальности: структура, процессы и механизмы /Под общ. Ред. А.В. Либина. –М. 1998.

3. Волков К.Н. Психологи о педагогических проблемах. –М.: Изд. Просвещения, 1981. – С. 128.

4. Выгодский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Изд. Педагогика, 1999.– С. 534.

5. Назарова Т.С, Полат Е.С. Средства обучения. Технология создания и использования, – М.: Изд. УРАО, 1998. – С.203.

6. Осорина М.В. Экспериментальное исследование образных структур на разных уровнях мыслительной деятельности: Автореф. Дисс....канд. психол. Наук. –Л., 1976.

7. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: Изд. Педагогика, 2000, – С. 271.

8. Психолого-педагогические вопросы методики обучения химии в высшей школе / Под ред. М.К. Клеянкиной, О.С. Зайцева. – Саранск. 1987, – С.100.

9. Салмина А.Г. Знак и символ в обучении. – М.: Изд. Педагогика, 1988.– С.175.

10. Элькони Д.Б. Психология обучения младшего школьника. – М.: 1974.

Farxod JABBOROV,
QVXTXQTMOHM “Tabiiy va aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARDA KIMYO FANI MAZMUNIDA UMUMLASHTIRILADIGAN KO‘NIKMALAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘quvchilarda kimyo fanidan umumlashtiriladigan ko‘nikmalar harakatlarning o‘ziga xos xususiyati sifatida qaralishi haqida fikr yuritilgan. Ya’ni har bir shakllangan ko‘nikmaning umumlashtirilishi va o‘zlashtirilishi mavjudligi ma’lum bir qoidaga asoslanishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. O‘quvchi, kimyo, umumlashtirish, ko‘nikma, o‘quv, belgili, model.

В этой статье рассматривается, что общие навыки учеников по химии рассматриваются как характеристика поведения усвоения. То есть было показано, что обобщение и усвоение каждого сформированного навыка основывается на определенном правиле.

Ключевые слова. Ученики, химия, обобщение, умение, обучение, знаковый, модель.

This article argues that students’ generalized skills in chemistry should be viewed as a feature of action. That is, it has been shown that the generalization and assimilation of each formed skill is based on a certain rule.

Key words. Students, chemistry, generalization, skill, teaching, sign, model.

Umumlashtiriladigan ko‘nikmalarni yangicha shaklda yaxlit ta’lim sifatida shakllangan ko‘nikmaning semantik tuzilishini tashkil etadigan ongli harakatlar asosida amalga oshirish uchun faoliyat tuzilmasini o‘zlashtirishga asoslanadi.

Xususan, umumlashtirilgan kimyoviy ko‘nikmalar haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, o‘quvchilarning barcha xatti-harakatlar va amallarni kimyoviy ko‘nikmaning bir qismi sifatida to‘liq hamda mustaqil ravishda amalga oshirishi, ular orasidagi aloqalarni o‘rnatishi, ularni standart va nostandart o‘quv sharoitida bajarishi bilan tavsiflanadi. Umumiy kimyoviy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni uch darajani qamrab oladi: ular ishlashning to‘liqligi, umumlashtirilishi va xabardorligini shakllantirishga qaratilgan. Agar ular shakllangan bo‘lsa, o‘quvchilarda samaradorlik, izchillik kabi fazilatlarning mavjudligi to‘g‘risida aytish mumkin bo‘ladi. O‘qituvchilarning amaliy faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, alohida amallar va harakatlarni o‘qitish jarayoni qiyin kechadi. Ko‘nikmani rivojlantirish uchun harakatni tashkil etuvchi amallar tarkibini aniqlash ratsional metodologiya va texnologiyani tanlashning zaruriy shartidir. Amallarning tarkibini bilib, o‘qituvchi har bir oddiy amalni bajarish ko‘nikmasini mashq qilishning eng oqilona ketma-ketligini belgilaydi, so‘ngra harakatni yaxlit bajarish ko‘nikmasini shakllantirishni amalga oshiradi. Shaxsiy amallarni va umuman harakatlarni bajarishning ilmiy asos-

larini anglagan holda, o‘quvchilar ushbu turdagi ko‘nikmalarni tezda o‘zlashtiradilar.

Jarayon yoki hodisani o‘rganayotganda uni oddiy elementar shakllanishigacha “ajratish” mumkin emas, chunki ular endi o‘rganilishi kerak bo‘lgan o‘ziga xos sifatni o‘z ichiga olmaydi. Tahlilni osonlashtirish uchun o‘rganilayotgan hodisani soddalashtirish, uning asosiy xususiyatlarini saqlab qolish kerakligini yodda tutish kerak. Yetarlicha tahlil birligi – motiv va maqsadning mavjudligini taxmin qiladigan harakatdir. Agar birlik sifatida oddiy protsessual ta’limni tanlasak, tahlil natijasida olingan ma’lumotlar o‘rganilayotgan hodisa – faoliyatning mavjud bo‘lgan muhim xususiyatlarini aks ettirmaydi.

Masalan, ion almashinish reaksiyalari tenglamalarini tuzish faoliyatining semantik tuzilishi asosiy harakatlarni o‘z ichiga oladi: 1. Moddaning elektrolitlar yoki noelektrolitlar sinfiga mansubligini aniqlash. 2. Elektrolitik dissotsiatsiyalanish reaksiyalarining tenglamalarini yozish. 3. Ion almashinish reaksiyalarini yozish. Har bir harakat amallarni o‘z ichiga oladi. Xususan, moddaning elektrolitlar yoki elektrolit bo‘lmagan moddalar sinfiga mansubligini aniqlash bo‘yicha harakat amallarini o‘z ichiga oladi:

1.1 Birikmalardagi kimyoviy bog‘lanish turini molekulyar formulasi bo‘yicha aniqlash;

1.2 Bir sinfga tegishli moddaning molekulyar formulasi bo‘yicha aniqlash;

1.3 Eruvchanlik jadvali bo‘yicha moddaning eruvchanligini aniqlash.

Kichik amallarni qo‘shish, jumladan, ion bog‘lanishli moddalarni molekulyar formulada aniqlash shart emas, ya’ni, u endi moddalarni elektrolitlar yoki elektrolit bo‘lmagan moddalar deb tasniflash bo‘yicha faoliyatning muhim elementlarini o‘zida aks ettirmaydi.

Faoliyat tizimidagi amallar subyekt mazmuni jihatidan minimal bo‘lgan harakatlar deb ta’riflanadi, unda shakllanayotgan faoliyatning tarkibiy holatlarini aniqlash ham mumkin bo‘ladi. Faoliyatning semantik tarkibidagi barcha funksional komponentlar “tayyorgarlik – amalga oshirish” munosabatlarida joylashgan. U yoki bu funksional komponentni asosiy qism deb hisoblanishi mumkin, undan keyin esa uning tarkibiy qismlarini tayyorgarlik qismi deb hisoblash kerak; boshqa tomondan, xuddi shu funksional komponent keyingi komponent uchun tayyorgarlik qismi hisoblanadi. “Tayyorlash – amalga oshirish” munosabati butun jarayon davomida faoliyat jarayonining o‘zaro bog‘liq xususiyatidir. Taxminiy amal natijasi – ijro etuvchi amal subyektini olish; keyingisining natijasi – bu asosiy komponentning birinchi harakatining ba’zi tarkibiy holatlarini e’tiborga olish sanaladi.

Davlat ta’lim standartlarida kimyoviy malakaviy ko‘nikmani shakllantirishga qo‘yiladigan talablarni asosiylaridan biri – ion almashinish reaksiyalarining tenglamalarini tuzish ko‘nikmasi misolida – “Elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasi” mavzusida ko‘rib chiqiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida mazkur mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar:

Bila oladilar yoki tushuna oladilar: kimyoviy belgilar: kimyoviy elementlarning belgilari, kimyoviy moddalar formulalari va kimyoviy reaksiyalar tenglamalari; eng muhim kimyoviy tushunchalar: atom, molekula, ion, kimyoviy bog‘lanish, modda, moddalarning tasnifi, kimyoviy reaksiya, elektrolit va noelektrolit, elektrolitik dissotsiatsiyalanish; moddalar massasining saqlanish qonuni.

Bajara oladilar: o‘rganilayotgan sinflarning birikmalarini nomlash; ion almashinish reaksiyalarining mohiyatini tushuntirish; moddalarning tarkibi, tuzilishi va xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tavsiflash; noorganik moddalarning asosiy sinflarining kimyoviy xossalari; moddalarning tarkibini ularning formulalari bo‘yicha, moddalarning ma’lum bir birikma sinfiga mansubligini, kimyoviy reaksiyalar turlarini, birikmalardagi kimyoviy bog‘lanish turini, ion almashinish reaksiyalarining imkoniyatlarini aniqlash; o‘rganilayotgan sinflarning noorganik birikmalarining formulalarini, kimyoviy reaksiyalar tenglamalarini tuza olish.

Davlat ta’lim standartiga muvofiq umumlashtirilgan kimyoviy ko‘nikmalar faqat maxsus tayyorgarlik darajasida shakllanadi. Shu bilan birga, kimyoviy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida o‘quv belgili kimyoviy modellarni ko‘p funksiyali tarzda foydalanish kimyo fanini o‘qitishning yaxlit jarayoni davomida umumlashtirilgan ko‘nikmalarni shakllantirishga imkon beradi.

Bu o‘quv belgili kimyoviy modellarni loyihalash jarayoni va o‘quv jarayonining kimyoviy vazifalar tizimini, ularni umumlashtirilgan kimyoviy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun o‘quvchilarning o‘quv bilish faoliyatida foydalanish usullarini ta’minlaydigan maxsus metodikani ishlab chiqish zarurligini anglatadi. Ishlab chiqilgan metodologiya umumlashtirilgan kimyoviy ko‘nikmaning tarkibiy-mazmuniy modeli o‘quv belgili kimyoviy modellarni rivojlantirish uchun asos bo‘lib, ularni qo‘llash bosqichlari va usullarini aniqlashga asoslanadi.

O‘quv belgili kimyoviy modellardan foydalanishning ikkinchi bosqichi va ularni umumlashtirilgan kimyoviy ko‘nikmalarni shakllantirishning ko‘p funksional vositasi sifatida ishlatishning uch darajasi belgilab berilgan. O‘quv belgili kimyoviy modellardan foydalanishning birinchi bosqichi – loyihalash bo‘lib, o‘qituvchining o‘zi faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq. Bu, bir tomondan, “o‘qituvchi – mazmun” munosabati bilan, boshqa tomondan, bashoratlash jihatiga ko‘ra, “o‘quvchi – mazmun” munosabati bilan belgilanadi.

Ikkinchi bosqich – funksional bosqich bo‘lib, o‘quvchilarning o‘qituvchi bilan mustaqil va birgalikdagi faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq. Ushbu bosqich o‘quv belgili kimyoviy modellarni ko‘p funksional xususiyatlarini, umumlashtirilgan kimyoviy ko‘nikmalarning xususiyatlarini va o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish usullarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonida amalda qo‘llashni nazarda tutadi.

Umumiy kimyoviy ko‘nikmalarni shakllantirish darajasi:

– komponentli, bunda o‘quvchilar tomonidan (harakatlar, amallar) ko‘nikmalar tarkibini o‘zlashtirishga qaratiladi;

– integralli, bunda tarkibiy-mazmuniy aloqalarni o‘rnatishga asoslangan ko‘nikmaning o‘rganilgan tarkibiy qismlarini ajralmas tizimga qo‘shilishini o‘z ichiga oladi;

– funksional, o‘zlashtirilgan umumlashtirilgan ko‘nikmalarni standart va nostandart vaziyatlarda amaliy qo‘llashga hamda ko‘nikmalarni har xil umumlashtirish darajalariga o‘tkazishga yo‘naltirishdan iborat.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘quv belgili kimyoviy modellardan foydalanishning qayd etib o‘tilgan usullari, kimyoviy ko‘nikma tarkibini tezkor shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quv belgili kimyoviy modellarni tarkibiy qismlarini tarkibiy-mazmuniy aloqalarni o‘rnatishga asoslangan integral tizimga umumlashtirish orqali yaratish lozimligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabborov F. B. Kimyo darsliklarining belgili ramziy modellarini tarkibiy-mazmuniy-tahliliy aspektlari. Mug‘allim həm uzliksiz bilimlendirio‘. Ilimiy-metodikal jurnal №5/1, 2020. 47-51-betlar.

2. Габай Т.В. Педагогическая психология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. Заведений/ Т.В. Габай. – М.: Академия, 2003. – С.240.

3. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики /А.Н.Леонтьев. – М. Мысль, 1965.

4. Лернер И.Я. Качества знаний учащихся. Какими они должны быть?/ И.Я. Лернер –М.: Знание, 1978.– С. 47.

Mutallib HAZRATQULOV,
Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi
Maftuna ZARIPOVA,
Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi

CHET EL ADIBLARI ASARLARINI O‘RGANISH ORQALI TALABALAR NUTQINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Talabalar badiiy matnni so‘zlar, iboralar, jumlalar, uning tarkibiy qismlari, intonatsiyasi, so‘zlarning tartibi va badiiy ifodalashning ko‘plab elementlari orqali idrok etadilar. Bu signallarning barchasi talabalarning matnni idrok etish jarayoniga ta’sir qiladi. Shuning uchun matnni tushunish talabalarning o‘zlariga yuborilgan signallarni qabul qilish qobiliyatiga va ularga javob berish mahoratiga bog‘liq.

Kalit so‘zlar. Ibora, tarkibiy qism, nutq, nutq madaniyati, matn tahlili, semantik, estetik idrok, qobiliyat, fikrlash, nutq faoliyati, ichki nutq, kommunikativ akt, semantik ma’no.

Студенты воспринимают художественный текст через слова, фразы, предложения, их компоненты, интонацию, порядок слов и многие элементы художественного выражения. Все эти сигналы влияют на понимание учащимися текста. Следовательно, понимание текста зависит от способности учащихся воспринимать посылаемые им сигналы и их способности реагировать на них.

Ключевые слова. Фраза, компонент, речь, культура речи, анализ текста, смысловое, эстетическое восприятие, способность, мышление, речевая деятельность, внутренняя речь, коммуникативный акт, смысловое значение.

Students perceive an artistic text through words, phrases, sentences, its components, intonation, word order, and many elements of artistic expression. All of these signals affect students’ comprehension of the text. Therefore, comprehension of the text depends on the students’ ability to receive the signals sent to them and their ability to respond to them.

Key words. Phrase, component, speech, speech culture, text analysis, semantic, aesthetic perception, ability, thinking, speech activity, internal speech, communicative act, semantic meaning.

Nutq malakasini shakllantirish deganda, badiiy asarlarni estetik idrok etish, badiiy ijod, asar muallifining fikrlarini ifoda etishining og‘zaki lingvoestetik o‘ziga xosligini anglashni ham tushunamiz. Badiiy matnning insonga semantik, intonatsion ta’sir etish yo‘llari, vositalarini aniqlash va anglash, nutq madaniyatini oshirish, yaxshi nutqni shakllantirishning muhim aspektlari hisoblanadi.

O‘rganilayotgan asar, badiiy ijod, fikrlash va til o‘rtasidagi munosabatlar – bularning bari mantiqan nutq faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ijtimoiy hayotda odam shunchaki o‘z fikrini aytishi, shu bilan birga nima deyishni, qanday qilib gapirish kerakligini bilishi va tushunishi uchun yuqori nutq va muomala madaniyatiga ega bo‘lishi muhimdir. Bu jarayon ijtimoiy hayotning yuqori darajali

qatlamlari – ta’lim, xalqaro aloqalar, boshqaruv organlari va shunga o‘xshash toifa egalari uchun tinglovchilarga ta’sir o‘tkazish, o‘z fikrini dalillay olish muhim sanaladi. Bu boradagi zaruriy bilimlar nutq san’ati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Badiiy matn ustida ishlashda tahlilning kiritilishi shoir va yozuvchining ijodiy laboratoriyasiga kirib borishga, falsafiy mulohazaning, muallifning ruhiy holati bilan qanday bog‘liqligini, obrazlarni yaratish va unga egalik qilgan fikr va his-tuyg‘ularni anglashning badiiy vositalari qanday ekanligini aniqlashga imkon beradi. Shu sababli L.Vigotskiy “San’at – bu amalga oshirilmagan adabiy jarayonni amalga oshirish natijasidir”, deya ta’kidlaydi.

Inson shug‘ullanadigan turli xil ijod turlari mavjud. Boy ma’naviy hayot – bu inson faoliyatining boshqa sohalarida qo‘llanilmagan imkoniyatlaridan oqilona foydalanish imtiyozi hisoblanadi. Adabiy asar bilan aloqa ham shunday bo‘lib, muallif boshdan kechirgan narsalarni boshdan kechirishga va qayta o‘ylashga majbur qiladi. Badiiy matnni estetik idrok qilish badiiy ijod jarayoniga o‘xshaydi, garchi u bunday kuchli hissiy tajribalarni real boshidan o‘tkazmayotgan bo‘lsa ham, qaysidir ma’noda jarayon ishtirokchisi sanaladi.

Bizga ma’lumki, kognitiv faoliyat jarayonida nutq harakati ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda yetakchi hisoblanadi. Bunday holda, nutq faoliyati odam tomonidan kuzatilgan va amalga oshirilgan harakatlarning og‘zaki takrorlanishiga, ongdagi harakat usulini takrorlashga aylanadi. Nutq faoliyati diqqat bilan tinglash, o‘qish, tushunish, yaxshi gapirish, xabar yozish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Nutq to‘rt bosqichni o‘z ichiga olgan dinamik tuzilishga ega: yo‘nalish, rejalashtirish, amalga oshirish va boshqarish. Nutq harakatlarida ikkita muhim nutq jarayoni ajratiladi:

1) gapirish yoki yozish jarayonlari bilan bog‘liq og‘zaki yoki yozma bayonot yaratish;

2) xabarni tinglash yoki o‘qish asosida nutqni idrok etish.

Nutqni yaratishda maktab o‘quvchilarining oldindan rejalashtirish qobiliyati, asosiy mavzuni, mikromavzularni rivojlantirish yo‘nalishini belgilash, adresat, so‘zlashuv maqsadi, suhbatdoshga ta’sir o‘tkazish niyatini hisobga olgan holda til vositalarini tanlash qobiliyati namoyon bo‘ladi.

Badiiy matnni tahlil qilish asosida talabalar so‘zlarni, iboralarni va sintaktik konstruksiyalarni, matndan badiiy ifoda vositalarini tanlash qobiliyatini oshiradilar va o‘z navbatida, fikrni shakllantirish, grammatik shakllarni tanlash kabi qobiliyatga ham ega bo‘ladi.

Adabiy asarlarni chuqur o‘rganish asosida nutq madaniyatini oshirish bo‘yicha ish olib borishda talaba dastlabki ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan badiiy matnni gapirishni, o‘zgartirishni o‘rganishi kerak. Buning uchun talaba o‘qituvchining matn tahliliga tayanib uning tushuntirishlarini tushunishi, tinglashi, matnning ma’nosini ochishi kerak. Uni boshqasiga yetkazmoqchi bo‘lgan odamning fikri nutqda obyektivlashadi. Bu badiiy matnni tushunish uchun asos bo‘lgan semantik ma’no. Batafsil tahlil qilingan badiiy asarning semantik ma’nosi ayni paytda nutq va fikrlash materiali hamdir.

Talabalar badiiy matnni so‘zlar, iboralar, jumlalar, uning tarkibiy qismlari, intonatsiyasi, so‘zlarning tartibi va badiiy ifodalashning ko‘plab elementlari orqali idrok etadilar. Bu signallarning barchasi talabalarning matnni idrok etish jarayoniga ta’sir qiladi. Shuning uchun matnni tushunish talabalarning o‘zlariga yuborilgan signallarni qabul qilish qobiliyatiga va ularga javob berish mahoratiga bog‘liq.

Q.Yo‘ldoshev “Badiiy tahlil asoslari” kitobida shunday yozadi: “Bizningcha, har qanday badiiy asarning o‘qishli va jozibali tomonlarini tashkil etgan estetik,

psixologik, hayotiy, ruhiy, hamda badiiy tasvirga doir omillarni topish, muayyan bir asar o‘qilayotganda uning qaysi jihatlariga e’tibor qaratilsa, asar mohiyatiga yetish osonroq bo‘lishini ko‘rsatish borasida o‘qitishning ko‘mak berish tahlilchining asl mohiyatini anglatadi.

Demakki, badiiy asarni to‘liq idrok etish va tushunish darsda matnni qisman yoki to‘liq o‘rganilganligi bilan belgilanadi.

Talabalar nutqida bir vaqtning o‘zida uchta hodisa sodir bo‘ladi: 1) ichki nutqda to‘g‘ri so‘zlarni tanlash va talaffuz qilish; 2) shaxsning grammatik kategoriyalaridan, vaqtidan, hajmidan, ishidan foydalangan holda ma’lum jumla tarkibidagi xabarni loyihalash; 3) gapirish – kommunikativ aktni amalga oshirish.

Dastlabki bosqichda ongda turli xil so‘zlar paydo bo‘ladi, ulardan zarur bo‘lganlari tanlanadi, mavzuga, sozlamaga mos keladi.

Talabalar nutqini shakllantirish, faqat aytilgan narsaning umumiy ma’nosigagina emas, bir nechta kalit so‘zlarga asoslanadi. Bu kalit so‘zlar eng to‘g‘ri nutq tarkibini tuzish bilan belgilanadi. To‘liq yechim faqat so‘zlarning boy lug‘ati va sintaktik tuzilmalar bilan emas, his-tuyg‘u, kechinmalar yordamida amalga oshiriladi.

Og‘zaki va yozma ifoda malakalarini shakllantirish uchun materialni tanlash va tizimlashtirish bo‘yicha dastlabki ishlar juda muhimdir. Talabalar lug‘at boyligida ba’zi so‘zlar faol ba’zilari passiv o‘rin tutishi mumkin. Kamdan-kam ishlatiladigan so‘zlar passiv lug‘atga aylanishi mumkin. Og‘zaki bayonotni ko‘paytirish uchun talaba to‘g‘ri so‘zlarni tanlashga kam vaqt ajratadi. Ko‘pincha talaba o‘z nutqida avtomatik ravishda mavjud bo‘lgan so‘zlarni ishlatadi. Bunday holda, faol so‘z boyligi cheklanganligi va nutq vazifasining murakkabligi bilan maktab o‘quvchilari mavzuga mos bo‘lmagan so‘zlardan foydalanadilar, ularning o‘rnini bosish, noaniqliklar, eslatmalar, pauzalar paydo bo‘ladi. Nutq madaniyatini oshirish ishlari bilan qamrab olinmagan talabalarning nutqi shunday davom etadi. Lingvo-estetik tahlil yordamida badiiy matnni tahlil qilish, sinonimlarni, antonimlarni, noaniq so‘zlarni, nutq konstruksiyalarini tanlash tizimini shakllantirish ularning nutq ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunday ish usuli uzoq muddatli xotira orqali yodlashga yordam beradi. Maktab o‘quvchilarining so‘z boyligi nutqda tez-tez ishlatiladigan, avtomatlashtirilgan va shu sababli osongina ko‘paytiriladigan so‘zlar hisobiga takomillashadi.

Adabiy asarni tahlil qilish jarayonida so‘zlarni to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, talabaning savollarga bergan javoblari tufayli tahlil natijasida, yakuniy xulosalash muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, o‘rinli so‘zlarni tanlash, mantiqiy ketma-ketlikka e’tiborli bo‘lish, mulohaza yuritganda izchillikni yo‘qotmaslik eng muhim talablardan hisoblanadi.

Ichki nutq – fikrni shakllantirishning o‘ziga xos usuli sanaladi. Uni til yordamida ham, eng yuqori bo‘lgan ichki individual kod yordamida ham amalga oshirish mumkin.

Dastlab, inson ichki nutqida bo‘lishi lozim bo‘lgan voqeiylikni o‘ylaydi va shakllantiradi, bayonotning rejasi va mavzusiga ega bo‘ladi. Ichki nutq – bu asl fikr va yakuniy nutq jarayoni o‘rtasidagi bog‘liqlik mavjud. U maxsus tuzilishga ega, uning o‘ziga xos xususiyatlari predikativlik, qisqarish va grammatik amorflikdir. Predikativ va kengaytirilgan shakldagi fikr ichki nutqda shakllantirilganda, uning nutq shakllanishi davri boshlanadi: nutqning birinchi turini, leksemalarini, ularning grammatik ifodasini, so‘zlarning tartibini o‘ylashning ta’rifi boshlanadi.

Ichki nutqda talaffuz gapning yanada ravshanligi, uyg‘unligi, izchilligiga yordam beradi. Ammo gapni rejalashtirish ba‘zida maktab o‘quvchilari tomonidan tugallangan

matnning oddiy bo‘linishi bilan almashtiriladi. Bu talaba faktlarni ifodalash uchun tanlay olmasligi, ularni tizimlashtira olmasligi, tilning sinonim imkoniyatlaridan foydalana olmasligini ko‘rsatadi. Shu sababli, ichki va tashqi nutqda bayon bo‘yicha fikrlash qobiliyatini shakllantirish kerak.

Ishlash, anglash badiiy matn mazmunini chuqur o‘zlashtirishning faqat bir tomonidir. O‘zlashtirishning muhim bo‘limlari yuksak hissiyotlarni rivojlantirish va butun badiiyatni tushunish darajasini anglatadi.

Faqatgina badiiy matnni to‘liq anglash, o‘qitish va o‘zlashtirish oliy ta’lim talabalari uchun yuqori darajadagi nutq madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha ishlarni olib borish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Ko‘pincha matnni tushunishda birovning nutqi, badiiy so‘zlar va ularning o‘z nutqida takrorlanishini nozik va aniq tushunishga erishish masalasi yoritilmay qolib ketadi. Kuzatuvlar natijasida, muallif o‘quvchilarning bilimlari o‘sib, ulg‘aygan sari o‘quvchilarning nutq tilining intellektualligi mavjud degan xulosaga kelinadi. Biroq, adabiy asarlarni o‘rganish jarayonida talabalar badiiy so‘zning nafosatini his qilishni o‘rganmaydilar va ularni o‘z nutqlarida yetkaza olmaydilar.

Ko‘rkam nutq yuqori madaniyatli talabalarning aql-idrokini rivojlanishiga ta’sir qiladi va bilim jarayonlarini faollashtirishga yordam beradi. Til bizning fikrlashimizga rahbarlik qiluvchi vosita rolini bajarish bilan birga jamiyatda to‘g‘ri nutq xatti-harakatlari ko‘nikmalariga ega bo‘lishlikni ham ta’minlaydi.

Biz har qanday adabiy asarni ona tilimiz tomonidan tavsiya etilgan yo‘nalishda tushunishga urinamiz. Badiiy asardagi ayrim jihatlarni umuman farq qilmaymiz, chunki o‘z-o‘zidan ravshanki, biz dunyoni tushunish asnosida, turli tushunchalarni o‘ylab topamiz va ma’nolarni shu tarzda taqsimlaymiz. Turli tillarda gaplashadigan odamlar dunyoni har xil yo‘llar bilan idrok etadi va tushunishga urinadi. Shuning uchun ham talabalarning bugungi kundagi intilishlari chet tilini nafaqat aloqa vositasi sifatida, balki milliy madaniyatning muhim qismi sifatida o‘zlashtirishni nazarda tutadi.

Til o‘rganish jarayoni talabalarning nutqni to‘g‘ri, aniq, shakllantirishning bitmas-tuganmas manbai bo‘lib, o‘qituvchining vazifasi psixologik jarayonlarni safarbar etish orqali talabalarning nutq madaniyatini oshirishga barcha mumkin bo‘lgan texnika va uslublarni yo‘naltirishdir.

Chet tili ta’limi jarayonida badiiy matnning vazifaviy xususiyatlarini ko‘rib chiqishni adabiyot o‘qitish metodikasi taraqqiyotining turli bosqichlaridagi tasavvurlar bilan yaxlit holda boshlash kerak. Berilgan ketma-ketlikka rioya qilish u yoki bu asar matnini o‘quv materiali sifatida saralashni aniqlaydigan badiiy matn xususiyatlarining jamlanmasini to‘laligicha tahlil qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev Y. Jahon oliy maktabi: qiyosiy tahlil. –T.: Adabiyot va san’at, 2001. –288-b.

2.Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. –T.: Kamalak nashriyoti 2016. –464-b.

3. Выготский Л.С. Педагогическая психология – М.: “Педагогика-Пресс”, 1996. С. 533.

4.Turdiyev B. Yozma nutqni o‘stirish yuzasidan praktikum. Pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun o‘quv-qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi, 1980.

Xadicha BEKNAZAROVA,
Qarshi davlat universitetining “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARINI DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL QILISHNING ILMIY-METODIK JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash tizimining ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ularni rivojlantirishga doir tizimli vazifalar qayd etilgan. Shuningdek, iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida differensial yondashuv asosida rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari ishlab chiqish yuzasidan metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Iqtidor, qobiliyat, iqtidorli o‘quvchilar, o‘quv topshiriqlari, tadqiqotchilik qobiliyati.

В статье описаны научно-методические основы системы работы с одаренными студентами. Намечены систематические задачи по выявлению и развитию одаренных студентов. Даны также методические рекомендации по разработке развивающих заданий на основе дифференцированного подхода к работе с одаренными учащимися.

Ключевые слова. Талант, способности, одаренные ученики, задания, исследовательские способности.

This article describes the scientific and methodological basis of the system of working with gifted students. Systematic tasks are identified to identify and develop gifted students. Methodological recommendations for the development of developmental tasks based on a differential approach to working with gifted students are also provided.

Key words. Talent, ability, gifted students, assignments, research ability.

Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida olib borilayotgan o‘quv-tarbiyaviy jarayon, asosan, o‘rta darajada bilimlarni o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga mo‘ljallanadi. Shuningdek, davlat ta’lim standarti talablari ham ko‘pgina o‘qituvchilar uchun asosiy maqsad bo‘lib qolmoqda. Vaholanki, Davlat ta’lim standartlari o‘quvchilar tayyorgarlik darajasiga qo‘yilayotgan minimal talablarni belgilab beradi. Bunday holat sinfdagi bilimlarni yaxshi va tez o‘zlashtiruvchi, iqtidorli o‘quvchilar bilan olib borilayotgan ishlarda sustkashlikni va e’tiborsizlikni yuzaga keltirmoqda. Natijada esa har qanday iqtidor, layoqat ham e’tiborsizlik tufayli yuzaga chiqmaydi, rivojlanmaydi va hattoki, so‘nib borishi ham mumkin. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari uchun nashr etilayotgan metodik qo‘llanma va tavsiyalarda iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash uchun alohida o‘quv materiallari ajratilmagan. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash muammosi tezkorlik bilan hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb muammolar sirasiga kiradi, desak yanglishmaymiz.

Chet el ta’lim taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari va uning muhim sohalaridan biri bo‘lgan tabaqalashtirib o‘qitish masalalari bilan tanishish, uning ijobiy tomonlaridan

O‘zbekiston ta’lim tizimida foydalanish juda katta samara beradi. Pedagogik jarayonda o‘quvchilarga individual va differensial yondashuv shaxs rivojlanishida muhim omil hisoblanadi, chunki aynan shunday yondashuv yoshlardagi iqtidor va qobiliyatni ko‘ra bilish, shaxs rivojlanishiga sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Iste’dodlilar bilan ishlashda Karne, Shvedal va Linnemayerlar (1982-y.) quyidagi mezonlarni ishlab chiqdilar:

Har bir bola takrorlanmasdir. Ba’zilari she’r yozish, insholardan, ba’zilari matematikadagi qobiliyati bilan ajralib turadi. Oddiy maktabda musiqaga qobiliyati bor o‘quvchini ham ajrata olmasligimiz mumkin. Uchinchi bir bola esa yuqori intellekti (IQ) bilan ajralib turadi, lekin bu bolaning o‘zini baholash mezoni juda past bo‘lishi mumkin. Shu orqali har bir bolaning kuchli va kuchsiz tomonini bilishimiz lozim. Shu orqali iste’dodli bolalar bilan ishlash rejasini tuzish mumkin.

Dasturning optimal jihatlarini ko‘rishi kerak, bola bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tishini ta’minlashi maqsadga muvofiq.

Dastur qat’iyatlilik va maqsadga intilishni rivojlantirish lozim. Yuqori bo‘lishi juda katta ahamiyatga ega emas. Maqsadga intilish va boshlagan ishini oxirigacha yetkazishi muhimdir.

Dasturning asosiy maqsadlaridan biri ijodiy qobiliyatni rivojlantirishdir.

Iste’dodli bolalar bilan ishlashda qobiliyatli tarbiyachi, o‘qituvchilarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday mutaxassislar maktabga ham, ota-onalarga ham juda zarurdir.

Iste’dodli bolalarning muammolari. Leta Xollinguort intellektual jihatdan iste’dodlarning moslashuvini o‘rganib chiqib, bu muammoga o‘zining katta hissasini qo‘shdi. Ota-ona va pedagoglar iste’dodli bolalar bilan ishlayotganda quyidagi muammolarga o‘z e’tiborlarini qaratishi darkor:

Maktabni yoqtirmaslik. Bunday holat iste’dodli bola uchun asosan, maktab dasturi zerikarli va qiziq bo‘lmagan holatda sodir bo‘ladi. Iste’dodli bolalarning fe’lidagi o‘zgarishlar ularning qobiliyatiga dastur moslanmasligi uchun sodir bo‘ladi.

O‘yin holatiga bo‘lgan qiziqishlar. Iste’dodli bolalarga murakkab o‘yinlar juda yoqadi va ularga hamma tengdoshlarini qiziqtiradigan o‘yinlar zerikarli tuyuladi. Shu sababdan iste’dodli bola yakkalanib qoladi.

Konformlilik. Iste’dodli bolalar standart talablarni inkor qiladi, agar standartlar uning uchun to‘g‘ri kelmasa, ma’nosizdek tuyuladi.

Falsafiy muammolarga o‘ralashib qolish. Iste’dodli bolalar ko‘pincha o‘lim haqida, qabrdagi hayot, diniy ishonch va falsafiy muammolar haqida ko‘p boshlarini qotiradi.

Fiziologik, intellektual va ijtimoiy rivojlanishning bir-biriga mos kelmasligi. Iste’dodli bolalar o‘zlaridan katta bo‘lgan bolalar bilan muloqot qilishni va o‘ynashni yoqtirishadi. Shuning uchun ham ular sardor bo‘lishga qiynalishadi, chunki ularda fiziologik o‘sish kechroq bo‘ladi.

Kattalar e’tiborini tortishga intilish. Tabiat ato etgan dunyoqarashi va bilishga intilish jarayonida iste’dodli bolalar o‘qituvchi, ota-ona va boshqa katta insonlarning e’tiboriga muhtoj bo‘lib qoladi. Bu boshqa bolalarning jahllari chiqishiga olib keladi.

Sabrsizlik. Iste’dodli bolalar o‘zlaridan past bo‘lgan intellektda turadigan bolalarga nisbatan sabrsizlik bilan munosabatda bo‘lishadi. Ular atrofdagilarning munosabatlarini va tanqidlarini inkor etadi, ular bunga nafrat yoki sabrsizlik bilan javob berishadi.

Turli bosqichli ta’lim uchun o‘qituvchilar quyidagilardan foydalanadi:

topshiriq bilan birga ozgina yordam elementlari mavjud bo‘lgan ma’lumot-

kartochkalar;

ko‘ngilli bajarish uchun muqobil topshiriqlar;

o‘quvchilar tomonidan mazmuni yoritilgan topshiriqlar;

faoliyatning ratsional usullarini egallashga yordam beruvchi topshiriqlar.

Ona tili darslarida o‘quvchilarni guruhlarga ajratish bilan bir qatorda differensiallashgan o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish lozim.

Ona tili fanidan differensiallashgan o‘quv topshiriqlarining quyidagi turlari mavjud:

Ijodiylik darajasiga ko‘ra differensiallashgan o‘quv topshiriqlari.

Murakkablik (qiyinlik) darajasiga ko‘ra differensiallashgan o‘quv topshiriqlari.

O‘quv materiali hajmiga ko‘ra differensiallashtirish.

O‘quvchilarning mustaqillik darajasiga ko‘ra differensiallashtirilgan o‘quv topshiriqlari.

O‘qituvchidan olinadigan yordam hajmiga ko‘ra differensiallashtiriladigan o‘quv topshiriqlari.

Quyida mazkur o‘quv topshiriqlarining mazmun mohiyati, qo‘llanilishi va tashkiliy masalalari haqida batafsil ma’lumot beramiz.

Ijodiylik darajasiga ko‘ra differensiallashgan o‘quv topshiriqlari. Bunday o‘quv topshiriqlari o‘quvchilar o‘quv-biluv faoliyati turiga ko‘ra farqlanadi va ular reproduktiv yoki produktiv (mahsuldor) o‘quv topshiriqlari tarzida tuzilishi mumkin. Reproduktiv o‘quv topshiriqlari o‘quvchilardan ijodiy yondashuvni talab etmaydi va asosan namuna asosida bajariladigan topshiriqlar kiradi. Produktiv (mahsuldor) o‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonida ijodiy yondashuv talab etiladi va an’anaviy topshiriqlardan bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarning xilma-xilligi bilan farq qiladi.

Ona tili darslarida produktiv – ijodiy xarakterdagi quyidagi o‘quv topshiriqlaridan foydalanish mumkin:

Unli va undosh tovushlarni tasniflash.

Masalan, unli va undosh tovushlarni alohida-alohida aytib ko‘ring. Ularni talaffuz qilishda qanday farqni sezayapsiz?

Tovushlarni boshqasiga o‘zgartirish

Masalan, 1). Oltita unli harf ishtirok etgan so‘z yozing. Ulardagi unlini boshqa unli bilan almashtirib ko‘ring. Qanday o‘zgarishlarni sezayapsiz?; 2). Undosh tovushlarni talaffuz qilib ko‘ring. Shovqin va ovozdan hosil bo‘lgan undoshlar alohida, faqat shovqindan hosil bo‘lgan undoshlarni alohida yozing.

ma’lumotlar ortiqcha yoki kam bo‘lgan o‘quv topshiriqlari;

topshiriqlarni turli usullar bilan yechish, qulay (ratsional) usulni tanlash;

mustaqil ravishda o‘quvchilarga “Bog‘da”, “Polizda”, “Sinfimiz kutubxonasi”, “Sevimli ertagim”, “Aziz onajonim”, “Mehribon do‘stlarim” singari mavzularda matn yaratish tavsiya etiladi va h.k.

2. Murakkablik (qiyinlik) darajasiga ko‘ra differensiallashgan o‘quv topshiriqlari.

Differensiallashgan ta’limni tashkil etishning bu turida murakkablashtirilgan o‘quv topshiriqlari o‘zlashtirishi bir muncha yuqori bo‘lgan o‘quvchilar guruhi uchun foydalanilib, ular quyidagicha mazmunda bo‘lishi mumkin:

o‘quv materiallarni murakkablashtirish (masalan, birinchi va ikkinchi guruh o‘quvchilari uchun Alifbodagi harflarni ko‘zdan kechiring. Talaffuzi va imlosi bir-biriga o‘xshash bo‘lgan tovush va harflarni aniqlang kabi topshiriq berilsa, uchinchi guruh o‘quvchilariga unli tovushlarni sanab bering? kabi savol berilishi mumkin);

ona tilidan mashqlarni bajarish yoki yechimini topishda bajariladigan ishlar sonini ko‘paytirish (masalan, ikkinchi va uchinchi guruhda uch bosqichli topshiriq berilsa,

birinchi guruh uchun to‘rt bosqichli topshiriq beriladi);

ma’lumotlarni taqqoslash asosida o‘quv topshirig‘iga qo‘shimcha ravishda bajarish topshirig‘ini berish (masalan, uchinchi guruhga o va a harflari so‘z boshida va so‘z o‘rtasida qo‘llanilgan holatlarga 5 tadan so‘z yozing topshirig‘ini berish);

teskari amallarni bajarishga doir o‘quv topshiriqlarini berish (masalan, ikkinchi va uchinchi guruhga daftarga 8 ta d, t harflarining so‘z boshi va oxirida keladigan holatlariga so‘z yozish, ularning imlosi va talaffuzdagi farqlarni tushuntirish topshirig‘i berilsa, birinchi guruhga d va t harfi faqat so‘z boshida keladigan so‘zlarni topish topshirig‘i beriladi).

3. O‘quv materiali hajmiga ko‘ra differensiallashtirish. Differensial ta’limning bu turida birinchi va ikkinchi guruh o‘quvchilariga asosiy o‘quv topshirig‘idan tashqari, unga o‘xshash bo‘lgan qo‘shimcha material ham beriladi. Bunday o‘quv topshiriqlari o‘quvchilarning topshiriqlarni turli tezlikda amalga oshirishi bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Sekin ishlaydigan yoki o‘zlashtirishda qiyinchiliklari bo‘lgan o‘quvchilar mustaqil ishlarni boshqa o‘quvchilarga nisbatan sekin bajaradi va tekshirish vaqtida ishlarni tugatishga qiynaladi, ular uchun qo‘shimcha vaqt ajratish lozim bo‘ladi. Bu vaqtda esa iqtidorli va faol o‘quvchilar uchun beriladigan qo‘shimcha topshiriqlar ular vaqtining behuda sarflanmasligiga yordam beradi.

Qo‘shimcha topshiriq sifatida bir muncha murakkabroq yoki ijodiy xarakterdagi o‘quv topshiriqlarini berish mumkin. Shu bilan birga o‘yin xarakteridagi, nostandart topshiriqlar ham berilishi mumkin. Bunday topshiriqlarni alohida tarqatma material sifatida berib individuallashtirish mumkin. O‘quvchilar bunday topshiriqlarni qo‘shimcha daftarlariga ham bajarishlari mumkin.

Masalan, mustaqil o‘qigan badiiy asaringizdan bugungi mavzuga mos so‘zlarni topib, yozib keling kabi.

4. O‘quvchilarning mustaqillik darajasiga ko‘ra differensiallashtirilgan o‘quv topshiriqlari. O‘quv jarayonini bunday asosda differensiallashtirishda turli o‘quv topshiriqlaridan foydalanilmaydi. O‘quvchilar bir xil o‘quv topshiriqlarini bajaradi, ammo uni ayrim o‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida bajarsalar, ayrimlari mustaqil bajaradi.

Bunday differensiallashtirishda tayyorgarlik davrida o‘quvchilar topshiriq sharti bilan tanishadi, uni mazmuni va bajarish tartibini aniqlashtiradilar. Shundan so‘ng odatda, birinchi guruh o‘quvchilari mustaqil ravishda topshiriqni bajarishga kirishadi. Boshqa o‘quvchilar esa o‘qituvchi yordamidan foydalangan holda bajarish tartibini tahlil qiladilar va bajarishga kirishadi. Shundan keyin ikkinchi guruh o‘quvchilari ham mustaqil ishlay boshlaydilar. Uchinchi guruh o‘quvchilari esa topshiriqni o‘qituvchining yordamidan foydalangan holda bajaradilar. Bunday topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilarning mustaqillik darajasi turlicha bo‘ladi. O‘quvchilar o‘qituvchining yordamidan voz kechish vaqtini o‘zlari belgilaydi. Agar ular yana qiyinchilik sezsalar, o‘qituvchidan yana yordam olishlari mumkin.

5. O‘qituvchidan olinadigan yordam hajmiga ko‘ra differensiallashtiriladigan o‘quv topshiriqlari. Bu usul o‘quvchilarning mustaqillik darajasiga ko‘ra differensiallashgan o‘quv topshiriqlaridan farqli ravishda o‘qituvchi rahbarligida amalga oshirilmasdan, barcha o‘quvchilar mustaqil ishni bajarishga kirishadi. O‘quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ayrim o‘quvchilarga vaqti-vaqti bilan yordam berib boriladi.

O‘qituvchi yordamni turli shakllarda berishi mumkin. Masalan: a) tayyorgarlik mashqlari yoki yordamchi topshiriqlar ko‘rinishidagi yordam; b) qo‘shimcha ma’lumotlar ko‘rinishadagi yordam (yordamchi kartochkalar, maslahat kartochkalari, doskaga qo‘shimcha ma’lumotlarni yozib ko‘rsatish shaklida).

Yordamchi kartochkalar bilan ishlash bunday turdagi differensiallashgan o‘quv jarayonini tashkil etish uchun qulay hisoblanadi. Bunda birinchi guruh o‘quvchilari topshiriqlarni mustaqil bajarishga kirishadi. Ikkinchi va uchinchi guruh o‘quvchilarga esa yordam tariqasida qo‘shimcha foydalanish uchun ma’lumotlar yozilgan yordamchi kartochkalar tarqatiladi. Bunday yordamchi kartochkalar barcha o‘quvchilar uchun bir xil bo‘lishi, guruhlar uchun alohida tayyorlanishi yoki har bir o‘quvchi uchun individual tarzda tuzilishi mumkin. O‘quvchilarning mustaqillik darajasi yordamchi kartochkalardan foydalanganlik darajasi bilan belgilanadi. Kartochkalar topshiriqlarni bajarishda foydalanilishiga ko‘ra murakkablashib borish tarzida tuzilishi mumkin.

O‘tilgan mavzularni qaytarib olish xarakteridagi topshiriqlar o‘quvchidan hech qanday izlanishni talab etmaydi. O‘quvchi o‘tgan darsda yoki undan oldingi mashg‘ulotlarda o‘rganilganlarni faqat takrorlashdan nariga o‘tmaydi. Shu sababli, bunday topshiriqlar umumiy topshiriqlar miqdorining atigi 25-30 foizini tashkil etmog‘i lozim. Qolgan topshiriqlar esa qisman ijodiy va ijodiy xarakterda bo‘lishi kerak. Agar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi past bo‘lsa, o‘z-o‘zidan topshiriq qisman ijodiyga aylanadi. Chunki o‘quvchi yo o‘qituvchining tushuntirishi, yo ko‘rsatilgan namunaga qarab ish ko‘rishga majbur bo‘ladi. Shuning uchun o‘quvchilarning o‘quv imkoniyatlari kengayib borgan sari, ijodiy topshiriqlar miqdori ham ortib borishi kerak.

Yuqoridagilarni umumlashtirib xulosa qilishimiz mumkinki, boshlang‘ich ta’lim jarayoni bilimlarni singdirish, to‘plash va o‘zlashtirish davri ekanligi, o‘quvchilarning qobiliyatlar darajasining xilma-xilligini inobatga olgan holda, ularning rivojlanishini to‘g‘ri amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

2. Шадриков В.Д. Психология деятельности и способности человека. Издание второе, переработанное и дополненное Рекомендовано Государственным комитетом Российской Федерации по высшему образованию в качестве учебного пособия для высших учебных заведений Издательская корпорация Логос Москва. 1996.

3. Ларионова Л.И. Влияние культуры на развитие одаренности школьников в условиях реформирования общества//Психологический институт в современном научно-психологическом пространстве: Международные Челпановские чтения 2014: Московская научно-практическая конференция к 100-летию Торжественного открытия Психологического института им. Л. Г. Щукиной (1914−2014). Москва, 22−23 апреля 2014 года / Альманах Научного архива Психологического института.

4. Shodiyeva M. Boshlang‘ich ta’limni o‘qitish jarayonini takomillashtirishda milliy uyg‘unlikka ustuvorlik va xalqaro tajribalar (metodik qo‘llanma). –T.: Qamar media, 2020. –176-b.

Bo‘ritosh NE’MATOV,
Termiz davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KREATIVLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda kreativlikni takomillashtirish to‘g‘risida fikr mulohazalar bayon etilgan. Bundan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida zarur bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari va hayotga tatbiq eta olishlarida ulardagi kreativ fikrlash motivatsiyalarining o‘rni va ahamiyati haqida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich sinf, motivatsiya, globallashuv, ta’lim, o‘quvchi, yangilik, soha.

В этой статье обсуждаются идеи по развитию творческих способностей в младших классах. Он также подчеркивает роль и важность мотивации творческого мышления у учащихся начальной школы в приобретении необходимых знаний, навыков и компетенций и способности применять их в жизни.

Ключевые слова. Элементарный, мотивация, глобализация, образование, студент, инновация, промышленность.

This article discusses ideas for improving creativity in the elementary grades. It also highlights the role and importance of creative thinking motivations in primary school students in acquiring the necessary knowledge, skills and competencies and being able to apply them to life.

Key words. Elementary, motivation, globalization, education, student, innovation, industry.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasini isloh qilishdagi sa’y harakatlarining biri – bu pedagog kadrlarning zamon talablariga hamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, ko‘nikma, malaka va madaniyatga ega bo‘lishlarini talab etmoqda. Bu esa o‘z-o‘zidan ta’lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o‘rganuvchi pedagogika faniga “kreativlik” degan tushunchani olib kirdi. Ayniqsa, ilmiy bilimning bugungi kundagi rivojlanishi, kreativlikning shaxsni, jamiyatni va davlatni rivojlantirishga ta’siri ushbu masalasini ilmiy pedagogik nuqtayi nazardan chuqur o‘rganishni talab etmoqda. Ayniqsa, umumta’lim maktablarida o‘qituvchi kadrlarning kreativligini rivojlantirishga bo‘lgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi.

Bugungi kunga kelib kreativlik nafaqat psixologlarning, balki pedagoglarning diqqat e’tiborini tortmoqda. Bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanilmayotgan bo‘lsa ham bu tushunchani ma’lum darajada pedagogik iste’molga kiritishga doir harakatlar ko‘zga tashlanmoqda. Pedagogika oid manbalarda kreativlik ijod bilan bog‘liq holda o‘rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikrlar bildirilib, bilim asosan, fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog‘liq holda tahlil etiladi. Ijodning psixologik asoslari sifatida quyidagi elementlar qabul qilingan.

Bular:

1. Qabul qilish.
2. Xohish va istak.
3. Tasavvur qilish.
4. O‘z-o‘zini kuzatish.

Shu bilan bir qatorda bilimning asosini tashkil qilishda asosiy o‘rinni egallaydigan fikr yuritish bilan tasavvur qilish quyidagi elementlar bilan belgilanishi e’tirof etilgan.

Bular:

1. Aqliy mehnat.
2. Intuitsiya.
3. Dunyoqarash.

Hozirgi jadal rivojlanayotgan zamonaviy globallashuv va axborotlashuv davrida ta’limni yanada rivojlantirish va takomillashtirishni dars jarayonida innovatsiyalarning turli shakllaridan tatbiq etmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Innovatsion ta’limda, birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlar, o‘z-o‘zini rivojlantirish va kreativ fikrlash eng muhim motivatsiyalardan hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy imkoniyatlarini aniqlashda, ularning kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishda ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asr axborotlar oqimi davrida ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalariga, shu jumladan, ta’lim-tarbiya sohasiga ham ko‘p yangiliklar kirib kelmoqda. Ushbu yangiliklar bilan bir qatorda ularni yorituvchi yangi tushunchalar ham bizning ilmiy tilimizda qo‘llanilishi kuzatilmoqda. Jumladan, pedagogika, ya’ni ta’lim-tarbiya sohasida keyingi 20-yil ichida quyidagi tushunchalar keng qo‘llanilmoqda va bizning ilmiy tilimiz iste’molida keng ishlatilmoqda:

– pedagogik texnologiya;
– ilg‘or texnologiya;
– ilg‘or tajribalar;
– innovatsiya va innovatika;
– pedagogik neologiya, praksiologiya, aksiologiya;
– innovatsiya va innovator;
– interaktivlik;
– strategiyalar;
– gumanistik pedagogika;
– liberalizatsiya;
– ta’limda axborot kommunikatsion texnologiyalar;
– tarbiya jarayonida texnologiyalar.

Biz shular orasida ‘‘kreativlik’’ tushunchasiga alohida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Bu tushuncha so‘nggi yillarda ta’lim-tarbiya jarayonlarida ma’lum darajada qo‘llanilmoqda. Lekin bu tushunchaning mazmun va mohiyatini tahlil etishga hamda insonlarda kreativlikning shakllanganlik darajasini aniqlashga doir qator tadqiqotlar olib borilgan.

Kreativlik – lotincha so‘z bo‘lib, “ijod” yoki “yo‘q narsadan bor qilish” kabi ma’nolarni anglatadi. Kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni, yangi g‘oyalarni aks ettirishi kerak. Kreativlik tushunchasi o‘zida xilma-xillik, qiziquvchanlikni, tafakkur va noan’anaviylikni aks ettiradi. Bugungi kun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida ijodkorlik va kreativlik bo‘lishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jihati uning ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarda ham ushbu sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog‘liq jarayondir. Negaki o‘qituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta, o‘zining sohasidagi eng so‘nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo‘lishi, innovatsion yangiliklarni o‘z faoliyatida o‘rinli foydalana olishi lozim.

Innovatsiya – ingliz tilidan olingan bo‘lib, ‘‘In-ichida’’, ‘‘Novus-yangi’’, ‘‘yangilik’’, ‘‘yangilik kiritish’’ degan ma’noni anglatadi. U muayyan ijtimoiy birlikka (tashkilotga, aholiga, jamiyatga, guruhga, tizimga) yangi, nisbatan turg‘un unsurlarni kiritib borishi va ularning maqsadga muvofiq o‘zgarishidir.

‘‘Innovatsiya’’ tushunchasi birinchi marta XIX asrda madaniyatshunosik sohasida paydo bo‘lib, bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma’nosini bildirgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik fikrlash qobiliyati va ijodkorlik xususiyati uning ta’lim jarayonidagi muloqotida, tafakkurida, his-tuyg‘ularida va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik – iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Patti Drapeau nuqtayi nazariga ko‘ra, kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlashdir. Darhaqiqat, har tomonlama fikrlash o‘quvchilarga berilgan turli topshiriq, masala va vazifalarni bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Ya’ni topshiriqni bajarish, masalani yechishda o‘quvchi yechimning bir necha variantlarini izlaydi, so‘ngra ular orasidan eng maqbul birgina to‘g‘ri yechimga to‘xtaladi. O‘qituvchining ham dars jarayoniga kreativ yondashuvi o‘quvchilarning darsda berilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishlari, qo‘llay olishlari uchun muhim omil sanaladi. O‘qituvchining kreativligi darsda ikki holatni kafolatlaydi:

– past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni, darsda “bir xillik”dan zerikkan o‘quvchilar e’tiborini dars jarayoniga jab etish va qiziqtirish;

– o‘quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni aniqlash va rivojlantirish, rag‘batlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

O‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun darsda yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

O‘quvchilarga ijodiy fikrlashga doir biror topshiriq berish va natijalarini o‘rganish, ularning ijodiy ishlarini o‘rganish;

O‘quvchilarning qiziqqan mavzularini aniqlash va shu mavzuda suhbat o‘tkazish, ularning fikrlarini bayon qilishlarida ijodiy yondashishlari uchun imkon beruvchi zarur shart-sharoit yaratish; (suhbat individual yoki guruhli bo‘lishi mumkin)

Dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish va o‘quvchilarning bildirgan har bir fikrlarini inobatga olish;

O‘quvchilar ijodini o‘rganish. Bunda o‘quvchilarning ijodiy ishlari: insho, yozma ish, erkin mavzuda chizgan rasmlari va boshqalar muhim vositalar hisoblanadi;

Darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda turli qiziqarli didaktik o‘yinlar va noan’anaviy usullardan foydalanib, o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga undash, sinfdagi barcha o‘quvchilarni mashg‘ulotga qamrab olish.

Kreativ fikrlash va ijodiy tafakkurda tezkorlik, samaradorlik va natija muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarda kreativ fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmasini shakllantirishda, avvalo, sinfda qulay muhitni yaratish lozim. Kreativ ta’lim olayotgan o‘quvchilarda asta-sekin kreativ topshiriqlarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi. Bunday darslar o‘quvchilarda katta ahamiyatga ega bo‘lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmasining rivojlanishiga olib keladi.

Kreativ fikrlashga ega o‘quvchilar quyidagi sifatlarga ega bo‘ladilar:

Boshqa o‘quvchilarning xayoliga kelmagan g‘oyalarni ayta oladi;

Ba’zan mavzuga aloqasi yo‘q yoki g‘ayrioddiy savollar beradi;

Yechimi topilmagan masalalardan zavqlanadi, yechimni topishga qattiq kirishadi;

G‘oya va fikrlarini isbot, dalilar asosida muhokama qilishni afzal ko‘radi;

Muammoli vaziyatlarda yechimni topishda noan’anaviy yondashuvni tanlaydi;

Ijodiy ta’sirchanlik va tashabbuskorlikka, tez va aniq fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishda quyidagi samarali usullardan foydalanish mumkin:

1. Kreativ fikrlash qobiliyatini, ko‘nikmasini shakllantirish.
2. O‘quvchilarda interfaollikni va kirishimlilikni rivojlantirish.
3. Dars jarayonida kreativ faoliyat jarayonlarini tashkil etish.
4. Dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda mavzuga oid muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish.
5. Dars jarayonida turli innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Masalan, “Yelpig‘ich” metodi murakkab va ko‘p tarmoqli bo‘lib, muammoli mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Ushbu metodning mazmun-mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi, ushbu axborotlarni o‘quvchilar o‘zlari topishlari kerak. Aytaylik, o‘qish fanida biror qahramonga “Yelpig‘ich” metodi orqali ma’lumot berish topshirig‘i beriladi. Bunda o‘quvchilar berilgan qahramonning ijobiy va salbiy tomonlari, yutuq va kamchiliklarini ifodalab beradilar. O‘quvchilar shunda butun matn mazmuni ustida ishlaydilar.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik – shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma’naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘p qirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi, degan xulosaga keldik.

Xulosa qilib aytganda, har bir ijodkor boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z o‘quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini o‘z vaqtida aniqlashi va doimo rivojlantirib borishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova O‘ va boshqalar. Pedagogika. 7-bob. Fan, 2004-yil.
2. “Kreativ pedagogika asoslari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T., –2016.
3. Munavvarov A.K. Pedagogika. –T.: O‘qituvchi, 1996.
4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2003.
5. Азизхожаева Н.Н. Педагогические/технологии в подготовки учителя. –Т., 2000.

Muhabbat TAYIROVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti magistranti

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI DARSI JARAYONINI SAMARALI SHAKLLANTIRISHDA XALQARO VEB-SAYTLAR VA ULARNING IMKONIYATLARI

Maqolada “Informatika va axborot texnologiyalari“ darsi jarayonida xalqaro ta’limiy veb-saytlardan foydalanish afzalliklari va imkoniyatlari tahlil etilgan bo‘lib, bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar. Ta’limiy veb-sayt, masofaviy ta’lim veb-saytlar, tadqiqot veb-saytlar, axborot-ma’lumot veb-saytlar, raqobatdosh veb-saytlar.

В статье анализируются преимущества и возможности использования международных образовательных сайтов по курсу “Компьютерные науки и информационные технологии”, а также исследуются исследовательские работы, проводимые в этой области.

Ключевые слова. Образовательный веб-сайт, веб-сайты дистанционного обучения, исследовательские веб-сайты, информационные веб-сайты, конкурирующие веб-сайты.

The article analyzes the advantages and possibilities of using international educational sites for the course “Computer Science and Information Technology“, and also investigates the research work carried out in this area.

Key words. Education website, distance learning websites, research websites, information websites, competing websites.

Ta’limning rivojlanishi uning axborot salohiyati darajasining oshishi bilan uzviy bog‘liqdir. Turli sohasidagi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligining ko‘rsatkichi bu katta ma’lumot oqimini qayta ishlash qobiliyati, kutilmagan vaziyatlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish algoritmlarini mustaqil ravishda ishlab chiqish, shuningdek, tashabbuskorlik va mustaqillik kabi shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishdan iborat. Shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish uchun bugungi kunda deyarli barcha savollaringizga xalqaro veb-saytlardan javob topishingiz mumkin. Bu sizning barcha talablaringizni qondiradigan markazga aylandi: xarid qilishda, bilimlarni o‘zlashtirishda yoki boshqa barcha sohalarda. Internet ta’lim sohasida ham katta imkoniyatlarni ochdi. Bu barcha ta’lim tizimlariga keng imkoniyatlar yaratdi. Hozirgi vaqtda xalqaro ta’limiy veb-saytlaridan o‘qituvchilar va o‘quvchilar faol foy-

dalanmoqda. O‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni o‘rganilayotgan fanga qiziqtirish, uning bilim va ijodiy faoliyatini rag‘batlantirishdir. Ushbu muammolarni hal qilishda dars jarayonida xalqaro ta’lim veb-saytlardan foydalanish katta yordam beradi.

Xalqaro ta’limiy veb-sayti deganda, biz kompyuter tarmog‘ida umumiy manzil ostida joylashgan, maqsadli o‘quv jarayoniga imkon beradigan elektron hujjatlar tizimini tushunamiz. Xalqaro ta’limiy veb-saytlari nafaqat o‘quv jarayonini tashkil qilish uchun sharoit yaratibgina qolmay, balki o‘zini-o‘zi anglash uchun platformalar vazifasini o‘taydi. O‘qituvchilarga va o‘quvchilarga tajriba almashish, ish jarayonida o‘quv mahsulotini yaratish, ommaga o‘z ishlanmalari va yutuqlarini namoyish etish, professional va ijodiy tanlovlarda qatnashish imkoniyatini beradi. Xalqaro ta’limiy veb-saytlari internet makonining tarkibiy qismlari sifatida o‘qituvchining kasbiy faoliyatida, o‘quvchilarning bilim olishida alohida o‘rin tutadi. Hozirgi kunda o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan xalqaro ta’limiy veb-saytlarning quyidagi guruhlarini yaratish bo‘yicha keng ishlar amalga oshirilmoqda:

1. Ta’lim veb-saytlari. Bunday veb-saytlar bir tomondan, ta’lim muassasasi faoliyati to‘g‘risida ma’lumot topishga imkon beradi, boshqa tomondan o‘qituvchilar va o‘quvchilarning yutuqlarini e’lon qilishlari mumkin bo‘lgan platformadir. Bularga umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining veb-saytlari (http://sch180.minsk.edu.by/ru, http://pall-school-11.ucoz.ru, https://portal. achieve3000.com, ...); kasb-hunar ta’limi muassasalarining veb-saytlari (https://www.itcilo.org/,...); universitetlarning fakultetlari va bo‘limlari veb-saytlari; oliy o‘quv yurtlarining (www.aspu.ru, www.hosting.bspu.ru, https:// www. cam. Ac .uk/, ...) veb-saytlari kiradi.

2. Masofaviy ta’lim veb-saytlari. Bunga o‘quv jarayonini telekommunikatsiya tarmoqlari orqali amalga oshirishga imkon beruvchi veb-loyihalar, elektron darsliklar, kompyuter tarmoqlari orqali munozaralar va seminarlar o‘tkazish kiradi.

Ushbu guruhga masofaviy o‘qitish markazlari va test markazlari saytlari; turli xil elektron kitoblar; laboratoriya mashg‘ulotlari; ma’ruza kurslari; sinov uchun saytlar; bilimlarni baholashlar kiradi. (http//intuit.ru, https://www.td.org,...)

3. Ta’lim ma’lumotlarini tarqatadigan veb-saytlar. Bunga virtual kutubxonalar (www.vlibrary.ru, https://www.bslw.com/,...) ; ma’rifiy mavzudagi jurnallar va gazetalar (https://inf.1sept.ru/, https://library. nwacc.edu/,...); virtual muzeylar veb-saytlari kiradi.

Ushbu manbalar sizning uyingizdan chiqmasdan zamonaviy ilmiy va uslubiy adabiyotlardan tezda foydalanish imkoniyatini beradi.

4. Tadqiqot veb-saytlari. Bunga o‘quvchilar, talabalar, o‘qituvchilar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilarning tadqiqot ishlari joylashtirilgan manbalar; virtual ilmiy laboratoriyalar; o‘quv markazlari saytlari kiradi. Bunday manbalar tufayli o‘qituvchilar nafaqat maktablararo, balki xalqaro miqyosida ham o‘quvchilarning birgalikdagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil qilishi va boshqarishi mumkin. (www.informika.ru, http://www.ict.edu.ru/lib,...)

5. Axborot-ma’lumot veb-saytlari. Ushbu guruhga turli xil elektron ensiklopediyalar (Vikipediya); lug‘atlar-saytlari (masalan, “Yandex lug‘atlari” xizmati); katalog saytlari (misol sifatida o‘qituvchilar uchun darsliklarning tezislarining xalqaro ochiq katalogi); ma’lumotlar bazalari; ilmiy va o‘quv yo‘nalishidagi konferensiyalar; tanlovlar, seminarlar, berilgan grantlar to‘g‘risida ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan saytlar

(Ilmiy konferensiyalar, ko‘rgazmalar va seminarlarning ochiq katalogi) kiradi.

6. Raqobatdosh Internet-loyihalarning veb-saytlari. Bunga o‘qituvchilar va o‘quvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasidagi aloqalarni shakllantirish uchun veb-saytlar; olimpiadalar va viktorinalar saytlari (https://quizolympiad.com/, https://erudyt.ru/,...); ta’lim mavzularidagi axborot-ko‘ngilochar loyihalar saytlari; o‘quv musobaqalarini o‘tkazish uchun resurslar (masalan, eng yaxshi o‘quv taqdimoti tanlovi o‘tkaziladigan sayt) kiradi. Qoida tariqasida, bunday saytlar o‘quvchilar bilimini boyitishga imkon beradigan tanlovlarda qatnashish, sertifikatlar va diplomlarini olish imkoniyatini beradi. Ko‘pincha, bunday musobaqalarda g‘alaba moddiy mukofotlar bilan rag‘batlantiriladi.

7. O‘quv-uslubiy birlashmalarning veb-saytlari. Bunga maktab fanlari bo‘yicha o‘qituvchilarning uslubiy birlashmasi saytlari; ta’lim bo‘yicha tematik telekonferensiyalar va veb-seminarlar uchun saytlar; o‘qituvchilar, o‘qituvchilarning tarmoqdagi ijodiy o‘zaro aloqalari saytlari; o‘qituvchilar tarkibining malakasini oshirish uchun saytlar kiradi.

8. Ijtimoiy tarmoqlardagi ta’lim jamoalari. Ijtimoiy tarmoq – bu ko‘p foydalanuvchilarning interaktiv veb-sayti, uning mazmuni tarmoq ishtirokchilarining o‘zlari tomonidan to‘ldiriladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi jamoalar – bu kasbiy qiziqishlarga asoslangan o‘qituvchilarning tematik birlashmalari (masalan, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun jamoalar). Bunday jamoalar bir-birlari bilan muloqot qilish, tajriba va ma’lumot almashish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanida xalqaro veb-saytlarning yuqoridagi guruhlaridan har xil usullarda foydalanish mumkin:

– dars mazmuniga haqiqiy veb-materiallarni (matn, tovush) kiritish, ya’ni ularni o‘quv dasturiga kiritish;

– tovushli ma’lumotlardan foydalanish (turli mavzular bo‘yicha har xil qiziqarli tovushli ma’lumotlar);

– qabul qilingan elektron pochta xabarlarini og‘zaki muhokama qilish;

– guruhlarda munozaralarni, veb-saytlardan olingan u yoki bu muammoli ma’lumotlarni muhokama qilishni tashkil etish;

– ommaviy grammatikaga oid elektron ma’lumotnomalar, lug‘atlar, ensiklopediyalar materiallari, masofaviy kurslar materiallaridan foydalanish;

– loyiha doirasida o‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda ma’lumot qidirishni tashkil etish;

– malaka imtihonini topshirishga mustaqil ravishda tayyorgarlik ko‘rish;

– masofadan turib muntazam ravishda belgilangan kurslarni o‘rganish.

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan maktab o‘quv dasturi juda keng bo‘lsa-da, o‘qituvchi har doim o‘quvchilarni o‘z mavzusiga qiziqtirishi, muhimroq ma’lumotlarni aytib berishi kerak.

Internetdagi xalqaro ta’limiy veb-saytlari manbalaridan foydalangan holda “Informatika va axborot texnologiyalari” darslarni tashkil qilish uchun o‘qituvchining rahbarligi ostida turli xil usullarni taklif qilish mumkin.

Darslarni tashkil etish usullari	Xalqaro veb-sahifalardan foydalanish		
	O‘qituvchining xalqaro veb-sahifalardan foydalanishi	O‘quvchining xalqaro veb-sahifalardan foydalanishi	Bilimlarni boshqarish

Dars jarayonida xalqaro veb-saytlardan foydalanish	– Mavzu bo‘yicha saytlar ro‘yxatini e’lon qilish bilan birgalikdagi boshqa sinflar va fan o‘qituvchilari faoliyatidagi ma’lumotlardan foydalanish	– Onlayn qidiruv vositalari yordamida ko‘proq materiallarni o‘rganish; – ma’lumotlarni sifat jihatidan bir-biridan farqlash;	– o‘z-o‘zini tekshirish testlari; – tarmoq tanlovlari, olimpiadalar, viktorinalar
Darsda ma’lumotlar bazalari va laboratoriya komplekslaridan foydalanish	O‘quvchilarga Internetda mavjud bo‘lgan manbalarni o‘rgatish, kirish huquqi shartlarni aniqlashtirish;	– yangi materialni o‘rganayotgani; – amaliy ko‘nikmalarni mashq qilganda onlayn tajriba o‘tkazish; – Internetda ishlash qobiliyatlari bilan shug‘ullanish;	– tajriba natijalarini tahlil qilish, uning natijalari bilan qayta ishlash
Darsda namoyish tajribalardan foydalanish	– dars tarkibining ma’lum bir bosqichda namoyish tajribasini kiritish; – kuzatilgan tajribani muhokama qilishni tashkil etish; – loyihalash ishlarini tashkil etish kuzatilgan tajribani real hayotda izlash va h.k.; – o‘qituvchi talabadan jarayonga sharh berishni, davom ettirishni taklif qilish	– o‘rganilayotgan jarayon va hodisalarni kuzatish; – amaliy natijalarining tavsifini tuzish;	Xalqaro veb-saytlardagi amaliy vazifalarni bajarish
Darsda ma’lumotlar ombori va muzey resurslar ma’lumotidan foydalanish	– muzeylar saytlarni o‘rganish; – sinfda virtual ekskursiyalarni tashkil etish	– nazariy va tasviriy materiallarga ega bo‘lish; – o‘qituvchi orqali virtual sayohat qilish	– tarmoq tanlovlari, olimpiadalarda ishtirok etish

Xalqaro veb-sayt va portallardan “Informatika va axborot texnologiyalari” darslarda foydalanish uchun ishlarni quyidagi bosqichlarda tashkil qilish tavsiya etiladi:

1. Ta’lim muassasasi uchun yaratilgan saytlarning umumiy tuzilishi, ma’lumotlarning iyerarxik xaritasi bilan avvaldan tanish bo‘lish.

2. O‘quvchilarga internet tizimida — harakatlanishning oddiy qoidalarini tushuntirish, internetga bog‘lanish usullari haqidagi amaliy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

3. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining nazariy va amaliy darslarini o‘tish jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanilgan holda xalqaro ta’lim muassasalari uchun yaratilgan saytlarni o‘quvchilar o‘rtasida muhokama tashkil qilish.

4. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan topshiriqlar va uy vazifalari berishda ta’lim muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish bo‘yicha alo-

hida topshiriq va ko‘rsatmalarni ishlab chiqish hamda nazariy, amaliy darslarda keng foydalanish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, xalqaro ta’lim muassasalari uchun-yaratilgan saytlardan foydalanish “Informatika va axborot texnologiyalari” darslarning mazmunli tashkil etilishi va o‘quvchilarda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshirish hamda mustahkam bilim olishlariga yordam beradi. Xalqaro veb-saytlardan o‘quv jarayonida foydalanish o‘quvchilarni kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorlashda ya’ni ijodkorlikni rivojlantirish qobiliyati, shuningdek, ularni mustaqil bo‘lishga o‘rgatishga undaydi.

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanida foydalaniladigan xalqaro ta’limiy veb-saytlar soni yildan-yilga o‘sib boradi, ko‘payadi va sifatini yaxshilaydi deb ishonamiz. Chunki bu zamon talabi. Yangi texnologiyalar o‘quvchilarga o‘z bilimlarini sinab ko‘rish, suhbatlashish va erkin muloqot qilish, mustaqilligini oshirish va fanga qiziqishini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zokirova T.A., Masharipov A.K., Musayeva M.A., Ibrohimov E.U. Veb dasturlash. O‘quv-qo‘llanma. T., – 2006.
2. Глушаков С.В. и др. “Работа в сети Интернет”: Учебнй курс. – М.: АСТ, 2001г.
3. Интернет-обучение: технологии педагогического дизайна / Под ред. М.В.Моисеевой. – М., 2004. – С. 216.
4. Информационне технологии в образовании: учеб. пособие для студ. всш. учеб. заведений / И. Г. Захарова. — 6-е изд., стер. — М.: Издательский центрь Академия, 2010. — С. 192.
5. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. “Axborot texnologiyalari” O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi o‘quv-qo‘llanma sifatida tavsiya etgan Toshkent-Noshir 2009. 368-b. 206-241-betlar.

Zebo AVEZMUROTOVA,
Urganch davlat universiteti ‘‘Texnika fakulteti” tayanch doktoranti

DASTURIY TA’LIM ASOSIDA MARS SAYYORASINING RO‘PARA TURISH VA SIRTMOQSIMON HARAKATINI KUZATISH USLUBI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Internet tarmoqlari va Stellarium dasturi asosida astronomiya fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, kuzatishlar olib borish xususan, Mars sayyorasini ro‘para turishi va sirtmoqsimon harakatini vizual kuzatish uslubi bayon etilgan. Bu uslubdan uzluksiz ta’limda dastur asosida astranomiya fanini o‘qitishda o‘qituvchilar, talabalar va o‘quvchilar foydalanishi mumkin.

Kalit so‘zlar. Ekliptika, Yupiter, Hut, Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jaddi, Dalv, Zodiak yulduz turkumlari, Buyuk ro‘para turish, Ellips, Kulminatsiya, Sirtmoqsimon, Gorizont, Stellarium dasturi.

В статье рассказывается об организации практических занятий по астрономии на базе Интернета и программы Stellarium, а также о методах визуального наблюдения, в частности, о встрече с планетой Марс и ее лунном движении. Этот метод может использоваться учителями, студентами и учениками для преподавания астрономии на платной основе в рамках непрерывного образования.

Ключевые слова. Эклиптика, Юпитер, Хижина, Хамал, Савр, Джавзо, Рак, Асад, Санбула, Мезон, Акраб, Стрелец, Джадди, Дальв, Зодиакальные созвездия, Большое лицо, Эллипс, Климакс, Поверхность, Горизонт, программа Stellarium.

The article describes the organization of practical classes in astronomy based on the Internet and the Stellarium program, as well as methods of visual observation, in particular, about the encounter with the planet Mars and its lunar motion. This method can be used by teachers, students and pupils to teach astronomy for a fee as part of continuing education.

Key words. Ecliptic, Jupiter, Hut, Hamal, Savr, Javzo, Cancer, Assad, Sanbula, Meson, Acrab, Sagittarius, Juddy, Dalv, Zodiac constellations, Big face, Ellipse, Climax, Surface, Horizon, Stellarium program.

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim mazmuni va sifati jamiyatning dolzarb masalalari va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda, ta’limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo‘llari izlanmoqda, ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, innovatsion g‘oyalarni qo‘llash masalasi ommalashmoqda. Shu sababdan fanni o‘qitishda bizga ma’lum bo‘lgan ta’limdagi an’anaviy uslublar bilan birga hozirgi zamon axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib innovatsion yondashilgan ishlar davr talabidir. Hozirgi kunda astronomiya va astrofizika fanini o‘qitishning yangicha usullarini yaratish ustida ko‘p ish olib borilmoqda. Masalan, uzluksiz ta’lim tizimida ya’ni Oliy ta’limda, Akademik litsey va umumta’lim maktablarda nazariy jihatdan o‘rganilibgina qolmasdan amaliy darslarni ham tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Ochiq osmon

sferasida talabalar va o‘quvchilar bilan vizual kuzatishlarni olib borib, kuzatish natijalaridan to‘garak ishlarida, anjumanlar tashkil etish barobarida talabalarni astronomiya faniga qiziqishni uyg‘otish mumkin. Shu bilan birga fan o‘qituvchilarni o‘zlarini ko‘nikma va malakalarini oshirib boradi.

Bundan 5 ming yil avval ham kishilar 5 ta sayyorani yulduzlardan farqli ravishda harakat qilishini kuzatganlar. Ayniqsa, Venera, Yupiter va Mars sayyoralarini osmonda yaraqlab turishini kuzatish kishiga zavq baxsh etadi. Oldingi maqolalarda Oy yordamida sayyoralarni harakatini o‘rganish to‘g‘risida ma’lumot berganmiz. Quyida amaliy kuzatishlardan birini ya’ni Mars sayyorasini kuzatish orqali uni ro‘para (qarama-qarshi) turish momentlarini va sirtmoqsimon harakatini vizual kuzatish metodi keltirilgan. Ma’lumki, Mars (Mirix) sayyorasi Yerga tashqi tomondan eng yaqin qo‘shni sayyorasi hisoblanadi. U Quyosh atrofini o‘z orbitasi orqali aylanayotib, sayyoralarning orbitalari ellips bo‘lgani uchun Yerga nisbatan har xil uzoqlikda bo‘ladi. Yuqori qo‘shilishida 400 mln kmdan ro‘para turish momentida Yerga eng yaqin kelgan payti 55 mln km.gacha bo‘lishi mumkin. Yerga har 780 kunda Mars yaqinlashib o‘tadi. Bu holatni ro‘para (qarama-qarshi) turish deyiladi. Agar Yerning tropik yili 365,2422 sutka bo‘lsa, 2 yil-u 50 sutkada takrorlanib turadi. Bunday vaqtda Yer Mars bilan Quyosh oralig‘ida bo‘ladi. Marsni kuzatish uchun qulay sharoit yuzaga keladi, birinchidan, bunday davrlarda, Mars, Yerga juda yaqin, ikkinchidan u Yerga o‘zini yoritilgan tomoni bilan o‘girilgan to‘la doira (to‘lin Oyga o‘xshab) ko‘rinadi, uchinchidan, Quyosh botgan zahoti kechqurun sharq tomondan chiqib kelib, yarim kechada yuqori kulminatsiyaga erishib, ertalabga yaqin g‘arb tomonga botib ketadi. Ya’ni gorizont ustida tuni bo‘yi ko‘rinib turadi. Ayni shunday holatda Mars (boshqa sayyoralar ham) sirtmoqsimon harakat qiladi. Bunday ro‘para turishlar ichida ayniqsa, Marsni peregeliyi va Yerning peregeliyiga yaqin bo‘lgan holatlarda Mars Yerga 55 mln km.gacha yaqin keladi. Bunday ro‘para turishini “Buyuk ro‘para turish” – deb ataladi. Bunday holat 15-17 yilda takrorlanadi va qiziqarli bo‘lgani uchun, uni kuzatish bilan ko‘pgina astronomlar qiziqib kelgan.

Hozirgi vaqtda Mars sayyorasi bilan butun dunyo qiziqmoqda. AQSH, Rossiya, Yaponiya, Xitoy va boshqa rivojlangan davlatlarda, astronomik observatoriyalarda, astronomik tashkilotlarda Marsni kuzatish, o‘rganish va yaqin yillar ichida uni o‘zlashtirish taxminan 2025-2040-yillar Marsga insonni chiqarish ustida ishlar olib borilmoqda. Albatta, bunday rejalarni amalga oshirishda Marsni ro‘para turish momentini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ro‘para turish momentida Mars Yerga eng yaqin keladi. Uzluksiz ta’limda o‘quvchilar dastlabki astronomik tushunchalar bilan boshlang‘ich sinflarda tabiatshunoslik fanlarida, 6-8-sinflarda fizika fanlarini o‘qitilishda tanishib boradilar. Umumiy ta’lim maktablarida 11-sinflarda, KHK va Akademik litseylarni 3-kurslarida “Astronomiya” fani o‘qitiladi. Oliy ta’limda “Fizika”, “Fizika va astronomiya” ixtisosligi talabalari “Astronomiya va astrofizika” fanlarida nazariy bilimlar oladilar. Olingan nazariy bilimlarni amaliy kuzatishlar orqali mustahkamlash o‘quvchilar va talabalarni astronomiya faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda yuqori samara beradi. Biz quyida Marsni ro‘para turish holatini mahalliy sharoitda kuzatish uslubini keltiramiz.

1. Avvalo, Marsni osmon yoritqichlari orasidan topib olamiz. Buning uchun Oyning ko‘rinma harakatidan foydalanamiz. Oyni hamma osmonda adashmasdan topa oladi. Oy osmon sferasini 27,32 sutkada yulduzlarga nisbatan aylanib chiqadi. Oyning aylanish tekisligi ekliptika tekisligiga nisbatan og‘maligi 5,090 ekanligi va Marsniki esa


1,80 bo‘lganligi uchun ular osmonda yaqin harakatlanib har 27,32-29,53 sutka (Oyning siderik va sinodik davrlari) oralig‘ida bir marta uchrashadi (yaqinlashadi). Buni sanasi kuzatish jadvalida keltirilgan bo‘lib shu sanada Oyni yonidagi qizil, sarg‘ish yoritqich Mars bo‘ladi. Unga aniqlik kiritish uchun uni 2-5 kun kuzatilsa yonidagi yulduzlarga nisbatan siljib borishini sezish mumkin.

2. Marsni “Buyuk ro‘para turish” oxirgi marta 2018-yil 27-iyul sanasida bo‘lgan, navbatdagi “Buyuk ro‘para turish” 2035-yil 15-sentabrda ro‘y beradi. Bu davr orasida 2020-yil 14-oktabr sanasida va 2022-yil 8-dekabr sanasida va hokazo shunday 7-marta oddiy ro‘para turishlar kuzatiladi. Keltirilgan jadvalda sanalar, Marsni Osmon ekvator tekisligiga og‘maligi, Yerdan uzoqligi va shu ko‘rsatilgan sanada yoki unga yaqin sanada uni Oy bilan boshqa sayyoralar va boshqa osmon jismi bilan yaqinlashishi keltirilgan. Bunday jadvalni har bir o‘qituvchi o‘quv yili boshida tuzib olishi mumkin va unda ko‘rsatilgan sanalarda o‘quvchilarga topshiriqlar berib yoki birgalikda kuzatish olib borishi mumkin.

3. Ro‘para (qarama-qarshi) turish Quyoshga nisbatan olingani uchun albatta, ko‘rsatilgan sanada Mars yarim kechada, ya’ni 0 soatlarda kuzatuvchi turgan osmon meridian tekisligini kesib o‘tadi va yuqori kulminatsiyada bo‘ladi. Har bir kuzatuvchi o‘zi turgan joy uchun meridian tekisligini (ya’ni P-shimoliy qutb, Z-zenit va S-gorizontni janubiy nuqtasi orqali o‘tuvchi tekisligini) yaxshi bilish kerak. Yuqorida aytilganday bu holat aniq yarim tunda soat 2400 yoki 0 soatlar vaqtiga to‘g‘ri kelib, agar Oysiz tunlar bo‘lsa, qizg‘ish sayyora juda chiroyli bo‘lib ko‘rinib turadi. Agar bu holat “Buyuk ro‘para turish”ga to‘g‘ri kelsa, unda yana ham ravshan bo‘lib, uni ko‘rinma diametri 25 yetadi. Agar kuzatishda durbin, teleskoplar, kichik maktab teleskoplari ishlatilsa, yana ham yaxshi natijalarga erishish mumkin. Kuzatish jadvalini, internet tarmoqlari yoki “Stellarium” dasturi asosida tuzib, kuzatish sanasidan bir, ikki oy oldin Marsni kuzatib, mashq qilinsa, natija yana ham yaxshi bo‘ladi. Jadvalda Marsni yonidan Oyni o‘tishi oldingi bir va ikki oy sanasi bilan berilgan. Agar Marsni ro‘para turish sanasidan 2 oylar oldin va 2 oylar keyin kuzatilib borilsa, uni sirtmoqsimon harakatini ham aniq kuzatish mumkin. Sayyoralarni konfiguratsiyasi o‘rganilganda tashqi sayyoralar ayni ro‘para turish davrlarida sirtmoqsimon harakat qiladilar. Xuddi shunday Mars odatda, yulduzlarga nisbatan g‘arbdan sharqqa tomon siljib boradi. Ro‘para turishdan 2 oylar oldin Mars yonidagi yulduzlarga nisbatan harakatini yo‘nalishini o‘zgartirib sharqdan g‘arbga qarab siljiy boshlaydi va ro‘para turishdan keyin 2 oylar o‘tgandan keyin yana avvalgi harakatini davom ettirib g‘arbdan sharqqa tomon davom ettiradi va navbatdagi ro‘para turishgacha davom etadi. Sirtmoqsimon harakati va ro‘para turish davrida Mars biror Zodiak yulduz turkumida bo‘ladi. 2020-yil 14-oktyabr sanasida Hut va Hamal yulduz turkumlari orasida bo‘ladi. Shu bilan Zodiak yulduz turkumlarini ham osmondagi holatini vizual kuzatish orqali o‘rganish mumkin. Albatta bunday kuzatish natijalarini o‘quvchi va talabalar bilan muhokama qilib borilsa yaxshi samara beradi. Quyida “Stellarium” dasturi va internet materiallari asosida Toshkent vaqti uchun tuzilgan oldindan rejalashtirilgan kuzatish jadvali keltirilgan.

1-jadval

№	Ro‘para turish sanasi	Yulduz turkumi	Yer bilan Mars orasidagi masofa (mln. km)	Marsni Oy bilan yaqinlashish sanasi
1.	27.07.2018	Jaddi	57.36	27.07.2018 20:00
2.	14.10.2020	Hut	62.43	02.10.2020 20:00
3.	08.12.2022 Soat: 24:00	Savr	81.95	08.12.2020 18:00
4.	16.01.2025	Javzo	95.8	13.01.2022 18:00
5.	19.02.2027	Asad	101.02	19.02.2027 21:00
6.	25.03.2029	Sunbula	96.7	02.03.2029 21:00
7.	04.05.2031	Mezon	83.29	10.04.2031 05:00
8.	27.06.2033	Qavs	63.62	15.06.2033 00:00
9.	15.09.2035	Dalv	57.04	21.08.2035 00:00



1-rasm. Mars. Savr (Телец, Buzoq) Yulduz turkumida

Mars sayyorasi boshqa sayyoralar singari yulduzlarga nisbatan g‘arbdan-sharq-qa tomon harakat qilib, 2022-yilning avgust oylari boshida Hamal (Овен, Qo‘y) yulduz turkumidan Savr (Телец, Buzoq) yulduz turkumiga o‘ta boshlaydi. Osmonni Janubiy-Sharq tomonida ertalab ko‘rinadi. Uni yoniga o‘sha sanada Oy keladi.



2-rasm. Mars Savr (Телец) yulduz turkumida.

Mars sayyorasi to‘g‘ri harakatini (g‘arbdan sharqqa tomon) davom ettirib, Savr (Телец) yulduz turkumida harakatlanmoqda. O‘sha sanada osmonni janub tomonida ertalab Oy bilan ko‘rinadi.

Rasmga e’tibor bilan qaralsa, Mars Buzoqni shohida va Jovzo (Близнецы, Egizaklar) yulduz turkumiga o‘tayapti. Lekin 2022-yil Noyabr oyi boshidan Mars teskari (Sharqdan G‘arbga tomon) harakat qila boshlaydi. Keyingi rasmga qarang. 4-rasm. Mars yana Savr (Телец) Yulduz turkumida.


Agar rasmga e’tibor bilan qaralsa, bir oydan ko‘p vaqtdan keyin 12 dekabr sanasida Mars yana Savr (Телец) yulduz turkumiga qaytadi. Ayni shu sanada, qoq yarim kechada, Urganch hududi uchun 00:26 soatda (O‘zbekiston vaqti bilan) Mars meridian chizig‘ini kesib o‘tayapti. Bu holat Marsni ro‘para turish holatidir. Rasmda kuzatish nuqtasining meridian chizigi ko‘rsatilgan.Yuqori matnda Marsni ro‘para turish holati haqida tushunchalar berilgan.



3-rasm. Mars Savr (Телец) yulduz turkumida.

5-rasmdagi sana: 12.01.2023 soat 21:30 da Mars osmonning Janub tomonida

Savr yulduz turkumida 3-rasmda ko‘rsatilgan, Marsning teskari harakati to‘xtab to‘g‘ri harakatini davom qila boshlaydi. To‘g‘ri harakati keyingi rasmda ko‘rsatiladi.



6-rasm. Mars Savr (Телец) yulduz turkumida.

6-rasmda Yana Mars osmonda to‘g‘ri harakat(G‘arbdan-Sharqqa tomon) qilib Savr (Buzoq)ni shohiga keladi. Bu holat 3-rasmda ko‘rsatilgan edi va yana takrorlanayapti. Agar 1-rasmdan boshlab tahlil qilsak, Mars sayyorasi deyarli 6 oy davomida 20.08.2022-28.02.2023 gacha Savr yulduz turkumida sirtmoqsimon harakat qiladi. Agar rasmlarni har 10 kundan olib Marsning osmondagi o‘rni tahlil qilinsa, uning 6-oylik trayektoriyasi sirtmoqsimon shaklni beradi. Bu holatni osmonda o‘sha ko‘rsatilgan sanalarda Marsning osmonda haqiqiy harakatini kuzatish mumkin. Keyingi rasmda Mars o‘zining to‘g‘ri harakatini davom qildiradi.



7-rasm. Mars Savr (Телец) va Javzo (Блезницы, Egizaklar) o‘rtasida.

7-rasmda Mars to‘g‘ri harakatini davom qildirib (G‘arbdan-Sharqqa) Savr(Телец) yulduz turkumidan Javzo, Egizaklar (Блезницы) yulduz turkumi tomon harakatlanishi

ko‘rsatilgan. Keyingi oylarda Mars, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jaddi, Dalv, Xut zodiak yulduzlar tomon harakatini davom ettiradi.

Bu mavzuga xulosa qilib bir qancha faktlarni sanab o‘tamiz:

1. Mars sayyorasi Savr yulduz turkumida 2022-yil Avgust oyidan 2023-yil Mart oyigacha yani 6 oy davomida sirtmoqsimon harakat qiladi.

2. Bu davr ichida 2022-yil 12-dekabrdan 13-dekabrga o‘tar kechasi yarim tunda Mars sayyorasi Yerga nisbatan ro‘para turadi ya’ni yerga eng yaqin keladi.

3. Tashqi sayyoralarda, shu jumladan, Marsning ham o‘zini sirtmoqsimon harakati davomida ro‘para turish holati kuzatiladi.

4. Sirtmoqsimon harakati davomida tashqi sayyoralar yerga nisbatan eng yaqin keladi.

5. Yuqoridagi matnda aytilgan: masalan, Mars sayyorasiga uchish uchun uning sirtmoqsimon harakati va ro‘para turish holati tanlanadi.

Mana shu natijalarni talabalarga tushuntirish orqali fanga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamadazimov M., Rizayev T. Uzluksiz ta’lim tizimida astronomiyani o‘qitishning muammolari. – T.: Yangi asr avlodi, 2016. – 355-b.

2. Sattorov U. Astrofizika I qism. – T.: Ta’lim nashriyoti, 2009. – 201-b.

3. Avezmurotov O., Avezmurotov Z., Bekberganov A. Zodiak yulduz turkumlarini Mars yordamida vizual kuzatish uslubi.//Buxoro Davlat Universiteti ilmiy axboroti. 2019-y. 3-son. – U. 69-72-betlar.

4. “Stellarium” programmasi.

5. Qahhorov S.Q., Avezmurotova Z.A. “Ta’lim oluvchilarga zodiak yulduzlar turkumini o‘rganishda Yupiter planetasini ahamiyati. “Xalq ta’limi”. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. –T.: 6-son 43-45-betlar. 2020-yil.

6. Avezmurotov O., Avezmurotova Z.A., Rajabov O.R. “Zamonaviy innovatsion texnologiyalar yordamida Quyosh sistemasidagi sayyoralarni osmon sferasidagi harakatini Oy yordamida o‘rganish” UzAkademiya ilmiy-uslubiy jurnal. 3-jild. 2020-y. 281-284-betlar.

7. Avezmurotov O., Avezmurotova Z.A., Bekberganov A. “Zodiak yulduz turkumlarini Mars yordamida vizual kuzatish uslubi”.//Buxoro Davlat Universiteti ilmiy axboroti. Jurnali. 2019-y. 3-son. – Buxoro. 69-72-betlar.

8. Avezmurotov O., Saparov X., Aminov U., Bekberganov A. “Zodiak yulduz turkumlarini o‘rganishda Oyning vizual ko‘rinma harakatlaridan foydalanish”.//Ilm sharchashmalari. Jurnal. 2017-y. 8-son. – Urganch. 60-64-betlar.

Shahnoza KOMILOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
"Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi"
(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi magistranti

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA FANGA OID KOMPETENSIYALAR

Annotatsiya

Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu jihatlarni hisobga olgan holda, maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida fanga oid kompetensiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim, tarbiya, ona tili, boshlang'ich ta'lim, kompetensiya, nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya.

Обучение на родном языке позволяет детям расширить свою мыслительную деятельность, свободно мыслить, понимать мнения других, бегло выражать свое мнение устно и письменно, свободно общаться с членами общества. Служит для развития навыков и способностей. Имея это в виду, в статье представлены научные компетенции на уроках родного языка в начальной школе.

Ключевые слова. Образование, воспитание, родной язык, начальное образование, компетенция, речевая компетенция, языковая компетенция.

Teaching in their native language allows children to expand their thinking activity, think freely, understand the opinions of others, express their opinions fluently orally and in writing, and communicate freely with members of society. Serves to develop skills and abilities. With this in mind, the article presents scientific competencies in native language lessons in primary school.

Key words. Education, upbringing, native language, primary education, competence, speech competence, language competence.

Ma'lumki hozirgi kunda kishilar axborot dunyosida yashaydi. O'qishda va kundalik faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun zaruriy axborotga ega bo'lish hamda ularni izlab topish, undan keraklisini ajratib olish va foydalanishni o'rganish kerak.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitishning maqsadi – o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirishdan iborat.

Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi: o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga

qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) shakllantirish va rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o‘qigan, ko‘rgan, eshitganlarini nutqiy to‘g‘ri va ravon bayon eta olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Yana o‘quvchi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish bilan birga o‘z fikrini boshqalarga tushuntira olishi, ularni tinglab tushuna olishi, bahsga kirishishi, ya’ni kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lishi lozim.

Shu bilan birgalikda kundalik hayotda uchraydigan muammolarni hal etishda bilim, ko‘nikma malakalaridan o‘rinli foydalana olishlarini shakllantirish ham zarur. Bu vazifalarni ta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘quv fanlarini o‘rganish jarayonida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish bilan birgalikda, ulardan hayotiy ehtiyojlarda o‘rinli foydalana olishlari kerak. Buning uchun Davlat ta’lim standartlari kompetentlik yondashuviga asoslangan holda takomillashtirilishi lozim.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim – o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’limdir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarini shakllantiradi. Inson o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, ta’limda har bir o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarda, shu fanning o‘ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida (9+3) o‘qitiladigan umuta’lim fanlari mazmunining izchilligini ta’minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda ona tili fani mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetensiyalar belgilandi.

Ona tili fanining o‘quv dasturi o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzilgan. O‘quv dasturida o‘quvchilarda fanga doir nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni hamda tayanch kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko‘zda tutilgan.

Boshlang‘ich ta’limda – o‘quvchilarning savodxonligini ta’minlash, og‘zaki va yozma nutqida adabiy nutq me’yorlariga rioya qilishni shakllantirishdan iborat.

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish):

mavzu doirasida o‘qituvchi nutqini va sodda audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi;

– ko‘rgan rasmlari asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan o‘qituvchi yordamida suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o‘zlashtirgan yangi so‘zlarni og‘zaki nutqda qo‘llay oladi;

– unli tovushlar, ularning talaffuzi, harflar bilan ifodalanishini, J harfining j (portlovchi) va j (sirg‘aluvchi) tovushni ifodalashini, sh, ch, ng harf birikmalari, ularning

bitta tovush ifodalashini, aytilishi va yozilishida farqlanuvchi undoshlarni, ya'ni b-p, d-t, z-s, j- sh, j-ch, v-f, g'-x kabi undoshlarni, so'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'lishini tinglab tushuna oladi;

mashq matnidagi so'zlarni to'g'ri o'qiy oladi, tuzilishi murakkab so'zlarni bo'g'inlab yoza oladi, tutuq belgili so'zlarni yoza oladi, tutuq belgisining o'rniga ko'ra, ya'ni tutuq belgisidan oldingi unlini cho'ziqroq aytib va tutuq belgisi undoshdan so'ng kelganda bo'g'inlarni ajratib o'qiy oladi;

so'z oxirida ketma-ket kelgan (d-t, (nd, st, rg, lt) g-k) undoshlarini yozuvda yoza oladi. Tutuq belgisi qatnashgan so'zlarni, ya'ni o'zidan oldingi unli va undosh bilan qoldirib yozishni biladi. Alifbodagi bosh va kichik harflarni alifbo tartibida yoza oladi, sh, ch, ng harf birikmali so'zlarni bir satrdan ikkinchi satrga ko'chirib yoza oladi. Gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qiy oladi;

joy nomlarining bosh harf bilan, ya'ni Respublika, shahar, ko'cha, qishloq, daryo nomlarini bosh harf bilan yoza oladi, shaxs va narsaning nomini, harakatini, belgisini, miqdorini bildirgan so'zlarni yoza oladi, harflarni yozuvda imlo va husnixat qoidalariga amal qilgan holda harflarni bir-biriga bog'lab, ko'chirib, namunaga qarab yoza oladi. Bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya: o'zbek tilida nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qila oladi, so'zlarni talaffuz me'yorlariga rioya qilgan holda bo'g'inlab ko'chirish qoidasiga rioya qila oladi, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi, tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi.

Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi.

O'rganilgan mavzular bo'yicha o'quvchilarda xususiy va tayanch kompetensiyalarning qay darajada shakllanganligini uyga berilgan vazifalarni tekshirish orqali; kundalik, oraliq nazorat ishlarinini o'tkazish orqali, o'tilgan mavzular bo'yicha takrorlash darslari orqali aniqlashi mumkin. Bunda o'qituvchi uyga berilgan vazifani sinf o'quvchilarining qancha foizi qay darajada bajarganlarini aniqlab olgach, berilgan vazifani etarli bajarmagan o'quvchilardan ko'proq darsga jalb qilishi, ular bilan savol-javoblar tashkil etishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning ona tili fanidan Davlat ta'lim standarti 2017-yil.

2. Anapiyayev F. "Kompetensiyaviy yondashuv: muammo va yechimlar". Ilmiy maqola 2017-yil.

Dildora ZIKIROVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti magistranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MATEMATIK MASALALAR YECHISHGA O‘RGATISHNING NAZARIY ASOSI

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik masalalar yechishga o‘rgatish va ularni fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga nazariy-metodik tavsiyalar keltirib o‘z qarashlari bilan izohlab berildi.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich sinf, o‘quvchilar, matematik masalalar, arifmetik amallar, aqliy qobiliyat, malaka, reja, ko‘nikma, malaka, analiz, sintez.

В статье представлены теоретические и методические рекомендации по обучению школьников младших классов решению математических задач и развитию их мыслительных способностей на основе собственных взглядов автора.

Ключевые слова. Начальная школа, ученики, математические задачи, арифметические операции, умственные способности, навыки, планы, компетенция, анализ, синтез.

This article provides theoretical and methodological recommendations for teaching elementary students to solve mathematical problems and developing their thinking skills explained by author’s own views.

Key words. Elementary school, students, math problems, arithmetic operations, mental abilities, skills, plans, competence, analysis, synthesis.

Hozirgi paytda maktablarda boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Bunda ularda matematika bo‘yicha bilimlar berish bilan birga ularga o‘rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo‘lishini ta’minlash, ularni qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni kelgusida olingan bilimlarni ongli hayotiy faoliyatda muvaffaqiyatli qo‘llashlari uchun zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantirish boshlang‘ich matematik ta’limning asosiy vazifalariga aylanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan o‘quv jarayonida matematik masalalar, jumladan, hayotiy mazmunli, ularning to‘plagan tajribasiga asoslangan masalalarni yechish usullariga va ularni qo‘llashga o‘rgatish o‘ziga xos xususiyatlarga ega, ularni ta’lim mazmuni va o‘rganilayotgan tushunchalar mohiyatini ochib berishda foydalanish, o‘zaro aloqadorlikda va o‘quvchilar amaliy faoliyati tajribasi bilan qo‘shgan holda o‘qitish dolzarb masalalardan sanaladi. Bu usullarni ishlab chiqish va amalda qo‘llash o‘qitish sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Muhtaram Prezidentimiz

Shavkat Mirziyoyev: “Matematikani yaxshi bilgan bola aqlli, keng, tafakkurli bo‘ladi va istalgan sohada ishlab ketadi” deb ta’kidlaganlar. Shu bilan birga: – “boshlang‘ich sinfda matematika fanini yaxshi o‘zlashtirgan va matematik masalalarni ongli ravishda ishlagan o‘quvchilar boshqa fanlarni o‘zlashtirishga qiynalmaydilar” – degan edi. Bola maktabdagi mashg‘ulotlarning birinchi kunidanoq masala bilan uchrashadi. Birinchi sinf o‘quvchilari bilan qilinadigan dastlabki suhbatlarning birida o‘qituvchi o‘quvchi qanday hayotiy tajriba va bilimga ega ekanini aniqlash maqsadida eng sodda masalaga murojaat qiladi. Masalan: “Sening 4ta qalaming bor edi, sen yana bitta qalam olding. Sendagi qalamlar nechta bo‘ldi?” Maktabda o‘qitishning boshidan oxirigacha matematik masalalar o‘quvchilarga matematik tushunchalarni to‘g‘ri shakllantirishga, uni o‘rab turgan muhitning o‘zaro aloqadorligining turli tomonlarini chuqurroq aniqlashga yordam beradi, o‘rganilayotgan nazariy qoidalarni qo‘llanish, kuzatilayotgan hodisalarda har xil sonli bog‘lanishlarni o‘rnatish imkonini beradi. Shu bilan birga masalalar yechish bola tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi.

Shu sababli masala matnida berilgan sonlar bilan izlanayotgan son orasidagi bog‘lanishni ko‘rsatuvchi biror bilvosita ko‘rsatmalar bo‘lishi va bu bog‘lanish kerakli arifmetik amallarni tanlash va ular tartibini aniqlashi kerak. Masalaning to‘la yechimi shartning analizidan (tahlilidan); amallarning bajarilish tartibini ko‘rsatuvchi rejadan; u yoki bu qiymati qanday amal bilan topilishi va nega shu amal bilan topilishini tushuntirishdan; arifmetik amallarni bajarish va javobdan iborat bo‘ladi. Shuningdek, masala yechilishiga tekshirish va olingan javobning yaroqli yoki yaroqsiz ekanini aniqlash ham kiritiladi. Boshlang‘ich sinflarda matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda albatta biz mantiqiy masalalardan foydalanamiz. Aqliy qobiliyatini rivojlantirishda har bir darsda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rejalashtirishning foydali vositasi bo‘lib, odatda, o‘z ichiga, yashirin informatsiyani oladi. Bu informatsiyani qidirish, masala yechuvidan analiz va sintezga mustaqil murojaat qilish, faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hokazolarni talab qiladi. Har xil turdagi masalalarni yechish amallar ma’nosini ochib berish, u yoki bu tushuncha munosabatlarining shakllanishidan tashqari o‘quvchilar bilim doiralarining kengayishiga ba’zi kattaliklar va ular orasidagi bog‘lanishlar bilan chuqurroq tanishtirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar masalalar yechishga zarur malakalarni egallashlari uchun turli hayotiy berilgan va izlanayotganlar orasidagi ma’lum bog‘lanishlarni tushungan holda topishga o‘rgatish kerak. Masalalarni yechishda predmetga bo‘lgan qiziqish rivojlanadi, umuman, mustaqillik erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilish rivojlanadi. O‘quvchilarga tarbiya berishda ham hayotiy masalalar fikr doiralarni kengaytirishga yordam beradi. Masalalar ustida ishlanar ekan tizimli ravishda va rejali asosda o‘quvchilarning xususiy malakalarini takomillashtirishga olib keladi. Masala ustida ishlash uning mazmunini o‘zlashtirishdan boshlanadi. O‘quvchilar hali o‘qish malakasiga ega bo‘lmagan dastlabki vaqtlarda ularni o‘qituvchi o‘qib beradigan masala matnini tinglashga shartning muhim elementlarini tovush chiqarib ajratishga o‘rganish kerak shundan keyin masala shartini yaxshiroq o‘zlashtirish maqsadida, har bir o‘quvchi masala matnini tinglashga va masalani mustaqil o‘qib chiqishga intilishi zarur. Buning uchun ularga masalani oldin ovoz chiqarmay o‘qishni so‘ngra esa tovush chiqarib ifodali o‘qishni taklif qilish kerak.

Masalalar yechish malakasini hosil qilishda masalani tahlil qilishning umumiy metodini o‘quvchilar qanday egallab olganliklari va bolalar o‘zlari mustaqil masala yechimini topishlariga yordam beradigan vositalarni qanday o‘zlashtirganliklari mu-

him ahamiyatga ega. Bu vositalar masala shartini bir vaqtda analiz qilib qisqa yozish, yechish rejasini tuzish, yechimini tegishli og‘zaki yoki yozma tushuntirishlar bilan yozish, yechimning to‘g‘riligini tekshirishdan iborat. Shunday qilib, masalalar ustida ishlaganda o‘quvchi faqat u yoki bu masalani yechish malakasini shakllantiruvchi xususiy malakalarni rejali ravishda ishlab chiqilishi borasida g‘amxo‘rlik qilish, kerak. Chunki masala yechishning umumiy murakkab malakasi shu xususiy malakalardan tashkil topadi. Masalalar yechish orqali o‘quvchilarda ushbu malakalar tarkib topmog‘i lozim.

1. Masalani tinglashni o‘rganish va uni mustaqil o‘qiy olish. Masala ustida ishlash uning mazmunini o‘zlashtirishdan boshlanadi. Masala mazmunini yaxshi tushunish uchun o‘quvchilarning har biri uning mazmunini eshitibgina qolmay, balki uni mustaqil o‘qib chiqishi kerak. Agar masala sharti bosh qotiradigan bo‘lsa, o‘quvchilar masala mazmunini mustaqil o‘ylab ko‘rishlari uchun ikki-uch minut vaqt berish maqsadga muvofiqdir. O‘qishda bolalarni to‘g‘ri mantiqiy urg‘u berishga o‘rgatish lozim. Bu masala tuzilishini tushunishdan tashqari, matematik atamalarni, berilganlar bilan noma’lumlar o‘rtasidagi bog‘lanishini tushunishga yordam beradi.

2. Masalani dastlabki analiz qilish (ma’lumni noma’lumdan ajrata olish malakasi). Berilgan masala ustida ishlaganda o‘quvchilarning diqqat-e’tiborini avvalo, masaladagi har bir so‘z va har bir sonning mazmuniga qaratish zarur; masalada tasvirlanayotgan manzarani jonli tasavvur qilishlariga yordam berish kerak; shartda berilganlarni va savolni ajratishga; masalada so‘z yuritilayotgan kattaliklarda qanday o‘zgarishlar ro‘y berayotganini tushunishga; masala savolini tushunishga ahamiyat berish kerak. Ma’lumni noma’lumdan, muhimni muhim emasdan ajrata olish, berilganlar bilan izlanayotganlar orasidagi bog‘lanishni ochib berish malakalari eng muhim malakalardandir, bu malakalarni egallamay turib masalalarni mustaqil yechishni o‘rgatib bo‘lmaydi.

3. Masalani qisqa yozish malakasi. Masala ustida og‘zaki ishlagandan keyin masala mazmunini matematik atamalar tiliga o‘tkazish kerak va uning matematik tuzilishini qisqa yozuv (chizma, jadval) shaklida ifodalash kerak. Ikkinchi sinfda, matematik model masalalar bilan tanishtirishda yoki murakkabroq masalalarni yechishda to‘la predmet, ko‘rsatmalilikdan (masalan, masala berilganlarining hammasi predmetlar bilan ko‘rsatilganlikdan) sekin-asta to‘la bo‘lmagan ko‘rsatmalilikka (masalan, masalaning hamma berilganlari to‘la predmetlar bilan tasvirlanmaganlikka) o‘tiladi, so‘ngra shartli qisqacha yozishga (grafik tasvirlashga) o‘tiladi. Shuni nazarda tutish kerakki, hamma hollarda ham qisqacha yozishni bajarish bilan birga masala sharti analiz ham qilinadi.

Qisqacha yozishning vazifasi ana shundan iborat. Haqiqatdan, shartni qisqacha yozish ma’lumotlarni tushunish va yaratish imkonini beradi, bu ma’lumotlarni masalada nima berilganligini va nimani izlash kerakligini aniqlashga yordam beradi.

Masala sharti murakkab bo‘lganda, berilganlar orasidagi bog‘lanishlarni tahlil qilish qiyin bo‘lganda, shuningdek, turli ko‘rinishdagi masalalarni yechishda qisqa yozishdan foydalanish.

4. Sodda masalalarni yechishda amal tanlashni asoslab berish va murakkab masala tahlilini amalga oshirish, so‘ngra yechish rejasini tuzish malakasi. Avval sodda masalani yechishda amal tanlash masalasiga to‘xtalib o‘tamiz. Bu malaka birinchi sinfda shakllantirilib boshlanadi, o‘qitishning ikkinchi yilida bu rivojlantirish yana davom ettiriladi. Bu rivojlantirish shundan iborat bo‘ladiki, ba’zi tanish masalalarga nisbatan amal tanlash asosi o‘zgartiriladi.

5. Yechishni bajarish. Ishni sodda masalalardan boshlaymiz. Sodda masalani arif-

metik usul bilan ham, algebraik usul bilan ham yechish mumkin.

Sodda masalani arifmetik usul bilan yechilganda ifoda tuziladi va uning qiymati topiladi.

6. Masala yechimini tekshira olish malakasi. Masala yechimini tekshirish — yechimning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlashdan iborat.

7. Masalalar ustida ishlashda ma’lum tizim belgilash va uni joriy qilish malakasi. O‘quvchilar yuqorida ko‘rib o‘tilgan malaka va ko‘nikmalarning har birini ishonch bilan egallashdan tashqari har birini masala xususiyatlarini hisobga olgan holda bir-biriga bog‘lab o‘rganishlari muhimdir.

Topshiriqlar yoziladi va o‘quvchilar masalalar yechishda ko‘rgazmalarda ko‘rsatilgan topshiriqlarni qat’iy ma’lum tartibda bajarib, masala ustida ishlash malakasini egallab boradi, ularda masala ustida ishlashning umumiy metodi tarkib topadi.

Boshlang‘ich sinf matematika metodikasiga oid qo‘llanmalarda masalani tahlil qilishning analitik va sintetik usullari o‘rganiladi. Chunki masala yechishda masala yechuvchining fikri doim ma’lumdan noma’lumga va noma’lumdan ma’lumga qarab borishi kerak. Masala tahlilini uning savolidan ham, berilganlardan ham boshlash mumkin. Yechish yo‘llarini izlash maqsadga yo‘nalgan bo‘lishi muhimdir, bunda berilgan ma’lumotlar bo‘yicha nimani bilish mumkinligiga doir ko‘rsatma har doim “Buni bilishim zarurmi?” “Bu masalani yechishga yordam bera oladimi?” degan savollar bilan tekshirib turilishi kerak, va aksincha, masala savoliga javob berish uchun nimani bilish kerakligi “Buni masalada berilganlarga qarab bilish mumkinmi?” degan savol bilan tekshirilib turishi kerak.

Matematik masala ustida ishlash jarayonida shunga intilish kerakki, har bir masala o‘quvchilar uchun haqiqiy bilim manbai bo‘lib qolsin. Buning uchun o‘quvchining diqqatini masala shartidan tafakkurini va bilish qobiliyatlarini rivojlantiradigan darajada ko‘proq ma’lumotlarini olishga yo‘naltirish kerak.

Quyidagi masalani ko‘rib chiqamiz.

1-masala. Amir Temur muzeyiga birinchi kuni 2180 nafar, ikkinchi kuni undan 420 nafar kam, uchinchi kuni ikkinchi kundagiga qaraganda 350 nafar ko‘p kishi keldi. Muzeyga uch kun davomida necha nafar kishi tashrif buyurgan.

Masalani ishlashda birinchi o‘quvchilarga ongli ravishda tushunib o‘qishni, birinchi kuni muzeyga tashrif buyurganlar ma’lum ya’ni 2180 nafar, ikkinchi kuni birinchi kundagidan 420 nafarga kam ekanligini kam deganda ayirish amalidan foydalanishni tushuntirib, ikkinchi kuni muzeyga borganlar sonini topamiz. Uchinchi kun ikkinchi kundagidan 350 nafar ko‘pligini topishimiz uchun ko‘p tushunchasini tushungan holda qo‘shish amalidan foydalanishni tushuntiramiz va shu tarzda masala shartini tuzamiz.

Yechilishi:

Ikkinchi kunda muzeyga necha kishi tashrif buyurgan?

2180-420=1760

Uchinchi kuni muzeyga necha nafar kishi tashrif buyurgan?

1760+350=2110

Muzeyga uch kun davomida necha nafar kishi tashrif buyurgan?


2180+1760+2110=6050

Javob: 6050 nafar kishi.

Murakkab masalalarni yechishda masalani tahlil qilish malakasi (ya’ni masalani yechish rejasini tuzish) asosiy ahamiyatga ega. Masalani tahlil qilish nimani va nima bilan, qanday ketma-ketlikdaligini bilish; har bir bosqichda qancha miqdorda va qan-

day arifmetik amallar bajarilishini bilish demakdir. O‘quvchilar sodda masalalarni yechish malakasini egallagan sari murakkab masalalarni ishlaydilar. Masalalar tuzishda o‘qituvchi bolalar tanlagan mazmun hayot bilan mos tushishini kuzatib borishi kerak.

2-masala. Rasm asosida masala tuzing va yeching.



Rasm asosida masala tuzish o‘quvchilarni fikrlash bilan bir qatorda nutqini o‘stirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda rasm asosida masala tuzish ularning diqqatini yanada jalb qiladi va har bir o‘quvchi o‘z fikrini bayon qiladi.

Yechish: 12 ta mevadonda 96 ta apelsin bor. 3 ta mevadonda nechta apelsin bor?

Bitta mevadonda nechta apelsin borligini topamiz.

96:12=8

3 ta mevadonda nechta apelsin bor?

8*3=24

Javob: 24 ta apelsin.

Matematika darslarida beriladigan har bir masala o‘quvchini fikrlash va aqliy qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalalarni ishlash jarayonida albatta STEAM dasturi asosida o‘tkazilsa, o‘quvchilarga yanada aniqroq va ongli ravishda tushunib ishlaydilar. Har bir masala o‘quvchini fikrlash qobiliyatini o‘stirishga xizmat qilishi kerak. Shuni nazarda tutgan holda o‘quvchilarning o‘zlariga ham masalalar tuzdirishda masalaning mazmuni albatta hayot bilan bog‘lagan bo‘lishi kerakligini tushuntirish lozim. Masalan, Onam menga bozordan 4 ta ko‘ylak sotib olib keldilar, dadam esa undan ikki marta ko‘p ko‘ylak sotib olib keldilar. Dadam nechta ko‘ylak sotib olganlar? Onasi 4ta, otasi 8ta. Masala mazmuni haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Ota-onalar o‘z bolasiga birdan 12ta ko‘ylak sotib olmaydilar-ku. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga masalaning mazmuni va hayot bilan bog‘langan holda tuziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z.G‘. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” –T., Fan va texnologiya nashriyoti, 2005.

2. Jumayev M.E. “Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum” –T., O‘qituvchi nashriyoti, 2004.

3. Bikbayeva N.U., Sidelnikova R.I., Adambekova G.A. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” –T., O‘qituvchi 1996.

4. Ahmedov Z. M., Abdurahmonova N., Jumayev M. “1-sinf uchun darslik” Turon-iqbol –T., 2019.

5. Burxonov S., Xudoyorov O‘., Norqulova Q., Ro‘ziqulova N., Goipova L. “3-sinf uchun darslik”, SHARQ NM, 2019.

Alisher UMAROV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA RAQOBATBARDOSH KADRLARNI TAYYORLASH STRATEGIYASI VA PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Maqolada so‘nggi yillardagi islohotlar asosida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining raqobatbardoshligini shakllantirish davomida pedagogik strategiyani amalga oshirish uchun maxsus mexanizmlarning konseptual asoslari, mazkur jarayonning samarali mexanizmlari, ularning mazmuni, shuningdek, asosiy tarkibiy qismlari va darajalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Mexanizm, pedagogik strategiya, raqobatbardosh kadr, bitiruvchi, oliy ma’lumot, professionalizm.

В статье рассматриваются концептуальные основы специальных механизмов для осуществления формирования конкурентоспособности выпускников вузов, эффективные механизмы указанного процесса, их содержание, а также основные компоненты и уровни таких механизмов на основе реформы последнего года.

Ключевые слова. Механизм, педагогическая стратегия, конкурентоспособный выпускник, высшее образование, профессионализм.

This article deals with conceptual basics of special mechanisms in order to carry out the forming of the competitiveness of graduates at higher education institutions, effective mechanisms of the above mentioned process, their content, as well as the main components and levels of such mechanisms based on latest year reforms.

Key words. Mechanism, pedagogical strategy, competitive graduate, higher education, professionalism.

Oliy ta’lim muassasalarida, ta’lim va tarbiya berishga oid faoliyatdagi maqsadi – ma’lum shaxsiy fazilatlarga ega va bunda topshirilgan turli xil, shu bilan birga, jadal o‘zgarib borayotgan sharoitlarda keng miqyosdagi kasbiy masalalarni hal etishning kompleks usullarini qo‘llash orqali maqsadli vazifalarga erishishning yuqori samaradorligiga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashga aylanib bormoqda. Ushbu maqsadga erishish imkoniyati shubhasiz mavjud, biroq, u bir qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan murakkablashgani bois, maqsadga erishishning nafaqat pedagogik strategiyasini ishlab chiqish, balki uni amalga oshirish vositalarini batafsil o‘rganib chiqish ham birdek talab etiladi. Mazkur vaziyatda pedagogik strategiya tushunchasi qo‘yilgan maqsadga bajarilishi mutanosib natijalarni ta’minlaydigan kompleks vazifalar, shuningdek, ma’lum vaqt davomida vazifalarga o‘zgartirishlar kiritish vositalari va ularni bajarishni nazorat qilish tizimini nazarda tutadi. Strategik

vazifalarni bajarishni nazorat qilish usul va yo‘llari birgalikda strategiyani amalga oshirish mexanizmi hisoblanadi. Sifatli mexanizm pedagogik strategiyani samarali ravishda amalga oshirishga imkon yaratadi, shu tufayli, oliy ta’lim muassasalaridagi pedagogik faoliyatga butunlay va “chiqish”dagi bitiruvchining raqobatbardoshligini shakllantirishga qisman qo‘llaniluvchi “mexanizm” atamasiga batafsil to‘xtalamiz. Barchaga ma’lumki, “mexanizm” atamasi, mazmunini qo‘llash sohasiga qarab turlanuvchi intizomlar aro tushunchani aks ettiradi. Ilmiy-pedagogik izlanishlardagi “mexanizm” tushunchasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, quyidagi izohlar mavjudligini ko‘ramiz:

· mexanizm – pedagogik ta’sir obyektining ishlashini ta’minlovchi qurilma bo‘lib, uning rivojlanishidagi harakat kuchi hisoblanadi;

· mexanizm – o‘zaro bog‘liq elementlarning majmui bo‘lib, pedagogik faoliyatni amalga oshirish tartibini ta’minlaydi;

· mexanizm – biron-bir hodisani aniqlovchi pedagogik tizim holatlari yoki jarayonlarining majmui;

· mexanizm – obyektning faoliyat yuritish va rivojlanish imkoniyatlarini amalga oshiruvchi o‘zaro bog‘liq elementlar majmui.

Shunday qilib, “mexanizm” tushunchasidan shaxsning ma’lum bir qobiliyati yoki fazilatini shakllantirishning o‘zaro bog‘liq tizimlari va jarayonlarini tavsiflash uchun pedagogikaga oid adabiyotlarda faol foydalaniladi, deb aytish mumkin. Voqeiylikning har bir murakkab hodisasi uchun mexanizm nafaqat statik, balki, o‘z jamlanmasida operatsiyalar tizimi, harakatlar, maxsus murakkab vazifalar va ko‘p o‘lchovli jarayonlar majmuini o‘z ichiga oluvchi dinamik xususiyatlarga ega. A.V.Suyushkov “mexanizm” tushunchasining mazkur izohiga quyidagicha qo‘shimcha kiritadi: pedagogikada mexanizm, berilgan boshlanish nuqtasi va o‘z xulosalarining referentligiga ega bo‘lgan bir-birini taqozo etuvchi va o‘zaro bog‘liq ko‘p qirrali ajralmas tizimni o‘z ichiga oladi.

O‘z navbatida, pedagogik strategiyani amalga oshirish mexanizmi quyidagilarni nazarda tutadi:

1) pedagogik tizim vazifalarining amalga oshirilishini ta’minlab beruvchi barcha elementlar yig‘indisi;

2) moddiy-texnik, tashkiliy-boshqaruv va ijtimoiy-psixologik yo‘nalishlari kompleks choralarinining amalga oshirilishini ta’minlovchi subyektlar va vositalar;

3) Oliy ta’lim muassasasi talabasining kasbiy va shaxsiy shakllanishini ilmiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash mazmunida amalga oshiriladigan professor-o‘qituvchilik faoliyati tizimi.

Pedagogik strategiyani amalga oshirish mexanizmi tushunchasining ta’kidlangan izohiga tayangan holda, mazkur tushunchaning mazmunini yoritishda ularning ba’zi cheklovlarini qayd etish mumkin. Xususan, birinchi tushuncha yetarlicha noaniq va undan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchisining raqobatbardoshligini shakllantirishning pedagogik strategiyasini amalga oshirish mexanizmini aniqlash uchun foydalanib bo‘lmaydi; uchinchi izohda esa, aynan ilmiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash mexanizm sifatida xizmat qilib, unga jarayonlarning boshqa majmui yoki oliy ta’lim muassasalari bitiruvchisining raqobatbardoshligini, ya’ni huquqiy, iqtisodiy va boshqa fazilatlarini shakllantirishni aniqlovchi pedagogik tizimning boshqa holatlarini kiritishga imkon bermaydi.

Yuqorida ko‘rsatilgan nazariyalarga tayangan holda, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining raqobatbardoshligini shakllantirishning pedagogik strategiyasini amalga oshirish mexanizmi tushunchasini – pedagogik maqsad va unga erishish

vositalari to‘g‘risidagi ishlab chiqilgan g‘oyalarga mutanosib, kutilgan natijaga yo‘naltirilgan o‘qituvchining rejalashtirilgan vazifalar majmuini amalda bajarish imkoniyatlarini belgilaydigan o‘zaro bog‘liq elementlar to‘plami deb ta’riflasa bo‘ladi.

Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining raqobatbardoshligini shakllantirishning pedagogik strategiyasini amalga oshirish mexanizmlarining umumiy ko‘rinishini quyidagi tavsiflarda bilish mumkin:

– o‘zaro bog‘liq elementlarning yig‘indisi haqida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini shakllantirishning pedagogik strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan vazifalarning butun bir harakatlar majmui sifatida gapirishga imkon beradigan butunlik;

– oliy ta’lim muassasasi raqobatbardosh bitiruvchilarini shakllantirishga qaratilgan moddiy-texnik, tashkiliy-boshqaruv va ijtimoiy-psixologik sohalarning kompleks choralarini amalga oshirilishini ta’minlovchi barcha element va vositalarni izohlashning va ishlab chiqishning aniqligi;

– oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilari raqobatbardoshligini shakllantirishning pedagogik strategiyasini amalga oshirish mexanizmini o‘z ichiga oluvchi elementlar integratsiyasining sinergetik samarasi;

– o‘qituvchining rejalashtirilgan vazifalar majmuini amalda bajarish imkoniyatini ta’minlovchi, oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilari raqobatbardoshligini shakllantirishning pedagogik strategiyasini amalga oshirish mexanizmining harakatlarga boyligi;

– ko‘zlangan natijaga yo‘naltirilgan, unga erishish vositalari va pedagogik maqsad to‘g‘risida ishlab chiqilgan g‘oyalarga mos keladigan, oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilari raqobatbardoshligini shakllantirishning pedagogik strategiyasini amalga oshirish mexanizmining funksional yo‘nalganligi.

Oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilarini raqobatbardoshligini shakllantirishning pedagogik strategiyasini amalga oshirishning barcha mexanizmlarini quyidagi asoslar bo‘yicha tasniflash mumkin:

· amalga oshirish ko‘lamlari – talaba miqyosida (pedagogik jarayon subyekti sifatida), kafedra miqyosida (fakultet), oliy ta’lim muassasasi miqyosida. Masalan, talaba miqyosida psixologik xususiyatlari mexanizmlari, kafedra (fakultet) miqyosida – tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, oliy ta’lim muassasasi miqyosida esa – oliy ta’lim muassasasining raqobatbardosh bitiruvchilarini shakllantirish bo‘yicha pedagogik strategiyani amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari haqida aytish mumkin.

· amal qilish muddatlari – qisqa muddatli, o‘rtacha uzoq muddatli va uzoq muddatli. Masalan, qisqa muddatli harakatlarning pedagogik strategiyasini amalga oshirish mexanizmlariga kam “yaroqlilik muddati”ga ega va raqobatbardosh bitiruvchi-talabalarni shakllantirish jarayonining ko‘plab omillariga qarab to‘xtovsiz o‘zgartirishlar kiritilishi kerak bo‘lgan innovatsion, axborot va boshqa yo‘nalishlarni kiritish mumkin. O‘z navbatida, tashkiliy va metodik yo‘nalishlar mexanizmi qaysidir ma’noda bitiruvchi raqobatbardoshligini shakllantirishning butun jarayonining yaxlitligini ta’minlaydi va ular uzoq davrga belgilangan;

· subyektlar soni – individual, jamoaviy va guruh sifatida. Masalan, oliy ta’lim muassasasining raqobatbardosh bitiruvchilarini shakllantirish bo‘yicha pedagogik strategiyani amalga oshirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari individual yo‘naltirilgan bo‘lsa, ilmiy-metodik yoki axborot-pedagogik mexanizmlar jamoaga yo‘naltirilgan. Huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar, o‘z navbatida, subyektlar soniga ko‘ra guruhli mexanizmlar safiga kiradi.

Taqdim etilgan tasnif oliy ta’lim muassasasining raqobatbardosh bitiruvchilarini shakllantirishning pedagogik strategiyasini amalga oshirish mexanizmlarining ikkilamchi belgilarini aks ettiradi. Ushbu tasnif uchun birlamchi asos sifatida, fikrimizcha, ularning umumiy yo‘naltirilgan vektorini ko‘rib chiqish lozim.

Shu sababli, oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilarining raqobatbardoshligini shakllantirishning pedagogik strategiyasini amalga oshirish mexanizmlarining quyidagi tasnifini qo‘llashni tavsiya qilamiz:

· psixologik-pedagogik;
· tashkiliy-boshqaruv;
· ilmiy-metodik;
· ijtimoiy-iqtisodiy;
· axborot-pedagogik;
· kadrlarga oid;
· huquqiy.

Quyida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini shakllantirishning pedagogik strategiyasini amalga oshirish mexanizmlarining mohiyat va mazmunini ko‘rib chiqamiz:

1. Psixologik-pedagogik mexanizmlar. Psixologik-pedagogik mexanizmlar raqobat afzalliklarini shakllantirishda atrof-muhit faolligi va talaba shaxsining faolligini organik ravishda birikishiga olib borish sharoitidagina oliy ta’lim muassasasining real amaliyotida qo‘llanilishi mumkin. Bundan tashqari, ongli ravishda qilingan hisob va o‘qituvchilar tomonidan psixologik-pedagogik mexanizmlardan foydalanish shakllanish obyektining mazmuniga mutanosib bo‘lishi lozim. Raqobatbardosh bitiruvchini shakllantirish, unga raqobat ustunligini ta’minlovchi ma’lum sifatlar va shaxs fazilatlari kabi faqatgina kechinmalar jarayonida – talabaning haqiqiy hayotida bo‘lib o‘tayotgan emotsional o‘zgarishlarda amalga oshishi mumkin. Oliy ta’lim muassasasi raqobatbardosh bitiruvchilarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari faolligi raqobatbardoshlik xususiyatlarini shakllantirishning muvaffaqiyati va soxta professional vaziyatlarni yaratish orqali talaba shaxsining xususiyatlarini ta’minlovchi o‘zaro bog‘liq hodisa va omillarning mustahkam tizimini o‘z ichiga oladi.

Ularni hal etish jarayonida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy va shaxsiy salohiyati ochib beriladi, kasbiy va shaxsiy jihatdan o‘z-o‘zini takomillashtirish ehtiyoji shakllanadi, talabaning o‘z-o‘zini bilish va anglashi ta’minlanadi.

Amalda, psixologik-pedagogik mexanizmlar talabalarning ta’lim va ta’limdan tashqari faoliyatida quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin: ular tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim loyihalari (modellari) taqdimoti, muhokamasi va ularni bajarish sifatini umumiy baholash; ijodiy ishlanmalar, talabalar ijodiy jamoasini tashkil etish, “Kasbning eng yaxshisi” professional musobaqalari, munozaralar, mulkchilikning turli shakllari muvaffaqiyatli rivojlanayotgan korxonalar uchun ekskursiyalar va boshqalar. Bundan tashqari, psixologik va pedagogik mexanizmlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

· talabalarning nazorat qilinayotgan intellektual faoliyatga ishtiyoqini pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash orqali zamonaviy mehnat bozorida xaritalash istiqbollari motivini dolzarblashtirish, talabani hissiy jalb etish orqali esa nazariy bilimlari va professional tajribasidan o‘rinli foydalanish darajasini oshirish;

· maqsadlar, qadriyatlar tizimi, kognitiv, gumanitar talablar, shuningdek, bozor

madaniyatiga o‘zgartirishlar kiritgan holda fikrlash faoliyati tomonidan nazorat qilinadigan, talabalarni “o‘qitish” jarayonini pedagogik qo‘llab-quvvatlash;

· mutaxassisning kasbiy xulq-atvori modellarini “kuzatish” orqali o‘quvchilarning aqliy tarbiyasini rivojlantirish.

2. Tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari. O‘zining butun tuzilmasi yoki uning alohida tarkibiy qismlariga ega bo‘lgan oliy ta’lim muassasasi talabalar uchun tegishli shart-sharoit va imkoniyatlar yaratadi, ular birgalikda talabaning shaxsiy va ijtimoiy kapitalini ochib berishga yordam beradi. Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasasi tomonidan bilim, meyorlar va ijtimoiy qadriyatlarni o‘rgatish jarayonida, kasb ta’limi tizimida belgilanganidek, talaba yangi bilim, qadriyatlar va o‘z qarashlari haqida ma’lumot yig‘uvchi subyekt sifatida tasavvur uyg‘otadi va bu o‘quv jarayoniga javoban o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Boshqa so‘z bilan aytganda, raqobatbardoshning tashkiliy ishlariga qarab, talabalarning individual yutuqlari (shu jumladan, zamonaviy mehnat bozorida ularning raqobatbardoshligini shakllantirish doirasida) ham, natijada, ularning kelgusi kasbiy martabasi ham ajralib turadi.

Pedagogik strategiyaning strategik maqsadiga tashkiliy-boshqaruv mexanizmi doirasida erishish uchun quyidagilarni shakllantirish mumkin:

· oliy ta’lim muassasasining raqobatbardosh bitiruvchisini shakllantirishning pedagogik strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha strategik rejada belgilangan tartib, harakat va faoliyatni muvofiqlashtiruvchi tuzilma (masalan, pedagogik strategiyani amalga oshirish bo‘yicha Kengash);

· mehnat bozorida bitiruvchining raqobat ustunliklarini shakllantirishning strategik ustuvorliklarini yaratish va pedagogik strategiyani amalga oshirish bo‘yicha dasturlar, rejalar va loyihalarni ishlab chiqish uchun ishchi guruhlar va tematik komissiyalar; ular tanlangan strategik yo‘nalishlar bo‘yicha oliy ta’lim muassasasining raqobatbardosh bitiruvchisini shakllantirishning pedagogik strategiyasini yangilash va strategik ko‘rsatmalarga o‘zgartirishlar kiritish, pedagogik monitoring o‘tkazish, amalga oshirish, ishlab chiqish ishlarini ta’minlagan bo‘lar edi;

· davlat, ish beruvchilar (barcha turdagi xususiy korxonalar), jamoatchilik va strategik hamkorlik, davlat-xususiy sheriklik, ijtimoiy hamkorlik kabi, asl ishlab chiqarish va bitiruvchida raqobat ustunliklarini shakllantirish o‘rtasida bog‘liqlikni ta’minlovchi yo‘nalishlar va h.k.larni taklif etadigan oliy ta’lim muassasalarining tashkiliy-boshqaruv mexanizmi.

3. Ilmiy-metodik mexanizmlar turli ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa muammolarni hal qilish maqsadida yangi bilimlarni oshirish hamda foydalanishga qaratilgan talabalarning aqliy va ijodiy faoliyatini jadallashtirishga qaratilgan. Talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatining shak-shubhasiz dolzarbligi va ahamiyati shundan iboratki, ular oliy kasb ta’limining belgilangan meyorlaridan, ba’zan esa oliy ta’lim muassasasi uchun mavjud bo‘lgan moddiy-texnik va boshqa manbalardan tashqariga chiqishi mumkin. Shu tufayli, oliy ta’lim muassasasining bitiruvchilarining raqobatbardoshligini shakllantirishning pedagogik strategiyasini amalga oshirishning ilmiy-uslubiy mexanizmlari sifatida quyidagilarni ko‘rib chiqish mumkin:

· oliy ta’lim muassasasining infratuzilmasini (masalan, ilmiy laboratoriyalar, nano-laboratoriyalar, biznes inkubatorlar va boshqalar) oliy ta’lim muassasasi professor o‘qituvchilar tarkibining ilmiy salohiyati va boshqalarni rivojlantirish orqali raqobatbardosh aspirantni shakllantirish jarayonini tegishli ravishda ilmiy qo‘llab-quvvatlash;

· oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilarining ta’lim natijasini baholash subyektlari,

tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlari, darajalari, mazmuni va vositalari kabi tarkibiy qismlari shaklida pedagogik strategiyani amalga oshirish uchun uslubiy tizimni modellashtirish (uning mohiyatini oydinlashtirish va chegaralarni aniqlash hisobga olingan holda).

4. Universitet bitiruvchisi raqobatbardoshligini shakllantirishning pedagogik strategiyasini amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari talabaning shaxsiy va ijtimoiy kapitalini ochib berishni ta’minlaydigan o‘zaro bog‘liq elementlarning tashqi majmuidir. Bunday mexanizmlar orasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

· talabalar bilan muntazam ravishda maqsadli ijtimoiy ish olib borish, bu har bir talabaning o‘z ehtiyojlarini oliy ta’lim muassasasi tomonidan qondirilishini tasdiqlangan qiymat tizimini hisobga olgan holda, iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash (jumladan, moddiy jihatdan ham) bandlik masalalari, uy-joy muammolarini hal qilish, shu jumladan, yosh oilalarni, yosh tadbirkorlar va boshqalarni qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi;

· talabalar bilan muntazam ravishda maqsadli tarbiyaviy ishlarni olib borish quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi: o‘quv guruhlari sardorlari va rahbarlari bilan ishlash, talabalar turar joylarida ishlash, davomatni nazorat qilish, talabalar bilan madaniy va sport-sog‘lomlashtirish ishlari va boshqalar;

· OTM bitiruvchisini (OTMning (talabalarning) innovatsion va ilmiy-tadqiqot faoliyati) raqobatbardoshligini shakllantiruvchi ustuvor strategik yo‘nalishlarni birinchilardan bo‘lib mablag‘ bilan ta’minlashni hisobga olgan holda istiqbolli byudjet rejalashtirishni amalga oshirish;

· professional ta’lim dasturining ajralmas qismi sifatida talabalarni tayyorlash va o‘quv-ishlab chiqarish amaliyoti sifatini oshirish, amaliyot, bitiruv malakaviy ishini loyihalashtirish, ish yarmarkalarida bitiruvchilar tomonidan o‘z salohiyat taqdimotini o‘tkazish kabilar talabalar uchun o‘z faoliyatlarini boshqarish san’ati uchun zamin yaratadi.

5. Axborot-pedagogik mexanizmlar, raqobatbardosh oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilarini shakllantirishning pedagogik strategiyasini amalga oshirish, aniq bir oliy ta’lim muassasa talabasi axborot manbalarini tashkillashtirish bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan holda, professional masalalarni yechish ko‘nikmalarini shakllantirishni taxmin qiladi. Axborot-pedagogik mexanizmlariga:

• multimedia rivojlantirish tizimlari;

• internet texnologiyalari va internet kutubxonasidan foydalanish;

• oliy ta’lim muassasasining axborot saytini rivojlantirish va boshqalar kiradi.

6. Oliy ta’lim muassasasining raqobatbardosh bitiruvchisini shakllantirishning pedagogik strategiyasini amalga oshirishning kadrlarga oid mexanizmlari – oliy ta’lim muassasasining maqsadlariga erishish uchun professor-o‘qituvchilar jamoasi harakatlarining tizimli ongli ravishda birlashishi. Bunday mexanizmlar qatoriga quyidagilarni kiritamiz:

· Oliy ta’lim muassasalari xodimlarini boshqarishning kadrlarga oid zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

· Oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchisi kasbining imidjini ko‘tarish, metodik ko‘rsatmalarini, ayniqsa, o‘z kasbi orqali mustaqil ijodiy ifodalashga yo‘nalish, o‘qitish sifatini muntazam oshirishga intilish, o‘z kasbiga javobgarlik hissini rivojlantirish va boshqalarni qo‘llab-quvvatlash va joriy qilish;

· manbai o‘qituvchi-professorlar jamoasi bo‘lgan bilim hosil qilish uchun shart-sharoitlar majmuini shakllantirish;

· oliy ta’lim muassasa o‘qituvchisida oliy ta’lim muassasasining raqobatbardosh

bitiruvchisini shakllantirish jarayoniga nisbatan ishtiyoqni va qadrlash hissini uyg‘otish.

7. Huquqiy mexanizmlar oliy ta’lim muassasasining raqobatbardosh bitiruvchilarini shakllantirishning pedagogik strategiyasini amalga oshirish jarayonini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar paketini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi, shuningdek, bitiruvchi talaba raqobatlashish xususiyatlarini va shaxs fazilatlarini shakllantirishning butun jarayonida uning bajarilish monitoringini tashkil etadi.

Oliy ta’lim muassasasining raqobatbardosh bitiruvchilarini shakllantirishning pedagogik strategiyasini rivojlantirishga qaratilgan, to‘g‘ri tanlangan vositalar to‘plami, masalalar bajarilishini nazorat qilishning yo‘l-yo‘riq va usullari, oliy ta’lim tizimini takomillashtirish sharoitlarida oliy ta’lim muassasalarining maqsadlariga erishishda ko‘maklashadi. Ushbu strategiyani amalga oshirish mexanizmining tarkibiy qismlari mamlakatdagi har bir oliy ta’lim muassasalari miqyosida izchil amalga oshirilgan taqdirda, oliy ta’lim muassasalari tomonidan ishlab chiqarilgan mutaxassislarning raqobatbardoshlik darajasini oshirishi va shu bilan bir qatorda, jahon miqyosida reytingini oshirishi mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847 son farmoni. www.lexuz

2. Абдуллаева Б., Уразова М. “Общая педагогика”. Учебное пособие, – Т.: Sano-standart, 2017, С. 364.

3. Беклемешев В. Модернизация адаптационного механизма регионального рынка труда и проблемы рынка образовательных услуг // Служба занятости. 2010. № 6. С. 48-55.

4. Ивочкина Т.Н. Научно-педагогическое сопровождение – механизм реализации стратегии развития образовательного учреждения // Проблемы современного образования. 2012. № 3. С. 104-109.

5. Локтюшина Е.А. Формирование психологических механизмов профессиональной иноязычной компетентности специалиста// известия Волгогр. гос. пед. ун-та. 2011. № 1 (55). С. 35-38.

6. Суюшов А.В. Педагогические аспекты формирования – механизмов иноязычной речевой деятельности на основе устной речи: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. Саратов, 2000.

7. Торгунская Н.Л. Условия и механизмы реализации педагогических инноваций в образовании // Известия Рос. гос. пед. ун-та им. А.И. Герцена. 2007. № 32, т. 11. С. 400-403.

8. Шумилова Е.А. Реализация механизмов формирования социально-коммуникативной компетентности в условиях педагогического вуза //Современная высшая школа: инновационный аспект. 2009. № 2. С. 18-24.

Shahzoda ABDULLAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim” fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor
Osiyoxon AZIMOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

KONFLIKTOLOGIYA ILMIY-NAZARIY QARASHLARINING RIVOJLANISH TARIXI

Annotatsiya

Mazkur maqolada konfliktologiya fani pedagogika fanining tarkibiy qismi ekanligi, uning tarbiyaviy ahamiyati, mazmun-mohiyati hamda bu fan haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar va rivojlanish tarixi to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Nizo, konflikt, ziddiyat, konfliktologiya, tushunmovchilik, kurash, zo‘ravonlik, tinchlik, barqarorlashtirish, inson, jamoa, jamiyat, davlat, ta’lim, tarbiya, pedagog.

В статье обсуждается тот факт, что предмет конфликтологии является неотъемлемой частью педагогической науки, ее значение в воспитании, содержание и сущность, а также научно-теоретические взгляды на предмет и историю его развития.

Ключевые слова. Ссора, конфликт, противоречие, конфликтология, непонимание, борьба, возмущение, мир, стабилизация, человек, команда, общество, правительство, образование, воспитание, педагог.

This article discusses the fact that subject of conflictology is an integral part of the science of pedagogy, its significance in upbringing, content and essence, as well as scientific and theoretical views on the subject and the history of its development.

Key words. Quarrel, conflict, contradiction, conflictology, misunderstanding, struggle, outrage, peace, stabilization, person, team, society, government, education, upbringing, pedagogue.

Jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqei kundan-kunga ortib bormoqda. Bu esa ijtimoiy soha ayniqsa, ta’lim-tarbiyaga asoslanganlikda deyishimiz mumkin. Barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham islohotlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlar zamirida yosh avlodning tarbiyasi, ta’limi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Buning yorqin misolida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Bizni o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lishsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida aks sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya faqat

tarbiya hisobidan”[1] - degan fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, o‘quvchilarning tarbiyasi, ta’lim sifati va ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun muhim.

Yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir etuvchi omillardan biri – bu konfliktdir. Hozirgi zamon ilm-fani bashariyat tarixining qaysi bir davriga murojaat qilinmasin, ularning barchasida konfliktlarning mavjud ekanligi va bevosita ta’lim-tarbiyaga ta’sir ko‘rsatganligiga duch kelinadi. Aniqroq qilib aytganda, konflikt jamiyat rivojining doimiy hamrohi bo‘lganligiga amin bo‘lamiz.

Konflikt o‘zi nima? Konflikt – bu o‘zaro qarama-qarshi bo‘lgan ziddiyatli manfaatlar va munosabatlarning ochiq to‘qnashuvidir[2]. Konfliktologiya yoki konfliktlar yechimi sohasi yangi rivojlanib kelayotgan fan sohalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu bois bu sohaning nazariy asoslari, rivojlanish tarixi ko‘pchilikni qiziqtiradi.

Konflikt haqidagi ilk qarashlar afsonalar orqali kirib kelgan. Aynan afsona va matallarda, o‘tgan asrlarda ijod qilgan faylasuflar, tarixchilar va yozuvchilarning fikr-mulohazalari-yu ilmiy qarashlarida ko‘plab, ba’zan esa o‘ta mulohazali fikrlar jamiyatdagi konfliktlarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llari xususida bo‘lgan. Qadimda oqsoqollar yoki urug‘-qabila boshliqlari kengashi konfliktni hal qiluvchi kuch sifatida xizmat qilgan. Biroq insoniyat tarixining keyingi bosqichlarida ilk davlatlarning vujudga kelishi, odamlar o‘rtasida tabaqalanishning takomillashuvi va uning orqasidan har xil siyosiy tizimlarning yuzaga kelishi har doim ham jamiyatda barqarorlikni ta’min etavermagani tabiiy hol. Bunday o‘zgarishlar odamlar o‘rtasida muayyan darajada ijtimoiy haqsizlikni kuchaytirgan. Alal oqibat konfliktlarga zamin hozirlanib, tomonlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar kengayib boravergan. Natijada, jamiyatda konfliktlar orqasidan uning ta’siridagi muammolar ko‘payib borgan. Shuning uchun o‘tgan yuzlab yillar davomida kishilik jamiyati tinch-totuv kelajakka umid bilan qaragan, doimo urush va qarama-qarshiliksiz jamiyatni ko‘rishga intilib yashagan. Ijtimoiy konfliktlarning tabiati to‘g‘risidagi ilk qarashlar va tushunchalar orasida qadimgi yunon faylasuflari qarashlari alohida o‘rin egallaydi.

Mashhur qadimgi faylasuf-dialektik olim Geraklit (taxm er. av. 530-470 yy.) urushlar va ijtimoiy konfliktlar to‘g‘risidagi fikr va mulohazalarini tabiiy borliq haqidagi umumiy qarashlar tizimiga bog‘lashga harakat qilgan. Uning fikricha, hamma narsa o‘zaro bog‘liq va bir-biriga bog‘lanib turadi, shu jumladan, insoniy munosabat normalaridir. Dunyoda hamma narsa o‘ch va adovat tufayli vujudga keladi, deb hisoblagan Geraklit[3].

Geraklitning konflikt va kurash barcha narsaning asosi sifatida hisoblanishi haqidagi g‘oyasini qadimgi yunon faylasuflaridan yana biri Epikur (er. av. 341-270 yy.) tomonidan rivojlantiriladi. Epikur jamiyatdagi to‘qnashuvlarning salbiy oqibatlari insonlarni tinch-osoyishta va birdamlikda yashashga chorlaydi va qachonlardir shunga olib keladi deb hisoblagan. Shunday qilib jamiyatning konfliktsiz holati to‘g‘risidagi umidlari ilk nazariy mulohazalar bilan boyib bordi.

O‘rta Osiyoda ilk uyg‘onish davri deb nom olgan IX-XII asrlarda faoliyat ko‘rsatgan mutafakkirlarning dunyoviy ma’rifatga intilishi va bu yo‘lda o‘tmish davlatlarning madaniyati yutuqlaridan keng foydalanish, insonni ulug‘lash, uning ma’naviy fazilatlarini asoslash borasidagi; fikr-mulohazalari jamiyatdagi konfliktlar haqidagi, tarixiy-tadrijiy bahslarda o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Abu Nasr Farobiy (873-950 yy) birinchi bo‘lib jamiyatning kelib chiqishi va davlatni

[1] Mirziyoyev Sh.M.: “Yoshlar tarbiyasi – eng muhim masalalardandir” ma’ruza matni.

[2] Axmedova M. “Pedagogik konfliktologiya” –T., –2014, 11-b.

[3] Jo‘rayeva S. Mumtoz faylasuf. –T.: Yangi asr avlodi 2007-y – 31-33-betlar.

qanday boshqarish kerakligi haqidagi ilmiy-nazariy bilimlar tizimini ishlab chiqdi. Bular asosan quyidagilardir[4]:

– ijtimoiy hayot haqidagi fan va uning vazifasi;

– inson jamoasining vujudga kelishi, tarkibi va turlari;

– shahar-davlat jamoasining hayoti va fazilati, davlatning faoliyati vazifasi va uni boshqarish shakllari;

– insonning jamiyatdagi o‘rni va vazifasi, aqliy va axloqiy kamoloti masalalari;

– davlat jamoasining maqsad va vazifalari, insonni baxt-saodatga erishtirishning usullari va yo‘l-yo‘riqlari.

Farobiyning fikricha, jamiyatdagi nizolarning birdan bir sababi – odamlar tafakkurida ijtimoiy hayot, shahar-davlat, axloq va fiqh ilmlarining to‘la shakllanmaganligidadir. O‘z navbatida, yuzaga keladigan konfliktlarning oldini olishda hamda odamlarning ushbu ilmlar bo‘yicha olgan yuqori bilimlari ijobiy natijalar berishi haqida gapirib, nazariy bilimlarning egallanishi amaliyotda muhim ahamiyatga ega ekanligini uqtiradi.

Sharq uyg‘onish davri namoyondalarining davlat va jamiyatdagi konfliktlar to‘g‘risidagi qarashlaridan xulosa qilib aytish mumkinki, odamlardagi sog‘lom aql va purma’no tafakkurning oshib borishi konfliktlar oldini olishdagi boshlang‘ich vosita ekan. Shuning uchun bo‘lsa kerak bu davrda faoliyat ko‘rsatgan olimlarning aksariyati odamlarning keng dunyoqarash sohibi bo‘lishida ilmning juda katta ahamiyatga ega ekanligini alohida qayd etishgan.

IX-XII asrlarda O‘rta Osiyoda ijod qilgan olimlarning ko‘pchiligi o‘z ijtimoiy qarashlarini yaxlit ijtimoiy-ilmiy ta’limot sifatida yaratishmagan. Biroq ularning ijtimoiy sohadagi, shu jumladan, jamiyatdagi konfliktlar haqidagi fikr-mulohazalari shuning uchun ham qimmatliki, birinchidan, ularning tabiat va jamiyatga nisbatan universal yondashuv qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatsa, ikkinchidan, bundan keyingi davrlarda shakllanajak ilmiy-amaliy maktablarning yangi-yangi qirralarining ochilishiga sabab bo‘lgan. Sharqda uyg‘onish davri vakillari qarashlaridan farqli ravishda g‘arb dunyosi o‘rta asrlar – Yevropa uyg‘onish davri namoyondalari ijtimoiy konfliktlarga murakkab va qarama-qarshi baho berdi. Negaki bu davrda jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlar va qurolli to‘qnashuvlarni mashhur gumanistlar T. Mor, E. Rotterdam, F. Rable, F. Bekonlar keskin qoralab chiqqan edilar[5]. Ingliz faylasufi Frensis Bekon (1561-1626-y)ning konfliktlar tabiati to‘g‘risidagi fikrlari ham e’tiborga loyiqdir. Konfliktologiya tarixida u birinchi bo‘lib, davlatning ichki ijtimoiy konfliktlari sabablarini aniq nazariy tahlil qilib, ijtimoiy tartibsizliklarning moddiy, siyosiy va ruhiy shart-sharoitlarini sinchiklab o‘rgangan hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilab bergan.

Jamiyatdagi konfliktlar borasida yangi davr mutafakkirlari tomonidan aytilgan fikrlarda ijtimoiy konfliktlarning sabablari va ularning oldini olish borasidagi qarashlar ham o‘rin olgan. Fikrlar nechog‘liq turlicha va ko‘p bo‘lsada, ularning umumiy yo‘nalishida bir-biriga muayyan uyg‘unlikni ko‘rish mumkin. U ham bo‘lsa jamiyatning rivojlanishida tinchlik va kelishuvning muqarrarligi to‘g‘risidagi, o‘rta asrlardagi tanglik, tartibsizliklar hamda urushlarning qoralanishi, shuningdek, kelajakda “Abadiy tinchlik” o‘rnatish g‘oyasining ilgari surilishi kabi fikrlardir. XIX asr boshlarida sharoit sezilarli darajada o‘zgara boshladi. O‘zgargan muhit o‘z navbatida konfliktlar borasidagi

[4] Jumayev R. Z., Ubaydullayev U.A., Xo‘janov B. A. Konfliktologiya asoslari. (O‘quv-qo‘llanma) –T.: Akademiya nashriyoti. 2000-y. 31-43-betlar.

[5] Jumayev R.Z., Ubaydullayev U.A., Xo‘janov B.A. Konfliktologiya asoslari. (O‘quv-qo‘llanma) –T.: Akademiya nashriyoti. 2000-y. 31-43-betlar.

fikrlarni yangidan-yangi yo‘nalishlar bilan boyitdi. Gegelning qarashlaridayoq urushlar va ijtimoiy buhronlarga baho berishda yangicha yondashuvlar shakllanganligi sezilib turadi. Gegel o‘tmishda sodir bo‘lgan urushlar haqida bahs etib, ularning jamiyat taraqqiyotidagi salbiy oqibatlariga alohida e’tibor qaratadi. Urushlar tajribasi jamiyatga hech qanday mukammal taraqqiyotni bermasligini uqtiradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, XIX asrga kelib jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayotidagi keskin o‘zgarishlar, konfliktlar haqidagi mavjud ijtimoiy nazariyalarga ham ta’sir etmasdan qolmadi. Mazkur qarama-qarshi nazariyalar orasida urushlarni yoqlovchi fikrlarning ham mavjudligi kishi diqqatini o‘ziga tortadi. Bunday oqimga mansub nazariyotchilar hayotda tomonlar o‘rtasida konflikt va to‘qnashuvlar nafaqat tabiiy ravishda yuz berishi mumkinligini, balki ularning jamiyatning tobora yuksalishi va farovonligining asosi sifatida vaqti-vaqti bilan sodir bo‘lib turishi zarurligini ko‘rsatadi. Bunday qarashlar esa keyinchalik jamiyat hayotida konfliktlarning abadiy bo‘lib turishining muayyan sabablari mavjudligi hamda ularni jamiyat hayotidan olib tashlash mumkin emasligi haqidagi yangicha ilmiy-nazariy yondashuvlarning paydo bo‘lishiga olib keldi.

AQShning bir necha universitetlari qoshida konflikt yechimlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy amaliy tadqiqot markazlari faoliyat olib boradi. Mayamida tashkil etilgan “Tinchlik ta’lim tadqiqotlari markazi” ana shunday tashkilotlardan biri hisoblanadi. Rossiya Fanlar Akademiyasi Sotsiologiya instituti qoshida ham “Konfliktologik tadqiqotlar markazi” ish olib boradi[6].

“Zamonaviy ta’limda ta’lim oluvchilarni har tamonlama voyaga yetkazishda jamoada o‘zini tutishi, muhim masalalarni mustaqil hal etishida nafaqat o‘quvchining xarakteri, individual xususiyati balki faoliyatdagi o‘rnini namoyon qilishini ham e’tiborga olish muhimdir”[7].

Konfliktologiya XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, fan sifatida shakllana boshlagandan so‘ng, jamiyatda konfliktni tutgan o‘rnini o‘rganish jamiyat hayotida juda muhimligi sababli, konfliktli munosabatlarni o‘rganish, ularni tahlil qilish va o‘zaro to‘g‘ri yechimga kelish zaruriy ehtiyojlardan biriga aylandi. Albatta, bunga real hayotning tabiiy taqozosi sifatida qarash kerak.

Konfliktologiya fani O‘zbekistonda fan sifatida davlat mustaqilligi bilan hamohang bir vaqtda yuzaga kelgan, desak mubolag‘a bo‘lmas. O‘zbek pedagog va psixolog olimlaridan R.Z.Jumayev, U.A.Ubaydullayev, B.A.Xo‘janov, G.To‘ychiyeva, A.I.Saidov, Z.Xujaniyozova, M.Dusmetova M.Axmedova singari olimlarning ilmiy kuzatishlari shular jumlasidandir. G.To‘ychiyevaning 2008-yilda nashr etilgan “Yoshlar va konfliktlar: konfliktlar yechimini o‘rganish” hamda Mukarram Axmedovaning 2014-yilda nashr etilgan “Pedagogik konfliktologiya” o‘quv-qo‘llanmalari konflikt vaziyatlarni umumiy tavsifini beradi. Ushbu interfaol o‘quv-qo‘llanmalar falsafiy, psixologik, pedagogik va metodik jihatdan ham alohida ahamiyatga egadir.

[6] Axmedova M. “Pedagogik konfliktologiya” – T., –2014, 11-b.

[7] Магомедова З.Ш. “Формирование корректного поведения младших школьников в конфликтных игровых ситуация” 25 ноября 2008 года” Дагестанский государственный педагогический университет” по адресу: 367003, г. Махачкала, ул. М.Ярагского, 57.

Konfliktologiyaning rivojlanishini uch bosqichga ajratish mumkin. (jadval)

1-bosqich	2-bosqich	3-bosqich
(1924 yilgacha). Konflikt falsafa, huquqshunoslik, psixologiya doirasida o‘rganiladi, ammo mustaqil tadqiqot predmeti sifatida ajratilmaydi.	(1924-1989). Konflikt mustaqil hodisa sifatida o‘rganila boshlaydi. Konflikt muammosiga bag‘ishlangan birinchi asarlar huquqshunoslik, sotsiologiya, psixologiya va hattoki matematikada paydo bo‘ldi. Keyin konfliktni o‘rganish falsafa, pedagogika, tarix va siyosatshunoslikda davom etadi. Biroq, mafkuraviy mulohazalar tufayli, sotsializm sharoitida ziddiyat muammosi ahamiyatsiz deb hisoblanadi.	(1990-yildan hozirgi kungacha). Konfliktologiya mustaqil fan sifatida ajralib, bu sohada ilmiy tadqiqot nashrlarining yillik soni ko‘paymoqda (yiliga 165 dan 290 gacha), dissertatsiyalar, nizolarni o‘rganish va tartibga solish bo‘yicha ilmiy markazlar va guruhlar yaratilmoqda; ilmiy to‘plamlar va ilmiy ishlar nashr etilmoqda.
Geraklit, Epikur, Abu Nasr Farobiy, T.Mor, F.Bekon, Jan Jak Russo, I.Kant.	Grishina N.V., Dragunova T.V., Yerina S.I., Zimmel G., Borodkin F.M.	Volkov B.S., Voronin G.L., Kartashev S.N., Lukin Y.F., Utkin E.A., Xolmo‘minova B.A., To‘ychiyeva G.U., Magomedova Z.Sh.

Negaki, yaqin-yaqinlargacha biz o‘rganib kelayotgan fanlar qatorida konfliktologiyani uchratmas edik. Hozirgi vaqtda davlatimizning bir qator ilm dargohlarida konfliktologiya fan sifatida o‘qitilmoqda. Konfliktologiyani o‘rganish real hayotimiz talabi. Chunki mustaqillik bizga, avvalo, erkin yashash huquqini berdi. Zero, erkin yashash huquqi odamlar ongida shunchaki bir tushuncha bo‘lib qolmasligi kerak. Uni to‘la anglashimiz, his qilishimiz va amaliyotda to‘g‘ri qo‘llay bilishimiz zarur. Ana shundagina mustaqilligimizning yanada boqiy bo‘lishiga o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh. M. “Yoshlar tarbiyasi – eng muhim masalalardandir” ma’ruza matni.
2. Jo‘rayeva S. Mumtoz faylasuf –T.: Yangi asr avlodi 2007-y, 31-33-betlar.
3. Jumayev R. Z., Ubaydullayev U.A., Xo‘janov B. A. “Konfliktologiya asoslari”. O‘quv-qo‘llanma –T.: Akademiya nashriyoti. 2000-y. 31-43-betlar.
4. Xujaniyozova. Z, Dusmetova. M, Nafasov. D, “Pedagogik konfliktologiya”. O‘quv-qo‘llanma. Urganch-2015.12-b.
5. Axmedova M. “Pedagogik konfliktologiya” –T., –2014, 11-b.
6. Xolmo‘minova B.A. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida konflikt vaziyatlarni bartaraf etish texnologiyasi” magistrlik dissertatsiya –T.: 2013, 32-b.
7. Магомедова З. Ш. “Формирование корректного поведения младших школьников в конфликтных игровых ситуатция” 25 ноября 2008 года “Дагестанский государственный педагогический университет” по адресу: 367003, г. Махачкала, ул. М.Ярагского, 57.

Ozoda YADGAROVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti

LINGVODIDAKTIK KOMPETENSIYA – BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARI PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining professional kompetentligi negizida ularning lingvodidaktik kompetentligi masalalari, uning tarkibiy qismlari va o‘ziga xos tomonlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Lingvodidaktika, lingvodidaktik kompetensiya, professional-kommunikativ kompetensiya, didaktika.

В статье анализируются вопросы лингводидактической компетентности будущих учителей английского языка на основе их профессиональной компетентности, ее составляющие и особенности.

Ключевые слова. Лингводидактика, лингводидактическая компетенция, профессионально-коммуникативная компетенция, дидактика.

She article analyzes the issues of linguodidactic competence of future English teachers based on their professional competence, its components and features.

Key words. Linguodidactics, linguodidactic competence, professional and communicative competence, didactics.

Zamonaviy va savodli ingliz tili o‘qituvchsi o‘z fani doirasida o‘quvchi va talabalarga ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatish jarayonida ularning professional-kommunikativ sifatlarini ham rivojlantira olishi lozim. Buning uchun esa, albatta o‘qituvchining o‘zi yuksak darajada professional-kommunikativ ko‘nikmalarga ega bo‘lmog‘i darkor. O‘qituvchi professional-kommunikativ ko‘nikmalarining bir qismi sifatida uning lingvodidaktik kompetentligini ajratib ko‘rsatish mumkin. O‘qituvchining lingvodidaktik kompetentligini shakllantirish chuqur pedagogik, ijtimoiy va psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining professional-kommunikativ kompetentligi boshqa har qanday kompetentlik singari muayyan sohada samarali faoliyat yuritishni ta’minlovchi, kasbiy vazifalarni bajarish chog‘ida shaxsning ichki va tashqi imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga imkon beruvchi qobiliyat va malakalarning jamlanmasi bo‘lib, O.E.Lomakina, K.S.Maxmuryan, E.N.Solovovalarning fikriga ko‘ra, kommunikativ, lingvistik, pedagogik-psixologik, ijtimoiy, metodik, kompensatorlik va umumpedagogik kompetensiyalari, pedagogik va nutqiy tafakkuri va shaxsiy sifatlari hisobiga namoyon bo‘ladi. Bizning ilmiy izlanishlarimiz bo‘lajak ingliz tili o‘qiuvchilarining professional kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishda uning lingvodidaktik (ingliz tili fani doirasidagi nazariy bilimlari, amaliy

bilimlari va metodik qobiliyatlarini kasbiy-professional vazifalarini bajarish chog‘ida amalda qo‘llay olish ko‘nikmasi) kompetentligini o‘rni va ahamiyatini asoslashga yo‘naltirilgan. Shuning uchun avval lingvodidaktika haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan va texnologiyaning rivojlanishi, o‘sib kelayotgan yosh avlodni raqobatbardosh bo‘lishi hamda chet tillarni mukammal va puxta egallashni taqozo etadi. Shu sababli ham til ta’limida lingvodidaktikaning nazariy asoslarini chet tilini o‘rganishda o‘rni beqiyosdir. O‘tgan asr oxirlarida paydo bo‘lgan, bugungi kunda keng qo‘llanilayotgan “lingvodidaktika” (til ta’limshunosligi) atamasi ham chet tili o‘qitishning chuqur didaktik asosga ega ekanligini isbotidir. Ma’lumki, linvodidaktika til umumiy nazariyasi bo‘lib, til o‘qitish sohasida juda ko‘p tilga olinmoqda. XX asrning 1969-yilda ushbu termin N.M.Shanskiy tomonidan fanga kiritilgan. Lingvo – til, didaktika – ta’lim, demak, til ta’limidir. 1975-yilda boshlab, “lingvodidaktika” xalqaro termin sifatida tan olingan, biroq olimlar va tadqiqotchilarda ushbu terminning mazmuni haqida aniq va yakuniy to‘xtam yo‘q.

Ba’zi mutaxassislar lingvodidaktikani til o‘qitish bilan bog‘liq nazariy va amaliy bilimlar majmui sifatida e’tirof etishadi va bu bilan “metodika” terminini inkor etishadi;

Ba’zi mutaxassislar esa “lingvodidaktika” va “metodika” terminlarini sinonim sifatida qo‘llashadi;

Uchinchi va aksar toifa olimlar (N.D.Galskova va L.V. Moskovkin) lingvodidaktika” va “metodika” terminlarini mustaqil termin sifatida qo‘llash tarafdoridirlar. Ularning fikricha lingvodidaktika xorijiy tillarni o‘qitishning umumiy nazariyasi sifatida talqin qilinadi va uning metodik asoslarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Lingvodidaktika bo‘yicha N.M.Shanskiy, N.D.Galskova, N.I.Gez, V.Raynike, G. E. Pifo, G.I.Bogin, I.I.Xaleeva, O.D. Mitrafanova va boshqalar, g‘arb olimlaridan esa N.M.Zakhliupana, I.M.Kochan, M.Lvov, M.Pentyliuk va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Lingvodidaktikaga oid tadqiqotlarning ahamiyatini tan olgan holda, shuni qayd etish lozimki, lingvodidaktika faqat lingvistika bilan bog‘liq bo‘lmay, balki, metodikani asosini ham tashkil qiladi. Bunda aynan lingvistika, xorijiy tillarga o‘qitish metodikasining o‘ziga xos xususiyatini tashkil etganiga qaramay, o‘qitish jarayonining ko‘p funksionalligi va ko‘p omillarga bog‘liq ekanligini hisobga olish lozim. Lingvodidaktika metodik fanning shunday bir yo‘nalishi hisoblanadiki, u ta’lim, o‘qitish, o‘rgatishning mazmunga xos jihatlarini asoslaydi va bu jihatlarning til tabiati va muloqot tabiatining ijtimoiy fenomen sifatidagi bog‘liqligidan kelib chiqadi.

I.I.Xaleeva lingvodidaktikani “ta’limning mazmunli komponentlari, negizida individlarning ijtimoiy o‘zaro munosabatlari mexanizmlari yotgan nutqiy asarlarning faoliyat mag‘zini aniqlovchi ijtimoiy fenomen sifatida til tabiati bilan muomala tabiatining ajralmas bog‘liqligida o‘rgatishni asoslaydigan” metodik ilmning bir sohasi deb hisoblaydi.

V.Raynike o‘zining ilmiy faoliyatida ilmiy fanlarning o‘zaro mustaqil munosabatga kirishi, xorijiy tillarni nazariyasidan tashkil topishi haqida ta’kidlaydi va ularni quyidagi guruhlarga bo‘ladi.

– til o‘rganish nazariyasi yoki lingvodidaktika;

– xorijiy tilda didaktika;

– aniq fanlarni o‘qitish yoki xususiy metodika.

G.E.Pifo tasdiqlaganidek lingvodidaktikaning o‘z oltin qoidalari mavjud bo‘lib, unga javob topish ham murakkabdir. Ular nima? nimaga? nima uchun? qachon? qanday qilib? savollariga javob izlaydi.

Tilni o‘qitish metodikasida lingvodidaktika quyidagi funksiyalarni bajaradi:

– tilga o‘qitish jarayonini tadqiq qilish, ya’ni ilmiy nazariy;

– ta’lim jarayonini takomillashtirish, o‘zgartirish, ya’ni konstruktiv-modellashtirish;

– tilga o‘rgatish jarayonini aniq asoslash maqsadida faylasuflar, lingvistlar, pedagoglar, metodistlar, kommunikatsiya nazariyasi va informatika bo‘yicha mutaxassislarning ilmiy yutuqlarini birlashtirish, ya’ni integrativ.

Bizga ma’lumki chet tili o‘qitish metodikasi pedagogika fanlari qatoriga kiradi va u pedagogikaning asosiy tarmog‘i bo‘lgan didaktika qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Didaktika ta’limning umumiy nazariyalari bilan shug‘ullanuvchi fan sifatida chet tili o‘qitish metodikasi nazariy asoslarini belgilab beradi va ushbu fan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tatbiq etiladi. Buning asosiy sababi shundaki psixologiya, pedagogika, didaktika, metodika kabi fanlarning asosiy obyekti bitta, ya’ni ta’lim jarayoni hisoblanadi. Didaktika atamasi yunoncha “didacticis” o‘rganuvchi “didaska” o‘rganuvchi so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, pedagogikaning o‘qitish va ta’lim muammolarini ishlab chiquvchi qismdir. Volfrang Ratke (Ratixiya) tomonidan mazkur atama ilk bora qo‘llanilgan. Didaktikaning birinchi marta asosiy ilmiy ishlanmasini Yan Amons Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Didaktikaga oid malumotlar qadimiy sharq allomalari asarlarida ham keltirilgan. IX-XVIII asrlarda Farobiy, Xorazmiy, Ibn Sino, Kindiy, Beruniy, Sadiy, Jomiy, Navoiy, Naqshbandiy; XIX asr va XX asr boshlarida Ahmad Donish, Mahmudxo‘ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori kabilar ham o‘z asarlarida ta’lim va tarbiyaga oid qimmatli fikrlarini bildirganlar va bu fikrlar hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

M.A.Danilov, M.N.Skatkin, Y.K.Babanskiy, I.Gerbart, G.Pestolotssi, K.D. Ushinskiy, V.P.Ostrogorskiy, P.F.Kapterev didaktika bo‘yicha ilmiy ishlar olib borganlar. Ma’lumki, didaktikaning ham asosiy vazifasi qanday va nimaga o‘qitish muammolarini ishlab chiqish va hozirga kelib esa til o‘qitish esa qachon, kimni, qayerda, nima uchun va qanday o‘qitish savollariga javob topishdan iborat. L.S.Vigotskiy ona tili va ikkinchi til ta’limining psixologik usullari bir-biriga qarama-qarshi ekanligi haqida to‘xtalib quyidagicha ta’riflagan edi: “Ona tilini o‘rganish pastdan yuqoriga xorijiy tilni egallash esa yuqoridan pastga yo‘nalishida amalga oshiriladi. Pastdan yuqoriga yo‘nalishida tilning muayyan hodisalari tahlilidan ularni umumlashtirishga qarab boriladi, yuqoridan pastga yo‘nalishida esa qoidalardan ularning amaliyotiga o‘tiladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining bunday kasbiy shakllanishi rossiyalik olim A.V. Malyovning fikricha uch bosqichli rivojlanish sifatida ko‘rib chiqiladi:

1. Jarayonli-instrumental – bunda talaba alohida metodik harakatlar subyekti sifatida majburiy bilimlarni o‘zlashtiruvchisi sifatida qaraladi;

2. Faoliyatli-instrumental – bunda talaba anglangan metodik faoliyat subyekti sifatida namoyon bo‘ladi;

3. Shaxsiy-instrumental – bunda talaba ingliz tilini o‘rgata olish ko‘nikmasiga ega subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida lingvodidaktik kompetensiyasi tuzilishida yana besh xil kompetensiya turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Til kompetensiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– nazariy xarakterga ega bo‘lgan lingvistik bilimlar: bilim va xorijiy tillarni o‘qitish eruditsiyasi;

– amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan lingvistik bilimlar: gaplar tuzishga imkon

beradigan til birliklarini analiz va sintez qilish qoidalarini bilish; xorijiy til tizimi va uning chet el muloqotida ishlatilish qoidalarini bilish;

– til bilish ko‘nikmalari va malakalarini;

2. Nutqiy kompetensiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– chet tilini shaxsiy va professional muloqot maqsadida qo‘llay olish;

– muloqot maqsadi va shart-sharoitlariga mos jumlalarni tuza olish;

– nutqiy xulq-atvor dasturlarini tanlay olish va amalda qo‘llash;

– vaziyatni suhbat ishtirokchilarining ustanovkalarini inobatga olgan holda baholay olish;

– muloqot jarayoni ishtirokchilarining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda muloqot mavzusini moslashtira olish;

3. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya olima O.E.Lomakinaning fikricha quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– tili o‘rganilayotgan mamlakatning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini bilish, undagi umuminsoniy, madaniy, estetik, axloqiy qadriyatlarni ta’kidlay olish qobiliyati;

4. Didaktik kompetensiya – metodik kompetensiyaga qaraganda kenroq tushunchadir.

– pedagogik-psixologik va ijtimoiy bilimlar;

– professional pedagogik va maxsus ko‘nikmalar;

– ijodiy pedagogik faoliyat ko‘nikmalarini qamrab oladi.

5. Shaxsiy kompetensiya olima O.E. Lomakinaning fikricha, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: shaxsiy yutuqlarni nazorat qiluvchi, o‘z-o‘zini boshqarish, harakatchanlik, o‘z-o‘zini anglash, kasbiy rivojlanish va takomillashish kabi ko‘nikmalarda namoyon bo‘ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bizningcha, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining lingvodidaktik kompetentligi ularning shaxsiy, pedagogik va psixologik bilimlari yig‘indisi bo‘lib, pedagogik va psixologik turkum fanlar yordamida shakllantiriladigan ko‘nikmalarini, professional faoliyat bilan shug‘ullanishga tayyorlik darajalarini ham qamrab oladi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining professional kompetentligi shakllanib borgani sari, lingvodidaktik kompetensiyalar boshqa kompetensiya turlari bilan mustahkamlanib, boyib boraveradi. Aynan u subyektga o‘z oldiga yangi maqsadlar qo‘yish, tavakkal qilish, moslashuvchan bo‘lish, muammoli vaziyatlarni hal etishga ijodiy yondashish va yuqori natijalarni qo‘lga kiritishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дубровина Т.С. К вопросу о профессиональной компетентности будущих учителей иностранных языков // Молодой ученый. 2011. № 4. Т.2. С. 86–89.

2. Гальскова Н.Д. Еще раз о лингводидактике // Иностранные языки в школе, 2008. № 8. С. 2-10.

3. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика: учеб. пособие. –М.: Академия, 2006. С. 336.

4. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). –М.: ИКАР, 2009. С. 447.

5. Халеева И.И. Основы теории обучения пониманию иноязычной речи (подготовка переводчика). — М.: Высшая школа,1989. — С. 199-238.

6. Выготский Л.С. Мышление и речь//Избранные психологические исследования. −М.,1956. – С.291.

Nodima ORIPOVA,
Qarshi davlat universiteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi mudiri, dotsent, pedagogika fanlari nomzodi

MILLIY QADRIYATLAR – BO‘LAJAK MUTAXASSISLARDA KASBIY E’TIQODNI SHAKLLANTIRISH MANBAI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada kasbiy e’tiqodni shakllantirishda milliy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyati, qadriyatlarning o‘ziga xos xususiyati, O‘zbekistonda qadriyatlarni o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarning tahlili bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. E’tiqod, kasbiy e’tiqod, kasbiy bilim, kasbiy sadoqat, kasbiy fidoiylik, halollik.

В статье описаны роль и значение национальных ценностей в формировании профессиональных убеждений, специфика ценностей, дан анализ работы, посвященной изучению ценностей в Узбекистане.

Ключевые слова. Вера, профессиональная вера, профессиональные знания, профессиональная преданность, профессиональная преданность, честность.

The article describes the role and importance of national values in the formation of professional beliefs, the specificity of values, an analysis of the work devoted to the study of values in Uzbekistan is given.

Key words. Faith, professional faith, professional knowledge, professional dedication, professional dedication, honesty.

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, yosh avlodning ma’naviy – estetik tarbiyasiga, xususan shu asosda yangi kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratdi. Bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda yuqori ma‘naviyatni tarkib toptirish, ayniqsa, ta’lim sohasida, birinchi galda tarbiyachilarni tarbiyalash hayotiy zaruriyat hisoblanadi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni yuqori ma’naviy – estetik salohiyatli, estetik qobiliyatli, go‘zallikni his eta oladigan, ularni o‘z tarbiyalanuvchilariga bera oladigan, ayniqsa, o‘zbek xalqining boy milliy – badiiy merosiga oshno eta oladigan darajada tarbiyalash pedagogning dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Bo‘lajak o‘qituvchiga boy ma’naviy – estetik bilim – kelgusi pedagogik faoliyatida asqotishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur muammo faqat bo‘lajak o‘qituvchi ma’naviy – estetik tarbiyalash ilmiy – pedagogik yondashuvi orqali xalqimizning milliy – badiiy merosiga tayangan holatda, fanlararo uzviylikni o‘rnatish orqaligina o‘z yechimini topadi.

Milliy – ma’naviy tarbiya – bu yuksak milliy sifatlarni tarbiyalovchi ta’lim jarayoni maqsadi va natijasi bo‘lib, ma’lum milliy – ma’naviy bilimlar jamlanmasidir. Ta’lim jarayoni, Dasturda ko‘rsatilganidek shaxsga yo‘naltirilgan, uning betakrorligi, qobiliyat va qiziqishlari, tajribasi, imkoniyatlariga tayanishi zarur. Milliy dasturda ta’lim oluvchining nafaqat qobiliyat va salohiyatini ochish nazarda tutilgan, balki milliy va umuminsoniy

qadriyatlarni o‘zlashtirishi belgilab berilgan. Jamiyatning ma’naviy yangilanishi ta’lim oluvchilarning ma’naviy tarbiyasiga va rivojlanishiga bevosita bog‘liq. Xalqimizning ma’naviy, ma’rifiy, ma’naviy – axloqiy va estetik merosi, hamda umuminsoniy qadriyatlar barcha ta’lim va kasbiy ta’lim dasturlarining asosiy bo‘g‘iniga aylanishi zarur.

Bizga ma’lumki, shaxsda kasbiy e’tiqodni shakllantirish uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Bu jarayon xalqimizning o‘tmish tarixi va bugungi kunda amalga oshirayotgan olamshumul ishlarining o‘ziga xos talqinini bo‘lajak mutaxassislarning ongi va xulq-atvoriga ularning qiziqishlari va e’tiqodiy qarashlarini hisobga olgan holda yetkazish orqaligina shakllanishi mumkin. Bu borada xalqimiz ma’naviyatining asosini tashkil qiladigan qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yoshlarda azaliy qadriyatlarga hurmat uyg‘otishga asosiy e’tibor qaratildi. Qadriyatlarni chuqurroq anglash va anglatish qaror topdi. Bugungi kunda olimlar umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ularning mohiyati, o‘zaro aloqasi, qadriyatlarning inson hayotida tutgan o‘rni, ularning tarbiyaviy ta’siri hamda ta’lim-tarbiya jarayonida ular vositasida talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish ustida keng ko‘lamli tadqiqotlarni amalga oshirmoqdalar.

Ayniqsa, hozirgi kunda O‘zbekistonda zamon sivilizatsiyasi talablariga javob beruvchi umuminsoniy demokratik qadriyatlar xalqimiz turmush tarziga kirib keldi. Inson haq-huquqlariga rioya qilish, tadbirkorlik erkinligi, matbuot erkinligi ana shular jumlasidandir.

Qadriyatlar inson ongi va faoliyatining, shu bilan birga jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy taraqqiyotining mahsulidir. Qadriyatlarda o‘sha zamonda yashagan odamlarning orzu-umidlari, istaklari, xullas, moddiy va ma’naviy ehtiyojlari o‘z ifodasini topadi. Vaqt va davr talablari o‘zgargan, sari qadriyatlarning mazmuni ham o‘zgarib boradi.

Faylasuflar ta’kidlaganidek, qadriyatlar hech qachon obyektga ham, subyektga ham bog‘liq bo‘lmagan mustaqil olamni vujudga keltiradi. Bu olam makon va zamon qonunlaridan ustun turadi. Shuningdek, insoniyatning buyuk ma’naviy xazinasi bo‘lgan qadriyatlar hech qachon o‘zgarmaydi, balki insonning qadriyatlar haqidagi tasavvurlari o‘zgaradi.

Qadriyatshunos olimlardan biri J.Tulenov shunday yozadi: “Qadriyatlar deyilganda faqat o‘tmish davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kun va kelajakdagi taraqqiyotga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma’naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmui tushuniladi, qadriyatlar qadr-qimmat degan ma’noni bildiradi”.

E.Yusupovning fikricha, – “qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o‘tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma’naviy boyliklardir”.

O.Musurmonovaning “Yuqori sinf o‘quvchilarining ma‘naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari” mavzusidagi doktorlik ilmiy ishida qadriyatlarning mohiyati quyidagicha izohlanadi, – “Qadriyat – insonning ma’naviy ehtiyojlari asosida paydo bo‘lgan, amaliy faoliyatida davr sinovidan muvaffaqiyatli o‘tgan, o‘z shakl va mazmunida u yoki bu xalqning ma’naviy olamini mujassam etgan, asrlar davomida xalqning ma’naviy madaniyatini shakllantirish manbai sifatida qadrlanib kelingan, ma’naviy-ruhiy xatti-harakatlar, narsa va hodisalar majmuidir”.

Qadriyatlarning ham o‘ziga xos qonunlari mavjud. Bu qonunlar inson ongi va

irodasiga bo‘ysunmaydi. Qadriyatlar obyektiv olamning subyektiv in’ikosi bo‘lgani uchun kishilarning ijtimoiy faoliyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shu sababdan kishilar o‘zlarining turmush tarzlarini insoniyat yaratgan qadriyatlar talablariga qarab o‘zgartirib boradi.

Demak, insonning qadr-qimmati, sha’ni, or-nomusi, g‘ururi, e’tiqodi qadriyatlarni o‘zlashtirish vositasida shakllanadi. Shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy e’tiqodini shakllantirish ham qadriyatlarni o‘zlashtirish va unga amal qilish asosida tarkib topadi. Zero, tanlagan kasbiga sodiqlik, halol mehnat qilish, o‘z kasbini ulug‘lash, unga mehr qo‘yish xalqimizning azaliy qadriyati hisoblanadi. Ayniqsa, kishilarning irodasi, sabr-bardoshi, izlanuvchanligi, tashabbuskorligi tanlagan kasbi jarayonida rivojlanib boradi.

Yuqorida bayon qilingan fikrlar asosida quyidagilarni tavsiya qilamiz:

1. Milliy qadriyatlarimizda aks etgan kasbiy e’tiqod g‘oyasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan bo‘lajak mutaxassislar kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda samarali foydalanish.

2. Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy e’tiqodini shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik chora-tadbirlar dasturiga milliy qadriyatlardagi kasbiy e’tiqod g‘oyasini singdirish.

3. Talabalarni darsdan bo‘sh vaqtida qo‘shimcha milliy hunarmandchilikka o‘rgatish orqali ularda moddiy manfaatdorlikni ta’minlashga zamin yaratish.

4. Talabalarni kasbiy qadriyatlar orqali oilaviy hayotga tayyorlash tizimini takomillashtirish.

5. Yoshlar bilan tashkil etiladigan turli ko‘rik-tanlovlar, musobaqalar, viktorinalar, davra suhbatlarida kasbiy e’tiqod qadriyatiga e’tibor qaratish.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, kasbiy e’tiqod milliy qadriyatlar bilan o‘zaro bog‘liq va uning zamirida shakllanib boradi. Chunki, har bir millatning o‘ziga xos kasbi-kori, hunarmandchiligi, mehnat jarayoni mavjuddir. Ana shu jarayonda yoshlarning tanlagan kasbiga nisbatan e’tiqodi shakllanadi. Kasbiy e’tiqodi mustahkam kishilarda esa o‘z kasbidan g‘ururlanish, fidoiylik, sadoqat kabi fazilatlar mavjud bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 190-b.

2. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – T.: O‘zbekiston, 1998. – 335-b.

3. Yusupov E. Qadriyatlar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi roli. – T.: 1995. – 123-b.

Shokirjon ARIPOV,
Farg‘ona davlat universiteti, “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA O‘G‘IL BOLALARNI OILAVIY MUNOSABATLARGA TAYYORLASH

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash hamda, ularni ma’nan yetuk va salohiyatli qilib tarbiyalash muhimligi ta’kidlangan.
Kalit so‘zlar. Umumiy o‘rta ta’lim, o‘g‘il bolalar, oila, ma’naviyat, yoshlar, oilaviy munosabatlar, innovatsiyalar, kommunikatsion texnologiyalar.

В статье подчеркивается важность подготовки мальчиков к семейным отношениям в общеобразовательной средней школе, а также воспитания их духовно зрелыми и способными.
Ключевые слова. Общее среднее образование, мальчики, семья, духовность, молодежь, семейные отношения, инновации, коммуникационные технологии.

The article discusses the issues of preparing boys for family relationships in general secondary schools, as well as their upbringing in a spiritually mature and capable way.
Key words. General secondary education, boys, family, spirituality, youth, family relations, innovation, communication technologies.

Bugungi kunda jamiyatning oila va oilaviy tarbiyaga bo‘lgan talabi ham kun sayin ortib bormoqda. Farzandlarning ma’nan va jismonan barkamol insonlar bo‘lib yetishishi, eng avvalo, tarbiyaga, xususan, ota-onalar tarbiyasi va sohadagi savodxonlik darajasiga bog‘liq. Bunda ota-onalarning ma’naviy, psixologik, huquqiy, tibbiy biologik va iqtisodiy savodxonligiga e’tiborni kuchaytirish, ularni mazkur bilimlarni egallashlari uchun turli usul va metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

2018-yil 27-iyunda “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Konsepsiya olti bo‘limdan iborat. Uning har bir bo‘limi va bandida oilalarni baxtli va sog‘lom qilishga, kelajak avlodning barkamol tug‘ilib voyaga yetishini ta’minlaydigan, sog‘lom va mustahkam oila qurishda yuzaga keladigan to‘siqlarni bartaraf etadigan hamda oldini olishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar rejasi belgilangan.

Konsepsiyaning bosh g‘oyasi “Farovon oila – jamiyat ravnaqining asosi” deb belgilandi. Ushbu Konsepsiyani amalga oshirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad mamlakatimizdagi har bir oilaning huquq va manfaatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish,

ular uchun munosib turmush sharoitini yaratish, oilaviy munosabatlar muvozanatini ta'minlash, oila farovonligini oshirish, muxtasar aytganda, oila institutini har tomonlama qo'llab-quvvatlagan holda, davlatimizning izchil va barqaror taraqqiyotiga erishishdir. Ma'lumki, oila muhitida har bir inson oilaviy o'zaro munosabatlarning o'ziga ta'sirini, o'z xarakter xislatlarining shakllanishida oladigan namuna, andoza va ibrat xususiyatini anglashi yuz beradi. Chunki, oila jamiyatning negizi, har bir shaxsning ongida, xatti-harakatida bolaligidan boshlab shakllanadigan barcha fazilatlari, niyatlari, maslaklari amalga oshadigan maskan hamdir. Ma'naviy, axloqiy, psixologik tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi.

Oila tinch, mustahkam va farovon bo'lsagina, jamiyatda rivojlanish bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, ma'naviy va ruhiy muhitning sog'lomligiga yetarli zamin yaratadi. Oila muhitini sog'lom bo'lishi uchun ushbu omillarga e'tibor qaratish lozim:

– birinchidan, oilada ota o'rnining ahamiyatli ekanligi. Turmushda erkakning yetakchiligi mentalitetimizda yetakchi o'rin tutadi. Erkak kishi o'z xulq-atvori bilan oilada to'kis muhit yaratishi, farzandlarida axloqiy sifatlarni tarbiyalashi lozim. Ota farzandning ko'z o'ngida namunali shaxsga aylanmas ekan, bunday oila hech qachon mukammal bo'lmaydi. Xalqimizda azal-azaldan "Ota bo'lish oson, lekin otalik qilish qiyin" degan naql bor. Farzandlarimiz otasi bilan faxrlanishi, undan o'rnak olishi zarur;

– ikkinchidan, oilada milliy qadriyatlar ustuvor bo'lishi zarurligi. Buyuk ajdodlarimiz tarbiyaga, oila va undagi axloqiy muhitga e'tibor qaratib kelishgan bo'lib, bu boradagi nasihatnomalar, odob-axloq mavzusidagi asarlar talaygina. "Qobusnoma", "Hikmatnoma", "Qutadg'u bilig", "Hayrat ul-abror" va boshqalar shular jumlasidandir. Hadisi Sharifda ham iymonli bo'lish, haromdan hazar qilish, bir-biriga mehribon va oqibatli bo'lishga da'vat etuvchi hikmatlar zikr etilgan. Boy ilmiy-madaniy merosimiz, qadimiy urf-odat hamda an'analarimizdan ayonki, har qanday zamon va makonda ham oila biz uchun muqaddas qadriyat sanalgan. Binobarin, tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, ruhiy-axloqiy, iqtisodiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik hisoblanmish oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror taraqqiy etishini ajdodlarimiz juda yaxshi anglashgan. Shu bois ota-bobolarimiz oilaga katta e'tibor bilan qarashgan.

– uchinchidan, onalarning farzandlar tarbiyasiga ko'proq vaqt ajratishi lozimligi. Oiladagi tarbiyaning samaradorligi asosan bu jarayonda onaning ishtiroki bilan o'lchanadi. Farzand o'z xususiyatlari, salohiyatining 60 foizni belgilari bolaga o'tishi isbotlangan haqiqatdir.

Yaqin-yaqinlargacha o'zbeklarda ham yosh ota-onalar o'z ota-onalari yoki yoshi katta qarindoshlari oldida o'z go'daklarini suyib-erkalashlari uyat sanalgan. Tarixdan ma'lumki, patriarxal oilalarda ota bolani parvarish qilmasa ham, lekin o'g'il bolalar ota boshchiligida yoki u bilan birga ish bajarib ko'p vaqtlarini otalari bilan o'tkazar edilar.

Hozirgi o'zbek oilalarida ham otalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarda bir muncha o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Agar ilgari ko'pchilik qiz va o'g'il bolalar ota-onalarning iltimoslarini jonu dillari bilan ado etgan bo'lsalar, endi o'smir bo'lib olib, bunday iltimosga keskin xatto qo'pol javob qaytara oladilar. "Boring-e", "o'zingizchi" o'zingiz qilavering, meni vaqtim yo'q. Bola kattalarning ranjib qolganliklari va o'zining nohaqligini ko'rib, uzr aytib, o'zini pastga urishni istamaydi, "ha mayli qilsam qila qolay". "Yoshlardagi bunday xulq atvordan oila a'zolarining o'g'limga (qizimga)"

nima balo bo‘ldi? U butunlay boshqacha bo‘lib qoldi. Ilgarigiga sira o‘xshamay qoldi-ya”, deb nolishlarini kuzatish mumkin. Birinchi navbatda yoshlar, farzandlarning bugungi zamon, bugungi jahon talablari va andozalariga mos milliy g‘urur, insoniy oriyatli etib tarbiyalashda dunyoda eng murakkab, shu bilan birga, eng mas’uliyatli kasb bo‘lmish ota-onalik, murabbiylikni olib borishda an’anaviy va zamonaviy oila mezonlarini yodda tutish kerak bo‘ladi. Zamonaviy oilada tarbiyalanayotgan farzandning odobi, muomalasi, xulq-atvori uning kelgusida el-yurti g‘ami va tashvishi bilan yashaydigan, fidoiy yoshlar bo‘lib shakllanishiga olib keladi.

Hozir zamonaviy oilalarda tenglik tamoyilidan kelib chiqib, ilgari faqat ayollarning vazifasi hisoblangan ko‘p yumushlarni otalar bajarmoqda. Zamonaviy shahar oilalarida an’anaviy otalik qadriyati, ayollarning teng huquqligi, otaning professional ishlarga jalb qilinishi, oilaviy turmush jarayonida ota martabasining yuqori qo‘yilmasligi kabi omillar ta’sirida sezilarli darajada pasaymoqda. Bu esa, oilada tarbiyalanayotgan o‘g‘il bolalarga salbiy ta’sir o‘tkazadi.

Ota-ona farzandini har tomonlama komil, barkamol, bilimli, o‘zga millatli tengdoshlari bilan bemalol muloqotga kirisha oladigan, raqobatlasha oladigan inson bo‘lib voyaga yetishini istaydi. Buning uchun esa uni zamon bilan hamnafas qilib tarbiyalashga, turli til to‘garaklariga olib borishga, biror chet tiliga ixtisoslashtirilgan bog‘cha, maktablarga berishga harakat qiladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, ta’lim-tarbiya jarayonida bolaning shaxsi shakllanib boradi, dunyoqarashi kengayadi, shuningdek, unda xulq-atvor va odatlar ham ma’lum darajada shakllanadi. Bunda esa an’ana, urf-odat va milliylikning o‘rni, tarbiyaviy ahamiyati katta. Ya’ni, u odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, do‘stlik, birodarlik tuyg‘ularini shakllantiradi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ta’limni o‘zga tilda olayotgan bolalarda ba’zan xudbinlik, loqaydlik, odobsizlik, kattalarga hurmatsizlik, o‘z ona tilini mukammal o‘zlashtira olmaslik seziladi. Shu bois zamonaviy oilani barpo etishda an’anaviy munosabatlarni transformatsiyasi tobora hayotga kirib kelayapti.

Demak, oila institutini mustahkamlashda zamonaviy oilaning ijtimoiy-demografik, etnik, psixologik ta’sir omillarini ilmiy-amaliy tadqiq etish oilaning muqaddas maskan sifatida an’anaviy yo‘riqnomalarni saqlab qolishga va jamiyatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘g‘il bolalarga voyaga yetgandan keyin erkakning vazifasi nimadan iborat bo‘lishi ya’ni oilani ma’naviy, iqtisodiy qo‘llab, quvvatlash, ayoli va farzandlarining tashvishlariga sherik bo‘lish, oila mabodo xavf-xatarga yo‘liqsa qalqon bo‘la olish va umuman oila azolariga g‘amxo‘r bo‘la olishni tushuntirib berishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 12-yanvardagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqidan.

2. O‘quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi konsepsiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1998.

3. Rasulova Y., Nurmatova O. Pedagogika o‘quv-qo‘llanma – T.: – Voris, 2009.

Manzura OTAJONOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Adiba BAYMURATOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

TARBIYA – YOSH AVLODNI MUAYYAN MAQSAD YO‘LIDA HAR TOMONLAMA O‘STIRISH JARAYONI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinfda o‘rganiladigan xalq og‘zaki ijodi janrlari, ularning mazmun-mohiyati hamda yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama o‘stirish jarayoni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich ta’lim, tarbiya, yoshlar, nutq o‘stirish, o‘qish kitobi, bolalar adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi, ma’naviy boylik, axloqiy to‘qlik, maqol, ibora, latifa, topishmoq, tez aytish, doston.

В статье рассматриваются жанры фольклора изучаемые в начальной школе, их содержание и процесс всестороннего развития подрастающего поколения.

Ключевые слова. Начальное образавание, воспитание, молодеж, развитие речи, чтение книг, детская литература, фольклор, духовное богатство, нравственная пресыщенность, пословицы, поговорки, загадки, сказка.

This article discusses the genres of folklore studided in primary scholl, their content and the process of comprehensive development of the younger generation towards a specific go.

Key words. Primary education, upbringing, youth, speech, development, reading books, children’s leterature, folklore, spiritual wealth, moral integrity, proverbs, sayings, anecdotes, riddles, rhetoric, epics.

Mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsad qilingan va bu amalga oshirilayotgan ekan, bu jarayonda yoshlarning o‘rni va roli alohida ahamiyatga ega. Zero, yoshlar bizning kelajagimiz, avlodlardan meros qolgan muqaddas zaminni yuksaltirish, ilg‘or davlatlar darajasiga ko‘tarish ularning bilimi, iste’dodi, jasorati, ma’naviy barkamolligiga bog‘liq. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda yoshlar haqida e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga davlat siyosatining eng asosiy va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qarab kelinmoqda. Chunki yoshlar – bizning kelajagimiz. Bu sohadagi davlat siyosatini yanada chuqurlashtirish uchun yaqinda O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Bularning barchasi bugungi kunda o‘z samarasini bermoqda. Yoshlarimiz biznes, ilm-fan, madaniyat, san’at, adabiyot va sport sohalarida olamshumul muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Bu mamlakatimiz istiqboliga, buyuk ajdodlarimiz boshlagan ezgu ishlarni kelajak avlodlar munosib davom ettirishiga katta ishonch bag‘ishlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yilning 12-yanvar kuni “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi bu mavzuning dolzarb ekanligini tasdiqlaydi.

Ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim insonning bilim va tarbiya olishida poydevor vazifasini o‘taydi. Boshlang‘ich sinflardagi ona tili ta’limi sohasining asosiy maqsadi bolalar-ning yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan holda og‘zaki va yozma nutqini hamda tafakkurini o‘stirish, ularni shaxs sifatida shakllantira borishni amalga oshirish, ularda bilim olishga bo‘lgan qiziqishni o‘stirish, faollik, mustaqillik, mehnatsevarlik, qiyinchiliklarni yenga olish qobiliyatlarini o‘stirish hisoblanadi. Bolalarni aqliy va nutqiy qobiliyatlarini muvaffaqiyatli o‘stirish kelgusida fanlarni puxta o‘zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, “O‘qish va nutq o‘stirish” dasturi asosida tashkil qilinadigan boshlang‘ich sinf o‘qish darslari o‘quvchilarni har tomonlama rivojlangan ma’naviyatli inson qilib tarbiyalashda alohida o‘rin tutadi.

Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darslarida turli badiiy va ilmiy ommabop asarlardan hamda xalq og‘zaki ijodidan namunalar berilgan. Jumladan, darsliklar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari A.Avloniy, G‘ayratiy, S.Jo‘ra, X.Nazir, G‘.G‘ulom, Oybek, A.Oripov, M.A’zam, T.Adashboyev, X.To‘xtaboyev, A.Obidjon, S.Anorboyev, Safo Ochil, M.Murodov kabi bir qator o‘zbek adabiyoti vakillari, shoir va yozuvchilarining asarlari bilan hamda xalq og‘zaki ijodiga mansub asarlar: ertak, maqol, topishmoq, latifa, dostonlar bilan yaqindan tanishdilar.

O‘qish darslarida bolalarni xalq og‘zaki ijodi asarlari vositasida estetik tarbiyalashga ham alohida ahamiyat beriladi. O‘qitilayotgan matn va uni o‘rgatish metodlari bolaning estetik qabul qilish qobiliyatini, tabiat va jamiyatdagi haqiqiy go‘zallikni ajrata olish, kishilar hayoti va san’atdagi go‘zallikni his qilish kabi estetik fazilatlarni rivojlantirish uchun xizmat qilishi lozim. Bularning hammasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni tarbiyalashda hamda ularning ma’naviy dunyosini boyitishda xalq og‘zaki ijodi materiallarining alohida o‘rni borligini ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanish yo‘llarini ochib berish masalasi hozirgi metodika va pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, “Ona tili o‘qitish metodikasi” darslik va o‘quv-qo‘llanmalarida, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan metodik kitoblarda, ayrim metodik maqolalarda xalq og‘zaki ijodi asarlarini o‘rganish masalasi o‘zining metodik yechimini topgan. Masalan, I.Mirzayevning “Boshlang‘ich sinflarda xalq og‘zaki ijodini o‘rganish” risolasida; O.Safarov, R.Barakayev, B.Jamilovalarning “Bolalar adabiyoti” darsligi (Buxoro, “Durdona” nashriyoti, 2019-yil, 420-b.); M.Jumaniyozova va Sh.Qalandarovalarning “Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida dostonlardan parchalarni o‘qish metodikasi” maqolasida (Tafakkur ziyosi, XXI tom. –Urganch, 2010, 60-63-betlar); Sh.Jabborovning “Xalq og‘zaki ijodidan foydalanish” maqolasida (“Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, 2011, 2-son 28-29-betlar) va boshqa ishlarni ko‘rsatish mumkin. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insoniy fazilatlarni shakllantirish, ularni ma’naviyatli inson qilib tarbiyalashga bag‘ishlangan ilmiy-metodik maqolalar ham mavjud. Xususan, Zuhra Ilyos qizining “Ma’naviyati yuksak avlod – Vatan ishonchi” (“Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, 2019, 10-son, 21-bet) nomli maqolalarida bu masalalar atroflicha o‘z aksini topgan. Bulardan ham ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi xalq og‘zaki ijodi asarlari mundarijasi va ularni innovatsion o‘qitish metodikasi masalasi monografik

holda o‘ganilishi muhim metodik masala ekanligini belgilaydi.

Boshlang‘ich sinflarda xalq og‘zaki ijodi asarlarining mazmunida ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy hayotning hamma masalalari o‘z ifodasini topadi, desak xato bo‘lmaydi. Boshlang‘ich sinflarda bu janrda yaratilgan asarlarni o‘rganish, g‘oyasi, ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatini o‘quvchi ongiga chuqurroq singdirish uchun o‘qish darslarida xalq og‘zaki ijodi asarlari mundarijasi va ularni innovatsion o‘qitish usullari bilan ham ishlashi muhim hisobanadi.

Shundan kelib chiqib, o‘z oldimizga quyidagi vazifalarni hal qilishni maqsad qilib qo‘ydik:

– boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsliklarida berilgan xalq og‘zaki ijodi asarlarining mazmun-mundarijasini ko‘rsatish;

– boshlang‘ich sinflarda xalq og‘zaki ijodi asarlarini o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslarini yoritish;

– xalq og‘zaki ijodi asarlarini o‘rganishning ta’lim-tarbiyaviy jihatlarini ochib berish;

– xalq ertaklari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviyatini shakllantirish yo‘llarini belgilash;

– o‘quvchilarni ma’naviy barkamol inson ruhida tarbiylashda maqollardan foydalanish yo‘llarini ochib berish;

– boshlang‘ich sinflarda latifalarni o‘qish orqali o‘quvchilarni vatanparvar, mard va jasur, sadoqatli va kamtar, tadbirkor va ziyrak inson ruhida tarbiyalash masalasini yoritib berish.

O‘qish dasturini tuzishda g‘oyaviy-estetik, mavsumiy, tadrijiy asoslar hisobga olinadi. O‘quv materiallari bolalarga ta’lim berish, ularni tarbiyalashda muhim bo‘lgan borliq haqidagi bilimlar va insoniy munosabatlarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarni badiiy, adabiy asarlar bilan tanishtirish orqali kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirish o‘qish dasturlarining tub mohiyatini tashkil etadi.

Istiqlol tufayli erishgan yutuqlarimiz haqidagi asarlar milliy g‘urur tuyg‘ularini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu jihatdan boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar “O‘qish va nutq o‘stirish” dasturi asosida tuzilgan “O‘qish kitobi” darsliklari orqali ko‘plab xalq og‘zaki ijodi asarlaridan namunalar bilan tanishadilar. Bu asarlarni o‘qib-o‘rganish uchun boshlang‘ich sinf o‘quv dasturida muayyan vaqt ajratib ko‘rsatilgan bo‘ladi.

1-sinfdan tortib 4-sinfgacha “O‘qish kitobi” darsliklarida xalq og‘zaki ijodi alohida bo‘lim sifatida ko‘rsatilgan va ularni o‘rganish uchun muayyan bir soatlar belgilangan. Xususan, 1-sinf “O‘qish kitobi” darsligining “Xalq o‘giti – baxt kaliti” bo‘limini o‘rganish uchun o‘quv dasturida 9 soat ajratilgan.

“Xalq o‘giti – baxt kaliti” bo‘limiga bolalar qalbiga ona allasi bilan kirib kelgan og‘zaki ijod namunalari kiritilgan bo‘lib, ezgulik, to‘g‘riso‘zlik, sofdillik, nafosat, do‘stlik, o‘rtoqlik, ahllik haqida tasavvur hosil qiladi.

2-sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi “Ertaklar – yaxshilikka yetaklar” bo‘limini o‘rganish uchun 13 soat ajratilgan. Bu bo‘lim orqali o‘quvchilar ertaklar olamiga sayohat qilishadi. Nima yaxshi-yu, nima yomonligini ertaklardagi voqea-hodisalar orqali uqib oladilar. Ertak qahramonlarining holatini so‘zlab berish, voqealarni rasmda ifodalashga alohida e’tibor qaratiladi.

3-sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limini o‘rganish uchun 17 soat ajratilgan. Bu bo‘limda xalq og‘zaki ijodiga oid qo‘shiq, ertak, masal, maqol, latifa, topishmoqlar kiritilgan. Ular orqali o‘quvchilarga xalqning orzu – umidlari, do‘stlik, ahllik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, fazilatlari ulug‘lanishi, salbiy

xislatlarning qoralanishi uqtiriladi. O‘quvchilar qo‘shiq bilan tanishadilar. “Botir mergan va chaqimchi”, ”Halollik”, “Donishmand yigit” kabi o‘zbek xalq ertaklarini o‘qiydilar. Shuningdek, “Qaysar buzoqcha”, “Chumoli va tipratikan” masallarini o‘rganadilar. Maqol, iboralar, latifalar, topishmoqlar, tez aytishlarni ham o‘qiydilar. Bo‘limdan “Rustamxon” va “Alpomish” dostonlaridan parcha ham o‘rin olgan.

4-sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limini o‘rganish uchun esa 28 soat ajratilgan. Bunda o‘quvchilar xalqimizning ming yillar mobaynida yaratgan sehrli-fantastik ertaklari, xalq dardi, istak-xohishi, orzu-umidlari ifodalangan qo‘shiqlar, bolalarning quvnoq o‘yin-qo‘shiqlari, hozirjavoblik, topqirlikni taqozo etadigan topishmoqlar, xalqning hayotiy xulosasi tarzida yuzaga kelgan purhikmat maqollar, sehr-jozibaga yo‘g‘rilgan rivoyatlarni o‘qib-o‘rganadilar.

Boshlang‘ich sinfda o‘qish darsi o‘z mazmuni, o‘quvchilar fikri, dunyoqarashi, nutqi, bola shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlari bilan boshqa o‘quv-predmetlari orasida muhim o‘rin tutadi. O‘qish darslari jarayonida o‘quvchilarning o‘qish malakalari takomillashadi. O‘quvchilarning to‘g‘ri, ravon, ongli va ifodali o‘qish, badiiy asar g‘oyasini tushunish, asar yoki voqea-hodisaga o‘z fikrini bildira olish qobiliyatlari o‘sib boradi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich sinflarda o‘qish asosiy dars, o‘quv-predmetlaridan biri sifatida o‘qitib boriladi. Umuman olganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘qishni o‘rgatish ularga tarbiyaviy ta’sir etish bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. Ya’ni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga darslar davomida bilim berish bilan bir qatorda ularda iroda, e’tiqod va yaxshi xislatlar tarkib toptiriladi va qiziqish, qobiliyat va iste’dodlarini o‘stirish vazifalari ham bajariladi. O‘qish darslaridagi barcha asarlarni o‘qitish orqali o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazib boriladi.

Tarbiya – yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama o‘stirish uning ongi va xulq-atvorini tarkib toptirish jarayonidir. Tarbiyaning umumiy maqsadi o‘zida ma’naviy boylikni, axloqiy poklik va jismoniy barkamollikni uyg‘un tarkib toptirgan insonlarga xos bo‘lgan barcha xislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan va har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yilning 12-yanvar kuni “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi.

2. Jumaniyozova M. va Qalandarova Sh. “Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida dostonlardan parchalarni o‘qish metodikasi” maqolasida (Tafakkur ziyosi, XXI tom. – Urganch, 2010, 60-63-betlar).

3. G‘afforova T., Nurillayeva Sh., Mirzaxakimova Z. 2-sinf “O‘qish kitobi” Sharq nashriyoti.

4. Umarova M., Xamrakulova X., Tajiboyeva R. 3-sinf “O‘qish kitobi” O‘qituvchi nashriyoti. –T., 2019.

5. G‘afforova T., Nurillayeva Sh., Mirzaxakimova Z. 4-sinf “O‘qish kitobi” –T.: Yangiyo‘l Poligraph service nashriyoti, 2019.

Dilrabo XODIYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” fakulteti dotsenti
Odina KASIMOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

XALQ OG‘ZAKI IJODIDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodining ta’lim-tarbiya jarayonida tutgan o‘rni, xalq og‘zaki ijodi namunalarining tarbiyaviy ahamiyati, mazmun-mohiyati, hamda xalq og‘zaki ijodidan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishning pedagogik asoslari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Barkamol inson, ota-ona, oila, pedagog, maktab, odob-axloq, tarbiya, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, jamiyat, millat, xalq, xalq og‘zaki ijodi namunalari.

В статье рассматривается роль фольклора в образовательном процессе, воспитательное значение содержания фольклора, а также педагогические основы использования фольклора в образовательном процессе.

Ключевые слова. Компетентный человек, родители, семья, педагог, школа, манеры, воспитание, духовно-нравственные ценности, национальные ценности, общество, нация, народ, фольклор.

This article discusses the role of folklore in the educational process, the educational significance of content of folklore, as well as the pedagogical basis for the use of folklore in the educational process.

Key words. Mature person, parents, family, pedagogue, school, morality, upbringing, spiritual and moral values, national values, society, nation, people, folklore.

Mamlakatimizda demokratik huquqiy jamiyatni barpo etish yo‘lida olib borilayotgan keng ko‘lamdagi islohotlar mustaqil fikrlash layoqatiga ega, aqliy, ma’naviy-axloqiy, ruhiy va jismoniy jihatdan yetuk, barkamol insonni tarbiyalash zarurligini taqozo etmoqda. Zero, barkamol avlodning ijtimoiy faolligi milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi ta’minlangan huquqiy jamiyatni barpo etish imkoniyatini beradi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev xalqimizning boy tarixiga e’tibor berib shunday degan edilar: “Barchamizga ayonki, O‘zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz bu – xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir”[1].

[1] Shavkat Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. – T.: O‘zbekiston-2017,13-b.

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy sohada amalga oshirilayotgan keng islohotlar vatan taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurtning kelajakdagi boshqaruvchilari-yangi avlod tarbiyasiga qaratilmoqda. Mustaqillikka erishgan birinchi kunimizdanoq, umuminsoniy va o‘zbekona qadriyatlarni har tomonlama tiklash, ularga chuqurroq nazar tashlash uchun zamin yaratildi. Mustaqil Vatanimizga har tomonlama yetuk, mukammal, axloqiy pok, yuksak ma’naviy xislatlarga ega, iymon-e’tiqodi butun, o‘z xalqi, o‘z ona-Vataniga fidoiy, barkamol insonlarni tarbiyalash davlat siyosatida ustuvor masalalardan biri sifatida qarala boshladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kelajak yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berib: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[2] degan edilar.

Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo‘yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berib, shunday degan edilar: “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi”[3].

Shundan kelib chiqib, hozirgi vaqtda tarbiyaning noodatiy bo‘lgan shakllari va usullarini izlab topish, o‘sib borayotgan avlodda mustahkam tarbiya va qarashlarini shakllantirish bola shaxsida milliy madaniyat va milliy qadriyatlarni hurmat qilish, avaylab, asrash tuyg‘ularini o‘stirishga diqqatini qaratmog‘imiz lozim.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, o‘sib borayotgan avlodning tarbiya tizimida xalq og‘zaki ijodi va pedagogikasi tajribalari yosh avlodni xarakteri va ongini boshqaruvchi vosita, asosiy kuch deb hisoblash mumkin. Tarbiyada xalqning milliy va ma’naviy qadriyatlariga suyanish, ular orqali o‘quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirish – o‘ta dolzarb masalalardan biridir. Chunki, bugungi kunda mafkuraviy poligonlarda yoshlar ongi va qalbi uchun kurash keskinlashgan bir paytda o‘quvchilarni iloji boricha, oila muhitida va maktabgacha ta’lim muassasasidanoq vatanparvar, xalqparvar, fidoiy, Vatani, xalqi uchun jonini ayamaydigan matonatli qilib tarbiyalash zarur.

Xalq og‘zaki ijodida komil inson g‘oyasi azal-azaldan kuylanib kelingan va u xalqimizning ezgu orzusi, uning ma’naviyatining uzviy bir qismi bo‘lib kelgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da halol mehnat komillikning asosiy mezoni sifatida talqin etilgan. Komil inson g‘oyasi islom falsafasidan oziqlanib yanada kengroq ma’no-mazmun kasb etgan.

Xalq og‘zaki ijodida yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari keng qamrovli bo‘lib, o‘z zamirida tarbiya usullari, insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik tarbiyasi, do‘st birodarlik, ahllik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, yaxshilik va yomonlikning ta’rifi, yaxshi va yomon so‘zning oqibati, halollik, to‘g‘rilik, oliyjanoblik tarbiyasi, adolat, insof va insofsizlik, og‘a-inichilik va qon-qardoshchilikning ahamiyati, botirlik va qo‘rqoqlik, odob-odobsizlik, mehmon va mehmondo‘stlik kabi kategoriyalar talqin qilinadi.

---

[2] Shavkat Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” – T.: O‘zbekiston-2017, 14-b.

[3] Shavkat Mirziyoyev. “Ta’lim sohasidagi muammolar, ularni hal etish va ta’lim sifatini oshirishga bag‘ishlangan videoselektor mavzusida” 30.10.2020.

“Xalqimizning ma’naviy merosini, ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma’naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun va insoniyatning ulkan oilasida o‘z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg‘usi bilan birgalikda yetilgan. Bizning ma’naviyatimiz asrlar davomida million-million kishilar taqdiri asosida shakllangan. Ma’naviyat insonning, xalqning, jamiyatning va davlatning kuch-qudratidir”[4] - degan edilar birinchi Prezidentimiz I.A Karimov. Shundan kelib chiqib aytish kerakki, ziyolilar va o‘qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri ham o‘tmish ma’naviy merosimizni yosh avlodga yetkazish va buni yetkazishning yanada samarali usullarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan yetishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoiy insonlar tarixi asosida bitiladi. Xalqimizning Shiroq va To‘maris, Spitamen va Muqanna,Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farzandlari-buyuk g‘oya sohiblaridir. Shunday buyuk siymolarimizdan A.Avloniyning bunday gaplari o‘rinlidir: “Har bir millatning saodati,davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdur”[5].

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash – pedagogikada dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Insonning o‘zi va o‘z oilasining baxt-saodati yo‘lida mehnat qilishga shaxsan tayyor ekanligi uning ichki imkoniyatlarini tashkil qiladi. Shaxs imkoniyatlari juda chuqur asoslarga egadir.

Milliy qadriyatlar, o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalqimizning asosiy maqsad va muddaolarini ifodalaydigan, uning o‘tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog‘laydigan, asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g‘oyalar tizimidir.

O‘zbek olimi M. Haydarov yozishicha: “Xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi odob-axloq, ta’lim-tarbiya borasidagi pandnomalar bag‘oyat hayotiy, xalqchil va ibratlidir. Xususan, an’anaviy xalq dostonlari va ertaklari, qo‘shiqlar va maqollar tarbiya darslari ekanligini, folklorning boshqa katta-kichik janrlari boshdan-oyoq pandnomaligini unutmasligimiz kerak”[6].

Xalq pedagogikasining sharqona an’analari, oilaviy-maishiy yo‘nalishlari, o‘ziga xosligi, ommaviy bayram-sayllar, marosimlar, urf-odatlar va udumlarda ifodalanishi o‘sib kelayotgan yosh avlod tomonidan o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalar sirasiga kiradi.

Folklorshunos olim S. To‘rayev ta’kidlashicha: “Xalq og‘zaki ijodida hayotning, tafakkurning, odob-axloq, ta’lim-tarbiyaning hamma jabhasini, barcha muammolarini qamrab olishi bilan xarakterlanadi”[7].

Xalq og‘zaki ijodida keng talqin qilinadigan milliy qadriyatlar-insonparvarlik, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, mehmondo‘stlik, ahllik, to‘g‘riso‘zlik va boshqalar o‘zbek xalqi qadriyatlarining nozik kurtaklari bo‘lib hisoblanadi. Ularni xalqimiz asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. Mamlakatimizning kuch-qudrati manbai ham uning milliy qadriyatlarga sodiqligidadir. Insonparvarlik – bu o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir.

Shu sababdan “oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik

[4] Karimov I.A. “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li”. – T.: O‘zbekiston, 1992 70-71-betlar.
[5] A.Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq”. – T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2018. 9-b.
[6] Haydarov M. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida tarbiya masalalari. – T.: Fan, 2004. – 12-b.
[7] To‘rayev S. Folklorshunoslik: udumlar, qadriyatlar, marosimlar. – T.: Mehnat, 2005. – 56-b.

ma’naviyatining ma’nosi ana shunday keng. Haqiqatdan ham ma’naviyati boy kishi ona-yerga, Vatanga sadoqatli bo‘ladi. O‘z hayotini Vatanining ravnaqisiz tasavvur qila olmaydi. Bola maktabga borganida ma’lum ma’naviy xususiyatlarga ega bo‘ladi, lekin haqiqiy ma’naviy fazilatlar maktabda ta’lim-tarbiya olish jarayonida paydo bo‘ladi.

Maktabda o‘qitiladigan har bir fan, asosan tarbiya fanining har bir mavzusi o‘quvchi ma’naviy qiyofasining boyishiga hissa qo‘shib boradi. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi namunalari bolalarga kuchli ma’naviy ta’sir ko‘rsatish imkoniga ega. Tez aytish, maqollar, ertaklar tajribada sinalgan, minglab yillar davomida jamiyat a’zolarini eng yaxshi fazilatlar sohibiga aylantirgan tarbiya vositalari hisoblanadi. Tez aytish, maqollar, xalq ertaklari mazmun jihatidan boy, shakl jihatidan xilma-xildir. Ularning paydo bo‘lishi ham uzoq o‘tmishdan boshlanib, hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Xalqning umumiy dahosi mahsuli bo‘lgan folklor materiallari aynan bir xalq, bir millat tomonidan yaratilsa ham, umuminsoniy qiymati kuchli sanaladi.

Shuning uchun ham tez aytishda, maqollarda, ertaklarda turli xalqlarda yaratilgan, mazmun jihatidan bir xil, yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan materiallar uchrab turadi. Bu hol xalq og‘zaki ijodini umumbashariy ta’siriga ega ekanligidan dalolat beradi. Tez aytishlar, maqollar, ertaklar mazmuniga qarab, yoshlarni tarbiyalashni turli yo‘nalishlarini, aqliy, axloqiy, jismoniy, ruhiy, estetik, mehnatsevarlik va boshqa xususiyatlarni tarkib toptirishga qaratilgan bo‘ladi.

Inson kamolotining biror sohasi yo‘qki, unga tez aytish, maqollar, ertaklar ta’sir etmagan bo‘lsin. Tarbiya fanidagi ayrim materiallar yoshlarni tarbiyalashni qonun-qoidalari, tamoyillari, metodlarini aks ettirish bilan ajralib turadi. Shunday imkoniyatlarga ega bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanining asosiy mazmuni tarkibiga kiritilgan holda o‘rganib kelinmoqda. Folklorshunos olimlarning tadqiqotlarida xalq og‘zaki ijodi janr xususiyatlari, badiiy qiymati, paydo bo‘lishi va taraqqiyoti haqidagi qarashlari katta ilmiy ahamiyatga ega ekanligini tan olish zarur. Ma’lumki, inson barkamolligi uning ma’naviy qadriyatlar haqidagi xalq og‘zaki ijodi yoshlarda milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarkib toptirishda, kundalik faoliyatlarida doim amalga oshirib borishlari uchun eng qulay vositadir. Zero, xalq og‘zaki ijodi bolalar hayotida alohida o‘rin tutadi. Ular o‘quvchilarga samarali tarbiyaviy ta’sir qilib, ma’naviy va axloqiy shakllanishlarida katta yordam ko‘rsatadi.

Xalq og‘zaki ijodi milliy o‘zlikni saqlashda, yoshlarni tarbiyalashda, muayyan g‘oyalarni ruhiyatga singdirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tarbiya va ta’limning milliy xususiyatlari ham xalq og‘zaki ijodida o‘z o‘rniga ega. Xalqning kelajagi yoshlarga bog‘liq ekanligi qanchalik haqiqat bo‘lsa, o‘quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash zarurati bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Milliy axloqiy tarbiya xalqning o‘z-o‘zini saqlash va istiqbolini ta’minlash omili bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekistonning rivojlangan davlatlar qatorida o‘rin olishi uchun, yangicha fikrlaydigan, mehnatga yangicha munosabat bilan qaraydigan yoshlarni tarbiyalash, milliy-ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash, xalqimiz uchun farovon turmush sharoitini yaratish yo‘lidan bormoqda. Albatta bu ish nihoyatda murakkabligini, bir qator qiyinchiliklarni, ayniqsa, xalqimiz ongida zamonga mos o‘zgarish qilish lozimligini ko‘pchilik tushunadi. Yetuk inson bo‘lish o‘z sohasining bilimdoni bo‘lish bilan chegaralanmaydi. Vatanga xizmat qiladigan va uning manfaatlarini himoya qiluvchi yoshlargina munosib kadr bo‘la oladi.

Muxtasar qilib aytganda, oxirgi yillarda ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilgan,

ko‘lami va mohiyatiga ko‘ra ulkan ishlarimiz biz ko‘zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo‘lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz, butun xalqimizning ma’naviy yuksalishi yo‘lida mustahkam zamin yaratgani ishonch bilan ta’kidlanadi. Jamiyatimiz uchun munosib, yetuk kadrlar tayyorlash uchun yana qanday tadbirlarni amalga oshirish lozim degan savol tug‘iladi.

Jamiyat taraqqiyotining obyektiv talabiga binoan tarixiy jarayonda shaxsning axloqiy tarbiyasini o‘sishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga nisbatan tezroq amalga oshishi kerak. Zotan, muayyan davrning tarbiya masalalari, har bir ijtimoiy hodisada bo‘lgani singari uning qoloq tomonlari va ayni vaqtda, shu davrning umumiy tafakkur darajasidan o‘zib ketadigan ilg‘or fikrlar, qarashlar va nazariyalar ham bo‘ladi. Axloqiy tarbiyaning davr talab ehtiyojlariga bog‘liqligi dialektik jarayon bo‘lib, u ichki ziddiyatlarga ega. Bizning nazarimizda, shaxsning axloq tarbiyasi ichki ma’naviy-axloqiy dunyosi, ma’naviy-axloqiy ehtiyoji, ma’naviy-axloqiy qiziqishi, ma’naviy-axloqiy faoliyati va ma’naviy qadriyat kabi asosiy belgilar tizimidan iborat bo‘lib, ular o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqdir. Shaxsning ma’naviy-axloqiy ehtiyoji ma’naviy-axloqiy qiziqishni vujudga keltiradi, u shaxs faoliyati jarayonida namoyon bo‘ladi va natijada ma’naviy-axloqiy qadriyat yuzaga keladi. Ma’naviy qadriyat o‘z navbatida, yuqori ma’naviy-axloqiy ehtiyojning paydo bo‘lishiga asos bo‘ladi. Ma’naviy-axloqiy rivojlanishning bu aylanish davri uzluksiz davom etadi. Shunday qilib, axloqiy tarbiya insoniyat faoliyati mahsuli bo‘lib, u o‘zining moddiy va ma’naviy jihatlari bilan shaxs axloqiy sifatlarini shakllanishiga bevosita ta’sir etadi. Ayniqsa, ma’naviy-axloqiy madaniyatning fan, adabiyot, san’at, maorif, din, xalq og‘zaki ijodi, milliy qadriyatlar kabi serqirra manbalari o‘quvchida axloqiy tarbiya va sifatlarini shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” . – T.: O‘zbekiston-2017,13–14-betlar.

2. Shavkat Mirziyoyev. “Ta’lim sohasidagi muammolar, ularni hal etish va ta’lim sifatini oshirishga bag‘ishlangan videoselektor mavzusida” 30.10.2020.

3. Karimov I.A. “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” –T.: O‘zbekiston, 1992, 70-71-betlar.

4. Avloniy.A. “Turkiy Guliston yoxud axloq”. –T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2018. 9-b.

5. Haydarov M. “Xalq og‘zaki ijodi namunalarida tarbiya masalalari”. –T.: Fan, 2004.12-b.

Erkin YOZIYEV,
Qarshi davlat universiteti,
Muhabbat XOLMURODOVA,
Qarshi shahar, 24-maktab

ZAMONAVIY MAKTAB DIREKTORIDA KASBIY-IXTISOSLIK XISLATLAR VA SHAXSIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy maktab direktori uchun zarur bo'lgan shaxsiy va kasbiy sifatlar muammosi o'rganilgan. Mualliflar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar mazkur muammoni bugungi kunda ham chuqur o'rganish kerakligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. Maktab jamoasi, zamonaviy rahbar, rahbar shaxsi, xodim, boshqaruv, shaxsiy fazilatlar, kasbiy sifatlar, qobiliyat, shaxslararo munosabat, muloqot, axloq, hissiyot, qiyofa, iroda.

В статье исследуется проблема личностно-профессиональных качеств, необходимых современному директору школы. Исследования авторов показывают, что эта проб-лема еще требует глубокого изучения.

Ключевые слова. Школьный коллектив, современный лидер, лидерская личность, сотрудник, менеджмент, личные качества, профессиональные качества, способности, межличностные отношения, общение, этика, чувства, внешний вид, воля.

The article examines the problem of personal and professional qualities necessary for a modern school principal. Research by the authors shows that this problem still needs to be studied in depth.

Key words. School team, modern leader, leader personality, employee, management, personal qualities, professional qualities, abilities, interpersonal relationships, communication, ethics, feelings, appearance, will.

Maktab uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib, uning asosiy maqsadi o'quvchilarni davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'qitish va tarbiyalash, shaxsni ta'lim olishga doir konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishdan iborat bo'ladi. Maktabning asosiy vazifasi esa ta'limning uzluksizligini, izchilligini, insonparvarligi va demokratikligi, ilmiyligi va dunyoviyligini ta'minlash, o'quvchilarga millati, dini va irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar umumiy o'rta ta'lim olish uchun imkoniyatlar yaratib berish, iste'dodli, qobiliyatli, bilimdon yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga puxta bilim va ko'nikmalar berishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etish, o'quvchilarda milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida milliy g'oya ruhida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni kamol toptirishdan iborat muhim jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Maktabning o‘quv-tarbiya jarayoni va kundalik faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish maktab direktorining lavozim vazifasi hisoblanib, u vakolati doirasida maktabda ta’lim-tarbiya berish (o‘quv-tarbiya ishini tashkillashtiradi), maktabning ma’muriy-xo‘jalik (ishlab chiqarish), moliyaviy ishini ta’minlaydi, maktabda xavfsizlik texnikasi me’yorlari va qoidalariga rioya qilish tartibini yaratadi, ularning ishini nazorat qiladi. Modomiki shunday ekan, o‘zini yetakchi deb hisoblaydigan har bir maktab rahbari jamoani samarali boshqarish uchun maxsus bilim, kasbiy tayyorgarlik, hayotiy tajriba va malakalarga ega bo‘lishi, maktabning moliyaviy va iqtisodiy masalalarini to‘g‘ri va oqilona yecha oladigan, favqulodda yuz bergan muammolarni tezkorlik bilan hal qila oladigan, tobe kishilarni psixologik jihatdan ajrata oladigan, ularning jinsi, yoshi, aqli va jismoniy imkoniyatlariga qarab ishni taqsim qila oladigan darajada bo‘lishi kerak.

Bizga ma’lumki, fidoiylik maktab direktori shaxsini bezaydigan va boshqaruv jarayoni uchun zarur bo‘lgan xususiyat hisoblanadi. Fidoiy rahbar o‘z tanlagan yo‘li, maslagi, g‘oyasi, kasbu koriga sodiq bo‘lib, bu jihatlar uning faoliyat va hayot mazmunini tashkil etadi. O‘z kasbiga mehr qo‘yish, topshiriqlarni sitqidildan bajarish, mehnatda jonbozlik ko‘rsatish kabilar fidoiy rahbarlargagina xosdir. Bunday rahbarlar uchun sevgan kasb-kori oldida vaqt, sog‘liq, charchashlik va boshqa tashvishlar o‘z mazmunini yo‘qotadi.

Ijtimoiy burchni anglaganlik ham maktab direktori shaxsidagi muhim xususiyatlardan biri bo‘lib, bu uning o‘z mehnat jamoasi, el-yurti, ona Vatani oldidagi majburiyatlarini anglash, tushunish va bajarishida namoyon bo‘ladi. Burchda obyektiv munosabatlar ifodalangan bo‘lib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy negizlari bilan belgilanadi. U insonning ichki kechinmalari, tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini ifodalab, shaxsdagi iymon-e’tiqod, onglilik, halollik, vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

O‘z kasbining jonkuyar ustasi bo‘lish uchun inson shu kasbni sevish bilan birga ma’lum iste’dod, qobiliyat va kasbiy-ixtisoslik xislatlariga ega bo‘lishi kerak. Agarda rahbar mutaxassis sifatida o‘zini namoyon qila olmasa, unda insoniylik sifatlari yuqori bo‘lgan taqdirda ham jamoaga hech bir foyda keltira olmasligi mumkin. Maktab direktori shaxsida o‘z kasbini chuqur bilish, muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaganlik, kasbiy-ixtisoslik xislatlarining mavjudligi uni yuksak muvaffaqiyatlarga erishishida muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik jamoada har xil xususiyatli muammolarning tinimsiz ravishda namoyon bo‘lib turishi rahbardan ma’lum kasbiy malakalarni egallash, bilimdonlik, mustaqillik, kuzatuvchanlik, fahm-farosat, tahlil qilish, aqlning tanqidiyligi, ziyraklik, psixologik savodxonlik kabi bir qator kasbiy-ixtisoslik xislatlarini egallashni talab qiladi.

Maktab direktori shaxsi uchun kasbiy yetuklik xususiyati juda muhim bo‘lib, hozirgi zamon talabi rahbarning har tomonlama kamol topgan inson bo‘lishini taqozo qilmoqda. U o‘z kasbining bilimdoni bo‘lishi bilan birga, mehnat jamoasining moliyaviy, iqtisodiy, mafkuraviy, huquqiy, tarbiyaviy funksiyalarini ham bajara olishi, buning uchun esa ma’lum kasbiy malakalarni egallashi lozim. Maktab rahbari o‘z tajribasi, malakasi, bilimi bilan boshqalarni bahramand qilishi, o‘ziga munosib o‘rinbosarlar tayyorlashi, shuningdek, o‘zi ham doim kasbiy malakasini oshirishga, o‘zini-o‘zi kamol toptirishga harakat qilishi kerak.

Pedagogik jamoani samarali boshqarishda maktab direktori uchun boshqa omillar qatori umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlarning roli ham juda zarurdir. Axloqiy fazilatlar boshqaruv jarayonida rahbarning xulqi, fe’l-atvorini tartibga solib turuvchi qoidalar, normalar, talablar shaklida ifodalanib, ular rahbarlik ishini tashkil

etish jarayonida, uning tarbiyaviy ishlarida, yuqori rahbariyat, xodimlar va boshqa kishilar bilan muomala-munosabatida, bo‘ysunuvchilarga g‘amxo‘rlik qilishida, ularning oldiga oqilona talablar qo‘yishida, qadr-qimmatini hurmatlashida, kundalik turmushda o‘zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta’sir o‘tkazishida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Rahbar obro‘li bo‘lishi uchun jamoa a’zolariga har tomonlama namuna ko‘rsatishi kerak. Unda insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g‘urur, baynalmilalchilik, adolat, vijdonlilik, beg‘arazlik, hamdardlik, samimiylik, kamtarlik, rostgo‘ylik, poklik, mas’uliyat, o‘zini tuta bilishlik, o‘zgalarni hurmat qilish, o‘ziga va o‘zgalarga talabchanlik, yumor hissining bo‘lishligi rahbar axloqining muhim fazilatlari hisoblanadi. Agar bu fazilatlar yetakchi shaxsida o‘z qadr-qimmatini yo‘qotsa va bu holatdan bo‘ysunuvchilar xabar topsa, ularda shu rahbarga nisbatan hurmat yo‘qoladi. Modomiki shunday ekan, maktab direktori o‘zini chuqur o‘rganishi, yutuq va kamchiliklarini obdon tahlil qila olishi, o‘zini boshqalar bilan qiyoslashi, ularning ijobiy tomonlarini o‘zlashtirishga intilishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda taraqqiyot zamonaviy rahbardan davr bilan baravar qadam tashlash, yangiliklardan cho‘chimaslik, yangilik va axborotlarni tez qabul qilish, qayta ishlash va undan o‘z o‘rnida foydalanish, yangi g‘oyalar yaratish va ularni moddiy mahsulga aylantirish uchun kurashish, chet el ilg‘or tajribalari va innovatsion texnologiyalarni o‘z pedagogik jamoasida tatbiq etish kabi vazifalarni bajarishni talab qilmoqda. Ta’lim muassasasi rahbari yangi va zamonaviy, dunyoviy bilim va g‘oyalarga tashnalikni namoyon qilib, hayotiy muammolarga ijodiy yondashishga harakat qilishi, muayyan loyihalar ishlab chiqishi, yangilikni sinab ko‘rishi va uning samaradorligini sarhisob qilishi, o‘zi va qo‘l ostidagi xodimlarning mahoratini uzluksiz oshirishga intilishi maqsadga muvofiqdir. Bu vazifalarni bajarish esa har bir ta’lim muassasasi rahbaridan professionalizm, o‘z sohasini yuqori saviyada bilish, tashabbuskorlik, uddaburonlik, izlanuvchanlik, yangilikka intilish va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishlikni talab qiladi.

Maxsus qobiliyatlar ta’lim muassasasi rahbari uchun ishda yuksak mahoratga, muvaffaqiyatga erishish imkoniyati hisoblanib, uning namoyon bo‘lishi rahbarni o‘z kasbining mohir ustasi va bilimdoniga aylantiradi hamda uning mehnat jamoasida obro‘-e’tibor qozonishida muhim rol o‘ynaydi. Rahbarda tashkilotchilik, iymon-e’tiqodlilik, notiqlik qobiliyati, nufuzga ega bo‘lishlik, perseptiv, psixologik tashxis, didaktik, akademik, muloqotmandlik, diqqatni taqsimlash, gnostik kabi maxsus qobiliyatlarning bo‘lishligi maktab direktori shaxsi barkamolligidan darak beradi.

Ular ichida avvalo, muloqotmandlik, ya’ni rahbarning til va nutq imkoniyatlarini ishga solib muloqotga kirishish mahorati muhim ahamiyatga ega ekanligini ajratib ko‘rsatish darkor. Darvoqe, jamoani shakllantirish va boshqarishda pedagogik jamoa a’zolari bilan yaxshi muomala qilish san’ati rahbar uchun har narsadan ustun turadi. Muloqotmandlik rahbarning muomalaga kirishuvchanligi, jamoani samarali boshqarishdagi ta’sirining mohiyatini ifodalab, uning har bir xodimni individual xususiyatlarini hisobga olib muomala o‘rnatishi pedagogik jamoada shaxslararo munosabatlarni iliqlashtiradi, o‘zaro ishonch va yaqinlik tuyg‘usini uyg‘otadi. Shuning uchun ham, ta’lim muassasasi rahbari shaxsida muomala odobi, tinglash va buyurish mahorati, o‘zini tiya bilish, oshkoralik, samimiylik, xushmuomalalik, to‘g‘riso‘zlik, javobgarlik, mas’uliyat va boshqa insoniy fazilatlarning bo‘lishligi muhim.

Maktab direktori faoliyatida uning pedagogik jamoa a’zolariga namuna bo‘lish,

ularni o‘qitish, kasbiy malakalarini oshirish, kunlik axborot va xabarlar bilan xodimlarni tanishtirib borish kabi masalalar muhim o‘rin tutadi. Shunisi e’tiborga loyiqki, ta’lim muassasasi miqyosida doimiy tarzda amalga oshiriladigan bu kabi ta’limiy tadbirlar boshqaruv faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir tomondan rahbarda zamonaviy boshqaruv malakalarini hosil qilsa, boshqa tomondan pedagogik jamoadagi psixologik muhitni barqarorlashtirish, bo‘ysunuvchilarning u bajarishi lozim bo‘lgan vazifa va majburiyatlar bilan tanishtirish, ularning qobiliyati va malakasini oshirish, jamoada “ustoz-shogird” munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

Bu o‘rinda rahbarning o‘z tajribasi va bilimi bilan boshqalarni bahramand qilish, vorislik tamoyiliga qat’iy amal qilgan holda, rahbarlik lavozimiga zaxiralar yaratishi, o‘z tajribasi va bilimi bilan munosib o‘rinbosarlar tayyorlashi, quyi bo‘g‘in rahbarlarining kasbiy mahoratlarini rivojlantirishga erishishi muvaffaqiyatlar garovi hisoblanadi. Achinarli tomoni shundaki, bugungi kunda ham ba’zi rahbarlar orasida o‘z tajribasi, malakasi va bilimi bilan boshqalarni bahramand qilmaslik holatlari hali hamon uchrab turibdi. Biz buni rahbar shaxsidagi eng katta nuqsonlardan biri sifatida qarab, uni bartaraf etish uchun rahbarlar orasida vorislik tamoyilining ahamiyati bo‘yicha to‘g‘ri va ta’sirchan tushuntirish ishlarini amalga oshirish zarur, deb hisoblaymiz.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ta’lim muassasasi rahbarining nafaqat, obro‘sini oshiradigan, balki qiyin vaziyatda uni asosiy maqsad sari yetaklaydigan fazilatlardan biri – talabchanlikdir. Ma’lumki, talabchan rahbar inson shaxsidagi loqaydlikni yoqtirmaydi. Rahbarning talabchanligi adolatlilik bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Adolat tushunchasining mazmunida haqiqat, poklik, to‘g‘rilik, kuch-qudrat mujassamdir. Shunisi e’tiborliki, adolatli rahbar shaxsida o‘tkir aql, sof mulohaza, oliyjanoblik va mardlik mavjud bo‘lib, bu sifatlar uni barcha yomon ishlardan saqlaydi, boshqaruv sohasidagi barcha xatti-harakatlarni adolat mezoni bilan baholashga sababchi bo‘ladi. Rahbarning tobe kishilarga bo‘lgan munosabati manmanlikdan, noxolislik va o‘zboshimchalikdan xoli bo‘lishi lozim.

Xullas, ta’lim muassasasiga rahbarlik qilish o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, u shaxsdan nafaqat oliy ma’lumotga ega bo‘lishni, balki boshqaruvga oid maxsus bilim, kasbiy tayyorgarlik, hayotiy tajriba va malakalarga ega bo‘lishni hamda zamon bilan hamnafaslikni talab etadi. Bugungi taraqqiyot zamonaviy rahbardan, yuksak aql-farosat, katta kuch-g‘ayrat, izlanish va topqirlikni namoyon qilishini, o‘z ustida tinmay ishlashni, tadbirkorlik va ishbilarmonlik sifatlariga ega bo‘lishni taqozo etadi. Shu sababli, jamoani mohirlik bilan boshqarish uchun rahbar boshqarishning yangi texnologiyalari ustida tinmay izlanishi, muayyan loyihalar va proyeksiyalarni ishlab chiqishi, fan-texnika yutuqlari va ish yuritishning zamonaviy usullarini chuqur o‘rganishi, pedagogik jamoani boshqarishning ilg‘or va yanada mukammal usullarini yaratish borasida faol ijodiy izlanishlar olib borishi, malakasini doimiy suratda oshirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V. va boshq. Boshqaruv psixologiyasi. – T.: Fan va texnologiya. 2008-y. – 208-b.

2. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. – T.: YUNAKS-PRINT MChJ, 2006. – 232-b.

3. G‘oziyev E., Toshimov R. Menejment psixologiyasi. – T.: O‘zMU, 2001. – 144-b.

Rifat OCHILOV,
Qarshi davlat universiteti "Jismoniy tarbiya va sport" kafedrasi o'qituvchisi

BADIIY GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada badiiy gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan bo'lib bunda akrobatik mashqlarning shug'ullanuvchilarning individual qobiliyatlari xususida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Akrobatik mashqlar, dumalash, umbaloq oshish, xavfsizlikni ta'minlash, bosh bilan aylanish.

В статье обсуждаются возможности организации занятий художественной гимнастикой, даются отзывы об индивидуальных способностях занимающихся акробатикой.

Ключевые слова. Акробатические упражнения, перекатывание, приседания, безопасность, головокружение.

The article discusses the possibilities of organizing rhythmic gymnastics classes, gives feedback on the individual abilities of those who go in for acrobatics.

Key words. Acrobatic exercises, rolling, squats, safety, dizziness.

Akrobatik mashqlar — bu turli o'qlar atrofidagi aylanma harakatlar (umbaloq oshish, dumalash, aylanishlar, salto va h.k.), shuningdek, tirgakning noodatiy sharoitlarida bajariladigan muvozanat mashqlari (individual, juftlik va guruh bo'lib). Kuch, epchillik, egiluvchanlik, reaksiya tezligi, maydonga moslashish, vestibulyar apparatni tayyorlash uchun turli mashqlardan foydalaniladi.

Akrobatik mashqlarni o'rganish sodda mashqlardan boshlanib, ayni paytda nisbatan murakkablariga tayyorlash vazifasini ham o'taydi. O'quvchilar o'quv dasturidagi mashqlar texnikasining asoslarini bilishi va ularni to'g'ri bajarishni o'zlashtirish, shuningdek, sheriklariga o'quv jarayonida ko'maklashishi, ya'ni mahorat bilan yordam berishi va xavfsizlikni ta'minlashi zarur.

Dumalash va umbaloq oshish. O'quvchilar oldindan dumalash, umbaloq oshish va salto mashqlarining majmuini guruh bo'lib o'zlashtirib olishi darkor.

Dumalash – boshni burmagan holda tananing alohida qismlari bilan tirgakka galma-gal tegishga yo'naltirilgan aylanma harakat. O'quvchilar quyidagi tartibda mazkur usulni o'zlashtiradilar:

– to'rtoyoqlar turgan holda boshlang'ich holat(pozitsiya)dan o'ngga, chapga dumalash;

– tayanib turgan holatdan o'tirib olib, orqaga dumalash;

– tizzada turgan holatdan – oldinga dumalash.

Umbaloq oshish – bosh bilan aylanadigan va tirgakni sekin-asta tegish bilan

bajariladigan tananing aylanma harakati. Oldinga umbaloq oshish qo‘llarga tayangan holda oyoqlarda turib amalga oshirishda oson o‘zlashtiriladi: oldinga egilgan holatda ensa bilan suyanib (tana og‘irligini qo‘llarga tushirgan holda) va aylanib o‘tirish, so‘ngra o‘tirib tayanch holatga kelish. Buni o‘zlashtirgandan so‘ng umbaloqni tayanch holatidan o‘tirgan holda bajarish mumkin.

Xavfsizlikni ta’minlash: tizzadan yon tomon bilan turib, bitta qo‘l bilan yelka ostidan tutib turish, ikkinchisini tizzalar ostiga harakatlantirib, aylanishni amalga oshirish (aylanishning dastlabki fazasi).

Umbaloq qiya qilingan tekislikda o‘tirgan holda (masalan, gimnastika mati (to‘shagi) bilan qoplangan tramplindan) tanani buklab va yelkalar osha qo‘l panjalari bilan (ular yerga qaratilgan bo‘ladi) tayanish orqali oson o‘zlashtiriladi. Qiyalikda umbaloqni bajarishni o‘zlashtirib bo‘lgach, o‘quvchilar uni akrobatik yo‘lakchasida yoki matida bajarishga o‘tadilar.

Xavfsizlikni ta’minlash: tizzada turib yon tomonda, yelka ostidan harakatlantirgan holda aylanma harakatni bajarishga ko‘maklashish. Bu umbaloqni bukchayib bajarganda uni o‘tirgan holda oldinga egilishdan boshlab, yelkalar yoniga qo‘l panjalariga tayangan holatda aylanish, keyin oyoqlarni bosh orqasidan tirgakka tushirish zarur. Bosh bilan aylanayotganda qo‘llarni faol ravishda yoyib, suyangan holda bukilib (ya’ni, to‘g‘ri tutib) asosiy tik holatiga o‘tish.

Sakrash (oldinga) bilan umbaloqni bajarishni avval bir joyda turib amalga oshirishni o‘rganish zarur. Yarim o‘tirgan holda oldinga yarim egilgan holda, qo‘llar orqada: qo‘llarning yuqoriga qarab oldinga harakati (silkinishi) bilan bir paytda oyoqlar bilan faol ravishda itarilish zarur, uchish fazasidan so‘ng, qo‘llarga tayangan holatda oldinga umbaloq oshish.

Xavfsizlikni ta’minlash: tizzada yon tomonda tirgak oldida turib, bir qo‘l bilan yelkasi ostidan qo‘l bilan tutib turish, ikkinchisi bilan pastdan sonlar ostidan umbaloqni yakunlashga ko‘maklashish.

Yelka osha orqaga (buklangan) umbaloq oshish. O‘quvchilar mazkur mashqni oldinga egilib o‘tirgan holatdan kuraklarga tayangan holda orqaga umbaloq oshib bajaradi; so‘ngra yelkada tik turish uchun qomatni to‘g‘irlab (qo‘llarga yon tomondan tayanib), ko‘krak qafasi bilan dumalagan holda son tomon bilan yotish tayanch harakati bilan yakunlanadi. Bosh yoki qo‘llarda tik turish (kaftlarga tayanib, oyoqlarni yuqoriga ko‘tarish)ni bajarishda orqaga dumalagandan so‘ng tos-son suyaklari bo‘g‘imida to‘liq to‘g‘ri holatga kelish va qo‘llarni suyanish uchun qo‘yish, qo‘llarda tik turishni bajarishda esa tanani to‘g‘ri tutayotgan holda qo‘llarni ham yoyish zarur.

Xavfsizlikni ta’minlash: yon tomonda turib, oyoqlarni tutgan holda yakuniy holatga kelish uchun ko‘maklashish.

Aylanishlar — bu bosh bilan va oraliq tirgak bilan aylanma harakatlarni bajarish mashqlari. O‘quvchilar uchun eng mos keladigan aylanishlar yon tomon (o‘ng va chap)ga va bosh bilan amalga oshiriladi. Aylanishlarda bog‘lovchi element vazifasini o‘taydigan mos ravishda sakrash mashqlarini o‘zlashtirish tavsiya etiladi. Aylanma harakatlarni bajaradigan oyoqda oldinga va tanani biroz ekkan holda amalga oshiriladi, tisarilishni bajarishda oyoq oldinga bukiladi, qo‘llar esa oldinga yuqoriga ko‘tariladi.

Chapga (o‘ngga) aylanish bir joydan turib va yugurib kelib, sakrash bilan amalga oshiriladi. Chapga tik turish o‘ng oyoqda bajariladi, chap oyoq oldinga cho‘ziladi, qo‘llar yuqorida: chap oyoqda keng qadam tashlab tez oldinga engashish, chap oyoqni bukkan holda chap oyoq bilan bir chiziqda chap qo‘l bilan oldinga tayanish, chap

barmoqlar bilan, o‘ngga silkitish va chapi bilan tisarilish, keyin birin-ketin qo‘llarga tayangan holda chapga burilish bilan oyoqlarni yoygan holda tik turish holatiga kelish. Harakatni (o‘ng yon bilan) davom ettirgan holda galma-gal qo‘llar bilan tisarilib va oyoqlarni tushirib, oyoqlarni yoygan holda tik turish holatiga turish. Mazkur aylanishni o‘zlashtirishda o‘quvchilar silkinish va oyoq bilan tisarilish tanani (barcha bo‘g‘imlarda) cho‘zib, oyoqlarni yoyib tik turish holati va qo‘llarda tik turish holatidan oyoqlarni yoyib (ularni birlashtirmay) tik turish holatiga keltirishda galma-gal oyoqlarni tushirishga erishishi zarur.

Xavfsizlikni ta’minlash va yordam berish: mashqni bajaruvchining orqa tomonidan turib va belda qo‘llarni qovushtirgan holda harakatni yakunlashgacha ko‘maklashish. Yugurib kelib sakragan holda aylanishni bajarishda yugurish tezligi va aylanishdagi sakrash tempini muvofiqlashtirish zarur. Chapga aylanishni o‘zlashtirgandan so‘ng boshqa tomonga aylanishni o‘rganish tavsiya etiladi. Shundan so‘ng mashqlarni uyg‘unlashtirgan holda bajarish mumkin: bitta chiziqda (o‘ng va chapda) ikki aylanishni aylana bo‘ylab burilish bilan uyg‘unlashtirib bajarish.

Bosh bilan aylanish. Qo‘llarni oldinga-pastga bukish holatidan boshda turishga o‘tish va tos-son suyaklari bo‘g‘imida keskin ravishda bukilib, qo‘llar bilan tisarilgan holda (uchish fazasi bilan) tos suyagini oldinga chiqarib, oyoq uchiga tushish va harakatni yakunlash.

O‘quvchilar mazkur aylanishni avval kuraklarda bukchayib (yon tomonda turgan sheriklarini ushlagan holda), tayanch holatidan boshlab, so‘ngra keskin ravishda oldinga yuqoriga oyoqlarni to‘g‘ri tutishni o‘rganish, keyin matlar qiyaligidan bosh bilan (4-6ta) aylanishni o‘rganish, asta-sekinlik bilan balandlikni pasaytirib va oxirida akrobatika yo‘lakchasi (yoki matlarda) bajarishni o‘rganish bilan yaxshi o‘zlashtirishi mumkin.

Xavfsizlikni ta’minlash va yordam: yon tomonda turib, harakatlarni oldinga yuqoriga yo‘naltirib, bitta qo‘l bilan yelkani, ikkinchisi bilan tos qismini tutib turish va bajaruvchi oyoqlarini yerga tushirguncha ko‘maklashish.

Tik turib(qadni rostlash) — oyoqlarni (vertikal holatda) tepaga statik ko‘tarib turish mashqlaridir.

Tik turishlarni bajarish o‘quvchilarda normal qad-qomatning shakllanishi va kuch-quvvatning rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Kuraklarda tik turish. Orqaga dumalagandan so‘ng kaftlar bilan bel qismiga tayanish va tanani gavda va oyoqlar bitti chiziqda turadigan darajada to‘g‘irlash. Nisbatan murakkab ko‘rinishi — qo‘llar polda bo‘ladi. Tik turishni asosiy variantini o‘zlashtirgach, mashqni oyoqlarni yoygan holda bajarish ham mumkin; oldinga va orqaga xuddi shunday harakat, shuningdek, kuraklarda (45° burchak ostidagi) qiya tik turishni bajarish.

Boshda tik turish holati. Tayanch holatidan bosh bilan shunday suyanish zarurki, bosh va qo‘l panjalari teng yonli uchburchakni hosil qilib, tisarilish bilan (guruh bo‘lib) tos qismi ko‘tariladi. Keyin oyoqlarni to‘g‘rilab va vertikal holda tana muvozanatini saqlab, tik turish holatiga o‘tish. Tik turish tayanch holatida bitta oyoqqa o‘tirib, ikkinchi oyoq uchini orqaga qo‘ygan holda bittasini aylantirib, ikkinchisini tisarish bilan amalga oshirish mumkin. Bunday holatda zaruriyat tug‘ilganda yordam ko‘rsatiladi: bitta qo‘l yelka ostiga, ikkinchisi bilan esa aylantirilayotgan oyoq (tik turish holatiga o‘tishdan oldin) tutib turiladi. Mashqning nisbatan murakkabroq ko‘rinishi tayanch holatda o‘tirib yoki oyoq panjalarida o‘tirgan holatda bajarish hisoblanadi. O‘quvchilar oldindan kuraklarda tik

turish va gimnastika narvoni(stenkasi)da osilib turishni o‘rganishi zarur.

Qo‘llarda tik turish. Qo‘llarda oldinga yuqoriga tik turish holatida turish orqali bajariladi: qo‘llar bilan polga tayangan holda oldinga qadam tashlash va boshqa oyoqni silkitish bilan qo‘llarda tik turish holatida turish, oyoqlarni birga to‘g‘ri tutib, muvozanatni saqlash.

Xavfsizlikni ta’minlash: silkinadigan oyoq tarafidan turib, bitta qo‘l bilan yelkadan, ikkinchi qo‘l bilan silkinayotgan oyoqning tizzadan baland joyidan ushlab, tik turish holatiga to‘g‘ri o‘tishga ko‘maklashish. Tayanch holatida o‘tirgan holda va boshqa holatlardan kuch bilan tik turishni bajarish mumkin. Tik turish holatining asosiy variantini o‘zlashtirgach, mashqni oyoqlarni yoyish, bukish, shuningdek, tik turishning har xil turdagilari: tor, yopiq, keng va boshqalarni bajarish mumkin.

Badiiy gimnastika mashqlarining tavsifi. Badiiy gimnastika mashqlari yo‘naltirilgan va dam olish bilan birgalikda, shuningdek, tirgak yonida bajariladigan va gavda, qo‘l-oyoqlar mushaklarini rivojlantiruvchi sakrash, muvozanat saqlash, burilish, aylanish, buyumli va buyumsiz harakatlarni amalga oshirishni o‘z ichiga olib, ular nafaqat kuch va harakatchanlikni rivojlantiradi, balki nafis mushak sezgilari, harakatlar koordinatsiyasi (muvofiqligi), tik qomatni shakllantiradi, murakkab sharoitlarda muvozanatni saqlashga ko‘maklashadi. Badiiy gimnastika mashqlarining o‘ziga xos tomoni raqs, turli xil yugurish va sakrash elementlari va harakatlarini uyg‘unlashtirish hisoblanadi. Mazkur mashqlarni bajarayotganda o‘quvchilar o‘z tanasini erkin boshqarish, osonlik bilan yengil harakatlanish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Mashg‘ulot qatnashchilari badiiy gimnastika mashqlarini to‘g‘ri bajarishni o‘rganishi uchun, avvalo, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunishi, boshqa turdagi gimnastikadan nimasi bilan farqlanishini bilishi zarur. Mashqlarning asosiy xususiyatlari yaxlitlik va jo‘shqinligida ko‘rinadi. Ular qon aylanishini, moddalar almashinuvini yaxshilaydi, harakatlanuvchi a’zolarning vazifaviy imkoniyatlarini oshiradi, yurak-qon-tomir tizimi va ish qobiliyatini orttiradi.

Badiiy gimnastika mashqlari yengil-qiyinligi kabi jismoniy zo‘riqtirishiga qarab ham oson ajratiladi. Jismoniy zo‘riqishlarni o‘zgartirish orqali tartibga solib borish mumkin.

– kompleksdagi mashqlar miqdori;
– har bir mashqdagi takrorlanishlar soni;
– harakat sur’ati;
– harakat ko‘lami;
– dam olish va mashq orasidagi muddat;
– buyum va boshqalarning vazni va o‘lchami.

Badiiy gimnastika mashqlarini o‘rgatish pedagoglarning o‘z mashg‘ulotlarini ongli, faol, tizimli, izchil va ko‘rgazmali ravishda olib borish tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi. Taklif qilinayotgan mashq haqidagi dastlabki tasavvurni hosil qilish uchun murabbiy topshiriqning nomini to‘g‘ri nomlashi va agar imkon bo‘lsa, sekinroq sur’atda, usulning detallariga diqqat qaratib, bajarib ko‘rsatishi shart. Agar mashq qiyin bo‘lsa, avval o‘nga yaqin va uni osonlashtiradigan mashqlarni qilishga to‘g‘ri keladi.

Badiiy gimnastika mashg‘ulotlarini yangi boshlaganlar uchun 40 daqiqadan kunning ikkinchi yarmida haftada to‘rt marta olib borilgani ma’qul. Mashg‘ulot tuzilishi barchaga birday qabul qilingan tartibdan hech qanday farq qilmaydi: kirish qismi (4-6 daqiqa), asosiy qism (28-30 daqiqa) va yakuniy (3-4 daqiqa). Mashg‘ulotning birinchi qismida yurish, yugurish, yengil o‘yin topshiriqlar kabi mashqlar taklif etila-

di. Ikkinchi qismda bolalar raqs xarakteriga ega bo‘lgan buyum bilan yoki buyumsiz harakatli o‘yin-mashqlar bajaradilar. Yakuniy qismida nafas rostlash va mushaklarni bo‘shashtiruvchi mashqlardan foydalaniladi.

Mashg‘ulotlarni yaxshi shamollatilgan (havosi tozalangan) xonada olib borish zarur. Kiyimlar yengil, qulay, harakatlanganda undan uyalmaydigan (ich kiyim yoki cho‘milish kiyimi) bo‘lishi kerak. Sport inventarlari qatnashchilarning yoshi va bo‘yiga mos bo‘lishi lozim. Mashg‘ulot uchun to‘rt o‘lchamda koptoklar, rezinali yoki ipli arg‘amchi, taxtali yoki plastmassali chambarak, kengligi 3-4 sm.li va uzunligi 3 metrgacha bo‘lgan ipakli lenta, ebonitli yoki yog‘och tayoqqa mahkamlangan chilvir bo‘lishi zarur. Zalda bir nechta uchishga mo‘ljallangan gimnastik narvon va devordan 15-20 sm. masofada bola beli baravar uzun reyka o‘rnatilgani ma’qul. Agar buning iloji bo‘lmasa, mashqni stul suyanchig‘ini ushlagan holda bajariladi. Mashg‘ulotga buyumlar bilan olib boriladigan mashqlarni bolalar saflanish, yangidan saflanish, yurish, yugurish va boshqa harakatlarni qilishda bir muncha bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgach, asta-sekinlik bilan qo‘shiladi. Shu tufayli darslarda tartiblilikka oson erishiladi. Eng avval, bolalarga narsalarni tartib bilan olish, berish, ularni qo‘lda to‘g‘ri ushlash, uzatish va yumalatishni o‘rgatish zarur. Bolalar buyumli mashqlarni bajarishganda aniq sur’at va ritmda, hamda harakatni takrorlaganda o‘sha sur’atni saqlab turishi zarur.

Estafeta va harakatli o‘yinlar vaqtida jarohatlanishning oldini oluvchi chora-tadbirlarga rioya qilish kerak: masalan, yugurish va sakrash vaqtida bolalar orasidagi masofani saqlash, maydonni begona buyumlardan bo‘shatish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Винер И.А. Подготовка высококвалифицированных спортсменок в художественной гимнастике: Автореф.дис... к.п.н. – СПб., 2003.

2. Karimov M.K Xoreografiya mashqlari va badiiy gimnastika. O‘quv-qo‘llanma. –T.: 2003.

3. Каримов М.К. Упражнения хореографии, художественной гимнастики и народные игры. Учеб. Пособие. – Т., 2005.

4. Художественная гимнастика. Учебник для тренеров, преподавателей и студентов институтов физической культуры. /Под общей ред. проф. Л.А. Карпенко. – М.: 2003.

5. Шипилина И.А. Хореография в спорте /Серия “Образовательные технологии в массовом и олимпийском спорте” – Ростов н/Д: Феникс, 2004.

Elvira TURSUNNAZAROVA,
Navoiy viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi "Tillarni o'qitish metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi, Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

NOMUTAXASSIS O'QITUVCHILARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA MNEMONIKA USULLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-METODIK JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada nomutaxassis o'qituvchilarga ingliz tilini o'qitishda mnemonika usullaridan foydalanishning ayrim nazariy-metodik jihatlari haqida so'z boradi, shuningdek, mnemonika usullarini semantik jihatdan turlari, insonni turli kasbiy holatlari bilan aloqador mnemonika bazalari bayon etiladi.

Kalit so'zlar. Mnemonika, nomutaxassis o'qituvchilar, innovatsion kompetentlik, motivatsiya, mnemonika usullari.

В статье рассматриваются некоторые теоретические и методологические аспекты использования мнемоники при обучении английскому языку учителей-неспециалистов, а также описываться семантические типы мнемонических методов, основы мнемоники, относящиеся к различным профессиональным ситуациям человека.

Ключевые слова. Мнемоника, учителя-неспециалисты, инновационная компетенция, мотивация, мнемонические методы.

The article examines some theoretical and methodological aspects of the use of mnemonics in teaching English to non-specialist teachers, as well as describes the semantic types of mnemonic methods, the basics of mnemonics related to various professional situations of a person.

Key words. Mnemonics, non-specialist teachers, innovative competence, motivation, mnemonic methods.

So'nggi yillarda mutaxassislar uchun jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng foydalanish, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirildi. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da davlat tomonidan yoshlar bilan ishlash siyosatini takomillashtirish, intellektual rivojlangan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va uni baholash mezonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, xorijiy tillarni chuqur o'rganish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108 va "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son hamda 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab, quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish

tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son Qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, rahbar kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo‘li bilan xalq ta’limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda pedagog kadrlarda kreativlik, innovatsion kompetentlikni shakl-lantirish va rivojlantirish bo‘yicha qator vazifalar ijrosi ta’minlanmoqda. Shu dolzarblik asosida mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimi, shu jumladan, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi o‘quv jarayoniga ilg‘or innovatsion texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarini joriy etish, o‘qitish intensivligini, samaradorligini oshirish, jahon andozalariga moslashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ingliz tilini o‘qitish jarayonida nomutaxassis o‘qituvchilar yangi bilimlarini oldin bilgan va tushunganlar kontekstida qabul qilish, bilim o‘zlashtirish darajasini yuqori pog‘onaga ko‘tarishga zamin hozirlaydi. Agar, ingliz tilini o‘rganish jarayonida axborot nomutaxassis o‘qituvchilarning oldingi bilimlari bilan bog‘lanmasdan taqdim etilsa, u tez xotiradan yo‘qoladi. Shu o‘rinda mnemonika usullaridan foydalanish qo‘l keladi.

Mnemonika – (yunon tilida: mnemonika – “xotirada saqlash san’ati”) – sun’iy assotsiatsiyalarni shakllantirish orqali xotirani yodlashga va xotira koeffitsientini oshirishga yordam beradigan metodlar va usullar majmui. Nomutaxassis o‘qituvchilarning malakasini oshirish tizimining tahlili mazkur tayyorgarlikning tabaqalashtirilgan tarzda olib borilayotganini ko‘rsatdi. Dunyo bo‘yicha ularning bir necha turlari mavjud: tajribasiz o‘qituvchilar uchun pedagogik faoliyat boshlanishidagi sirtqi yoki masofaviy shakldagi boshlang‘ich ta’lim; tajribali (odatda, maktabda katta tajribaga ega bo‘lgan), lekin malakasiz o‘qituvchilar uchun boshlang‘ich ta’lim; pedagogik tajribaga ega bo‘lmagan diplomli mutaxassislarga qo‘shimcha pedagogik ta’lim (maktabda stajirovka shaklida va qo‘shimcha kurslarda); pedagogik ma’lumot va tajribaga ega bo‘lgan malakali o‘qituvchilarning keyingi davomiy ta’limi. Shu sababli, ingliz tilini o‘qitish jarayonida nomutaxassis o‘qituvchilarning motivatsiyasini shakllantirishda mnemonika usullaridan foydalanish xorijiy so‘zlarning “oddiy esdalik”ga yoki u uchun hech qanday ma’noni anglatmagan ko‘p tartibli qoidaga moslashtirilmagan tizimini ishlab chiqishdan iborat bo‘lmay, balki, miya o‘ng yarim sharining dominantligi asosida mnemotexnikaga oid so‘zlar va qoidalar uchun til o‘zlashtirishni bildiradi.

Mnemonika usullari – motivatsiya bosqichida faoliyatning bir nechta bilim beruvchi muhim turlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan metodlarning komponenti, qismi. Birinchidan, tahsil oluvchi o‘rganilayotgan mavzu to‘g‘risida bilganlarini tiklashda faol ishtirok etadi. Bu esa, uni o‘z bilimlarini tahlil qilishga va tez orada batafsil ko‘rib chiqiladigan mavzu haqida o‘ylashga majbur etadi.

Mnemonika usullarini semantik jihatdan bir necha guruhlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq (1.1-jadval).

1.1-jadval

Mnemonika turlari	Semantik jihatlari	Manba

Insonni turli kasbiy holat-lari bilan aloqador mnemonika	to be good for nothing – takasaltang; get crackling-immilamoq; to trifle away the time-vaqtni bekorga sarflamoq; a pretty go-ajoyib ish, qiziq holat; fish in the air-foydasiz, bekorchi ishlar bilan band bo'lmoq; be all out, be all over oneself -har qanaqasiga harakat qilmoq; bring home bacon-ishi o'ngidan kelmoq; get the first base-ilk muvoffaqiyatga erishish; beat hollow-butunlay muvaffaqiyat qozonmoq, soyasida qoldirmoq; do one's bit- o'z ishi bilan shug'ullanmoq; no a bit umuman, hech ham; lay the blast- qattiq tanqid qilmoq; shut the book- faoliyatini tugatmoq; come down to cases-asosiy maqsadga ko'chmoq; Masalan: It's a pretty go when one comes home and finds a thief has carried away all one's valuables during one's absence!	(G.L. Stevenson, "Treasure Island", ch VII, p.302)
Insonning boshqa ish harakatlari bilan aloqador mnemonika:	go west- u dunyoga ravona bo'lmoq; the name of game-asosiysi, eng muhimi; a stick one's neck out-tavakkal qilmoq; hate smb's guts-biron kishini o'lgudek yomon ko'rmoq; be up in the air-portlamoq, g'azablanmoq; arty and crafty-jimjimador, serhasham; bag and baggage-hamma lash-lushlari bilan, butunlay, have a ball-xursandchilik qilmoq; from the bottom of one's heart-chin dildan; take smth on the chin-umidsizlikka tushmaslik; be on the cloud- ettinchi osmonda uchmoq; Masalan: They hate my guts. They'd like to kill me, and now they're doing it.	(J.Updike, "The Centaur", ch. II, p. 59) We've got to take this on the chin. Sit, down, Harris and tell me about it.(E.S. Gardener "The case of the sleep Walker's Niece", ch XIII, p.404)
Inson faoliyatining atrofdagi ish-harakat bilan aloqadorligi va bog'liqligini ifodalab keluvchi mnemonika	ball of fire-olov, chaqqon; rough as bags-dag'al qo'pol; smart Aleck-surbet, beor, maqtanchoq; with a bang-juda omadli; with the bark on-qo'pol, dag'al, tarbiyasiz; full of beans- yuragida o'ti bor; an eager beaver- serg'ayrat, tirishqoq; a down bird-ayyor; a gay bird-xushchaqchaq, hazilkash; spring chicken-g'or tajribasiz; do the civil- iltifot ko'rsatmoq; hagd case- ashaddiy jinoyatchi; a time cat-lattachaynar, sust; good cheer-hazilkash; Masalan:…my gemotest ancestogs age but spging chickens compaged with these gobed and stately antiques…	: (M. Twain "Pudd'n head Wilson" p.175) And remember, I don't want a fortune for this thing-only a good price. There's a lot of tame cats who mightn't follow the new men around. (A. J.Cranin, The citadel', book IV, ch.18, p.97)
Inson xulq atvorini ko'rsatuvchi mnemonika	get it in the neck-ta'zirini emoq; a fine day for the ducks-yomg'irli kun; of one's own hat, on one's own hook-o'zicha, o'zbilarmonlik bilan; on the nose- aynan, huddi o'zi; be above oneself-dimog'i osmonda; be all one to smb-baribir, farqi yo'q; set one's bag for smth-ko'z olaytirmoq; fish or cut bait-bir qarorga kelmoq; have the ball at one's feet-vaziyatni qo'lga olmoq; give smb down the banks-burnini erga ishqamoq, qattiq tanbeh bermoq; like a bat out of hell-ko'z ochib yumguncha; beat it-quyonni rasmini chizmoq; get off one's bike-jaxli chiqmoq; foot the bill-qilmishi uchun javob bermoq; hit the books-boshi bilan o'qishga sho'ng'imoq; be in smb's boot-biron kimning o'rnida bo'lmoq; fix smb's clock-kimnidir adabini bermoq, yo'ldan olib tashlamoq.	For a week in Boston? Ten bucks? On the nose! (J.O'Hara Assemly., First Day In Town, p. 34):You tell him if he's thinking of laying for me after, you'll fix his clockgood. (S. Bellow "The adventuge of Augie March" ch.XII, p. 185)

Inson madaniyatini ko‘rsatuvchi mnemonika: spill the beans-o‘tlab ketish, ko‘p gapirish ma’nosida; talk turkey-yuzing-ko‘zin demay gapirish, betgachoparlik; talk big-katta gapirmoq; hot air-safsata, talk through the back of one’s neck-safsata sotmoq, valdiramoq; a bag of wind-ezma, vaysaqi, maxmadona; empty the bag-ochiqchasiga aytmoq, oshkor qilmoq; valdiramoq; speak like a book-balandparvoz nutq so‘zlamoq; chew the fat- ming‘irming‘ir qilmoq, javramoq, g‘iybat qilmoq; shut up like a clam-og‘ziga talqon solganday; cut the cackle-valdirashni to‘xtatmoq kabi frazeologizmlar insonning madaniyati bilan bevosita bog‘liq. Bunday birliklar ko‘pincha salbiy uslubiy ottenkaga ega bo‘ladi:

Ingliz tilida mnemonika bazasiga taalluqli so‘zlar, iboralar turli semantik sathlarda ifodalanib kelish bilan birga o‘ziga xos stilistik emotsional semaga ham ega bo‘ladi. Xususan, emotsional-ekspressiv semalar ularning o‘ziga xosligini ta’minlab, nutq jarayonida to‘g‘ri voqelanishi uchun zamin yaratadi. Mnemonik usullarning emotsionalligi ularning turli xil his-tuyg‘ulari, shaxs-predmetlarga nisbatan subyektiv munosabatlarini ifodalash bilan bog‘liqdir. Ularning emotsionalligi bir vaqtning o‘zida ikki ma’noning reallashuvi va obrazlilik natijasida yuzaga keladi. Ingliz tilida mnemonika bazasiga taalluqli so‘zlar, iboralar qo‘rquv, shodlik azoblanish, hayrat, taajub kabi emotsional xususiyatlarni ifodalash imkoniyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017-yil, 6-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PF-6108-son Farmoni/ Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi; 06.12.2020 y., 06/20/653/1592-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son qarori/ Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi; 25.01.2021-y., 25/01/345

4. Белоног Д.С. Формирование познавательной самостоятельности у будущих учителей иностранного языка в личностно ориентированном обучении: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Воронеж, 2009. – С.24.

Xadicha MUXAMMADIYEVA,
Nizomiy nomidagi TDPU boshlang‘ich ta’lim fakulteti
“Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi” kafedrasi
o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINING INTELLEKTUAL, MA’NAVIY, ESTETIK RIVOJLANISHINI TA’MINLASH

Annotatsiya

Bugungi bolalarning ertaga qanday inson bo‘lishi ko‘p jihatdan bolalik deb atalgan bu davrning qanday o‘tgani, uning ongi va qalbiga atrof-muhitdan nimalarni olib kirganiga bog‘liqdir. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda intellektualligini rivojlantirish fikr mulohazalari va jahon tajribasini ijobiy o‘rgangan holda mulohaza chiqaramiz.

Kalit so‘zlar. Tadqiqot, konstruktor, nerv sistemasi, syujet, ma’rifat, ilmiy kuzatish, bola tarbiyasi tamoyillari, pedagogik qarash.

Будущее современных детей зависит от периода их детства, от того, как оно у них было, от их менталитета и окружения, в котором они находятся. Основываясь на идеологию предков и зарубежный опыт, можно сказать о том, как позитивно отразиться на воспитании детей.

Ключевые слова. Исследование, конструктор, нервная система, сюжет, просвещение, научное наблюдение, принципы воспитания детей, педагогический взгляд.

Future of todays childeren depends on the period of their childhood, how they had it, affect their mentality and surroundings they are in. Based on views of ancestor and foreign experience, we conclude how to reflect positively on the upbringing of children.

Key words. Research, constructor, nervous system, plot, enlightenment, scientific observation, principles of child rearing, pedagogical view.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sog‘lom, aqlan yetuk va ma’naviy jihatdan shakllangan yetib voyaga yetkazish ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida talqin qilinmoqda. Shulardan kelib chiqib, 2017-yil mamlakatimizda maktabgacha ta’lim sohasida Davlat talablari yaratildi. Mazkur talablar O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga asosan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta’lim va tarbiya berish,

maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha davlat talablari belgilandi.

Maktabgacha ta’lim tizimining qayta tashkil etilishi – bu maktabgacha ta’lim tashkilotiga ko‘proq mos keluvchi tizimni yaratish bilan bog‘liq holda qaraladi. Demak, maktabgacha ta’lim muassasasi bola ta’lim-tarbiyasida davlatning asosiy talablarini qondira oladigan tashkilot sifatida qabul qilinib, birinchidan, yangi turdagi Davlat talablarining vazifalari takomillashtirildi; ikkinchidan, soha va kichik sohalarida farqlandi; uchinchidan, Davlat talablari soha va kichik soha indikatorlariga o‘zgartirishlar kiritildi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv-tarbiyaviy faoliyat “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktab yoshidagi bolalarni rivojlantirishga oid davlat talablari” asosida amalga oshiriladi.

Davlat talablari tug‘ilgandan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalariga bo‘lingan. Har bir rivojlanish sohasi o‘z o‘rnida kichik sohalarga bo‘lingan bo‘lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan (kutilayotgan rivojlanish ko‘rsatkichlaridan) iborat (1.1-jadval).

1.3-jadval. Davlat talablari asosidagi yosh davrlari bosqichlari

№	Bolaning maktabgacha ta’lim yosh davrlari	Bosqichlar
1	go‘daklik	tug‘ilgandan 1 yoshgacha
2	erta yoshdagi bolalik	1 yoshdan 3 yoshgacha
3	kichik maktabgacha yosh	3 yoshdan 4 yoshgacha
4	katta maktabgacha yosh	5 yoshdan 6 yoshgacha
5	maktabga tayyorlov yoshi	6 yoshdan 7 yoshgacha

Davlat talablari asosidagi yosh davrlari bosqichlarini inobatga olib, biz tadqiqotimizda 5-6, 6-7 yoshli katta maktabgacha yosh va maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishini ta’minlovchi shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni takomillashtirishga kirishdik. Buning uchun biz tadqiqotimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining (5-6, 6-7 yosh) intellektual, jismoniy, ruhiy, ma’naviy, estetik rivojlanishini baholash mezonlarini yosh davrlariga oid tabaqalashtirishga harakat qildik (1.2-jadval).

1.2-jadval. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning rivojlanish ko‘rsatkichlari

Yosh davrlari	Mezonlar	Rivojlanishni baholash indikatorlari
katta maktabgacha yosh (5-6 yosh) maktabga tayyorlov yoshi (6-7 yosh)	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish; “Men” konsepsiyasi; Hissiyotlar va ularni boshqarish;	yirik motorika; mayda motorika; sensomotorika; sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik
katta maktabgacha yosh (5-6 yosh) maktabga tayyorlov yoshi (6-7 yosh)	Bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish	nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari; dunyoni badiiy tasavvur etish; – badiiy-ijodiy qobiliyatlar
katta maktabgacha yosh (5-6 yosh) maktabga tayyorlov yoshi (6-7 yosh)	Intellektual-anglash malakalari; elementar matematik malakalar; tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat	nutq va til; – o‘qish malakalari; – qo‘l barmoqlari mayda motorikasi; dunyoni badiiy tasavvur etish; – badiiy-ijodiy qobiliyatlar

katta maktabgacha yosh (5-6 yosh) maktabga tayyorlov yoshi (6-7 yosh)	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi	yirik motorika; mayda motorika; sensomotorika; sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik

1.2-jadvalda aks ettirilganidek, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining (5-6, 6-7 yosh) intellektual, jismoniy, ruhiy, ma’naviy, estetik rivojlanishini ta’minlashga mo‘ljallangan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini yosh davrlariga oid tabaqalashtirdik va bola rivojlanishining sohalariga oid mezonlarni ishlab chiqdik.

Bunda:

“Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasida “Men” konsepsiyasi; hissiyotlar va ularni boshqarish; ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqotga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, “nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasida: nutq va til; o‘qish malakalari; qo‘l barmoqlari mayda motorikasiga e’tibor qaratiladi.

Bolaning “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasida: intellektual-anglash malakalari; elementar matematik malakalar; tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyatiga e’tibor qaratilsa, “jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi”da yirik motorika; mayda motorika; sensomotorika; sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik kabilar inobatga olinadi.

Bolaning “Ijodiy rivojlanish” sohasida dunyoni badiiy tasavvur etish; badiiy-ijodiy qobiliyatlariga e’tibor qaratiladi. Binobarin, Davlat talablarida ta’kidlanishicha, asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma’lum bir tomonlarini o‘z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo‘nalishini ko‘rsatib beradi. Kutilayotgan natija esa, bolalarda o‘zlashtiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar ko‘rsatkichi bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlar davomida multimedia dasturlaridan foydalanish ham bolalarning hissiy-biluv darajasini o‘sishiga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘qitish jarayonida, pedagogik texnologiyalar talablari asosida ifoda etilgan, o‘quv maqsadlariga erishiladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashgan davrda o‘qitish samaradorligi, asosan, tarbiyalanuvchining o‘qitish jarayonidagi o‘rni, pedagogning unga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq bo‘ladi. Bu yerda o‘qitish texnologiyasining ikki turini ajratib ko‘rsatish mumkin: avtoritar va shaxsga yo‘naltirilgan. Avtoritar texnologiyada, pedagog yagona subyekt sifatda namoyon bo‘ladi, tarbiyalanuvchilar esa faqatgina “obyekt” vazifasini bajaradi, xolos. Bunda tarbiyalanuvching tashabbusi va mustaqilligi yo‘qoladi, o‘qitish majburiy tarzda amalga oshiriladi. Odatdagi an’anaviy o‘qitish, avtoritar texnologiyaga taalluqlidir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayon – ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan, pedagogik faoliyat ta’sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan tizimdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi didaktik jarayonlarda bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishini ta’minlovchi shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni takomillashtirishda ta’lim tashkilotning Davlat o‘quv dasturlarini tahlil qilish, ularning sifatini oshirish, shu asosda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari malakasini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borish, tarbiyalanuvchilarning aqliy, jismoniy, ma’naviy, estetik rivojlanishlarini ta’minlash zarurdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 5-6, 6-7 yoshli bolalarning intellektual jihatdan rivojlanishiga mo‘ljallab, tashkil qilinayotgan didaktik jarayon kuzatilganda, bolalar o‘z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo‘lganlaridagina mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishlari va o‘zaro ishonchlari oshishi kuzatildi. Guruhiy o‘yin-mashg‘ulotlari rejalariga

mashg‘ulot boshida ham mashg‘ulot davomida ham o‘zgartirishlar kiritib borildi. O‘yin-mashg‘ulotlarning qator tamoyillari mavjud bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilar: 1. O‘yinlarda erkin ishtirok etish. 2. O‘zaro hurmat. 3. O‘yin qoidalarini anglab olish. 4. Refleksiya. O‘yinda erkin ishtirok etish tamoyili – agar o‘yin qiziqarli va quvnoq kayfiyat bag‘ishlovchi bo‘lsa, har bir bola bu o‘yinda ishtirok etishga intiladi. Qanday-dir sabablarga ko‘ra, bola o‘yinda ishtirok etishdan bosh tortsa, u o‘ynashi mumkin bo‘lgan boshqa bir o‘yinni taklif etish mumkin. Bolalarga o‘yindan bemalol chiqishlari va yana orqaga qaytishlariga imkoniyat yaratish lozim. O‘zaro hurmat tamoyili – bu o‘zaro munosabatlardagi qoidaga o‘xshashdir, ya’ni har bir o‘yin ishtirokchisi o‘z fikrini erkin bildirishga, tanlash huquqiga ega, hammaning fikri eshitib-tinglanadi. O‘yin qoidalarni anglab etish – mashg‘ulotni boshlashdan oldin bolalar o‘yin-mashg‘ulot maqsadlari, qoidalari bilan tanishtiriladi. Agarda bolalarning ayrimlari bu narsalarni anglab etmasa, o‘yin-mashg‘ulotlar qoidalari takror tushuntiriladi. Refleksiya – olingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash maqsadida qayta aloqa o‘tkazish muhimdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida interfaol o‘yinlarni samarali o‘tkazish uchun quyidagi qoidalarga e’tibor berish lozim: 1. Mashg‘ulot oldidan bolalar o‘yin qoidalari va mazmuniniqay darajada tushunganliklarini aniqlash. 2. Bolalarning yosh xususiyatlari va bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini hisobga olish. 3. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini e’tiborga olish. 4. O‘yin jarayonida bolalarga qiziq bo‘lgan materiallardan foydalanish. 5. Diqqat va e’tiborni jalb etadigan uslublarni izlab topish. 6. Bolalarga rollarni to‘g‘ri taqsimlash. 7. O‘yindan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini bilish. 8. O‘yinning asosiy bosqichlari haqida tasavvurga ega bo‘lish va natijalarini prognoz qilish. Pedagogik nuqtai nazardan to‘g‘ri tashkil etilgan o‘yin bolaning axloqiy, irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg‘otadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarining intellektual, jismoniy, ruhiy, ma’naviy, estetik rivojlanishini ta’minlashimiz zarur va shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 37-son, 426-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017. 13-fevral. 6 (766)-son, 70-modda, 25-150-betlar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, “Xalq so‘zi” gazetasi, 2019. 9-oktyabr. №209(7439)-son.

4. Abdullayeva Sh.A., Ro‘ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. – T.: Universitet, 2019. – 288-b.

Muhayyo RAJABOVA,
Qarshi davlat universiteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida psixologik xizmatni takomillashtirishning ilmiy-amaliy jihatlari haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, ilmiy-amaliy jihatlar, ta’lim tizmi, yosh avlod, shaxsni tarbiya qilish.

В статье рассматриваются научные и практические аспекты совершенствования психологических услуг в дошкольном образовании.

Ключевые слова. Дошкольное образование, научно-практические аспекты, система образования, подрастающее поколение, личностное развитие.

This article discusses the scientific and practical aspects of improving psychological services in preschool education.

Key words. Preschool education, scientific and practical aspects, education system, the younger generation, personal development.

Har tomonlama barkamol va yetuk shaxsni tarbiyalash hozirgi zamonning asosiy masalalaridan biri desak yanglishmagan bo‘lamiz. Har tomonlama yetuk shaxsni tarbiya qilishga bo‘lgan sa’y-harakatlarni hozirgi kundagi ta’lim tizimidagi ko‘pgina islohotlarda ko‘rishimiz mumkin. O‘sib kelayotgan yosh avlodning kelajakda qanday shaxs bo‘lib yetishishi albatta, uning bolalik davrida egallagan bilim va ko‘nikmalariga chambarchas bog‘liq ekanligi shu sababdan bolalarga ularning kichik yosh davrlaridan boshlab alohida e’tibor qaratish lozimligi ham yurtboshimiz tomonlaridan alohida ta’kidlab o‘tildi.

Inson yashar ekan, o‘z hayoti davomida ma’lum yosh davrlarini bosib o‘tadi. Har bir davr o‘ziga xos kechishi bilan bir-biridan farq qiladi. Bu davrlar orasida maktabgacha yosh davri inson hayotida alohida ahamiyatga ega davr hisoblanadi. Aynan maktabgacha yosh davrida inson hayoti davomida o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilimlarning 80-90 foiz qismini o‘zlashtirishi psixolog olimlar tomonidan o‘z isbotini topgan. Aynan shu yosh davri butun sezgi a’zolarining rivojlanishi uchun eng qulay davr sanaladi. Maktabgacha yosh davrida bolalarda ko‘rish, eshitish, ta’m va hid bilish, teri va harakat sezgilarining sezgirligi ancha ortadi. Bolalar psixologiyasida ko‘plab izlanishlar o‘tkazgan olim D.B.Elkonin ta’kidlaganidek, bola jamiyat a’zosi va shaxs sifatida shakllanib borar ekan, uning psixikasi rivojlanib, olamni aks ettirish qobiliyati go‘daklikdan yetuklik davrigacha murakkablashib va takomillashib boradi. Yana bir nemis psixolog olimi Shtern ta’rificha, chaqaloq(yangi tug‘ilgan bola) hali odam hisoblanmaydi; balki

sut emizuvchi hayvondir; olti oylikdan oshgach, u psixik rivoji jihatdan faqat maymunlar darajasiga tenglashadi, ikki yoshida oddiy odam holiga keladi, besh yoshida ibtidoiy gala holidagi odamlar holiga keladi. Darhaqiqat, bola rivojlanib borar ekan unda asta-sekinlik bilan jamiyat odob-axloqlariga mos madaniyat shakllana boshlaydi. Albatta, bolada yuqoridagi ijobiy xususiyatlarni hosil qilish va shakllantirishda uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit katta rol o‘ynaydi. Bolada mavjud individual xususiyatlar ham uning ta’lim va tarbiya olish jarayonida, atrofdagi bilim va malakalarni o‘zlashtirishda uni qurshab turgan olam unga ta’sir etuvchi eng muhim omil sanaladi. Mana shu omillar ta’sirida bolalarda xarakter xususiyatlari shakllanadi. O‘ziga xos individual xususiyatlar namoyon bo‘ladi. Bu xususiyatlar inson hayoti davomida har qaysi faoliyat turida o‘z ta’sirini ko‘rsatib turadi. Bolaga individual xususiyatlarini bilgan va inobatga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayoni tashkil etilsa, ko‘pgina ijobiy natijalarga erishish mumkin. Ko‘pincha ota-onalar va tarbiyachilar tomonidan bolada mavjud individuallik xususiyatlar haqida ma’lumotga ega emaslik ta’lim-tarbiya jarayonida qiyinchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Yoshga doir xususiyatlar haqida ma’lumotlarga egalik qiyinchiliklarni yengishda yordamchi vazifasini bajaradi. Bu yosh davrida bolalar oila a’zolariga haddan tashqari ko‘p savol bilan murojat qilish holatlari kuzatiladi. Bolani ko‘p savol bilan murojat qilishi bu ijobiy sifat. Bu bolaning qiziquvchanligi, faolligi, atrof-muhitni o‘rganishga bo‘lgan intilishi bilan ifodalanadi. Ota-ona va tarbiyachilarda bu holatga tabiiy qarashlari talab qilinadi. Vaqtida berilgan to‘g‘ri javob bolaning dunyoqarashi shakllanishida o‘z o‘rniga ega. Maktabgacha yosh davri o‘z navbatida kichik davrlarga bo‘linadi:

Chaqaloqlik davri-tug‘ilganidan to 1 yoshgacha

Ilk bolalik davri-1yoshdan 3 yoshgacha

Maktabgacha yosh davri-3 yoshdan 6-7 yoshgacha bo‘lgan yoshlarni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda ota-onalar va tarbiyachilar tomonidan psixolog-amaliyotchiga murojatlari maktabgacha yosh davrida bolaning bilish jarayonlaridagi o‘zgarishlar, ma’lum faoliyat bo‘yicha qobiliyatga ega ekanligi va qaysi kasb yoki faoliyatga moyillik borligini aniqlashda amaliy yordam so‘rash, bundan tashqari bolalarda adaptatsiya jarayoni bilan bog‘liq qiyinchiliklarni bartaraf etish, giperaktiv bolalar bilan ishlash, ushbu yoshdagi salbiy xususiyatlar masalan, agressivlikni bartaraf etish kabi jarayonlarda amaliy yordam so‘rash bo‘lib kelmoqda. Maktabgacha yosh davrida bolalar xulq-atvorida yaratuvchanlik, ayrim bolalarda buzg‘unchilik bo‘lgan mayllar erkin namoyon bo‘la boshlaydi. Bunday paytlarda ota-onalar va tarbiyachilar psixolog ko‘magiga ehtiyoj sezadilar. Tajribali psixolog tomonidan amalga oshirilgan amaliy yordam ishlari bolaning keying hayoti davomida juda muhim sanaladi. Psixolog tomonidan katta ilmiy salohiyat talab etiladi. Shu bilan birgalikda yosh davrlariga xos xususiyatlar va biologik, fiziologik o‘zgarishlar haqida ham bilimga ega bo‘lish talab etiladi. Har bir yosh davrida ma’lum bir faoliyat inson hayotida muhim rol o‘ynaydi. Psixologdan yuqoridagi yosh davrlarida qanday faoliyatni ustunlik qilishini bilish bolaga ta’sir etish va undagi mavjud muammoni bartaraf etishda katta amaliy yordam sanaladi. Asosan bog‘cha yoshidagi bolalarda yetakchi faoliyat o‘yin hisoblanadi. Shu sababdan bu ta’lim jarayonlari ham o‘yinlar bilan birgalikda uzviy bog‘liq tarzda amalga oshiriladi.

Har bir bola o‘ziga xos xarakter va temperament xususiyatlariga ega. Ba’zi bolalar ochiq xarakter tipida bo‘ladilar, ba’zi bolalar yopiq xarakter tipida bo‘ladilar. Yopiq xarakter tipidagi bolalar ko‘pincha o‘ziga xos xarakterga ega bo‘lib o‘rtoqlariga uncha qo‘shilmaydigan, nutqiy boyligi ham kam, atrof-muhitga nisbatan reaksiyasi kam bo‘lishadi. Guruhda bunday bolalarning bo‘lishi boshqa tarbiyachidan unga bo‘lgan

alohida munosabatni talab etadi. Bunday holatlarda bolada moslashish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun tarbiyachi, ota-ona va psixolog birgalikda faoliyat yuritishlari talab etiladi. Psixolog amaliyotchi dastlab qabuliga kelgan mijozi bilan suhbatlashar ekan birinchi o‘rinda uni tinglash orqali temperamentini aniqlab oladi. Temperament xususiyatlarini va xarakter xislatlarini bilgan holda vaziyatga yondashish samarali natija berishi shubhasiz. O‘tkazilgan suhbat natijasida olingan xulosalar ota-onalarga yoki vasiylarga, tarbiyachilarga taqdim etiladi.

Maktabgacha ta’lim muassasasi psixologi o‘z faoliyati davomida maktabgacha yosh davridagi bolalar bilan turli xil metodikalar o‘tkazadi. Metodikalarning aksariyati rivojlanish darajasini o‘rganishga va bolaning maktabga tayyorgarlik darajasini o‘rganishga qaratilgan testlar va metodikalardir. Ushbu metodikalar orqali bolada mavjud kamchiliklar aniqlanadi va kerakli chora-tadbirlar ko‘riladi. Shuni yoddan chiqarmaslik lozimki, insonda temperament xususiyatlari tug‘ma ya’ni nasldan-naslga o‘tadi. Xarakter xususiyatlari esa ijtimoiy hayot, oila va do‘stlar tomonidan hosil qilingan ko‘nikmalar orqali shakllanadi. Ya’ni hayot davomida o‘zlashtirilgan salbiy xususiyatlar va bolalarda mavjud odatlarni (agar tug‘ma bo‘lmasa) bartaraf etish mumkin. Bunga oilada va ta’lim muassasasida tashkil etilgan ijobiy ijtimoiy va sog‘lom psixologik muhit yordamida erishiladi. Psixolog olimlar tomonidan bolalarda salbiy xususiyatlarni kelib chiqishini oldini olishda bir qancha tavsiyalar beriladi.

– oilada ota-ona aslo bolalar oldida janjallashmaslik (bunday holatda bola har doim janjalga sababchi sifatida o‘zini ko‘radi)

– topshiriq berib boladan natijani so‘rab olish (bunda bolada mas’uliyat hissi shakllanadi)

– noto‘g‘ri harakati uchun jazolash (jismoniy jazo emas, tanbeh berish va koyish)

– ma’lum bir uy hayvonini parvarish qilish (bu orqali bolada rahm-shavqat hissi shakllanadi)

– bolalar bilan ota-onalar ko‘proq birga bo‘lishlari, oilaviy davrada ko‘proq vaqtni birga o‘tkazish (bunda bolada odob-axloq normalari shakllanadi, nutqiy boylik ortadi)

Bolalarda yuzaga kelayotgan har bir holatga, uning ruhiyatida bo‘layotgan o‘zgarishlarga befarq qaramaslik lozim. Ayni yoshlik davrida olingan ruhiy zo‘riqishlar, ular natijasida yuzaga kelgan salbiy holatlar bolaning keying hayot yo‘lida ham saqlanib qolmaslikka harakat qilish lozim. Bolada ruhiy o‘zgarish ko‘zga tashlandimi darrov psixologga murojaat etish va muammoni nimada ekanligini aniqlash lozim. Ko‘pincha ota-onalar bolada yuzaga keladigan o‘zgarishlarni bolalik injiqliklari yoki erkaliklari sifatida qabul qiladilar. Shuni unitmaslik lozimki hech bir salbiy holatlar o‘z-o‘zidan kelib chiqmaydi. Bunga sabab oila yoki ijtimoiy muhitdagi ma’lum bir omil, yohud organizmda yuz berayotgan o‘zgarish sabab bo‘ladi. Ota-onalar eng, avvalo, yaxshi oilaviy muhit yaratishga intilishlari lozim. Bu ruhiy buzilishlar kelib chiqish xavfini kamaytiradi. Eng muhimi bolalarga har doim e’tiborli bo‘lish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. –T., 2006.

2. Psixologiya fanidan ma’ruzalar matni Jizzax-2008.

3. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. –T., O‘qituvchi-1991.

Yulduz YULDASHEVA,
QVXTXQTMOHM “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASASIDA NUTQNI O‘STIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha tarbiya muassasasida nutqni o‘stirish nazariyasi va metodikasi, nutqni o‘stirish imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Nutq madaniyati, bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o‘stirish, lug‘atini boyitish, nutqning grammatik tomonini shakllantirish, so‘zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.

Статья в статье обсуждается теория и методы выращивания в дошкольном учреждении, возможности расширения речи.

Ключевые слова. Речевая культура, введение в детей, речь, обогащение речи, принести речь (диалог), обучение звуковой культуре речи.

An article in the article discusses the theory and methods of cultivation in a preschool institution, the possibility of expanding speech.

Key words. Speech culture, introduction in children, speech enrichment, bring speech (dialogue), learning sound culture speech.

Bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyati va madaniyatining saqlovchisi bo‘lgan kattalar bilan muloqoti tufayli insoniyatning ko‘p asrlik tajribasini o‘zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Bu tajribani faqat insoniy muloqotning eng muhim vositasi – til orqaligina berish mumkin.

Til – hayotimizning ajralmas qismi bo‘lib, biz unga o‘z-o‘zidan bo‘lishi shart bo‘lgan narsa sifatida qaraymiz. Tilning o‘zi nima, biz unda qanday so‘zlayapmiz, biz qanday qilib so‘zlashni o‘rganishimiz haqida esa unchalik ko‘p o‘ylab ham o‘tirmaymiz. Bilimni uyushtiruvchi boshlang‘ich bosqich sifatida chiqadigan nazariya tilda shakllanadi, bu esa bilish jarayonida tilga alohida o‘rin beradi va shu bilan til haqidagi fan oldida yangi ilmiy ufqlarni ochadi, uni o‘zining gumanitar mohiyati haqida orzu-xayollarga berilgan holda doimo tinch-osuda va jimgina o‘tiradigan burchagidan chiqishga majbur qiladi. Ana shu nuqtayi nazardan “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” fani bilan quyidagi fanlar o‘rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

Insonning yana bir o‘ziga xos xususiyati, o‘ziga xos insoniy ehtiyoji mavjud, bu – boshqa odamlar bilan muloqotga ehtiyojmandlik, “emotsional muloqotga ehtiyojmandlik”dir (K.Obuxovskiy). Aynan shu ehtiyoj tufayli dastlab til paydo bo‘lgan. Muloqotga ehtiyojmandlik doimo tilni egallashga olib keladi. Bolaning so‘zlashni o‘rganishining sababi shuki, unga kattalar bilan birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishga to‘g‘ri keladi, buning uchun esa bolaning unga nimalar deyishayotganliklarini tushunishi

va o‘zi ham so‘zlashi lozim. Bu o‘rinda tilning uch sifati (tajribani jamlash va sintez qilish – fikrga jamlash – muloqotni amalga oshirish) haqida so‘z yuritish mumkin (V.A.Zveginsev). Tilni tadqiq qilish mustaqil, umumilmiy qiziqishdan tashqari ko‘plab dolzarb amaliy vazifalarni hal etishda ulkan ahamiyatga egadir.

Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi maktabgacha ta’lim-tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy va ruhiy kamolotini tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini o‘rganadi.

Bolalar bog‘chasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta’lim va tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ona tilini o‘rgatish, nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga o‘rgatishdir.

Nutq o‘stirish uslubiyoti pedagogik fan bo‘lib, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqni shakllantirishga qaratilgan pedagogik qonuniyatlarni o‘rganadi.

Nutq o‘stirish uslubiyoti fanining asosiy vazifasi – nutq o‘stirish uslubi va uslubiyotlarini, ularning eng samarali vositalarini ilmiy-pedagogik asoslarda ishlab chiqish va bolalar bog‘chalari tarbiyachilarini ular bilan ta’minlashdan iboratdir. Tarbiyachilar esa o‘zlashtirilgan uslub va uslubiyot yordamida bolalarda zaruriy nutqiy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga harakat qiladilar.

Nutq o‘stirish uslubiyotining maqsadi – bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishdan, atrofdagilar bilan nutqiy muloqotda bo‘lish malakasini shakllantirishdan iborat.

Nutq o‘stirish uslubiyoti boshqa xususiy uslubiyotlar kabi quyidagi savollarga javob beradi: 1) nimaga o‘rgatish kerak (bolalarda qaysi nutqiy malakalarni tarbiyalash kerak); 2) qanday o‘rgatish kerak (bolalar nutqini shakllantirishda qanday sharoit, qaysi usul va uslubiyotlardan foydalanish kerak); 3) nima uchun xuddi shunday o‘rgatish kerak (nutqni rivojlantirish uchun taklif etilayotgan usullar nazariy va amaliy jihatdan qanday asoslangan).

Nutq o‘stirish uslubiyoti vazifasi o‘z ichiga bir qancha maxsus xususiy vazifalarni ham qamrab olgan. Jumladan, bolalar bog‘chasida bolalar nutqini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi maxsus, xususiy vazifalar amalga oshiriladi:

1. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o‘stirish, boyitish.
2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.
4. So‘zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish.
5. Hikoya qilishga o‘rgatish (monologik nutqni shakllantirish).
6. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish.
7. Bolalarni boshlang‘ich savodga tayyorlash.

Ushbu vazifalar har bir guruhdagi bolalarning yoshi va individual xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha taqsimlangan:

Birinchi va ikkinchi kichik guruhda.

1. Tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutq o‘stirish, lug‘atini boyitish.
2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.
4. So‘zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish.
5. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.

Ushbu guruhda hikoya qilishga (monolog nutqqa) o‘rgatish bo‘yicha boshlang‘ich

ma’lumot berish belgilangan.

Kichik guruh bolalari tarbiyachining hikoyasini eshitib, uning savollariga javob bera olishi, mavzulardagi rasm yuzasidan suhbatlarda ishtirok etishi bilan birga, avval eshitgan ertak va hikoyani xotirasida tiklab, uning mazmunini buzmasdan aytib bera olishlari lozim.

O‘rta va katta guruhlarda tarbiyachi bolalar nutqini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirishi kerak:

1. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o‘stirish, lug‘atini boyitish.
2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.
4. So‘zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish
5. Hikoya qilishga (monolog nutq) o‘rgatish.
6. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.

Maktabga tayyorlov guruhida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o‘stirish, lug‘atini boyitish.
2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.
4. So‘zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish.
5. Hikoya qilishga o‘rgatish (monolog nutqni shakllantirish).
6. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.
7. Bolalarni savod chiqarishga tayyorlash.

1. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o‘stirish, lug‘atini boyitish. Lug‘at ustida ishlash bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi. Bolalarni tevarak-atrofdagi buyumlar, hodisalar, o‘simliklar, hayvonot dunyosi, kattalar mehnati va shu kabilar bilan tanishtirish jarayonida ularning nomlarini, sifatlarini, xususiyatlarini, xarakterlarini so‘zlar bilan aytamiz. Masalan, buyumlarning nomini anglatadigan: ko‘zgu, taroq, sovun, tish va kiyim cho‘tkalari, palos, gilam, javon, karavot, xontaxta; sabzavotlarning nomini anglatadigan: sabzi, karam, sholg‘om, bodring, baqlajon; o‘simliklar: daraxt, gul, o‘t va boshqalar; mevalar: olma, nok, olcha, gilos, olxo‘ri va hokazolar; uy hayvonlari: xo‘roz, tovuq, ot, sigir, it, mushuk, qo‘y, eshak; ularning bolalarining nomini bildiruvchi: jo‘ja, toychoq, buzoq, qo‘zichoq, uloqcha, xo‘tik; harakatlarni ifodalovchi: yuvinmoq, artmoq, pishirmoq, tayyorlqmoq, kir yuvmoq, dazmollamoq, ekmoq va boshqalar; sifatlarni bildiruvchi: katta, kichik, qizil, sariq, ko‘k, zangori, oq, qora, issiq, sovuq, shirin, achchiq va hokazo so‘zlar bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar lug‘atiga kiritiladi, buning natijasida ularning lug‘ati boyitiladi, nutqi rivojlanadi.

Maktabgacha ta’lim muassasasida lug‘at bilan ishlash dasturi mavjud bo‘lib, tarbiyachi bolalarga atrofdagilar bilan tez nutqiy muloqotga kirishib keta olishiga yordam beradigan so‘zlarni tanlab, maxsus usul va uslubiyot yordamida ular nutqiga kiritib boradi. Bolalarni so‘zlarning ma’nosini tushunishga o‘rgatibgina qolmay, balki bu so‘zlarni o‘z nutqlarida faol ishlatishga ham odatlantirib boradi. Shuningdek, tarbiyachi bola lug‘atining qo‘pol so‘zlardan xoli bo‘lishiga, shevaga oid (mahalliy) so‘zlarni adabiy tildagi so‘zlar bilan almashtirishga e’tibor berishi kerak.

2.Nutqning grammatik tomonini shakllantirish. Lug‘at tilning qurilish materiali hisoblanadi. Grammatik esa gapda so‘zlarning o‘zgarishi va ularning o‘zaro bog‘lanish usullarini belgilaydi. Bundan tashqari, grammatika tilning qurilish modelini (so‘z yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchi) belgilaydi.

Bola atrofdagilardan grammatik tomondan shakllangan nutqni eshitadi. Eshitganining ma'nosiga tushunish bilan birga, tilning grammatik tomonini egallaydi, modelini bilib oladi. Bola ona tilining barcha grammatik shakllarini qancha erta o'zlashtirsa, u aqliy jihatdan shunchalik tez rivojlanadi. Agarda bolalarda nutqning grammatik tomoni noto'g'ri shakllansa, aqliy rivojlanishi kechikadi.

Shuning uchun tarbiyachi grammatikaning (morfologiya va sintaksis) turli shakllarini o'zlashtirishga yordam beruvchi didaktik o'yin va mashqlarni tashkil etadi. Masalan, kelishik qo'shimchasini o'zlashtirish uchun "Top-chi, men qayerda bo'ldim?" (katta guruhda); ikkinchi darajali gap bo'laklarini o'zlashtirish uchun "Men boshlayman, sen esa oxiriga yetkaz!", otning kelishiklar bilan turlanishini o'zlashtirishda "Top-chi, nima yetishmaydi?", fe'l zamonlarini o'zlashtirish uchun "Siz nima qilishni xohlaysiz?" va hokazolar.

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash. Bola, eng avvalo, tilning tovush tomonini egallashi kerak, ya'ni tovushlarni to'g'ri talaffuz etishi lozim. Nutqning tovush tomoni ustida ishlash o'zbek tilining fonetikasi va orfoepiyasiga asoslanadi. Bola kattalarga taqlid qilib, so'zlarda urg'uni to'g'ri ishlatishga o'rganib oladi, ona tilining intonatsion tomonini o'zlashtiradi hamda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga odatlanadi. Ayniqsa, bola atrofdagilar bilan nutqiy muloqotda bo'layotganda samimiy ohangda, burro va aniq gapirishga o'rgatiladi. Har bir bolada nutqning bunday sifatlarini tarbiyalash, kelgusi hayotida, ya'ni maktabda, o'quv yurtlarida ta'lim olishda, mustaqil mehnat faoliyatida jamoa, jamiyat o'rtasida o'z fikrlarini to'liq va tushunarli qilib bayon etishda muhim ahamiyatga egadir.

4. So'zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish. Bolalarga bilim va tarbiya berishda so'zlashuv nutqiga (dialog) o'rgatish katta ahamiyatga egadir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan so'zlashish bolalarning kundalik faoliyatlari va turli voqea-hodisalarni kuzatish natijasida hosil bo'lgan tushunchalarni aniqlash va uni bit tizimga solishda eng zaruriy ish vazifasi hisoblanadi. Bolada so'zlashuv nutqini shakllantirish – bu boshqalarning nutqini tinglash va tushunish, so'zlashishni quvvatlash, savollarga javob berish va so'rashdir (savollar berish). Bola so'zlashuv nutqining rivojlanganlik darajasi uning lug'at boyligiga, tilning grammatik tomonini egallaganligiga bog'liqdir. Bolani so'zlashuv nutqiga o'rgatish uning madaniy nutqni egallaganlik darajasiga ham bog'liqdir.

5. Hikoya qilishga (monolog nutqqa) o'rgatish. Bolalarni maktabga tayyorlashda monolog nutqni rivojlantirish juda muhimdir. Monolog nutq boladan o'z fikrini tushunarli va izchil bayon qilishni talab etadi, bunday nutq turini esa bola 5-6 yoshda egallay boshlaydi. Chunki bu yoshda mantiqiy tafakkur rivojlana boshlaydi, bolada katta so'z boyligi to'planadi, tilning grammatik qurilishini egallab oladi. Nutqning monolog shakli bolalarga ko'rgan narsalari haqida batafsil va izchil so'zlab berishga, o'z fikrlarini to'g'ri tuzilgan jumlalar orqali bayon qilishga imkon beradi.

Bog'langan nutq (monolog nutq) bolada boshqalarning hikoyasini tinglashga va uni tushunishga, qisqa, o'zlariga tanish bo'lgan voqeani qayta hikoya qilib berishga, ertakda ishtirok etuvchi qahramonlarning gaplarini ifodali aytib bera olish malakasining shakllanishiga yordam beradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi (katta guruh) bolalar rasmda tasvirlangan narsalar, o'z hayotiga doir voqealar haqida oddiy hikoyalar tuzishga, ko'rgazmali qurolsiz, mustaqil tarzda hikoya to'qishga o'rgatiladi. Bolalarni hikoya qilishga o'rgatish ularning aqliy rivojlanishiga yordam beradi, fikr yuritish doirasi kengayadi, diqqat, tafakkur kabi psixologik jarayonlar rivojlanadi, nutqi ifodali bo'lib

boradi, bolada o‘zini tutish va jamoa oldida so‘zlay olish malakasi hosil bo‘ladi.

6. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish. Bolalar badiiy adabiyoti keng tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga va bola shaxsini har jihatdan kamol toptirishga yordam beradi. U bolaning kishilar hayoti haqidagi bilimlarini kengaytiradi, emotsional taassurotlarini boyitadi. Tarbiyachi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirar ekan, u bolalarda quyidagi malakalarni shakllantiradi: 1. Badiiy asarlarni tinglash va tushunish. 2. Asar qahramonlarining xatti-harakatlarini baholash. 3. Insonlardagi axloqiy sifatlar va nuqsonlarni ta’riflab berish. 4. Adabiy asarning mazmuniga doir savollarga javob qaytarish, kichik hajmdagi she’rlarni intonatsiyalarga rioya qilib yodlab olish va ta’sirchan qilib aytib berish va h. k.

7. Bolalarni boshlang‘ich savodga tayyorlash. Bolalar bog‘chasida bolalar nutqini rivojlantirish bo‘yicha olib boriladigan barcha pedagogik ishlar ularni maktabga tayyorlashga qaratilganligidir.

Maktabda to‘g‘ri og‘zaki nutq, boshqalarni tinglay olish, ular nutqining mazmunini tushunish, zarur bo‘lganda o‘rtog‘ining javobini to‘ldirish yoki to‘g‘rilashda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Nutq bolalar uchun tahlil predmeti bo‘lib qoladi, bu esa bolalardan zo‘r aqliy kuchni talab etadi.

Shunday qilib, bolalar nutqini rivojlantirish bo‘yicha har bir ish jarayoni bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bu borada yuqorida bayon etilgan vazifalarning har biri o‘zining ta’limiy va tarbiyaviy jihatiga ega. Nutqni rivojlantirish jarayonida shaxsning axloqiy sifatlari shakllantiriladi, aqliy va estetik tarbiyaning muhim vazifalari hal ctiladi.

Nutqni rivojlantirish metodikasining asosiy mazmuni – bolalarda og‘zaki nutqni, uning bolalar nutqini rivojlantirishning tashkiliy pedagogik va metodik ishlari. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda nutqni tuza olish darajasini ko‘tarish maktabgacha ta’lim tizimi metodistlari oldidagi asosiy vazifalaridandir. Shuni hisobga olgan holda tevarak-atrofni o‘rganishda maktabgacha tarbiya yoshidagi katta bolalarning nutqini rivojlantirish muammosiga oid tadqiqotni nutqni rivojlantirishni ta’minlaydigan omillarni aniqlashdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova. F R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari; –T.: ISTIQLOL, 2016-y.

2. Shodiyeva S.Q. “O‘rta guruh bolalari nutqini o‘stirish” o‘quv-qo‘llanma –T.: O‘qituvchi, 1993-y.

3. Babayeva D.R. “Nutq o‘stish metodikasi” –T.: Fan va texnologiyalar 2009-yil.

Noiba SOBIROVA,
Qarshi davlat universiteti, "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI XULQ-ATVORIDAGI DEVIATSIYANI BARTARAF ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari xulq-atvoridagi deviatsiyani bartaraf etishning o'ziga xos xususiyatlari va uning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Shaxs, xulq-atvor, deviatsiya, ta'lim-tarbiya, oila, mahalla, ijtimoiy muhit.

В статье описаны особенности преодоления отклонений в поведении младших школьников и его педагогический потенциал.

Ключевые слова. Личность, поведение, отклонение, образование, семья, соседство, социальная среда.

The article describes the features of overcoming deviations in the behavior of younger schoolchildren and its pedagogical potential.

Key words. Personality, behavior, deviation, education, family, neighborhood, social environment.

O'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi davlatimizning ta'lim sohasini isloh qilish bo'yicha asosiy hujjatlarida "Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etiladi", – deb belgilab qo'yilgan.

Bugungi ba'zi bir yoshlar ma'naviyatining qisman buzilayotganligi, ayrimlarining bizga mutlaqo yot bo'lgan urf-odat, madaniyatga berilib ketayotganligi, voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida turli bezorilik, jinoyat sodir etish hollari uchrab turishi barchamizni tashvishga solmoqda.

Bunday yoshlar kelajakda Vatan ravnaqi uchun o'zlarining qanday hissalarini qo'sha oladilar, qanday kadr bo'lib yetishadilar. Vaholanki, mustaqil O'zbekistonning jahondagi rivojlangan mamlakatlar darajasida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy rivojlanishi ko'p jihatdan yosh avlodni kamol toptirishga, uni yangi ijtimoiy munosabatlarga erkin kirisha oladigan, umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etadigan, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga yo'nalgan ijtimoiy faol, yuqori madaniyatli, malakali kadrlar bo'lib yetishishiga bog'liq.

Biz yashayotgan shiddatkor zamon ya'ni globallashuv davrida xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar shaxsida olib boriladigan korreksion ishlar nafaqat nazariy, balki amaliy

jihatdan ham ahamiyatga egadir. Biroq, ilmiy manbalar va amaliyotda xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar shaxsining o‘ziga xos individual psixologik xususiyatlari, ular shaxsidagi ijtimoylashuvning izdan chiqishi, shaxs “men”idagi o‘zgarishlar va boshqalar to‘g‘risida aytarli ma’lumotlar uchramaydi. Bu o‘z navbatida, ijtimoiy muammosi mavjud bo‘lgan bola shaxsida korreksion ishlarni olib borish ishlarining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda deviant xulq-atvorning turli ko‘rinishlari tadqiq qilish mamlakatimiz olimlari tomonidan jadal o‘rganilmoqda. Xususan, N.Egamberdiyeva, L. Hakimova, N. Komilov, G. Shoumarov va boshqalar olib borgan ilmiy ishlarini shunday ishlar jumlasiga kiritish mumkin.

Rossiyalik olimlardan I. Bryazgunov, N. Zavadenko, V. Kuchima, S. Surushkina, E. Lyutova, G. Monina, O. Xuxlayeva va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida bolalarning tarbiyasidagi muammolar, ularning psixik asoratlari, etiologiyasi, bolalar tarbiyasiga xavf soluvchi omillarining tarqalishini, diqqat yetishmasligi kabi masalalarning pedagogik-psixologik korreksiyasini ochib beradi.

Xorijlik olimlardan K.Izard shaxsdagi hissiy holatlar (emotsiya)ni o‘rgangan bo‘lsa, V. Oklender esa xulqi og‘ishgan bolalar bilan ishlashning psixologik asoslarini yoritib o‘tadi. Xususan, V. Oklender o‘z izlanishlari natijasida noyob modelni ishlab chiqadi va geshtalt terapiyasining nazariyasi, falsafasi va amaliyotini turli ekspressiv metodlar bilan birlashtiradi.

Ushbu tahlildan ko‘rinadiki, o‘smir yoshdagi bolalar xulq-atvoridagi deviatsiya muammosi turli soha olimlari tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, biroq boshlang‘ich sinf o‘quvchilari xulqidagi deviatsiyaga moyillikni korreksiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirish masalasi yaxlit pedagogik tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Demak, bugungi kunda bolalar xulqida uchraydigan deviatsiyaning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tishimiz mumkin:

1. Ayrim oilalarda tarbiyaning yetarlicha olib borilmagani;
2. Nobop va to‘liq bo‘lmagan oilalarning ko‘payishi;
3. “Ko‘cha”ning, norasmiy guruhlarning, muqaddam sudlangan shaxslarning, jinoiy to‘da a’zolarning bola xulqiga ta’siri;
4. Dunyoqarash va qadriyatlarning noto‘g‘ri talqini;
5. Shaxsiy va ijtimoiy-ruhiy xususiyatlar;
6. Ichki qarama-qarshi kurash (shaxsning ichidagi qarama-qarshi to‘qnashuv);
7. Ruhiy, aqliy, jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlar va boshqalar.

Mazkur muammo yechimida biz diqqatimizni quyidagilarga qaratishni lozim deb bildik:

– ota-onalar va pedagoglarga bolalar psixologiyasi, fiziologiyasi va pedagogikasiga doir bilimlar berish;

– bugungi davr bolalari salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va shunga ko‘ra pedagogik ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini aniqlash;

– mahallalardagi notinch oilalarni aniqlash hamda ularning bolalar xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan jihatlarini o‘rganish orqali muammoning asl sababini ochib berish.

Xulq-atvorida salbiy o‘zgarishlar kuzatilayotgan bolalar bilan ishlashda ma’lum bir shartlarga amal qilish lozimki, natijada, ular umumiy samaradorlikni ta’minlashga xizmat qilib, ehtimoliy vaziyatlarning ro‘y berishini oldini oladi. Ular quyidagilar:

1. Bolalar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarni korreksiyalash maqsadi, mazmuni

va yo‘llarining aniqligi.

2. Qo‘llaniladigan korreksion yo‘llar, metod va profilaktik yondashuvlarning tizimliligi, izchilligi va davomiyligi.

3. Bolalarning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish;

4. Ota-onalar bilan ishlashda oila qadriyatlariga asoslanish;

5. Maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalashda ular faoliyatini maqsadli va oqilona tashkil etish.

6. Bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish va boshqalar.

Umuman olganda, tahlil qilingan pedagogik-psixologik manbalar va kuzatish ishlari shundan dalolat berdiki, bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari xulqida uchraydigan deviatsiyani oldini olish va uning pedagogik asoslarini ishlab chiqish jamiyat va fanning dolzarb muammolardan biridir. Zero, o‘quvchilar xulqida uchraydigan turli og‘ishlar kelajakda ularning faoliyati hamda ijtimoiy jamiyatda tutgan o‘rniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi olib borilgan keng ko‘lamli tajriba ishlari jarayonida kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009, 154-b.

2. Hakimova I.M. “Deviant xulq-atvor psixologiyasi” –T., 2014. O‘zbekiston Respublikasi IIB Akademiyasi 5-b.

3. Komilov N.G‘. Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi: Uslubiy qo‘llanma –T.: 2008.

4. Musurmanov R. O‘smirlar deviant xatti-harakatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (diagnostika, profilaktika, korreksiya). –T., Sano-standart nashriyoti 2011. 117-b.

5. Sirliyev B. N., Ismailova N., Xakimova I. M. Stress va agressiya: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 120-b.

6. Umarov B. Bolalar tarbiyasi buzilishi va uning oldini olish yuzasidan ota-onalarga maslahatlar. Uslubiy qo‘llanma. –T.: 2012.

7. Shoumarov G.B. O‘smirlarning yosh-psixologik xususiyatlari // Oila psixologiyasi. –T.: Sharq. – 2001. – 40-61-betlar.

8. Оклендер В. Окна в мир ребенка. Класс, 2005, –С. 158.

9. Сурушкина С. Ю. Нарушения поведения и развития у детей: Книга для хороших родителей и специалистов. КАРО. 2015 г. –С. 190.

10. Хухлаева О.В. Коррекция нарушений психологического здоровья дошкольников и младших школьников. Академия, Москва: 2003, –С. 110.

XALQ PEDAGOGIKASI

Asliddin AMANOV,
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi
Dilnoza BERDIYEVA,
Qarshi tumani 45-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

QORI NIZOMIDDIN BIN MULLO HUSAYNNING “ILMI AXLOQ” ASARINI TARBIYAVIY IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada Qori Nizomiddin bin Mullo Husaynning “Ilmi axloq” asarini tarbiyaviy imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Rostgo‘ylik, ilmu ma’rifatga da’vat qiluvchi, izzatu hurmat, shafqat.

В статье рассматривается образовательный потенциал произведения Кари Низамиддина бин Мулло Хусейна “Научная мораль”.

Ключевые слова. Честность, просвещение, уважение, сострадание.

The article examines the educational potential of the work of Kari Nizamiddin bin Mullo Hussein “Scientific morality”.

Key words. Honesty, education, respect, compassion.

O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning samarali shakl va usullarini ishlab chiqish juda muhim. Ma’naviy va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Bu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shubhasiz, xalqimizning bir necha asrlarga borib taqaluvchi urf-odat, an’ana va qadriyatlari hamda pedagogik merosidan, umumbashariyat tafakkur xazinasiga katta hissa qo‘shgan ma’rifatparvarlarimizning axloqiy asarlaridan ijodiy foydalanish juda muhimdir. Zero, sinfdan tashqari vaqtda o‘quvchilar bilan olib boriladigan ishlar keng tarbiyaviy imkoniyatga ega bo‘lib, so‘z bilan ish birligini, axloqiy tushunchalarining xulqiy ko‘nikma, odat, malakalarga aylanishini ta’minlaydi.

O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol topib borishida, shubhasiz, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayoni muhimdir. O‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashda, ularning ongiga, shuuriga ta’sir ko‘rsatishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar katta ahamiyatga molik, bu ishni muvaffaqiyatli hal qilishda, albatta, o‘qituvchilardan chuqur bilim, izlanish, fidoyilik talab qilinadi. Eng avvalo, o‘qituvchilar, jumladan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘tkazish metodikasini chuqur bilishlari juda muhimdir. Biz tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayonida bir qator sinfdan tashqari tadbirlarni amalga oshirdik, unda yangi usul maktabi tarafdorlarining darsliklaridagi axloqiy tarbiyaga doir matnlarni asos qilib oldik.

Qori Nizomiddin bin Mullo Husaynning “Ilmi axloq” (“Axloq ilmi”) asari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, biz bu asarning 1916-yil Toshkentdagi G‘ulom Hasan Orifjonov litografiyasida nashr qilingan birinchi juz’ini O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining 19062 raqamidagi nusxasini olib o‘rgandik. Asar arab yozuvi asosidagi eski o‘zbek yozuvida bo‘lib, darslikning birinchi betida undan ko‘zda tutilgan maqsad ko‘rsatib o‘tilgan “Maktabi ibtidoiyaning ikkinchi-uchinchi sinf shogirdlarini maxsus ochiq tilda Turkiston shevasinda tartib etilmish axloq kitobidur”.

“Ilmi axloq” asari axloq, xulq, yaxshi xulq, yomon xulq kabi bo‘limlarga bo‘linib, yaxshi xulqlarga: poklik, aql qadrini bilmak, Alloh taologa ibodat qilmak, ota-onani izzatu hurmat qilmak, to‘g‘ri so‘zlamak, muhtojlarga yordam bermak, sahovat, yumshoqlik, ochiqyuzlik, tavoze, shafqat, muruvvat kabilarni; yomon xulqlarga esa, jaholat, yalqovlik, qo‘rqoqlik, taassub, yolg‘onchilik, xiylagarlik, hasad, isrof qilmak, munofiqlik, zulm qilmak, g‘azablik bo‘lmaklik kiritilgan.

Biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalash imkoniyatlarini ko‘rsatib berish maqsadida “Ilmi axloq” asaridan quyidagilarni ajratib oldik.

1. Rostgo‘ylik haqidagi hikoyalar:

Sadoqat, to‘g‘riso‘zlik demakdur, so‘ziga yolg‘on aralashadurg‘on kishilarni Alloh taolo do‘st tutmas, rost so‘zli kishilarni har kim suyar. Va unga har kim inonar, har bir narsaga muhtoj bo‘lsa, har bir kishi anga ko‘mak va yordam berur hech bir vaqt xor bo‘lmas. Qadrli-yu qiymatli kishi bo‘lur. Yolg‘onchi kishini Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom “ummati emas” - demishlar. Yolg‘onchi chin baxtsiz kishi bo‘lur. Yolg‘onlik hech bir dinda durust emas. Xulosa: har kim yolg‘onchi bo‘lsa, ikki dunyoda xor bo‘lur.

2. Ilmu ma’rifatga da’vat qiluvchi hikoyalar:

Jahl ma’nosi nodonlikdur. Ey, vatan bolalari! Odamning qiymatini darajasini yo‘qotgan, ham turmush rohatsizliklarga qoladurgan, boshqa millatlar orasinda e’tiborsiz qilgan narsa jaholatdur. Jahl ilmning dushmanidur. Shul sababli johil, bilimsiz xalqlar doimo o‘zlari bilmagan har bir ishning dushmanlaridur. Bir millatning yo‘q bo‘lmog‘iga, faqir, muhtoj, xoru-zolil (tuban) bo‘lmog‘iga jaholatdan boshqa bir narsa sabab emasdur. Chunonchi, bir millat bir necha million kishidan murakkab bo‘lsa ham jaholat balosiga mubtalo bo‘lsa, yaqinlarinda bo‘lgan kichkinagina bir millat, bir qavmga har bir ishda to‘g‘ri bo‘laolmaslar. Buni tarix o‘qugan kishilar yaxshi bilurlar. Bir millat bolalarining eru qizlari yoshlikdan maktablarga, dorilfununlarga borub, tirishib o‘qumak va tarbiya qiluvchi ota-onalari himmatu g‘ayrat ila o‘qitmaklari ila bo‘lur. Hurmatli ota-onalar joningizdan aziz farzandlaringizni Rusiyada o‘lsun, Xitoyda o‘lsun, o‘qitmaganingiz lozim. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom demishlar: “Utlubul-ilma va lov bi-s-siyn. Ma’nosi: ilm istangizlar Xitoy shahrinda bo‘lsa ham. Hurmatli ota-onalar, himmat qilib aziz farzandlaringizni o‘qitingiz, o‘qitingiz!

3. Ota-onani hurmat qilish haqidagi hikoyalar:

Izzatu hurmat deb o‘zidan kattalarni siylamakni aytilur. Har kimga ochiq yuzli, shirin so‘zli bo‘lub, chin ulamolarni dinimizga yordam berguvchilarni, maktab, madrasa va masjid soluvchilarni etimlarning holina rahm qilub otasi o‘rniga ota bo‘lguvchilarni, dini Islomning taraqqiyosina rivoj berguvchilarni izzatu hurmat qilingiz. Chunki siz o‘zingizdan ulug‘larni siylasangiz, sizni ham o‘zingizdan kichiklar siylab, izza-tu hurmat qilurlar. Qaytarlik dunyodir. Agar bir bola bir kun katta bo‘lib, ota bo‘lsa, bolasi ham siylamas.

4. Sahovat haqidagi hikoyalar:

Sahovat molidan yetim bechoralarga bermakdur. Saxiy kishi Xudoyi taoloning suyukli bandasidur. Sahovatning ziddi baxillikdur. Baxillik xulqlarning eng yomonidur. Baxilning qo‘lida bo‘lgan mollaridan o‘zi ham foydasiz qolur. Boshqalarga foydasi bo‘lmas. Baxilning moli merosdir. O‘zidan so‘ng o‘rinsiz yerlarga sarf bo‘lub, tezlik ila tamom bo‘lur. Baxil kishini kitob ortgan hayvonga o‘xshatubdur. Ustidagi yukidan o‘ziga foyda yo‘qdur. Sahovat yolg‘uz molda emas, ilmda ham bordur. Zeroki, ilmlik kishilar ilmsiz kishilarga qo‘lalridan kelgancha bildurmak ayni sahovatdur. Agarda bildurmakni xohlamaslar, qiyomatda Alloh taoloning qoshinda javobgar bo‘lur va jazolanurlar. O‘tgan zamonda Hotam degan saxiy kishi o‘tgan, uning ismi qiyomatgacha yaxshilik ila yod qilinur. Ey, bolalarni saxiylik, azizlik martabasiga etkurur.

Shafqat qarindoshlarning zaiflariga, ojizu notavonlariga yordam va marhamat etmakdir. Shafqatli kishi kibrli bo‘lmas. O‘z foydasidan avval qarindoshlarini foydasini kuzatar. Ota-onasiz qolmish etimu bechoralarga ota bo‘lub ilm o‘qimakka berub, doimo alarning ahvollaridan xabardor bo‘lub tursa, jaholatdan qutqarur.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, “Ilmi axloq” asarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda keng imkoniyatlar mavjud. Agar boshlang‘ich ta’limda bu asardan keng foydalanilsa barkamol avlodni tarbiyalash imkoniyatlari oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamidov H. XVI-XIX asrlar yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Fan. 2009. –111-b.

2. Mualliflar jamoasi. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. –T.: O‘qituvchi, 1980.

3. Nisoriy Hasanxoja. Muzakkiri ahbob (Do‘stlar yodnomasi). Forschadan Ismoil Bekjon tarjimasi. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

4. Oydinov Norsaid. O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar. T.: O‘qituvchi, 1997. 5.Kabirov M., Sagdullayev A. O‘rta Osiyo arxeologiyasi.– T., O‘zbekiston, 1990.

Mavluda FAYZIYEVA,
Qarshi davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

SHAXSNING AXBOROT TAHDIDLARINI BAHOLASH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada bugungi kunda jamiyatimizda eng global masalalardan biri shaxsning turli axborot tahdidlaridan himoyalash shaxs turli mafkuraviy tahdidlardan qanday saqlanishi mumkinligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Egosentrizm, axborot tahdidlari, shaxs, mafkuraviy tahdid, jamiyat, global masala.

В статье обсуждается одна из самых глобальных проблем современного общества - как защитить личность от различных информационных угроз и как защитить личность от различных идеологических угроз.

Ключевые слова. Эгоцентризм, информационные угрозы, личность, идеологическая угроза, общество, глобальная проблема.

The article discusses one of the most global issues in our society today, how to protect the individual from various information threats and how to protect the individual from various ideological threats.

Key words. Egocentrism, information threats, personality, ideological threat, society, global issue.

Ushbu masalaga oydinlik kiritish uchun avvalo, egosentrizm kabi tushunchalarga izoh berish darkor. Egosentrizm so'zi lotincha "ego" – men va "centrum" – doira markazi so'zlaridan olingan bo'lib, o'z fikr-o'ylari, manfaatlari doirasida qotib qolgan insonning atrof-muhit va odamlarga oid o'z bilimlari va o'zgalarga munosabatini o'zgartira olmasligini bildiradi. Psixologiyada egosentrizmning bir qancha turlari mavjud. Ular bilishga oid, axloqiy, kommunikativ va boshqalarga biror xil ma'lumot berish jarayonida ularning fikri bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslikdir. Nazarimizda, zamonaviy informatsion xurujlar mualliflarida aynan shu kabi egosentrizm kuzatiladi va ular o'zlariga o'xshash faqat o'z manfaatinigina ko'zlaydigan avlod ongini qamrab olishga harakat qiladi. Shuning uchun ham shaxsga psixologik himoya zarur. Psixologik himoya bo'lishi uchun shaxsda mustaqil fikr bo'lishi lozim.

Demak, ochiq axborotlar tahdidi sharoitida yoshlarni to'g'ri yashashga, vatanparvar va insonparvar bo'lishga, erkin fikrli bo'lishga o'rgatish orqali ularda mafkuraviy immunitetni tarbiyalash eng dolzarb vazifalardir. Zero, o'rgatish bir tomonlama jarayon bo'lmay, u "pedagog-tarbiyalanuvchi" muloqoti tizimida ko'proq tarbiyalanuvchi-

ning fazilatlariga bog‘liq. Bunday murakkab ishni tashkil etishda har bir ijtimoiy toifa yoki shaxsning individual – psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarurati ijtimoiy psixologiyada isbotlangan. Masalan, agar o‘quvchi yoki talabalarni yaxlit guruh deb oladigan bo‘lsak, ularning barchasi bilan bir vaqtda, bir xil effekt bilan ishlash va shu orqali ularning mustaqil tafakkurini o‘stirish, sog‘lom e’tiqodini tarbiyalashning ilojisi yo‘q. Ikkinchidan, bir guruh talaba yoki o‘quvchi uchun maqbul va samarali deb hisoblangan uslubni boshqasida ham aynan joriy etishga urinish bunday sharoitlarda teskari samara berishi mumkin.

Demak, bugun ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan, lekin ming afsuski, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lmaganlar bilan ishlashda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

– birinchidan, xulq-atvordagi xatoliklar eng avvalo, fikrlash tarzidagi xatoliklarning oqibati bo‘lgani uchun talabalarning negativ fikrlash tarzi sxemasini o‘zgartirish lozim.

– ikkinchidan, fikrlash tarziga ta’sir ko‘rsatish uchun pedagoglar o‘zlarining tushuntirish uslublarini, tarbiya metodlarini o‘zgartirishlari lozim. Ya’ni ilgari, yuqori tonlarda, direktiv ohangda, “katta roli”dagi talaba bilan muloqot qilgan pedagog, endi kerak bo‘lsa, “tengma-teng”, demokratik ohangda, bosqichma-bosqich xatti-harakatlarni birgalikda tahlil etishga o‘tishlari lozim.

– uchinchidan, o‘quvchi-talabaning o‘z-o‘zini idrok qilishini, o‘ziga bo‘lgan bahosini o‘zgartirish, ya’ni, talabani ijobiy ishlarga yo‘naltirish orqali o‘ziga bo‘lgan bahosini o‘zgartirishga erishish kerak.

Nihoyat, shunday vaziyat yaratish lozimki, o‘quvchi ijobiy tajriba orttirsin, o‘ziga, oilasiga yoki sinfdosh do‘stlariga, maktabiga manfaatli ish qilib olqish olsin. Ya’ni, ularni jamoat ishlariga keng jalb etish amaliyotini kengaytirish, bu ishdan manfaatdorligini oshirish lozim.

Demak, ta’lim va tarbiya jarayonida har bir pedagog yoshlarning mustaqil fikrlashlari uchun sharoit yaratish lozim, aks holda uning ongi tayyor shablonlar, stereotiplarga shu qadar o‘rganadiki, ular oxir-oqibat har qanday bid’at yoki yot g‘oyalarga ergashib ketaveradigan bo‘lib qoladi. Ya’ni, darsni tashkil etishning noan’anaviy usullariga keng yo‘l ochish, darslarda o‘quvchilar bilan interaktiv muloqotni tashkil etish, ular miyasining yaxshiroq ishlashi, qiziqishi va mustaqil fikrlashga yordam beradi.

Psixologik manbalardan yana shu narsa ma’lumki, yoshlar mustaqil fikrlashlari uchun ta’lim jarayonining o‘zida joriy etilgan tartiblarda byurokratiyani minimallashtirishga erishish kerak. Chunki eski ta’lim tizimi o‘qituvchining aytganini, u yozgan ma’ruza matnini aynan ko‘chirib yozib kelish, aytib berishni talab qilardi. Bu holat miyani avtomatik ishlashga, zombi kabi yodlangan bir xil qolipda bo‘lishga o‘rgatadi. Bunday miyada albatta o‘ziga xos vakuum hosil bo‘ladiki, bu vakuumga keyinchalik boshqa yot g‘oya va tushunchalar juda tez singadi, chunki miya deyarli tormozlangan, har qanday boshqacha xabar uning miyasiga oson kirib oladi.

Demak, davrimiz pedagoglardan, rahbarlardan o‘z ish uslublarini o‘zgartirish, muloqot qobiliyatlarini takomillashtirishni talab qilmoqda. Bu uning ta’sir ko‘rsata olish xislatini samarali bo‘lishini talab etadi. Bu esa bevosita yoshlarda mustaqil, erkin tafakkurni rivojlanishi uchun real zamin bo‘ladi.

O‘qituvchilar yoshlarni turli yomon ta’sirlardan asrashda axloqiy qadriyatlardan foydalanishi va bunda axloqiy ta’sir ko‘rsatish texnologiyasidan oqilona o‘z faoliyatida joriy eta olishi lozim bo‘ladi. Axloqiylikka o‘rgatish, axloqan va ma’nan yuksak bo‘lish, umuman tazyiqni, kuch ishlatishni rad etadi. Ma’muriy tazyiq yoshlarni yot ta’sirlardan asrab qololmaydi. Buning yagona yo‘li – o‘quvchi bilan munosabatda gumanistik

tamoyillarni joriy etish, erkin fikr almashinish muhitini yaratilishidir.

Axborot-psixologik xujumning vazifalari



Ochiq axborot kommunikatsiyasi jarayonida yoshlar ongiga ta'sir etayotgan yot g'oyalarga qarshi himoya vositalarini ishlab chiqishdan avval yoshlarning ijtimoiy xulqda ko'zga tashlanadigan eng muhim holatlardan biri tashvishlanish, nimadandir cho'chish va shu tufayli ijtimoiy munosabatlardan o'zini olib qochishga intilish xislarini namoyon bo'lishidir. Chunki agar, psixologik himoya holatining mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsa, bu shaxs-ichki kechinmalarini ifodalovchi shunday holatki, unda odam ichki ruhiy mo'tadillikni asrash uchun o'zidagi xavotirlanish, qo'rquv va xadiksirashlarini bosishga, ulardan xalos bo'lishga intiladi. Psixologik himoya-shaxsni turli salbiy ta'sirlardan asrashga, psixologik diskomfortni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shunday holatlarda odam odatda, shaxslararo munosabatlarda o'zini boshqacharoq tutadigan bo'lib qoladi. Psixologlar himoya mexanizmlariga odatda quyidagilarni kiritadilar.

Axborot xurujlariga qarshi turishning psixologik yo'llarini har bir murabbiy va talabaga yetkazish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun quyidagilarni yodda tutish lozim:

A) Aslida ataylab ta'sir etishga mo'ljallangan xabarni shaxs darrov qabul qilmaydi. Chunki, birinchidan, unda ilgaridan psixologik himoya mavjud va ikkinchidan, har qanday yangi narsaning singib ketishida muayyan axborot to'siqlari ham bo'ladi.

B) Bunday sharoitlarda "uchinchi shaxs ta'siri" ro'y beradi (effekt tretego litsa). Uning ma'nosi – "bu xabarga hamma ishonaversin, menga ta'sir qilmaydi" deb o'ylaydi shaxs, lekin ma'lum ma'noda shu fikr ta'sirida u axborot ta'siriga tushib qolgan bo'ladi. Haligi fikrni o'zi uchun har ehtimolga qarshi xayolidan o'tkazadi.

V) Ishontiruvchi chaqiriqlarga, masalan, reklama orqali yetkazilayotgan xabarlarga yosh bolalar juda o'ch bo'ladi va aynan ular ota-onani ko'ndiradi. 90 foiz onalar aynan reklama qilingan mahsulotlarni bolalariga xarid qilib olib beradi. Xuddi shunday "Internetga" ulanish, uyida zamonaviy kompyuterga ega bo'lish fikri ham bolalardan chiqadi, bunga ota-onani ko'ndiradilar ham. Bu ma'noda yoshlar eng himoyalanmaganlar toifasiga kiradi.

G) Xabarning asl maqsadi aslida ma'lumot berish emas, balki ishontirish ekanligini tushunish kerak. Odamning ma'lumotlilik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning

turli xabarlarga ishonqiramay munosabatda bo‘lishi ham yuqori bo‘ladi. Lekin xabarga ishonqiramay qarashimiz bizning uni qabul qilishimiz yoki qilmasligimizni bildirmaydi. Ya’ni agar biz ochiqchasiga yoshlarga “bu axborot manbaiga ishonmanglar, ular ataylab yolg‘on ma’lumot bermoqda” desak, bu narsa ularning shu turli axborotni qabul qilmasliklarini kafolatlamaydi. Lekin “ogohlantirilgan odam qurollangan, muhofazali bo‘ladi” degan tamoyildan kelib chiqib, birinchi ogohlantirishdan so‘ng, yana o‘z fikrimizni faktlar bilan asoslasak, ulardagi immunitet kuchliroq bo‘ladi. Lekin shuni nazarda tutish lozimki, ogohlantirish muddati ham rol o‘ynaydi. Masalan, tajribalarda bir hafta avval ogohlantirishning ta’siri uzoqroq muddatdan ko‘ra kamroq ekanligi ma’lum bo‘lgan yoki uyda holi, qulay sharoitda qabul qilingan ta’sir bilan odamlar orasida, ko‘pchilikning ichida yomon xabarni qabul qilish farqlanadi, chunki yolg‘iz uydagi ta’sir skeptizmni kuchliroq namoyish etishi kuzatilgan.

Ikkinchi tomondan, bevosita axborotni qabul qilish arafasidagi ogohlantirishlar qarshi faktlar ishlab chiqish vaqtini kamaytiradi, undan sal avvalroq ogohlantirish esa inson miyasida ma’lumotni qayta ishlashga imkon beradi.

D) Tanish narsalar haqida ma’lumotga ega bo‘lgan odamni ishontirish tezroq amalga oshadi. Lekin samarali taktikalardan biri – axborot kanallari orqali berilayotgan ma’lumotlarni ortiqchasiga jamiyat manfaatlariga zid ekanligi, ularning adolatsiz, xudbinlarcha uzatilayotganligi, nimalaridir qonunga xilof ekanligini qayd etish mumkin. Ya’ni, tarbiyachi, o‘qituvchi ochiq tarzda o‘z noroziligini bayon etish, targ‘ibotchi fikriga qarshi ekanligini aytish mumkin. Bu holat ham auditoriyani o‘ylashga majbur etadi.

Yana o‘ziga xos strategiyalardan biri – ochiq axborot manbalardan ketgan ma’lumotni, undagi ayrim faktlarni ochiq tan olishdir. Masalan, darhaqiqat, bizda darsliklarning sifati talab darajasida emasligini, mahallalarda nochor, notinch oilalar xanuz mavjud ekanligi va h.k. va aniq dalillar bilan kamchiliklarni bartaraf etilishi yo‘llari xususida o‘z fikrini aytish.

Bundan tashqari, o‘qituvchiga xos bo‘lgan usullardan biri-o‘z qarashlariga nisbatan ikkilanish pozitsiyasi borligini ochiq tan olish: “balki men nohaqdirman, lekin bu masalada shunday asoslarim bor edi...”, deb o‘z asoslarini keltirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T., O‘zbekiston, 2017.
2. Берн Э. Игры, в которые играют люди. Люди, в которые играют в игры(Психология человеческих взаимоотношений). – М.: Прогресс, 1992. – С.400.
3. Вагин И.Г. Уроки психологической защиты. – СПб.: Питер, 2001. – С.192.
4. Карнеги Д. Язык убеждений. – М.,1999. – С.288.
5. Козлов Н.И. Истинная правда, или учебник для психолога по жизни. – М.: АСТ-пресс, 2003. – С.178.
6. Кара-Мурза С.Г. Манипуляция сознанием. – М.: Изд-во Эксмо, 2007. – С.864.
7. Qodirov U. Yoshlarni destruktiv ta’sirlardan himoyalashning psixologik jihatlari. Monografiya, Fan va texnologiyalar nashriyoti, – T., 2013, –236-b.

Мехрибон МАТНАЗАРОВА,
Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам
и.о. доцент кафедры "Менеджмент дошкольного образования"
института переподготовки и повышения квалификации директоров
и специалистов дошкольных образовательных организаций

СИСТЕМА ПЕРСПЕКТИВНОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ УЧРЕЖДЕНИИ

Annotatsiya

Taqdim etilgan maqola ta'lim muassasalarida istiqbolli boshqaruv tizimining nazariy qoidalari va amaliy tajribasini ochib beradi.

Kalit so'zlar. Ta'lim menejmenti, tizim, istiqbolli menejment, funksional yondashuv. oliy o'quv yurtining tizim bosqichlari, boshqaruv tamoyillari, subyektlar faoliyati, taktik maqsadlari, reyting maqsadlari.

В представленной статье раскрыты теоретические положения и практический опыт системы перспективного менеджмента в образовательных учреждениях.

Ключевые слова. Образовательный менеджмент, система, перспективный менеджмент, функциональный подход, образовательное учреждение этапы системы, принципы управления, деятельность субъектов, тактические цели, ранжирование целей.

The presented article reveals the theoretical provisions and practical experience of the prospective management system in educational institutions.

Key words. Educational management, system, perspective management, functional approach, higher educational institution stages of the system, management principles, activities of subjects, tactical goals, ranking goals.

Динамическое развитие общества, возрастающая роль научных знаний и постепенное превращение их в основной капитал весьма актуализирует образование, как одну из самых важных сфер человеческой деятельности, которая теснейшим образом переплетена со всеми другими сферами общественной жизни.

Как отмечает Президент Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёев "Мы должны довести до логического завершения проводимую в этом направлении широкомасштабную работу, в частности, принятые общенациональные программы в сфере образования и воспитания. В связи с этим важнейшая задача правительства, соответствующих министерств и ведомств, наших уважаемых наставников, профессоров и преподавателей – обеспечить молодёжи качественное образование, воспитать её физически здоровыми и духовно зрелыми личностями. Сама жизнь требует повысить уровень нашей работы, направленной на создание современных рабочих мест для наших юношей и девушек, что даст им возможность занять достойное место в обществе".

Система менеджмента образовательного учреждения рассматривается как процесс, который составляет совокупность непрерывных взаимосвязанных видов деятельности, действий и операций.

Каждый вид деятельности также является процессом, поскольку он состоит из серии взаимосвязанных действий. Системный характер перспективного менеджмента выражается в частности в том, что недооценка или пропуск одного из этапов вызывает деформацию всего процесса управления и снижение его результативности. Таким образом, перспективный менеджмент состоит из динамической совокупности взаимосвязанных этапов (рис. 1).

Эти этапы логически взаимосвязаны. В то же время существует устойчивая обратная связь и соответственно обратное влияние каждого этапа на другие и на всю совокупность в целом. Это наглядно демонстрирует особенность системы перспективного менеджмента. Вместе с тем, раскрытие концептуальных основ перспективного менеджмента требует более детальной характеристики его этапов.

Так, проблемно-ориентированный анализ внешней и внутренней среды образовательного учреждения, полисубъектное переосмысление опыта является исходным этапом перспективного менеджмента, поскольку он обеспечивает базу для определения миссии и целей образовательного учреждения, а также для разработки стратегии поведения, которая позволит ему выполнить свою миссию и достичь своих целей.



Рис. 1 Система перспективного менеджмента в образовательном учреждении

Для определения и реализации стратегии поведения образовательного учреждения его руководство и другие участники образовательного процесса должны иметь полное представление как о внутренней среде организации, его потенциал и тенденции развития, так и о внешних тенденциях ее развития, и о месте, которое образовательное учреждение в нем занимает.

Следующим ключевым понятием для характеристики первого этапа перспективного менеджмента является “анализ”. Анализа как расчленения целого на элементы и установление взаимосвязи между ними с целью повышения качества прогнозирования, обоснование стратегии, планирование оперативного и перспективного менеджмента, реализации управленческих решений, направленных на развитие образовательного учреждения.

Целевой установкой этого этапа является сбор и анализ информации о начальном состоянии управляемой системы и об основные противоречия ее функционирования.

Четкая формулировка миссии и целей дает представление о том, что они собой представляют, к чему стремятся, какие средства использовать для достижения целей. Кроме того, помогает формированию и закреплению имиджа образовательного учреждения. Миссия и цели способствуют сплочению участников образовательного процесса, что находит отражение в осознании всего потенциала общей цели и назначения учреждения. Учитывая это, педагогический состав направляют свои действия и усилия в едином направлении.

Цели играют чрезвычайно важную роль в образовательном менеджменте, поскольку они являются основой планирования, построения системы стимулирования, контроля и оценки результатов, как отдельных преподавателей, сотрудников, так и кафедр, отделов и других подразделений образовательного учреждения.

Учитывая продолжительность периода, необходимого для их достижения выделяют долгосрочные, среднесрочные и краткосрочные цели. Среднесрочные и краткосрочные цели определяются непосредственно долгосрочными целями, подчиняются им. Среднесрочные и краткосрочные цели является конкретизацией и детализацией долгосрочных. Через достижение краткосрочных целей осваиваются среднесрочные, а потом и долгосрочные цели.

В системе перспективного управления реализуются следующие виды целей: стратегические; оперативные; тактические.

Стратегические цели определяются как цели, поставленные перед организацией менеджерами высшего уровня, и указывают на специфические результаты деятельности, которые организация планирует достичь, а также определяют конкурентную позицию, которую стремится занять организация на образовательном рынке и рынке труда.

Оперативные цели определяют желаемые результаты, конкурентные преимущества с учетом уровня развития, достигнутого на текущий момент, и действия, которые необходимо выполнить для достижения стратегических целей.

Тактические цели связаны с краткосрочными конкретными задачами, которые необходимы для достижения оперативных целей с учетом долгосрочных.

Образовательное учреждение, как целостная динамическая социально-педагогическая система имеет различные структурные подразделения (подсистемы), несколько уровней управления, что, в свою очередь, вызывает необходи-

мость иерархии целей. Учитывая это, цели более высокого уровня имеют долгосрочный интервал достижения. Цели низшего уровня являются своеобразными средствами достижения целей более высокого уровня. Четкая иерархия целей очень важна, поскольку обеспечивает направление деятельности всех подразделений учреждения на достижение его общих целей. Оптимальное построение иерархии целей означает, что каждая кафедра в процессе достижения своих целей осуществляют необходимый вклад в деятельность по достижению целей образовательного учреждения.

В условиях перспективного менеджмента общие цели формируются в результате творческой взаимосвязанной деятельности всех субъектов образовательного процесса на основе согласования и интеграции индивидуальных целей. Совместная разработка целей образовательной деятельности по направлению развития образовательной системы создает эффект причастности субъектов к общему делу. В результате общая цель воспринимается всеми как “наша”, одновременно каждый субъект воспринимает ее как свою.

Несмотря на то, что образовательное учреждение является сложной динамической социально-педагогической системой, на практике чаще всего применяется комбинированная стратегия, которая включает в определенном соотношении элементы предыдущих стратегий.

Эта стратегия предполагает, что одни структурные элементы педагогической системы развиваются быстро, другие – умеренно, третьи – стабилизируются, четвертые – сокращают масштабы своей деятельности. Наличие связей между элементами педагогической системы, ее целостность определяют в зависимости от конкретного сочетания различных видов стратегии развития, общий рост, общую стабилизацию или общее сокращение потенциала и масштабов деятельности учреждения.

Обоснование системы перспективного менеджмента опирается на определение стратегии как детального комплексного всестороннего плана, предназначенного для того, чтобы обеспечить осуществление миссии организации и достижение ее целей.

Завершение разработки стратегии учреждения требует его оценки, предусматривающий анализ оптимальности и достаточности учета в процессе выбора стратегии основных факторов, определяющих возможности ее осуществления. Основным критерием оценки выбранной стратегии является ее способность обеспечить достижение образовательным учреждением своих целей, а также соответствие стратегии состоянию и требованиям окружения, потенциалу и возможностям.

Реализация стратегии, функционирование и развитие образовательного учреждения в условиях меняющейся внешней среды обусловливают необходимость постоянных изменений в его структуре. В научной литературе выделяются основные признаки, при наличии которых необходимо корректировать организационную структуру:

– чрезмерная централизация управленческих решений;

– процедурное осложнения принятия простых решений, вызывает нерешенность большинства организационных проблем;

– потеря ответственности за ограничение полномочий;

– большое количество противоречивых управленческих решений;

– исчезновение у сотрудников энтузиазма;

– нарушение организационной коммуникации.

Следует отметить, что в процессе становления перспективного менеджмента административный контроль уступает место самоконтролю и взаимоконтролю. Главное место в управленческой административной деятельности занимают диагностические и аналитические функции, которые позволяют выявлять основные тенденции и типичные недостатки образовательной деятельности и определять меры стратегического характера для корректировки педагогического процесса.

Использованная литература:

1. Выступление Шавката Мирзиёева на торжественной церемонии вступления в должность Президента Республики Узбекистан на совместном заседании палата Олий Мажлиса от 14.12.2016 года / Режим доступа: http://president.uz/ru/news/5395/

2. Андрущенко В.П. Образовательная политика / В.П. Андрущенко, В.Л. Савельев. – М.: Леся, 2010. – С. 368.

3. Бабий И. Стратегия и современные тенденции развития высшего образования в контексте европейского пространства высшего образования / И.И. Бабий // Педагогика и психология. – 2009. – № 2. – С. 61-71.

4. Горб В.Г. Теоретические основы мониторинга образовательной деятельности / В.Г. Горб // Педагогика. – 2003. – № 5. – С. 11-14.

5. Нагаев В.М. Методические рекомендации по внедрению модульно-рейтинговой технологии учебно-творческой деятельности студентов (по дисциплинам управленческого цикла) / В.М. Нагаев. – Х.: ХНАУ имени В.В. Докучаева, 2002. – С. 73.

6. Хмель Ф.И. Основы менеджмента: учебник / Ф.И. Хмель. – М.: Академвидав, 2003. – С. 608.

7. Ismadiyarov Y.U. The specifics of the professional activity of the manager-innovator in education.// International Journal of Academic Research and Reflection, 7 (6) – 2019, 20-23 p.

8. Ismadiyarov Y.U., Nabiulina L. Informational ensuring innovative management of higher education system// 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 4-6 Nov. 2019.

Баходир СУЛТАНОВ,
заместитель председателя Республиканского совета профсоюза работников транспорта, дорожного и капитального строительства, строительной индустрии Узбекистана

ПРОФИЛАКТИКА ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ГРУПП ФАКТОРОВ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ СРЕДЫ ПОСРЕДСТВОМ ИННОВАЦИОННОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ КОЛЛЕДЖА

Annotatsiya

Ma'lumki, ishlab chiqarish faoliyati jarayonida odamga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi, bu ko'pincha uning ko'rsatkichlarining pasayishiga, turli kasalliklarning paydo bo'lishiga, o'tkir va surunkali zaharlanishga olib keladi. Amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati yangi zamonaviy iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, tadbirkorlik, samaradorlikni rivojlantirish, ishchilarning malakasini oshirish, ularni iqtisodiy va tizimli tahlil usullari bilan jihozlash, kundalik amaliyotda malakali qo'llash qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar. Xalqaro Mehnat Tashkiloti, bilim, ko'nikma, malaka, namlik, havo harorati, atmosfera bosimi, kasbiy kompetensiya, kasbiy mahorat, kasbiy ta'lim, izchillik, amaliy faoliyatni shakllantirishning zararli ta'siri.

Как известно, в процессе производственной деятельности на человека оказывает влияние множество факторов, зачастую приводящих к снижению его работоспособности, появлению различных заболеваний, острых и хронических отравлений. Важность практических занятий отражена в формировании нового современного экономического мышления, воспитания предприимчивости, деловитости, повышения компетентности работников, вооружения их методами экономического и системного анализа, умениями грамотно применять их в повседневной практике.

Ключевые слова. Международной Организации Труда, вредное влияние знания, умения, навыки, влажность, температура воздуха, атмосферное давление профессиональная компетентность, профессионализм, профессиональное образования, системность, формирование практической деятельности.

As you know, in the process of production activities, a person is influenced by many factors, often leading to a decrease in his performance, the appearance of various diseases, acute and chronic poisoning.The importance of practical training is reflected in the formation of a new modern economic thinking, fostering entrepreneurship, efficiency, increasing the competence of workers, equipping them with methods of economic and system analysis, the ability to competently apply them in everyday practice.

Key words. International Labor Organization, the harmful effects of knowledge, skills, skills, humidity, air temperature, atmospheric pressure, professional competence, professionalism, vocational education, consistency, the formation of practical activities. knowledge, abilities, skills, professional competence, professionalism, vocational education, consistency, the formation of practical activity.

Как известно, в процессе производственной деятельности на человека оказывает влияние множество факторов, зачастую приводящих к снижению его работоспособности, появлению различных заболеваний, острых и хронических отравлений. Такие неблагоприятные воздействия носят наименование вредных и опасных производственных факторов.

В соответствии с рекомендациями выделяют следующие группы факторов производственной среды, способных оказывать вредное влияние на работоспособность человека. К ним относятся:

1. Физические факторы — запыленность, шумовое, вибрационное воздействие, разного рода из-лучения, а так же климатические параметры: влажность, температура воздуха, атмосферное давление, которые могут вызывать токсическое и токсико-аллергическое влияние, нарушения в работе вестибулярного аппарата, ухудшение зрения, раздражающее воздействие, быструю утомляемость, галлюцинации и другие аномалии в организме человека в виде незаметных изменений частоты сердечных сокращений, кровяного давления и частоты дыхания.

2. Химические факторы — соединения и вещества, оказывающие главным образом токсическое, канцерогенное, мутагенное, сенсибилизирующее воздействие на организм человека, влияющие, в том числе, на репродуктивную функцию. В перечне предельно допустимых концентраций (ПДК) вредных веществ содержатся около 2,5 тысяч наименований вредных химических веществ, в том числе аэрозолей фиброгенного действия. По характеру воздействия на организм человека химически вредные и опасные факторы производства подразделяют на раздражающие, токсические, канцерогенные, мутагенные, сенсибилизирующие, влияющие на репродуктивную функцию.

Длительное воздействие химических факторов в концентрациях, превышающих ПДК, приводит к накоплению в организме человека микродоз токсических веществ и влечет за собой хронические отравления, нарушения психики и другие профессиональные заболевания. Кратковременное действие достаточно больших доз вредных химических веществ приводит к возникновению острых отравлений, нередко с летальным исходом.

3. Биологические факторы — характеризуются воздействием на человека патогенных микроорганизмов и продуктов их жизнедеятельности, биологическими пестицидами, а так же животными и растениями. Им особенно подвержены работники, занятые в кормопроизводстве, растениеводстве и животноводстве, которые постоянно находятся в контакте с биологическими вредными веществами животного и растительного происхождения (семена сорняков, растительные пыли, шерсть, пух, волосы, перья, чешуйки кожи, когтей, копыт, частицы фекалий, сырой протеин и жир, вещества, экстрагируемые эфиром и др.

4. Физиологические факторы, физические (статические и динамические) и нервно-психические перегрузки ведут к изменениям в физиологическом и психическом состояниях работников, проявляются в переутомлении, головной боли, развитии гипертонии, язвенной болезнь, вегето-сосудистой дистонии и других профессиональных заболеваний.

При определенных условиях вредные производственные факторы могут становиться опасными. Под опасным понимается производственный фактор,

воздействие которого может привести к резкому ухудшению здоровья, либо травме работающего в результате несчастного случая, сопровождающегося повреждением тканей организма человека и нарушением его функций.Для оценки рисков возникновения опасностей установлены типовые степени последствий опасностей на производстве:

угрожающая — с вероятностью гибели или нанесения травмы высокой степени тяжести; значительная — приводящая к травмам с потерей трудоспособности на срок более 90 суток, либо с возможностью нанесения травмы такой степени тяжести;

критическая – с возможностью травм средней тяжести (потеря трудоспособности от 1 до 90 суток), либо потенциалом нанесения травмы такой степени тяжести;

терпимая — случаи легких травм, когда необходима только первая помощь и возможностью потери трудоспособности в течение суток, либо потенциал нанесения травмы такой степени тяжести.Между вредными и опасными факторами прослеживается определенная взаимосвязь. В большинстве случаев проявление опасных факторов является следствием вредных факторов. К примеру, при повышенной влажности в производственном цехе (вредный фактор) может произойти поражение человека электрическим током (опасный фактор). Все вышеперечисленные факторы оказывают влияние на работоспособность и здоровье человека, и учитываются в мероприятиях по охране труда. В ходе оценки условий труда осуществляется идентификация потенциально вредных и (или) опасных производственных факторов, то есть устанавливаются совпадения реально фиксируемых на рабочих местах условий трудового процесса с факторами производственной среды и трудового процесса, предусмотренными законодательно утвержденным классификатором вредных и (или) опасных производственных факторов.

Современные экономические отношения влекут за собой изменения в характере и содержании труда специалиста. Изменяя место и роль специалиста среднего звена, они предполагают и коренное изменение его образовательного потенциала, уровень требований к профессиональной подготовке. Современному производству требуется новый тип специалиста - профессионально самостоятельного, мобильного, с высокой степенью адаптивности к изменяющимся условиях, с развитым техническим, проблемным и системным мышлением. Такой специалист становится своего рода центром технико-технических, экономических, социальных и других отношений. Ориентация во всей сложной совокупности взаимосвязей становится существенно необходимой , поскольку она определяет трудовую и социальную активность работника. Однако этого можно добиться, если предметно управлять динамикой развития и функционирования всеми компонентами педагогической системы. Педагогические системы создаются лишь там и тогда, где и когда налицо осознанная потребность общества в обучении и воспитании, в совершенствовании подготовки определенных категорий людей. Таким образом, важнейшим компонентом любой педагогической системы, обуславливающим сам факт ее создания, является педагогическая цель. Педагогическая система возникает только тогда, когда в обществе накоплена определенная информация, которая должна стать предметом усвоения теми

или иными людьми. В нашем случае опыт и теоретические положения процесса формирования методики производственной практики в профессиональном колледже должны стать достоянием работников и руководителей этих учебных заведений.

Педагогическая система может успешно функционировать только тогда, когда найдены способы достижения целей, т.е. найдены средства, формы и методы педагогического воздействия (или средства педагогической коммуникации) на данный контингент, позволяющие в отношении его реализовать цели, стоящие перед данной педагогической системой. Следовательно, наличие средств педагогической коммуникации обязательный компонент любой педагогической системы. Любая педагогическая система может возникнуть при наличии людей, испытывающих потребность в определенной подготовке, образовании, воспитании или повышении квалификации. Итак - обучаемые - обязательный компонент любой педагогической системы. Следует отметить, что педагогическая система может возникнуть лишь в том случае, если имеются педагоги, соответствующие целям системы, владеющие информацией, средствами педагогической коммуникации, вооруженные знаниями об объекте педагогического воздействия. В зависимости от целей системы, контингента учащихся, своеобразия информации состав инженерно-педагогических работников в различных педагогических системах различен. Общим является наличие педагогов как обязательного компонента любой педагогической системы. Дадим характеристику функциональных компонентов педагогической системы. Функциональные системы – это устойчивые базовые связи основных структурных компонентов, возникающие в процессе деятельности руководителей, педагогов, студентов и тем самым обуславливающие движение, развитие, совершенствование педагогических систем.

Использованная литература:

1. Управление развитием школы / под ред. М.М. Поташкина, В.С. Лазарева. – М.: Новая школа., 1995.

2. Уткин Э.А., Кочеткова А.И., Управление персоналом в малом и среднем бизнесе. – М.: Акалис.

3. Поршнев А.Г., Ефремов В.С. Менеджер 21-го века: кто он? – // Менеджмент в России и зарубежом, –1998. – № 4. – С. 10-12.

Bosh muharrir:
Maxmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b:
Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay’ati:
Sherzod SHERMATOV, Risboy JO‘RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO‘MINOVA, Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV, Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV, Yashin ISMANDIYAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV, Alisher UMAROV.

Jamoatchilik kengashi:
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV, Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul:
Lutfiya Suyarova Muxiddinovna
© “Xalq ta’limi” jurnali, 2021.